


# **Analitik, fizkolloid va biologik kimyodan laboratoriya mashg‘ulotlari**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

---

---

# Analitik, fizkolloid va biologik kimyodan laboratoriya mashg'ulotlari

*O'quv qo'llanma*

**Bilim sohasi:**

- 100000 – Gumanitar
- 400000 – Qishloq va suv xo'jaligi

**Ta'lif sohasi:**

- 110000 – Pedagogika
- 410000 – Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- 440000 – Veterinariya

**Ta'lif yo'nalishi:**

- 5440100 – Veterinariya
- 5111000 – Kasb ta'limi (5440100 – Veterinariya)
- 5410600 – Zootexniya (tarmoqlari bo'yicha)
- 5111006 – Kasb ta'limi (5410600 – Zootexniya (tarmoqlari bo'yicha))

*Cho'lpox nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2018*

UDK 543/544(076.5)

BBK 24.239ya7

A 63

*Analitik, fizkolloid va biologik kimyo fanidan laboratoriya mashg'ulotlari uchun o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2018-yil 27-martdagi 274-sonli buyrug'iiga asosan nashr etishga ruxsat etildi.*

**Mualiflar:**

**Z. Aminov, S. Musayeva,  
X. Mamadiyarova, G. Xodjayarova**

**Mas'ul muharrir:**

**Sh.A. Rahimova**

**Taqribchilar:**

**M. Safin — b.f.n., dots.  
A.X. Yusupov — k.f.n., dots.**

**Aminov, Z.**

**A 63** Analitik, fizkolloid va biologik kimyodan laboratoriya mashg'ulotlari [Matn] o'quv qo'llanma/Z. Aminov va boshq. Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi. — T.: Cho'lpon nomidagi NMIU. 2018 — 300 b.

ISBN 978-9943-5379-6-5

Ushbu o'quv qo'llanmada analitik, fizkolloid, bioorganik va biologik kimyoning boblaridagi mavzulardan laboratoriya ishlari berilgan. Har bir laboratoriya ishi qisqacha nazariy qism, tajriba uchun zarur bo'lgan jihozlar va reaktivlar ro'yxati, tajribalarni bajarish tartibi, mustaqil ta'lif uchun savollar va mashqlardan iborat. Laboratoriya mashg'ulotlari mavzularini tanlashda ularning mutaxassisliklar xususiyatlariga bog'liqligiga alohida e'tibor qaratilgan.

O'quv qo'llanma qishloq xo'jaligi institutlarida tahsil olayotgan veterinariya, zootexniya, kasb ta'limi yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan.

UDK 543/544(076.5)  
BBK 21.239ya7

237004

© Z. Aminov va boshq., 2018

© Cho'lpon nomidagi NMIU, 2018

ISBN 978-9943-5379-6-5

## KIRISH

Buyuk kimyogar olim D.I. Mendeleev kimyodan o'tkaziladigan tajribalar haqida quyidagi fikrlarni aytgan: «Bu fanni o'rganishdagi mohirlik, tabiatga savol bilan murojaat qilish va uning javobini laboratoriya tajribalari va kitoblardagi nazariy tushunchalar hamkorligida eshita olish san'atidir». Laboratoriya mashg'ulotlarida kimyoviy tajribalarni bajarish, kimyo fanini muvaffaqiyatli o'rganishning eng zaruriy shartlaridan biridir. Ana shu maqsad yo'lida kimyoviy qonuniyatlarni chuqur o'rganish veterinariya amaliyotida qo'llaniladigan eng muhim oddiy va murakkab moddalarning xossalari bilan kimyoviy tajribalar vositasida tanishish orqali talabalar ongida nazariy o'quv materiallarini mustahkamlash vazifasini qo'yadi.

Ushbu o'quv qo'llanma qishloq xo'jaligi institutlarida tahsil olayotgan veterinariya (5440100), zootexniya (5410600), kasb ta'limi (5111000 veterinariya, 5111000 zootexniya) yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, u «Analitik, fizikolloid va biologik kimyo fanining namunaviy o'quv dasturi» usosida tuzildi. Unda analitik, fizkolloid, bioorganik va biologik kimyoning boblaridagi mavzularidan laboratoriya ishlari tanlandi. Harr bir laboratoriya ishi qisqacha nazariy qism, tajriba uchun zarur bo'lgan jihozlar va reaktivlar ro'yxati, tajribalarni bajarish tartibi, mustaqil ta'lim uchun savollar va mashqlardan iborat. Laboratoriya mashg'ulotlari mavzularini tanlashda, ularning mutaxassisliklar xususiyatlariga bog'liqligiga alohida e'tibor qaratildi.

Mazkur o'quv qo'llanmani tuzishdan asosiy maqsad qishloq xo'jalik institutlarida tahsil olayotgan talabalarni o'quv uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlashdan va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan yetuk mutaxassislar tayyorlash ishiga hissa qo'shishdan iborat.

# I. ANALITIK KIMYODAN LABORATORIYA ISHLARI

## ♦ Laboratotiya ishi № 1.1

### **Kimyo laboratoriyalarda ishlash xavfsizligi qoidalari bilan tanishish**

**Kerakli asboblar:** stakanlar: 100 ml, 150 ml, 250 ml, 500 ml, voronka, shtativ, qisqich, gaz gorelkasi, filtr qog'ozlar, probirkalar, termometr, barometr, Kipp apparati, kolbalar, shpatel, tigellar, eksikator, tarozi (toshlari bilan), havonchalar, chinni kosachalar, shisha tayoqchalar, byuretkalar va h.k.

#### **Ish o'rnini jihozlash:**

Har bir talabaning e'tiborsizlik qilishi, asboblar bilan yaqindan tanish bo'lmasligi, kislota va ishqorlarning xossalarni hamda xavfsizlik texnikasi qoidalarni yaxshi bilmaligi ko'ngilsiz hodisalarga sabab bo'lishini uqib olish zarur. Shuning uchun mashg'ulotning birinchi kunidanoq har qaysi talaba xavfsizlik texnikasi qoidalari bilan tanishib chiqishi va unga qat'iy rioya qilishi kerak. Amaliy mashg'ulot bajariladigan asosiy joy ish stolidir. Ish stoli doim toza bo'lishi kerak. Faqat qunt bilan to'g'ri ishlagandagina ish muvaffaqiyatlari chiqadi, ishga diqqatsizlik bilan qarash esa bajariladigan ish natijalarining xato chiqishiga sabab bo'ladi.

Ishlayotganda shoshmaslik, reaktivlarni to'kmaslik va sachratmaslik lozim. Agar ish vaqtida konsentrflangan kislota yoki ishqor eritmalari to'kilsa, laborantga aytish kerak. Kislotalar yoki ishqorlar to'kilgan joyni ehtiyyot bo'lib tezda artish va suv bilan yuvish, so'ngra kislota to'kilgan joyni soda eritmasi bilan, ishqor to'kilgan joyni esa sirkalari kislotaning 5% li eritmasi bilan neytrallash kerak.

Reaktiv solingen probirkalarni bir shtativdan ikkinchi shtativga o'tkazmang va probirkalardagi pipetkalarni bir probirkadan olib ikkinchisiga solmang, chunki bunda ham ish tartibi buziladi, reaktivlar ifloslanadi.

Umumiy foydalanish uchun qo'yilgan reaktiv va asboblarni turgan joyidan o'z stolingizga olib bormang.

Shisha sinig'i, qog'oz, gugurt cho'pi, ishlatalgan metallarni va shunga o'xhash narsalarni rakovinaga tashlamasdan, uning tagiga qo'yilgan maxsus idishga (xumchaga) tashlang. Shuningdek, ishlatalgan eritma va cho'kmalarni ham stol ustiga qo'yilgan maxsus idishga qo'ying.

Tajribani to'g'ri bajarish uchun reaktivlarni ko'rsatilgan miqdorda olish lozim. Distillangan suv, spirt (spirt lampadagi), gaz va elektr energiyani tejab sarflash kerak.

Metallarni tejash uchun reaksiyaga kirishmay qolgan metall bo'lakchalarini suv bilan yuvib, maxsus qo'yilgan idishga yig'ish kerak. Tartib va ozodalikni ish joyidagina emas, balki laboratoriya da ham saqlash lozim.


### ❖ Kimyoviy idishlar

Shisha idishlarga qo'yiladigan asosiy talab ularning kimyoviy va termik barqarorligidir. Kimyoviy barqarorlik – shishaning ishqor, kislota va boshqa moddalarning eritmalarini parchalash ta'siriga qarshi tura olish xossasidir. Termik barqarorlik – idishning temperaturaning tez o'zgarishiga chidamliligidir.

Eng yaxshi shisha pireks hisoblanadi. U kimyoviy va termik barqarorlikka ega, uning kengayish koefitsiyenti kichik. Pireks shishasida 80% kremniy (IV) oksidi bor. Uning suyuqlanish temperaturasi  $+620^{\circ}\text{C}$ . Bundan yuqori temperaturalarda tajriba olib borish uchun kvars shishasidan yasalgan idishlardan foydalaniladi. Kvars shisha tarkibida 99,95% kremniy (IV) oksid bo'lib  $+1650^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanadi.

Laboratoriya idishlari, asosan, TU (termik barqaror), XU-1 va XU-2 (kimyoviy barqaror) markali shishalardan tayyorланади. Oddiy va kalibrovka qilingan probirkalar (*1-rasm*) oz miqdordagi reaktivlar bilan ishlashda qo'llaniladi. Reaktivning egallagan hajmi probirka hajmining yarmidan ortmasligi kerak.

Laboratoriya stakanlari (*1-rasm*) turli o'lchamlarda chiqariladi (burunli yoki burunsiz, oddiy yoki o'lchamli belgilari bilan). Stakanlar turli laboratoriya ishlarini bajarishga mo'ljallangan.



**1-rasm. Probirkalar:** a – oddiy; b – kalibrovka qilingan.

**Kimyoiy stakanlar:**

a – burunchali; b – burunchasiz; c – kalibrovka qilingan.


Laboratoriya amaliyotlarida turli o'Icham va shakldagi kolbalar keng qo'llaniladi (tubi yassi, tubi dumaloq va konussimon) (**2-rasm**).



**2-rasm. Kolbalar:**

a – tagi yassi; b – tagi dumaloq; c – konussimon.

Vyurs kolbasi  $60-80^\circ$  burchiakda egilgan shisha naychali tubi dumaloq kolba (**3-rasm**). Undan gaz olishda, atmosfera bosimida suyuqliklarni haydashda foydalaniladi. Dumaloq tubli kolbalar har xil: keng va tor bo'g'izli, uzun va kalta bo'g'izli, bir, ikki, uch va to'rt bo'g'izli bo'ladi. Nay chiqarilgan, deflegmator o'rnatilgan, nasadka o'rnatilgan, dumaloq tubli kolbalar haydashning turli hollarida ishlataladi. ml



**3-rasm. Haydash kolbalari:**

a – Vyurs kolbalari; b – Klyayzen kolbalari; c – Favorskiy kolbasi.

**Voronkalar (4-rasm).** Kimyoviy voronkalar suyuqliklarni filtrlashda, bir idishdan ikkinchi idishga quyishda ishlataladi. Suyuqliklarni reaksiyon aralashmaga oz-oz miqdorda qo'shish uchun uzun nayi bor har xil shakldagi tomizgich voronkalar ishlataladi. Ajratgich voronkalar qalin shishadan tayyorlanadi. Ularning suyuqlik quyladigan naychasi tomizgich voronkaning nayiga nisbatan qisqaroq bo'ladi. Bu voronkalar aralashmaydigan suyuqliklarni bir-biridan ajratishda, moddalarni ekstraksiya qilishda ishlataladi.




**4-rasm. Voronkalar:**

*a – kamyoviy; b – tomizgich; c – ajratkich.*

**Deflegmatorlar (5-rasm)** suyuqliklar aralashmasini haydash, ya'ni ikki suyuqliknin bir-biridan to'la ajratish uchun ishlataladi. Deflegmator ichidagi nay sirti har xil usullar bilan kengaytiriladi. Sirtni kengaytirish naydag'i konussimon egiklar hisobiga amalg'a oshiriladi. Egiklar shunday joylashganki, deflegmatorlar ichida xuddi spiral joylashganga o'xshaydi. Natijada modda bug'larining o'tish yo'li uzayadi. Deflegmatorlar sifatida shisha munchoq yoki shisha halqachalar to'ldirilgan shisha kolonkadan foydalanish mumkin.


Organik reaksiyalar qizdirilganda, ko'pincha reagentlar qaynatilganda boradi. Shuning uchun aralashmadagi komponentlar bug'lanib chiqib ketmaslig'i uchun reaksiyon aralashma solingan idishga qaytarma sovutkich ulanadi. Laboratoriya praktikasida shisha sovutkich ishlataladi. Bug' kondensasiyalanib, reaksiyon aralashmaga qaytib tushishi uchun sovutkich idishga qaytarma qilib ulanadi. Oddiy qaytarma sovutkich havo sovutkichi bo'lib,



**5-rasm. Deflegmatorlar:**

*a – sharikli; b – archasimon; c – nasadkali.*

u oddiy uzun shisha naydan yasaladi. Bunday sovutkich qaynash temperaturasi  $150^{\circ}\text{C}$  dan yuqori bo‘lgan moddalar bug‘ini suyuqlikka aylantirish uchun ishlataladi (**6-rasm**).



**6-rasm. Sovutkichlar:**

*a – havo sovutkichi; b – Libix sovutkichi; c – sharikli sovutkichi;  
d – ichki nayi spiral shakldagi sovutkichi; e – Dimrot sovutkichi.*

#### ❖ Ishni bajarish tartibi

Har bir amaliy mashg‘ulotni bajarishdan oldin, talabalar oldingi ish yuzasidan hisobot tuzib, o‘qituvchiga ko‘rsatganlaridan keyingina navbatdagi laboratoriya ishini bajarishlariga ruxsat etiladi.

Yangi ishni boshlashdan avval o‘qituvchi bir nechta talabadan shu ishning mazmunini qanchalik bilib olganliklarini tekshirib ko‘rishi lozim. O‘qituvchi talabalar nazariy materialni o‘zlashtirib, eksperiment texnikasini tushunib olganliklariga ishonch hosil qilganidan keyingina ishni boshlash uchun ruxsat etadi. Talabalar

tayyorlagan asboblari va sxemalari to‘g‘riligini o‘qituvchi yoki katta laborant tekshirib ko‘rib ruxsat etgandan keyingina tajriba o‘tkazishga kirishadi.

Tajribaning borishini diqqat bilan kuzating va uning o‘ziga xos barcha xususiyatlarni tajriba tamom bo‘lishi bilan ish daftariga yozib qo‘ying. Ish tamom bo‘lganidan keyin talaba o‘z ish o‘rnini tartibga keltirishi lozim. Ish daftariga ish bajarilgan kun, mavzuning nomi, ishning mazmuni, kuzatish natijalari, reaksiya tenglamalari, hisoblar va xulosalar yozib qo‘yiladi.

#### ♦ **Laboratoriya mashg‘ulotlarida xavfsizlik texnikasi qoidalari**

Kimyo laboratoriylarida ishlataladigan moddalarning ko‘p-chiliqi ozmi-ko‘pmi sog‘liqqa ta’sir qiladi. Shuning uchun laboratoriya ishlashda quyidagi xavfsizlik texnikasi qoidalariга rioya qilish shart.

1. Konsentrangan kislotalar, xlor, yod, vodorod sulfid va boshqa moddalar bilan o‘tkaziladigan tajribalar mo‘rili shkafda bajariladi.

2. Xlor, brom, vodorod sulfid va uglerod (II) oksid bilan zaharlanganda, avvalo, zaharlangan kishini ochiq havoga olib chiqish, so‘ngra tegishli yordam ko‘rsatish kerak.

3. Kuchli kislotalar, ayniqsa, konsentrangan sulfat kislotani suyultirishda suvni kislotaga emas, balki kislotani suvgaga tomchilatib quyiladi.

4. Ko‘zga yoki tanaga biror kimyoviy reaktiv sachrasa, zaharlangan joyni avval suv bilan yaxshilab yuvib, so‘ngra vrachga imurojaat qilish lozim.

5. Vodorod va boshqa gazlarni yoqishdan avval ularning tozaligini sinab ko‘rish shart.

6. Laboratoriya ishi tugagach, qo‘lni yaxshilab yuvish lozim.

7. Reaktivlarni bir idishdan ikkinchi idishga quyishda idish ustiga engashmaslik kerak.

8. Simob va uning bug‘i – kuchli zahar. Shuning uchun simobli asbob yoki termometr singanda to‘kilgan simobni yig‘ib olish va bu haqda, albatta, o‘qituvchiga yoki katta laborantga aytish kerak.

9. Kislota, ishqor va ammiakning konsentrangan eritmalarini hamda oson bug'lanuvchi suyuqliklarni pipetkaga og'iz bilan so'rib tortib olish yaramaydi. Buning uchun rezina grusha (nok)dan foydalanish kerak.

10. Kislota, ishqor va foydalanilgan xromli aralashmani rakovinaga to'kish aslo mumkin emas.

11. Kimyoviy moddalar mazasini o'qituvchining ruxsatisiz tatib ko'rish qat'yan man etiladi.

12. Kumushning ammiakli tuzi eritmasini uzoq vaqt saqlash yaramaydi, chunki vaqt o'tishi natijasida undan portlovchi modda kumush qaldirog'i hosil bo'lishi mumkin.

13. Oson o't oladigan suyuqliklarni ochiq alanganda qizdirish yoki unga yaqin keltirish yaramaydi. Bunday moddalar bilan qilinadigan tajribalarni alangadan uzoqroqda, imkonni bo'lsa, mo'ri ni shkafda o'tkazing.

14. Benzin, spirit, efir o't olib ketsa, alanga ustiga qum sepib yoki maxsus vositalar bilan o'chirish lozim, ammo hech vaqt suv sepmaning.

15. Elektr asboblarning kontaktlariga e'tibor bering, ular yaxshi izolyatsiyalangan bo'lishi kerak.

16. Isitish vositalari — mufel, elektr plita va shunga o'xshashlarni o'tga chidamli materialdan yasalgan tagliklar ustiga qo'yish kerak. Ishlab turgan asboblarni aslo nazoratsiz qoldirmang.


17. Probirkaga biror moddani solib qizdirayotganingizda uning og'zini o'zingizga yoki yoningizda turgan odamga qaratib tutmang.

18. Laboratoriyanidan ketayotganingizda gaz gorelkalari va vodoprovod jo'mraklari berkligini hamda elektr asboblarining o'chirilganligini, albatta, tekshirib ko'ring.

#### ♦ Laboratoriya ishi № 1.2


#### Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari

Reaksiya vaqtida elektronlarning bir atomdan (iondan) boshqasiga o'tishi natijasida reaksiyaga kirishuvchi moddalar tarkibidagi elementlarning oksidlanish darajasini o'zgarishi bilan boradigan reaksiyalarga oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari deyiladi.





Bu reaksiyada temir atomi ikkita elektron bergani uchun temirning oksidlanish darajasi 0 dan +2 gacha ortadi. Oltingugurt atomi esa ikkita elektron biriktirib olgani uchun uning oksidlanish darajasi 0 dan 2 gacha kamayadi.

Elektronlar berish jarayoni oksidlanish, aksincha, elektronlarni biriktirib olish jarayoni qaytarilish deb ataladi. Bu ikkala jarayon sistemada doimo bir vaqtida amalga oshadi va oksidlanish jarayonida berilgan elektronlar soni bilan qaytarilish jarayonida biriktirib olingan elektronlar soni o'zaro teng bo'ladi.




Bunda har bir fosfor atomi uchtadan elektronlar beradi, har bir xlor atomi esa bittadan elektron biriktirib oladi. Shuning uchun oksidlanish va qaytarilish jarayonlarining elektron tenglamalari quyidagicha yoziladi:






Shunga ko'ra, P ning oldiga 2 va Cl ning oldiga 3 qo'yiladi. Oksidlangan element atomi qaytaruvchi, qaytarilgani esa oksidlovchi bo'ladi. Oksidlanish jarayonida elementlarning oksidlanish darajasi ortadi, qaytarilish jarayonida esa kamayadi:

Oksidlanish jarayoni




Qaytarilish jarayoni



Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining tenglamalari elektronlar balansi usuli yoki ion-elektron (yarim reaksiya) usuli bilan tenglashtiriladi.


**1. Elektron balans usuli.** Bu usul oksidlovchi biriktirib oladigan elektronlar soni qaytaruvchi beradigan elektronlar soniga teng bo'lishi kerak degan qoidaga asoslangan.



Reaksiyadan oldin va reaksiyadan keyin oksidlanish darajasi o'zgargan elementlarning oksidlanish darajasini topib, har qaysi element belgisi ustiga yozib qo'yamiz:



Oksidlovchi bilan qaytaruvchini aniqlab, yuqoridagi qoidaga asosan, reaksiyaning elektronlar balans tenglamasini tuzamiz:






Elektronlar balansi tenglamasi orqali topilgan eng kichik ko'paytuvchi sonlarni oksidlovchi bilan qaytaruvchi moddalar oldiga koeffisiyentlar qilib qo'yib, tenglamani tenglashtiramiz:






**Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining eritma muhitiga bog'liq holda amalga oshishi.** Biror qaytaruvchi moddaga, masalan, kaliy nitrit  $\text{KNO}_2$  ning neytral, ishqoriy va kislotali muhitga ega bo'lgan uch xil sharoitdag'i eritmasiga  $\text{KMnO}_4$  eritmasi ta'sir ettirilsa,  $\text{KMnO}_4$  ning qaytarilishidan hosil bo'lgan reaksiya mahsulotlari turlicha bo'ladi.


### Neytral muhitda:



### Ishqoriy muhitda:






## Kislotali muhitda:



Boshqa turdagи reaksiyalar kabi oksidlanish-qaytarilish reaksiyalar ham ekvivalentlar qonuniga bo'ysunadi. Oksidlanish-qaytarilish jarayoni oksidlovchi moddaning ekvivalentiga **oksidlanish ekvivalenti**, qaytaruvchi moddaning ekvivalentiga **qaytaruvchanlik ekvivalenti** deyiladi.

Oksidlanish yoki qaytarilish ekvivalenti reaksiya jarayonida oksidlovchi biriktirib oladigan yoki qaytaruvchi beradigan elektronlar soniga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun oksidlanish yoki qaytarilish ekvivalenti oksidlovchining yoki qaytaruvchining nisbiy molekular massasini ayni reaksiyada 1 mol oksidlovchi biriktirib oladigan yoki 1 mol qaytaruvchi beradigan elektronlar soniga bo'-lish orqali topiladi.

Masalan:



$$E_{HI} = Mr(HI)/6 = 128:6 = 21,3.$$

### ❖ Tajribalarning bajarilishi

#### *Kerakli reaktivlar va asboblar:*

a) probirkalar, cho'p, gaz gorelkasi, asbestlangan to'r, shtativlar, KI, xlorli suv, distillangan suv, KMnO<sub>4</sub>, Na<sub>2</sub>SO<sub>3</sub>, H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> (0,1N eritmalari), NaOH (to'yigan eritmasi) K<sub>2</sub>Cr<sub>2</sub>O<sub>7</sub> (0,1N eritmasi) KNO<sub>2</sub> (0,5N eritmasi), (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>Cr<sub>2</sub>O<sub>7</sub> tuzi, 3% li H<sub>2</sub>O<sub>2</sub> eritmasi, MnO<sub>2</sub> kristallari, H<sub>2</sub>S eritmasi.

### **1-tajriba. Galogenlarning oksidlovchilik xossalari.**

a) Probirkaga 2–3 ml 0,25N KI eritmasidan quying va unga 2–3 ml xlорli suv ( $\text{Cl}_2 + \text{H}_2\text{O}$ ) qo'shing. Eritma rangining o'zgarishini kuzating va sababini tushuntiring. Reaksiya tenglamasini yozing va oksidlovchi bilan qaytaruvchilarni ko'rsating.

b) Probirkaga 2–3 ml 0,25N KI eritmasidan quying va unga to eritma rangi o'zgarguncha tomchilatib vodorod sulfidli suv qo'shing. Reaksiya natijasida oltingugurt loyqasi hosil bo'lishini kuzating. Reaksiya tenglamasini yozing va oksidlovchi bilan qaytaruvchilarni ko'rsating.

### **2-tajriba. Oksidlanish-qaytarilish jarayoniga muhitning ta'siri.**

Uchta probirkaga 2–3 ml dan 0,1N  $\text{KMnO}_4$  va 0,1N  $\text{Na}_2\text{SO}_3$ , eritmalaridan quying. Probirkalardan biriga 2–3 ml 2N  $\text{H}_2\text{SO}_4$ , ikkinchisiga 2–3 ml distillangan suv, uchinchisiga esa 2–3 ml ishqorning to'yingan eritmasidan qo'shing va probirkalardagi eritmalarни chayqatib aralashtiring. Kislotali, neytral va ishqoriy muhitlarda probirkalardagi eritmalar rangining o'zgarishini kuzating va har qaysi muhitdagi eritma uchun tegishli reaksiya tenglamalarni tuzing. Oksidlovchi bilan qaytaruvchini ko'rsating.

Qaysi muhitda  $\text{KMnO}_4$ ning oksidlanish xossasi kuchliroq namoyon bo'ladi.

### **3-tajriba. Kaliy nitrit ( $\text{KNO}_2$ ) ning qaytaruvchi va oksidlovchi xossalari.**

a) Probirkaga 1–2 ml 0,5N  $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$  eritmasidan quying va uning ustiga 2–3 ml  $\text{H}_2\text{SO}_4$  bilan 2–3 ml 0,5N  $\text{KNO}_2$  eritmalaridan qo'shing. Probirkani sekin qizdiring va eritma rangining o'zgarishini kuzating.

To'q sariq rangli  $\text{Cr}^{6+}$  ionining ko'k yashil tusli  $\text{Cr}^{3+}$  ioniga aylanishini e'tiborga olib, reaksiyaning molekular va ion-elektron tenglamalarini tuzing. Tenglamani tenglashtiring va oksidlovchi bilan qaytaruvchilarni ko'rsating.

b) Probirkaga 1–2 ml  $\text{KNO}_2$  eritmasidan quying va uning ustiga 2–3 ml  $\text{H}_2\text{SO}_4$  bilan 2–3 ml KI eritmalaridan qo'shing. Probirkadagi eritma rangining qizil qo'ng'ir tusga aylanishi, unda  $\text{I}_2$  molekulalari hosil bo'lishini bildiradi. Probirkaning orqasiga bir varaq oq qog'oz qo'yib, eritmadan ajralayotgan gaz rangining


probirkadan chiqish oldida o‘zgarishini ko‘ring. Bu qanday gaz? Reaksiya tenglamasini yozing va uni tenglashtiring. Bu reaksiyada  $\text{KNO}_2$  oksidlovchimi yoki qaytaruvchimi?

**4-tajriba. Molekulalar ichida sodir bo‘ladigan oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari.** Asbestlangan to‘r ustiga  $(\text{NH}_4)_2\text{Cr}_2\text{O}_7$  tuzi kristalidan 1–2 gr qo‘yib, uni to reaksiya boshlanguncha qizdiring. Reaksiya natijasida xrom (III) oksid, azot va suv bug‘lari hosil bo‘lishini nazarda tutib, reaksiya tenglamasini yozing. Oksidlovchi bilan qaytaruvchilarni ko‘rsating.

**5-tajriba. O‘z-o‘zidan oksidlanish va qaytarilish reaksiyasi.** Probirkaga 2–3 ml 3% li  $\text{H}_2\text{O}_2$  eritmasidan quying va unga katalizator sifatida  $\text{MnO}_2$  kristallaridan ozgina soling. Probirkaga tezlik bilan cho‘g‘langan cho‘pni tushiring, nima kuzatiladi?

Vodorod peroksidning katalizator ishtirokida parchalanish reaksiyasi tenglamasini yozing. Nima uchun bu reaksiya o‘z-o‘zidan oksidlanish va qaytarilish reaksiyasi deyiladi?

*Ilavodagi gazsimon azot oksidlar va sulfatlar mayda tomchilar shaklida nitrat kislotaga aylanadi. Zavodlar, avtomobillar va boshqa yonishdan hosil bo‘lgan mahsulotlar atmosferaga tarqaladi va ular quyidagi tenglamada ko‘rsatilgandek nitrat angidridi va sulfat angidridi suv bilan reaksiyaga kirishib, nitrat kislotasi va sulfat kislotani hosil qiladi.*



*Ushbu oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari tabiatda tabiiy holda sodir bo‘ladi.*

❖ Mustaqil ta’lim uchun savol va mashqlar:




1. Quyidagi o‘zgarishlarning qaysi birida oksidlanish va qaysi birida qaytarilish jarayonlari sodir bo‘ladi:

- a)  $\text{Br}^0 \rightarrow 2\text{Br}^{-1}$ ;      b)  $\text{Mg}^0 \rightarrow \text{Mg}^{+2}$ ;      c)  $\text{Mn}^{+7} \rightarrow \text{Mn}^{+2}$ ;
- d)  $\text{Cr}^{+3} \rightarrow \text{Cr}^{+6}$ ;      e)  $\text{O}^0_2 \rightarrow 2\text{O}^{-2}$ ;      f)  $\text{O}^{2-} \rightarrow \text{O}^0_2$ ;
- g)  $\text{Sn}^{+4} \rightarrow \text{Sn}^{+2}$ ;      h)  $\text{Al}^0 \rightarrow \text{Al}^{+3}$ .



2. Quyidagi neytral atom va ionlarning qaysilari oksidlovchi, qaysilari qaytaruvchi, qaysilari ham oksidlovchi, ham qaytaruvchi bo‘ladi?

- a)  $H^0$ ,  $Na^0$ ,  $Al^0$ ,  $S^0$ ,  $Cr^0$ ;      b)  $S^0$ ,  $S^{-2}$ ,  $S^{+4}$ ,  $S^{+6}$ ;  
 c)  $N_2^0$ ,  $N^{+3}$ ,  $N^{+5}$ ,  $N^{-3}$ ;  
 d)  $Mn^0$ ,  $Mn^{2+}$ ,  $Mn^{4+}$ ,  $Mn^{+6}$ ,  $Mn^{+7}$ ;  
 e)  $Fe^0$ ,  $Fe^{+3}$ ,  $Ag^+$ ,  $Cu^+$ .

3. Quyidagi moddalardan qaysilari faqat oksidlovchi, qaysilari faqat qaytaruvchi ekanligini ko'rsating:







4. Quyida keltirilgan reaksiyalardan qaysilari oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga kiradi:



Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida qaysi modda oksidlovchi va qaysi modda qaytaruvchi ekanligini ko'rsating.

5. Quyidagi sxemalar bilan boradigan reaksiyalarning tenglamalari koefitsiyentlar tanlang hamda oksidlovchi va qaytaruvchilarni ko'rsating.



### ♦ Laboratoriya ishi № 1.3

#### Eritmalar va ular konsentratsiyasini ifodalash usullari

**Kerakli asboblar va reaktivlar:** kolbalar: 100 ml, 200 ml, 500 ml, 100 ml,  $K_2SO_3$  tuzi,  $H_2SO_4$  (suyultirilgan),  $KCl$  tuzi, fiksanallar:  $HCl$ ,  $NaOH$ .

#### ❖ Eritmalar tayyorlash usullari

**Ikki va undan ko'p komponentdan tashkil topgan gomogen (bir jinsli) sistemaga eritma deyiladi.**

Har qanday eritma erigan modda va erituvchidan hosil bo'ladi.

Eritmada erigan modda miqdori ko'p bo'lsa, konsentrangan, erigan modda miqdori kam bo'lsa, suyultirilgan eritmalar deyiladi.

Eritmalar konsentratsiyasi bir necha usullarda ifodalanadi. Masalan:

1) Foizli konsentratsiya.

2) Molyar konsentratsiya.

3) Normal (yoki ekvivalent) konsentratsiya.

Bu usullarni batafsil o'rganamiz.

**1. Foizli konsentratsiya.** 100 gr eritmada erigan moddaning grammilar sonini ko'rsatadi:

$$C\% = \frac{m_1 \cdot 100\%}{m_1 + m_2}.$$

Bunda:  $m_1$  – erigan modda massasi  $m_2$  – erituvchining massasi.

Agar eritmaning massasi uning zichligi ( $\rho$ ) va hajmi (V) orqali ifodalansa:

$$m_1 + m_2 = \rho \cdot V \text{ bo'lgani uchun:}$$

$$C\% = \frac{m_1 \cdot 100\%}{\rho \cdot V} / \rho \cdot V \text{ bo'ladi.}$$

*I-misol.* 2 l suvda 80 gr modda erigan. Shu eritmaning foizli konsentratsiyasini hisoblang.

*Yechish:*

1) Eritmaning umumiy massasi:

$$m_1 + m_2 = 2000 + 80 = 2080 \text{ gr.}$$

2) Eritmaning % konsentratsiyasi 2080 gr eritmada 80 gr modda erigan bo'lsa,

$$100 \text{ gr} = x;$$

$$x = 100 \cdot 80 / 2080 = 3,846\%.$$

Bu masalani biz to'g'ridan-to'g'ri formulaga qo'yib yechishimiz ham mumkin:

$$C\% = 80 \cdot 100 / (80 + 2000) \cdot 100 = 3,846\%.$$

Molyar konsentratsiya: 1 l (1000 ml) eritmada saqlanuvchi erigan moddaning mollari sonini ko'rsatadi va (CM) harfi bilan belgilanadi. Molyar konsentratsiya quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$CM = m^1 / M \cdot V.$$

$V$  – hajm faqat litr hisobida;

$m_1$  – erigan modda massasi;

$M$  – erigan moddaning molekular massasi;

*1-misol.*  $K_2CO_3$  ning 1 l 1 M va 1 l 0,1 M eritmalarini tayyorlang.

*Yechish:* Buning uchun  $K_2CO_3$  ning molekular massasini topamiz:

$$K_2CO_3 \text{ M} = 39 \cdot 2 + 12 + 16 \cdot 3 = 138 \text{ gr.}$$

Demak,  $M_{K_2CO_3} = 138 \text{ gr.}$

1) 1 l 1 M eritma tayyorlash uchun 138 gr  $K_2CO_3$  tuzidan kerak bo‘ladi,

2) 1 l 0,1 M eritma uchun esa:

$$1 l 1 M \text{ 138 gr kerak}$$

$$1 l 0,1 M - x \text{ gr.}$$

$$x = 1 l 0,1 M \cdot 138 / 1 l \cdot 1 M = 13,8 \text{ gr } K_2CO_3 \text{ tuzidan kerak ekan.}$$

*2-misol.* 500 ml eritmada 20 gr  $KCl$  tuzi erigan. Shu eritmaning molyarligi topilsin.

*Yechish:*  $KCl \text{ M} = 39 + 35,5 = 74,5 \text{ gr}$

$$500 \text{ ml eritmada } 20 \text{ gr } KCl \text{ bo'lsa,}$$

$$1000 \text{ ml} - X \text{ gr } KCl \text{ bo'ladi.}$$

$$X = 1000 \cdot 20 \text{ gr} / 500 \text{ gr} = 40 \text{ gr}$$

Endi eritmaning molyarligini hisoblaymiz:

$$74,5 \text{ gr } KCl - 1 \text{ M}$$

$$40 \text{ gr} - x \text{ M}$$

$$x = 40 \text{ gr} \cdot 1 \text{ M} / 74,5 \text{ gr} = 0,537 \text{ M}$$

Yoki formulaga qo‘ysak:

$$C_M = \frac{40}{74,5 \cdot 1} = 0,537 \text{ M}$$

**Normal konsentratsiya:** u 1 litr eritmada saqlanuvchi erigan moddaning ekvivalent massalari sonini ko‘rsatadi va ( $C_N$ ) harfi bilan belgilanadi. Normal konsentratsiya quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$C_N = \frac{m}{E \cdot V}.$$

*m*<sub>1</sub> – erigan moddaning massasi;

*E* – erigan moddaning ekvivalent massasi;

*V* – litr hisobidagi hajm;

*I-misol.*

350 ml 0,1N eritma tayyorlash uchun zichligi 1,307 gr/ml

40% li H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> kislota eritmasidan qancha olish kerak?

*Yechish:*

$$E_{H_2SO_4} = 98/2 = 49 \text{ gr}$$

$$0,1 \text{ gr/ekv. } H_2SO_4 = 49 \cdot 0,1 = 4,9 \text{ gr}$$

Shunga ko'ra:

1000 ml eritmada 4,9 gr H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> bo'ladi,

350 ml eritmada esa – x gr.

$$x = 350 \cdot 4,9/1000 = 1,715 \text{ gr.}$$

Eritma 40% li bo'lgani uchun

100 gr Eritmada 40 gr H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> bor.

$$x \text{ gr} = 1,715 \text{ gr;}$$

$$x = 100 \cdot 1,715/40 = 4,2875 \text{ gr;}$$

$$V = 4,2875/1,307 = 3,28 \text{ ml.}$$

40 % H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritmasini olish kerak.

**Titr.** Analitik kimyoda – eritmalarning konsentratsiyasi ko'pincha titr bilan ifodalanadi.

1 ml eritmadi erigan moddaning grammalar hisobidagi massasi titr deyiladi va T harfi bilan ifodalanadi:

Eritmaning normal konsentratsiyasi bilan uning titri o'rtaida quyidagi bog'lanish bor:

$$T = \frac{E \cdot N}{1000}.$$

Masalan, 0,1N NaOH eritmasining titri:

$$T = 40 \cdot 0,1/1000 = 0,004 \text{ gr/ml ga teng.}$$

Agar eritmadi erigan moddaning aniq massasi ma'lum bo'lsa, eritmaning titri modda massasi (*m*) ni eritmaning hajmi (*V*) ga bo'lib topiladi:

Masalan, Kaliy karbonatning 100 ml eritmasida 0,453 gr potash erigan bo'lsa, eritmaning titri:

$T=0,453/100=0,00453$  gr/ml =  $4,53 \cdot 10^{-3}$  gr/ml bo'jadi.

### ***Turli konsentratsiyadagi eritmalar tayyorlash***

#### ***1-tajriba. Osh tuzining 0,1 M 250 ml eritmasini tayyorlash.***

**Asboblar:** tarozi, sig'imi 250 ml o'lchov kolba.

**Reaktivlar:** Osh tuzi, distillangan suv.

Natriy xloridning 1 mol miqdori 58,5 gr ga teng; 0,1 gr/mol 5,85 gr.

1000 ml eritmada — 5,85 gr tuz;

250 ml eritmada — x.

$$x = \frac{250 \cdot 5,85}{1000} = 1,4625 \text{ gr.}$$

1,46 gr tuzni tortib olamiz va uni 250 ml sig'imi kolbagaga solamiz. Tuz avval ozroq miqdordagi suvda eritiladi, so'ngra yana suv qo'shib, eritma hajmi kolbaning bo'g'zidagi chizig'igacha yetkaziladi.

#### ***2-tajriba. HCl ning 10% li eritmasini tayyorlash.***

**Reaktivlar:**  $\text{HCl}_{(\text{kons})}$  (37% li  $\rho = 1,19$  gr/ml), distillangan suv.

**Asboblar:** Konussimon 500 ml sig'imi kolba, pipetka.

HCl ning 10% li 200 gr eritmasini tayyorlash uchun necha ml xlorid kislota va suv kerak?

100 gr 10% li eritmada 10 gr kislota (HCl) saqlanadi.

200 gr ----- x

$$x = \frac{200 \cdot 10}{100} = 20 \text{ gr.}$$

HCl 37 % li 37 gr-----100 gr;

20 gr ----- x gr.

$$x = \frac{200 \cdot 10}{37} = 54,05 \text{ gr HCl.}$$

$200 - 54,05 = 145,95$  gr ( $\text{H}_2\text{O}$ ),

$$V = \frac{54,05}{1,19} = 45,4 \text{ ml (37\% HCl);}$$

$$V = \frac{145,95}{1} = 145,95 \text{ ml H}_2\text{O}.$$

**3-tajriba.**  $\text{BaCl}_2$  tuzining 0,5N 500 ml eritmasini tayyorlash.

**Reaktivlar:**  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ , distillangan suv.

**Asboblar:** Tarozi, sig'imi 500 ml li o'lchov kolbasi.

$\text{BaCl}_2$  ning 0,5N 500 ml eritmasini tayyorlash uchun necha gramni  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  tuzi kerakligi hisoblanadi:

$$M_f(\text{BaCl}_2) = 208 \text{ gr} \quad M_r(\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}) = 244 \text{ gr.}$$

Ularning ekvivalentlari hisoblanadi:

$$E_{\text{BaCl}_2} = \frac{208}{2} = 104 \text{ gr.ekv} \quad E_{\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}} = \frac{244}{2} = 122 \text{ gr ekv.}$$

Normal konsentratsiyani aniqlash formulasidan, eritiladigan modda massasini aniqlaymiz:

$$C_N = \frac{m}{E \cdot V} \text{ yoki } m = C_N \cdot E \cdot V,$$

$$m = 0,5 \cdot 122 \cdot 0,5 = 30,5 \text{ gr.}$$

Sig'imi 500 ml o'lchov kolbasiga tarozida o'lchab olingan 30,5 gr  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  tuzini solib kolbaning 2/3 qismini distillangan suv bilan to'ldirib, aralashmani chayqatib tuz to'liq eritiladi, so'ngra kolba bo'g'zidagi chiziqliqa qadar suv quyiladi. Kolba og'zi tiqin bilan berkitiladi va chayqatib arlashtiriladi.

### **Mustaqil ta'lim uchun savol va mashqlar:**

1. Foizli konsentratsiyaga ta'rif bering. 5 gr 10% li va 45 gr 20% li eritmalarни o'zaro aralashtirishidan hosil bo'lgan eritmaning foizli konsentratsiyasini hisoblang.
2. Eritmaning molyar va normal konsentratsiyalari qanday formulalar bilan hisoblanadi?
3. Eritmaning titri nimani ifodalaydi?
4. Eritmalarning biologik ahamiyatini izohlang.

## Analitik kimyo predmeti va analitik reaksiyalar

Analitik kimyoning asosiy vazifasi bu moddalarning va turli aralashmalarining tarkibini tekshirishdir. Masalan, ba'zi bir moddaning tarkibiga qanday elementlar kiradi va shu elementlarni miqdoriy nisbati qanday bo'ladi. Shuning uchun analitik kimyo ikki katta bo'limdan iboratdir. Sifat analiz va miqdoriy analiz. Moddalarning, avvalo, sifat tarkibi, so'ngra miqdoriy tarkibi aniqlanadi.

Modda qanday ionlardan iborat ekanligini aniqiash maqsadida boshqa yangi va xarakterli xossalarga ega bo'lgan moddalarga aylantiramiz. Cho'kma, gazsimon modda, rang o'zgarishi kuzatiladigan reaksiyalar analitik reaksiyalar deyiladi. Bunday o'zgarishlarni yuzaga keltiradigan moddalarga reaktiv yoki reagent deyiladi.

Sifat analizida qo'llaniladigan moddalarning miqdoriga qarab, analiz «makro» va «mikro»ga bo'linadi. Makroanaliz vaqtida tekshiriladigan moddaning miqdori ancha ko'proq bo'ladi, mikroanalizda esa juda kam bo'ladi. Analitik kimyodan laboratoriya tajribalarini bajarishda yarim mikro usuldan (ya'ni reaktivlardan 2–3 tomchi olib) foydalaniladi. Natijada reaktivlar tejaladi. Shuning uchun analiz vaqtida juda ham sezgir reaktivdan foydalanish kerak.

### Ho'l va quruq reaksiyalar

Sifat analizida analitik reaksiyalar ikki ko'rinishda o'tkaziladi:

- 1) Quruq reaksiyalar.
- 2) Ho'l reaksiyalar.


Quruq reaksiya deb, moddani suyuqlanish temperaturasigacha qizdirib olib borilgan reaksiyalarga aytildi. Bu reaksiyalarga quyidagilar kiradi:

### I. Suyuqlantirish


Buning uchun oldin suyuqlantiruvchi aralashmalar tayyorlanadi. Masalan, selitranning ( $\text{NaNO}_3$ ) soda ( $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ) bilan aralashmasi, yoki potashning ( $\text{K}_2\text{CO}_3$ ) kaliy nitrat ( $\text{KNO}_3$ ) bilan aralashmasi.

Tekshiriluvchi quruq moddani shu aralashma bilan aralashtirib, chinni yoki platina tigelarida qizdiradi, natijada tekshiriluvchi

moddaning tarkibida ba'zi elemetlarning borligi bilinadi. Masalan, tekshiriluvchi modda tarkibida xrom (III) ioni borligini aniqlamoqchi bo'lsak, shu moddani aralashma bilan aralashtirib qizdiramiz. Qizdirish natijasida sariq rang paydo bo'lsa, demak, tekshiriluvchi modda tarkibida xrom(III) ioni borligini bildiradi. Reaksiyaning tenglamasi quyidagicha bo'ladi:



Ba'zi metallarning tuzlarini bura yoki natriy ammoniy fosfat tuzi bilan platina simda qizdirilsa, o'ziga xos rangli munchoq hosil qiladi. Masalan, tarkibida xrom (III) ioni bo'lgan tuzlar yashil rangli munchoq hosil qiladi. Kobalt (III) bo'lgan tuzlar ko'k rangli tuzlar hosil qiladi. Masalan,



Yashil rangli munchoq CrPO<sub>4</sub> hosil bo'ladi.

## **II. Alanganing rangini bo'yash reaksiyalari**

Ba'zi quruq tuzni alanga ta'siri ostida qizdirsak alanganing rangi turlicha o'zgarishi mumkin. Masalan, natriy alangani sariq rangga bo'yaydi, kalij tuzlari gunafsha, stronsiy tuzlari qizil, bariy tuzlari yashil va hakozo.

Demak, ba'zi moddalarning tarkibini tekshirishda shu reaksiyalardan foydalanish mumkin. Sifat analizida quruq reaksiyalar ko'p qo'llanilmaydi, aksariyat hollarda ho'l reaksiyalardan foydalaniladi.


### **Ho'l reaksiyalar**

**«Eritma sharoitida boradigan reaksiyalarga ho'l reaksiyalar deyiladi».**

Demak, ho'l reaksiyalarni bajarish uchun tekshiriluvchi modda eritma holatida bo'lishi kerak. Erituvchi moddalar sifatida quyidagi moddalar ishlataladi: suv, xlorid kislota, nitrat kislota, zar suvi va organik erituvchilar.


Ho'l reaksiyalar, asosan, probirkalarda olib boriladi. Olingen eritmalarning umumiy hajmi probirkaning yarimidan oshmasligi kerak. Har bir ion juda ko'p reaksiyalarga kirishadi. Sifat analizida faqat ko'zga ko'rindigan effektli reaksiyalardan foydalaniлади. Masalan,

1) Rangning o'zgarishi bilan boradigan reaksiyalar:




$\text{Fe}(\text{CNS})_3$  – temir(III) rodanid tuzini saqlovchi qizil rangli eritma hosil bo'ladi.

2) Cho'kma hosil qilib boradigan reaksiyalar:





Oq cho'kma AgCl hosil bo'ladi.

3) Gaz ajralib chiqishi yoki cho'kmaning erishi bilan boradigan reaksiyalar:




### Bir-biridan ajratish reaksiyaları

Ba'zi vaqtarda eritmalarda bir reaktivning ta'siri ostida bir-biriga o'xshash tarkibli cho'kma hosil qiladigan bir guruh ionlar bo'lishi mumkin. Masalan, eritmada  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Ba}^{2+}$  ionlari bo'lsa, ikkalasi ham oksalat kislota tuzlarining ta'siri ostida oq rangli cho'kma hosil qiladi.



Demak, bu yerda bir ionni alohida ochish uchun boshqasi to'sqinlik qiladi. Shuning uchun  $\text{Ca}^{2+}$  ni ammoniy oksalat tuzining eritmasi yordami bilan aniqlash uchun avval  $\text{Ba}^{2+}$  ni eritmadan yo'qotish kerak. Undan keyingina  $\text{Ca}^{2+}$  ni ochish mumkin.  $\text{Ba}^{2+}$  ni eritmadan yo'qotish uchun eritmaga xromat kislota tuzini  $\text{K}_2\text{CrO}_4$  eritmasi ta'sir ettiriladi. Xromat kislota tuzlari  $\text{Ba}^{2+}$  bilan sariq rangli cho'kma hosil qiladi,  $\text{Ca}^{2+}$  bilan esa shunday cho'kmani hosil qilmaydi, chunki  $\text{CaCrO}_4$  suvda eruvchan tuz:






Demak, bariy xromat tuzining cho'kmasi hosil bo'ladi,  $\text{Ca}^{+2}$  esa eritmada qoladi. Filtrlash natijasida  $\text{BaCrO}_4$  ajratiladi va eritmada qolgan  $\text{Ca}^{+2}$  ioni oksalat kislota tuzlari ta'siri ostida aniqlanishi mumkin.

### **Analizning sistematik yo'li**

Analiz vaqtida eritmada bo'lgan va bir-birini aniqlashda xalaqit qiladigan ionlar bir nechta bo'lsa, ularni guruhlar holida ajratib olinadi. Guruhga kiruvchi ionlarni bitta reaktiv ta'siri bilan cho'ktiriladi.

Masalan, tarkibida turli metall tuzlari bo'lgan eritmaga xlorid kislota ta'sir ettirilsa, quyidagi ionlarning xloridlari cho'kmaga tushadi:  $\text{Ag}^+$ ,  $\text{Hg}^+$ ,  $\text{Pb}^{2+}$



Cho'kma filtrlash yo'li bilan ajratib olinadi, tarkibi soddaroq bo'lgan  $\text{Pb}^{2+}$ ,  $\text{Ag}^+$ ,  $\text{Hg}^+$  ionlarni saqlovchi eritmadan, ma'lum reaktivlarni qo'llab ushbu ionlar aniqlanadi. Filtr qog'ozidan o'tgan eritmadan esa qolgan metallarning ionlarini aniqlashda foydalaniladi.



**«Birdaniga bir guruh ionlarni cho'ktiradigan reaktivlarga (masalan, HCl) guruh reaktivи deyiladi».**

Guruh reaktivini analiz vaqtida juda ham katta ahamiyatga ega, chunki uning yordami bilan faqat bir guruh ionlarni ajratilmasdan, balki shu guruh ionlarining bor-yo'qligini ham aniqlash mumkin. Ionlarni guruhlashda ularning bir xil tuzlarining suvda erimasligi asos qilib olinadi.



Metall ionlarini guruhlarga bo'linganda ularning sulfid, xlorid, karbonat, sulfat tuzlarining suvda erish-erimasligi asos qilib olingan. Natijada metall kationlari 5 ta analistik guruhlarga bo'lingan.

## **Ionli reaksiyalar**


Analitik reaksiyalar, asosan, kislota, asos va tuz eritmalarining o'rtaida boradi. Bu eritmalar elektrolitlar deyiladi. Eritmalarda elektrolitik dissotsiatsiya tufayli ionlar mavjud bo'ladi.



Shu sababli analitik reaksiyalar ionlar ishtirokida amalga oshadi. Masalan,  $\text{HCl}$ ,  $\text{NaCl}$ ,  $\text{KCl}$ ,  $\text{CaCl}_2$ ,  $\text{NH}_4\text{Cl}$  eritmalariga  $\text{AgNO}_3$  kumush nitrat ta'sir ettirsak, oq rangli  $\text{AgCl}$  cho'kmaga tushadi:







Uchala reaksiyalar haqiqatan ham xlorid ionining eritmada mavjud ekanligini ko'rsatadi. Ularni yagona qisqa ionli tenglama bilan ifodalash mumkin:



Ionlar faqat tarkibi bilan emas, masalan,  $\text{Cl}^-$ ,  $\text{ClO}_3^-$ ,  $\text{ClO}_4^-$  balki zaryadi bilan ham farq qilishi mumkin. Masalan,  $\text{Hg}^+$  va  $\text{Hg}^{2+}$  ionlari bir elementning ikki xil ionlari bo'lib, ikki xil sifat reaksiyaga ega.

Masalan, ularning tuzlari eritmasiga  $\text{KI}$  eritmasini ta'sir ettirsak, har xil moddalar hosil bo'ladi:



Demak, eritma holatida bo'lgan moddalarni tahlil etishda, eritmada mavjud kationlar va anionlar aniqlanadi, olingan ma'lumotlar asosida eritmada saqlanuvchi modda to'g'risida yakuniy xulosa chiqariladi.

### **Mustaqil ta’lim uchun savol va mashqlar:**

1. Umumiy va xususiy analitik reaksiyalar bir-biridan qanday farqlanadi?
2. Analitik reaksiya sezgirligi nimani bildiradi?
3. Qaday moddalar reaktivlar deb ataladi?
4. Analitik reaksiyalarda olinadigan natijalarning qishloq xo’jaligi, veterinariyadagi ahamiyatini izohlang.

#### ♦ Laboratoriya ishi № 1.5

### **Kationlarning analitik guruhlarga bo’linishi. V guruh kationlarining sifat reaksiyalari**

Kationlar aralashmasi tekshirilayotgan eritmadan bir nechta kationlar uchun umumiy bo’lgan bitta yordamchi reaktiv bilan cho’kmaga tushirilishi mumkin. Bir nechta ionlarni cho’ktiradigan modda **guruh** reaktivi deb ataladi.

Barcha kationlar beshta analitik guruhga bo’lib o’rganiladi:

**I analitik guruhga:**  $\text{Na}^+$ ,  $\text{K}^+$ ,  $\text{NH}_4^+$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari kiradi.

Bu guruh kationlari ammoniy karbonat –  $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$ , ammoniy sulfid –  $(\text{NH}_4)_2\text{S}$  va vodorod sulfid –  $\text{H}_2\text{S}$  bilan o’zaro ta’sir etganida cho’kma hosil qilmaydi.

**II analitik guruhga:**  $\text{Ca}^{+2}$ ,  $\text{Ba}^{+2}$  va  $\text{Sr}^{+2}$  ionlari kiradi.

Bu guruh kationlari ammoniy karbonat  $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$  ta’sirida cho’kmaga tushadi.

**III analitik guruhga:**  $\text{Fe}^{+3}$ ,  $\text{Fe}^{+2}$ ,  $\text{Al}^{+3}$ ,  $\text{Cr}^{+3}$ ,  $\text{Zn}^{+2}$ ,  $\text{Mn}^{+2}$   $\text{Co}^{+2}$  va  $\text{Ni}^{+2}$  ionlari kiradi.

Bu guruh kationlari  $(\text{NH}_4)_2\text{S}$  bilan o’zaro ta’sir etganida cho’kma hosil qiladi, lekin vodorod sulfid  $\text{H}_2\text{S}$  bilan kislotali muhitda o’zaro ta’sir etganida cho’kma hosil qilmaydi.

**IV analitik guruhga:**  $\text{Ag}^+$ ,  $\text{Hg}^+$ ,  $\text{Pb}^{+2}$ ,  $\text{Cu}^{+2}$ ,  $\text{Hg}^{+2}$ ,  $\text{Cd}^{+2}$ ,  $\text{Bi}^{+3}$  ionlari kiradi.

Bu guruh kationlari kislotali muhitda xlorid kislota  $\text{HCl}$  va vodorod sulfid  $\text{H}_2\text{S}$  bilan o’zaro ta’sirlashganda cho’kma hosil qiladi.

**V analitik guruhga:**  $\text{As}^{+3}$ ,  $\text{As}^{+5}$ ,  $\text{Sn}^{+2}$ ,  $\text{Sn}^{+4}$ ,  $\text{Sb}^{+3}$  va  $\text{Sb}^{+5}$  ionlari kiradi.

## I guruh kationlariga umumiy xarakteristika va ularning sifat reaksiyalari

I analitik guruhga kiruvchi kationlarning barchasi rangsiz, ammo anion rangli bo'lganda (masalan,  $\text{CrO}_4^{2-}$ ,  $\text{MnO}_4^-$  va hokazo)  $\text{K}^+$ ,  $\text{Na}^+$  va  $\text{NH}_4^+$  ionlarining deyarli barcha tuzlari, shuningdek, gidroksidlari ham suvda yaxshi eriydi.

Magniy metali davriy sistemaning ikkinchi guruhida joylashgan. U  $\text{K}^+$ ,  $\text{Na}^+$  (birinchi guruhda joylashgan) va  $\text{NH}_4^+$  kationlaridan o'z xossalariغا ko'ra farq qiladi.  $\text{Mg}(\text{OH})_2$  suvda yomon eriydi, kuchsiz asos.  $\text{MgCO}_3$ ,  $\text{Mg}_2(\text{OH})_2\text{CO}_3$ ,  $\text{Mg}_3(\text{PO}_4)_2$ ,  $\text{MgHPO}_4$  II analitik guruh kationlari ( $\text{Ca}^{+2}$ ,  $\text{Ba}^{+2}$ ,  $\text{Sr}^{+2}$ )ning tuzlari singari suvda kam eriydi. Lekin II guruh kationlari  $\text{Ca}^{+2}$ ,  $\text{Ba}^{+2}$  va  $\text{Sr}^{+2}$  ni  $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$  guruh reagenti bilan cho'ktirish jarayonida  $\text{MgCO}_3$  ammoniyli tuzlar ishtirokida eruvchan bo'lib, oqibatda eritmada I guruh kationlari bilan qoladi. Ana shu sababli  $\text{Mg}^{+2}$  I analitik guruhga kiritilgan.

I analitik guruh kationlarining birikmalari muhim biologik ahamiyatga ega. Ularning xlorid, nitrat, sulfat va karbonat tuzlari tuproqdan suvgaga tez o'tadi. Sho'rlangan tuproq tarkibida  $\text{NaCl}$ ,  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  va  $\text{NaHCO}_3$  tuzlari ko'proq uchraydi. O'simliklar uchun xavflisi  $\text{NaHCO}_3$  tuzidir.

$\text{K}^+$  hamda  $\text{NH}_4^+$  kationlari mineral o'g'itlar tarkibiga kiradi. Fotosintez jarayoni  $\text{K}^+$  ionlari ishtirokida jadallashadi. Bu kationlar  $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$ ,  $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4$ ,  $\text{NH}_4\text{NO}_3$ ,  $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ ,  $\text{KNO}_3$ ,  $\text{KCl}$  va  $\text{K}_2\text{SO}_4$  tuzlari holida o'g'it sifatida ishlataladi.

$\text{Mg}^{+2}$  kationi o'simliklardagi yashil pigment xlorofill zarrachasi tarkibiga kiradi.


Tirik organizmda ovqatni hazm qilish, asab impulslarini uzatish  $\text{Na}^+$  va  $\text{K}^+$  ionlari ishtirokida boradi. Shu sababli  $\text{NaCl}$  oziqaning zaruriy komponentlaridan biridir, uning 0,9% li eritmasi fiziologik eritma sifatida ishlataladi.  $\text{NaHCO}_3$  va  $\text{MgO}$  oshqozon shirasidagi ortiqcha kislotalilikni neytrallash uchun qo'llaniladi.

Ammiakning 10% li eritmasi «novshadil spirit» nomi bilan ishlataladi. Ammoniy tuzlari va  $\text{NH}_3$  tabiatda oqsil moddalarining chirishidan hosil bo'ladi. Ularning molxona binolarida va suv havzalarida paydo bo'lishi, ularning ifloslanganligini ko'rsatadi.




## ❖ Kaliy kationining xususiy reaksiyalari

### 1. Natriy gidrotartat bilan o'tkaziladigan reaksiya.

NaHC<sub>4</sub>H<sub>4</sub>O<sub>6</sub> kaliy ionlari bilan kaliy gidrotartat oq kristall cho'kmasini hosil qiladi:




Kislota va ishqorlarda erishi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** kaliy xloridning 2–3 tomchi eritmasiga shuncha reaktiv qo'shiladi. Probirkani sovuq suv oqimida sovutib turib shisha tayoqcha bilan probirka devorining ichki yuzasi ishqalanib turiladi. Tekshirilayotgan eritma neytral bo'lishi lozim, chunki kislotali muhitda kaliy gidrotartat cho'kmasi tarrat kislota hosil qilib eriydi, ishqoriy muhitda esa suvda oson eriydigan o'rta yoki qo'shaloq tuz hosil qiladi.

### 2. Natriy kobaltonitrit bilan o'tkaziladigan reaksiya.

Na<sub>3</sub>[Co(NO<sub>2</sub>)<sub>6</sub>] neytral yoki kuchsiz kislotali eritmadan K<sup>+</sup> ionini kaliy natriy kobaltonitritni sariq cho'kmasi tarzida cho'kitradi.



Reaksiyaning bajarilishida kaliy xlorid tuzining 2–3 tomchi eritmasiga shuncha reaktiv eritmasi qo'shiladi. Reaksiya seziluvchandir.

### 3. Alangani bo'yash reaksiyasi.

Kaliyning tuzlari gorelkaning rangsiz alangasini binafsha rangga kiritadi, natriy esa alangani sariq rangga bo'yaydi.



**Tajribaning bajarilishi:** Shisha tayoqchaga kavsharlangan platina yoki nixrom simni avval kontsentrlangan xlorid kislotada bir necha marta ho'llab tozalanadi va gorelka alangasida alanga bo'yalmay qolgunga qadar qizdiriladi. Tozalangan sim uchi KCl eritmasiga botiriladi yoki kontsentrlangan xlorid kislotada ho'llab, kaliyning birorta boshqa qattiq tuziga tegiziladi. So'ngra gorelka alangasining yuqori temperaturali qismiga o'tkaziladi. Gorelka

alangasining bo'yaliishi ko'k oyna orqali kuzatiladi. Platina yoki nixrom sim bo'lmasa, oddiy qalamning tozalangan grafit tayoq-chasidan foydalanish mumkin.

❖ Natriy kationining xususiy reaksiyalari

**1. Kaliy digidroantimonat bilan o'tkaziladigan reaksiya.**

$\text{KH}_2\text{SbO}_4$  natriy ionlari bilan natriy digidroantimonatning oq kristall cho'kmasini hosil qiladi:



Agar darhol cho'kma tushmasa, probirka devorlarini shisha tayoqcha bilan ishqalang, shundan keyin oq rangli cho'kma tushadi. Bu reaksiya quyidagi sharoitlarda bajarilishi kerak:



a)  $\text{Na}^+$  – kationini aniqlanayotgan eritma konsentrlangan bo'lishi kerak;

b) eritma muhitini neytral yoki kuchsiz ishqoriy bo'lishi kerak. Kislotali sharoit  $\text{Na}^+$  kationini ochishga to'sqinlik qiladi, chunki reaktivning o'zi kislotali sharoitda oq rangli amorf cho'kma hosil qiladi:



**2. Magniy uranilatsetat yoki rux uranilatsetat bilan o'tkaziladigan mikrokristalloskopik reaksiya.**

Natriy tuzlarining neytral yoki sirka kislotali eritmalari yuqorida aytilgan reagentlardan biri bilan natriy magniy uranilatsetat yoki rux uranilatsetat kristallarining ko'kish-sariq cho'kmasini hosil qiladi:



**3. Alanganani bo'yash reaksiyasi.**

Natriy tuzlari gorelkaning rangsiz alangasini sariq rangga kiritadi. Reaksiya xuddi kaliy kationi uchun qilingani kabi bajariladi.

❖ Ammoniy kationining xususiy reaksiyalari

**1. Ishqorlar bilan o'tkaziladigan reaksiyalar.**


Ammoniy tuzlari o'yuvchi ishqorlar ( $\text{NaOH}$  va  $\text{KOH}$ ) bilan qo'shib qizdirilganda ammiak ajralib chiqadi:



Bu gazning ajralishini quyidagicha bilish mumkin:

a) hididan – o'tkir hidli;


b) probirka og'ziga tegizmasdan ho'llangan lakmus qog'oz tushirilganda u ko'karadi:



c) probirka og'ziga tegizmasdan xlorid kislotada ho'llangan shisha tayoqcha tushirilganda oq tutun hosil bo'ladi:



**2. Nessler reaktivini bilan o'tkaziladigan reaksiya:** Nessler reaktivini  $\text{K}_2[\text{HgI}_4]$  bilan KOH aralashmasi ammoniy ionlari bilan oksodimerkurammoniy yodidning qizil-qo'ng'ir cho'kmasini hosil qildi:



Reaksiya juda seziluvchan va xususiy bo'lib, odatda, kaliy va natriy ionlarini topishga xalaqt beradigan ammoniy ionlari bor-vo'qligiga ishonch hosil qilish zarur bo'lganda qo'llaniladi. Kaliy va natriy ionlari ammoniy ionlarini aniqlash reaksiyasiga xalaqt bermaydi.

**Reaksiyaning bajarilishi:** ammoniy tuzining 1 tomchi eritmasiga 5–6 tomchi suv va 1–2 tomchi Nessler reaktividan qo'shiladi. Qizil-qo'ng'ir rangli cho'kma hosil bo'lishi kuzatiladi ( $\text{NH}_4^+$  ning kontsentratsiyasi past bo'lsa, eritma to'q sariq rangga kiradi).

**3. Ammoniy ionlarini eritmadan yo'qotish:** ammoniy tuzlari qizdirilganda parchalanadi; bunda ammoniy tuzlari uchib chiqib ketadi va ammoniy ionlarini eritmadan yo'qotishda foydalaniladi:





**Reaksiyaning bajarilishi:** tigelga yoki chinni kosachaga tar-kibida birinchi analitik guruhning hamma kationlari bo'lgan eritmadan 5–6 tomchi solinib, quriguncha ehtiyyotkorlik bilan bug'-lutiladi va quruq qoldiq oq «tutun» ajralib chiqishi tugaguncha qizdiriladi. Tigel sovugach, quruq moddaning bir necha zarrachalari

3–4 tomchi suvda eritiladi va ishqor yoki Nessler reaktivi bilan tajriba qilib ko'rildi. Bunda ammoniy kationiga sifat reaksiya ijobjiy bo'lmasligi lozim.

❖ **Magniy kationing xususiy reaksiyaları**

**1. O'yuvchi ishqorlar bilan o'tkaziladigan reaksiya.**

Magniyning eruvchan tuzlari eritmasiga NaOH yoki KOH qo'shilganda oq amorf cho'kma hosil bo'ladi:





Ushbu reaksiya yordamida  $\text{Mg}^{2+}$  ioni,  $\text{Na}^+$ ,  $\text{K}^+$  va  $\text{NH}_4^+$  lardan ajratiladi.

**Reaksiyaning bajarilishi:** probirkaga  $\text{MgSO}_4$  eritmasidan 2–3 tomchi solib, unga o'shancha hajm NaOH eritmasidan qo'shiladi. Amorf cho'kma hosil bo'lishini kuzating. Boshqa probirkaga  $\text{MgSO}_4$  eritmasidan 2–3 tomchi olib, unga dastlab 2 tomchi  $\text{NH}_4\text{Cl}$  ning to'yingan eritmasidan, so'ngra 2 tomchi  $\text{NH}_4\text{OH}$  eritmasidan tomizilsa, cho'kma hosil bo'lmaydi.

**2. Natriy gidrofosfat ( $\text{Na}_2\text{HPO}_4$ ) bilan o'tkaziladigan reaksiya.**

Magniy tuzlari  $\text{Na}_2\text{HPO}_4$  bilan  $\text{NH}_4\text{OH}$  va  $\text{NH}_4\text{Cl}$  ishtirokida reaksiyaga kirishib, mineral kislotalarda va  $\text{CH}_3\text{COOH}$  da eruvchan qo'shaloq tuz ammoniy magniyfosfat  $\text{NH}_4\text{MgPO}_4$  ning oq kristall cho'kmasini hosil qiladi:



**Reaksiyaning bajarilishi:**  $\text{MgSO}_4$  eritmasidan 2–3 tomchi probirkaga solinib, ustiga 2–3 tomchi  $\text{NH}_4\text{OH}$  eritmasi qo'shiladi va hosil bo'lgan cho'kma  $\text{Mg(OH)}_2$  eriguncha aralashmani chayqatib turgan holda  $\text{NH}_4\text{Cl}$  eritmasidan qo'shiladi. Tiniq eritmaga  $\text{Na}_2\text{HPO}_4$  eritmasidan 4–5 tomchi qo'shib, shisha tayoqcha bilan aralashtirilib turiladi. Ba'zan cho'kma hosil bo'lishi uchun 15–20 daqiqa vaqt ketadi.

**Mustaqil ta'lim uchun savol va mashqlar:**

1. Analitik guruh kationlariga qaysi kationlar kiradi? Nima uchun?
2. I guruh kationlarining biologik xususiyatlarini izohlang.

3.  $K^+$ ,  $Na^+$ ,  $NH_4^+$  ionlarini saqlovchi brikmalarning qishloq xo'jaligidagi uhamiyatini ayting.

#### • Laboratoriya ishi № 1.6

### Kationlarning II analitik guruhiga umumiy xarakteristika va ularning sifat reaksiyalarি




II guruh kationlariga  $Ca^{2+}$ ,  $Sr^{2+}$  va  $Ba^{2+}$  ionlari kiradi. Ular D.I. Mendeleyevning elementlar davriy sistemasida II guruhning asosiy guruhchasi joylashgan metallardir.

Ikkinci guruh kationlarining karbonatlari suvda erimaydi, ammo  $HCl$ ,  $HNO_3$  va  $CH_3COOH$  kislotalari eritmalarida yaxshi eriydi. Ana shuning uchun  $(NH_4)_2CO_3$  tuzidan ishqoriy muhitda guruh reagenti sifatida foydalaniladi. Ushbu guruh kationlarining sulfat, fosfat hamda oksalatlar ko'rinishidagi tuzlari ham suvda kam eriydi.

$BaS$ ,  $SrS$  va  $CaS$  sulfidlari esa suvda yaxshi eriydi, shu xossaliga asoslanib ikkinchi guruh kationlarini sulfidlari suvda erimaydigan III–IV guruh kationlaridan ajratish mumkin. Kalsiy ionlari tuproq tarkibidagi kichik zarrachalar sirtida joylashadi. Tuproqning yutish sig'imi uning tarkibidagi kalsiy ionlariga bog'liq.

Tuproq strukturasi, suv-havo rejimi ham kalsiy miqdoriga bog'liq. Kislotali tuproqda  $Ca^{2+}$  ionlari  $Na^+$  ionlariga, sho'rxok tuproqlarda esa  $Na^+$  kationlariga almashingan bo'ladi. Kislotaligi yuqori bo'lgan tuproqlar ohaklanadi, sho'rxok tuproqlarga esa  $CaSO_4 \cdot 2H_2O$  gips qo'shiladi.

Tarkibida kalsiy va fosfor bo'lgan birikmalar qishloq xo'jaligida fosforli o'g'itlar nomi bilan ishlatiladi:



Shuningdek, kalsiyning azotli birikmalaridan kalsiy sianamid  $CaCN_2$ , kalsiyli selitra  $Ca(NO_3)_2$  kabilar ham yuqorida eslatilgan maqsadlarda ishlatilishi mumkin.

Kalsiy ionlari  $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$  tuzi holida qattiq suv tarkibida bo'ladi.

Tuproq va ekinning  $\text{Ca}^{2+}$  ioniga bo'lgan ta'labi maromida sug'oish va iste'mol qilish natijasida ma'lum darajada qondiriladi.


$\text{Ba}^{2+}$  ionlari zaharli, lekin  $\text{BaSO}_4$  tuzi erimaydi va shuning uchun ham zararsiz.  $\text{BaSO}_4$  tibbiyotda rentgenoskopiya ishlataladi.

$\text{BaCl}_2$  va  $\text{BaCO}_3$  tuzlari qishloq xo'jaligida zaharli ximikatlar sifatida ishlataladi.


### Guruh reagenti va uning ikkinchi guruh kationlariga ta'siri

II guruh kationlarini karbonatlar holida cho'kmaga tushirish uchun umumiy reagent sifatida faqat ammoniy karbonatni ishlatish mumkin. Bu maqsadda  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  yoki  $\text{K}_2\text{CO}_3$  ishlatiladigan bo'lsa, eritmaga  $\text{Na}^+$  yoki  $\text{K}^+$  ionlarini oldindan kiritib qo'ygan bo'lamiz va bu ionlar analiz qilinayotgan eritmada oldin bo'lgan-bo'lmaganligini aniqlash qiyin bo'ladi.

$(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$  guruh reagenti ta'sirida  $\text{Ca}^{2+}$ ,  $\text{Sr}^{2+}$ ,  $\text{Ba}^{2+}$  ionlari ning suvda erimaydigan karbonatlari hosil bo'ladi:




Guruh reagenti suv ta'sirida kuchli gidrolizlanadi:



Gidrolizlanish reaksiyasi tenglamasidan ko'rinish turibdiki, eritmada  $\text{HCO}_3^-$  ionlari ham bo'ladi, uning kationlari bilan hosil qiladigan tuzlari  $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$ ,  $\text{Sr}(\text{HCO}_3)_2$ ,  $\text{Ba}(\text{HCO}_3)_2$  lar suvda yaxshi eriydi.

Demak,  $\text{Ca}^{2+}$ ,  $\text{Sr}^{2+}$ ,  $\text{Ba}^{2+}$  kationlarining bir qismi cho'kmaga tushmaydi. Ammoniy gidroksid ta'sir ettirilganda erkin kislotalar neytrallanadi, natijada muhit ishqoriy bo'lib  $\text{Mg}^{2+}$  kationi asosli tuz hosil qilib cho'kmaga tushishi mumkin:



Eritmaga  $\text{NH}_4\text{Cl}$  tuzi eritmasidan qo'shilsa, muvozanat chapga siljiydi va  $\text{Mg}^{2+}$  ioni eritmada qoladi.

Kationlarga guruh reagentining ta'sirini o'rganish uchun uchta probirkaning biriga  $\text{CaCl}_2$ , ikkinchisiga  $\text{SrCl}_2$  va uchinchisiga  $\text{BaCl}_2$ , critmalaridan 2–3 tomchidan solib, ularning har biriga  $\text{NH}_4\text{OH}$  va  $\text{NH}_4\text{Cl}$  ning 2N eritmasidan 1 tomchidan qo'shiladi va so'ngra probirkalarni suv hammomida qizdirib turib,  $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$  eritmasi ta'sir ettirilsa, oq cho'kmalar ( $\text{CaCO}_3$ ,  $\text{SrCO}_3$  va  $\text{BaCO}_3$ ) hosil bo'lishi kuzatiladi.


Ikkinci guruh kationlarining karbonatlari  $\text{CO}_2$  gazini hosil qilib parchalanadigan kuchsiz kislota tuzlari bo'lganligi sababli cho'kma  $\text{HCl}$ ,  $\text{HNO}_3$  va  $\text{CH}_3\text{COOH}$  lar ta'sirida oson eriydi:




### **Ba<sup>2+</sup> kationiga xos reaksiyalar**

Reaksiyalarni  $\text{BaCl}_2$  yoki  $\text{Ba}(\text{NO}_3)_2$  tuzlaridan birortasining suvdagi eritmasi bilan o'tkazish mumkin.


**1. Kaliy bixromat bilan o'tkaziladigan reaksiya.**  $\text{Ba}^{2+}$  ionlari bilan  $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$  kutilganidek,  $\text{BaCr}_2\text{O}_7$  emas, balki sariq cho'kma  $\text{BaCrO}_4$  hosil qiladi, chunki  $\text{CrO}_4^{2-}$  ionlarini hosil qiladi:



$\text{Ba}^{2+}$  kationiga xrom tuzlarining ta'sirini quyidagi tenglamalar bilan ifodalash mumkin:




yoki




$\text{BaCrO}_4$  cho'kmasi kuchli kislotalarda eriydi, ammo  $\text{CH}_3\text{COOH}$  da erimaydi. Reaksiyaning amalga oshish jarayonida kuchli kislota ( $\text{HC1}$ ) hosil bo'lishi tufayli  $\text{BaCrO}_4$  cho'kmasi eriydi.

**Reaksiyaning bajarlishi:** bariy tuzining 2–3 tomchi eritmasiga 1–2 tomchi  $\text{CH}_3\text{COONa}$  eritmasidan va 2–3 tomchi kaliy bixromat eritmasidan qo'shiladi.

**2. Eruvchan sulfatlar yoki sulfat kislota bilan o'tkaziladigan reaksiya.**  $\text{Ba}^{2+}$  ionlari  $\text{SO}_4^{2-}$  anionlari ishtirokida oq cho'kma  $\text{BaSO}_4$  hosil qiladi:




yoki




**Reaksiyaning bajarilishi.** Bariy tuzining 2–3 tomchi eritmasiga 2–3 tomchi sulfat kislota (yoki  $\text{K}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{Na}_2\text{SO}_4$ ,  $(\text{NH}_4)\text{SO}_4$  tuzlaridan birortasi) eritmasidan qo'shiladi.

**3. Ammoniy oksalat bilan o'tkaziladigan reaksiya.**  $(\text{NH}_4)_2\text{C}_2\text{O}_4$  tuzi  $\text{Ba}^{+2}$  ionlari bilan xlorid va nitrat kislotalarda qizdirilganda esa sirka kislotada ham eriydigan oq kristall cho'kma  $\text{BaC}_2\text{O}_4$  hosil qiladi:



yoki




Reaksiyaning bajarilishi. Bariy tuzining 2–3 tomchi eritmasiga 2–3 tomchi ammoniy oksalat eritmasi qo'shiladi.


### **Sr<sup>2+</sup> kationiga xos reaksiyalar**

Reaksiyalarni  $\text{SrCl}_2$  yoki  $\text{Sr}(\text{NO}_3)_2$  tuzlaridan birortasining suvdagi eritmasi bilan o'tkazish mumkin.

**1. Sulfat kislota va eriydigan sulfatlar bilan o'tkaziladigan reaksiya.**  $\text{Sr}^{+2}$  kationiga tarkibida  $\text{SO}_4^{2-}$  ionlari mavjud reaktivlar ta'sir ettirilganda oq cho'kma hosil bo'ladi:



yoki



Ionli ko'rinishda:  $\text{Sr}^{+2} + \downarrow \text{SO}_4^{2-} = \downarrow \text{SrSO}_4$ .


**2. Gipsli SUV bilan o'tkaziladigan reaksiya.**  $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  ning suvdagi to'yingan eritmasi ham  $\text{Sr}^{+2}$  ioni bilan  $\text{SrSO}_4$  cho'kmasini hosil qiladi. Chunki  $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  suvda kam eriydigan modda.

**Reaksiyaning bajarilishi:** stronsiy tuzining 2–3 tomchi eritmasiga 5–6 tomchi gipsli SUV tomiziladi.


### **Ca<sup>2+</sup> kationiga xos reaksiyalar**

Reaksiyalarni  $\text{CaCl}_2$  yoki  $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$  tuzlaridan birortasining suvdagi eritmasidan foydalanib o'tkazish mumkin.

**1. Ammoniy oksalat bilan o'tkaziladigan reaksiya.**  $(\text{NH}_4)_2\text{C}_2\text{O}_4$  bilan  $\text{Ca}^{+2}$  ioni mineral kislotalarda eriydigan, ammo sirka kislotada erimaydigan oq cho'kma – kalsiy oksalatni hosil qiladi:




yoki




Qizdirish cho'kma hosil bo'lish jarayonini tezlatadi.

**Reaksiyaning bajarilishi.** Kalsiy tuzining 1–2 tomchi eritmasiga 1–2 tomchi ammoniy oksalat eritmasidan qo'shiladi.

**2. Kaliy ferrosianid bilan bajariladigan reaksiya.**  $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$  kompleks tuz ammoniyli bufer eritma ishtirokida,  $\text{Ca}^{2+}$  kationi bilan oq cho'kma – kalsiy ammoniy ferrosianidni hosil qiladi:



yoki



Cho'kma  $\text{CH}_3\text{COOH}$  da erimaydi, mineral kislotalarda esa criydi.

**Reaksiyaning bajarilishi:** kalsiy tuzining 1–2 tomchi eritmasiga 2 tomchi  $\text{NH}_4\text{Cl}$  va 2 tomchi  $\text{NH}_4\text{OH}$  eritmasidan qo'shiladi va aralashma eritmadiagi  $\text{pH}=9$  bo'lganida qizdiriladi, so'ngra kaliy ferrosianidning yangi tayyorlangan to'yigan eritmasidan 3–4 tomchi tomiziladi.

#### **Mustaqil ta'lif uchun savol va mashqlar:**

1. Ikkinci analitik guruh kationlarining xarakterli reaksiyalarini tafsiflab bering.
2. II guruh kationlarining asosiy birikmalarini sanab o'ting.
3. Kalsiy va baryiy birikmalarining qishloq xo'jaligi sohalarida qo'llanilishi.
4. Nima uchun guruh reagent sifatida  $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$ , o'mida  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  yoki  $\text{K}_2\text{CO}_3$ , dan foydalanib bo'lmaydi?

#### ♦ Laboratoriya ishi № 1.7

### **Kationlarning III analitik guruhi va ularning sifat reaksiyalarini**

III analitik guruh kationlariga  $\text{Al}^{3+}$ ,  $\text{Cr}^{3+}$ ,  $\text{Fe}^{3+}$ ,  $\text{Fe}^{2+}$ ,  $\text{Mn}^{2+}$ ,  $\text{Zn}^{2+}$ ,  $\text{Ni}^{2+}$  va  $\text{Co}^{2+}$  ionlari kiradi. Ularning ko'pchiligi, I va II guruh kationlaridan farqli ravishda suvdagi eritmalarda rangli bo'ladi.

Shuningdek, III guruh kationlarining sulfidlari suvda erimaydi, ammo kuchli kislotalarning suyultirilgan eritmalarida eriydi.

$(\text{NH}_4)_2\text{S}$  tuzi uchun guruh kationlari uchun guruh reaktivi sifatida ishlataladi.  $\text{Al}^{3+}$  va  $\text{Cr}^{3+}$  ionlarining sulfidlari  $\text{Al}_2\text{S}_3$  va  $\text{Cr}_2\text{S}_3$  gidrolizlanib,  $\text{Al}(\text{OH})_3$  va  $\text{Cr}(\text{OH})_3$  gidroksidlar holida cho'kmaga tushadi. Qolgan barcha ionlar esa reagenti ta'sirida sulfidlar holida cho'kmaga tushadi.

III guruh kationlarini ikki guruhchaga ajratilishining asosiy sababi kationlarning  $\text{NH}_4\text{Cl}$  li muhitda  $\text{NH}_4\text{OH}$  bilan o'zaro ta'sirlashuviga asoslangan. Ionlar konsentratsiyasining ko'paytmasi  $\text{Al}(\text{OH})_3$ ,  $\text{Cr}(\text{OH})_3$  va  $\text{Fe}(\text{OH})_3$  gidroksidlarning eruvchanlik ko'paytmasi qiymatidan ortadi va uchala gidroksid oq iviqlar ko'rnishida cho'kmaga tushadi. Shu sababli I guruhchaga  $\text{Al}^{3+}$ ,  $\text{Cr}^{3+}$ ,  $\text{Fe}^{3+}$  ionlari kiradi, ular  $\text{NH}_4\text{OH}$  bilan ammoniy tuzlar ishtirokida cho'kmaga tushiriladi (lekin  $\text{Fe}^{3+}$  ionlari  $\text{NH}_4\text{Cl}$  ishtirokida  $(\text{NH}_4)_2\text{S}$  bilan qaytarilib,  $\text{Fe}^{2+}$  ionlariga aylanadi), II guruhchaga  $\text{Fe}^{2+}$ ,  $\text{Mn}^{2+}$ ,  $\text{Zn}^{2+}$ ,  $\text{Co}^{2+}$ ,  $\text{Ni}^{2+}$  ionlari kiradi, ular kuchsiz ishqoriy muhitda  $(\text{NH}_4)_2\text{S}$  ta'sirida sulfidlar holida cho'kmaga tushadi:



III guruh kationlarining kuchli kislota anionlari bilan hosil qilgan tuzlari suvli eritmalarда kislotali muhitga ega bo'ladi. Aluminiy, xrom va rux gidroksidlari amfoterlik xossasini namoyon qiladi.

Aluminiy va rux kationlari doimiy oksidlanish darajasiga ega, III guruhning boshqa kationlari o'zgaruvchan oksidlanish darajasini namoyon qiladi va ular oksidlovchi-qaytaruvchi xossalarga ega.

O'rjanilayotgan guruh kationlarini saqlovchi tuzlar muhim biologik ahamiyatga ega. Kuchsiz kislotali muhitli bo'z tuproqlar tarkibida  $\text{Al}^{3+}$  kationlari saqlanadi. Ko'pgina madaniy o'simliklar ana shunday tuproqda sust o'sadi.

$\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3$  tuzini suvg'a ozgina  $\text{Ca}(\text{OH})_2$  bilan aralashtirilib qo'shilsa,  $\text{Al}(\text{OH})_3$  hosil bo'ladi va u cho'kayotib suvda suzib yurgan komponentlarni o'zi bilan olib ketadi. Bundan vodoprovod suvini tiniqlashtirishda foydalaniladi.

Temir ionlari hayvon va o'simlik to'qimalarida mavjud.  $\text{Fe}^{2+}$ -kationi qon gemoglobinida uchraydi, agar u yetishmasa kamqonlik kasalligiga olib keladi. Agar tuproqda temir ionlari yetishmasa o'simliklarda xlorofill zarachalari kamayadi, barglarning yashilligi yo'qoladi.


Hayvon va o'simlik to'qimalarida  $\text{Mn}^{2+}$ ,  $\text{Zn}^{2+}$ ,  $\text{Co}^{2+}$ ,  $\text{Ni}^{2+}$  va  $\text{Cr}^{3+}$  ionlari juda kam miqdorda bo'ladi.  $\text{Mn}^{2+}$  ionlari hujayra va to'qimalarda oksidlanish-qaytarilish jarayonlarini faollashtiradi, o'sishga va qon hosil bo'lishiga yordam beradi.  $\text{Zn}^{2+}$  ionlari xlorofill, vitaminlar va o'stiruvchi moddalar hosil bo'lish jarayonida bevosita ishtirok etadi. Tarkibida  $\text{ZnO}$  bo'lgan malhamlar veterinariyada teri kasalliklarini davolashda ishlatiladi.  $\text{ZnSO}_4$  eritmasidan ko'z kasalliklarini davolashda foydalilaniladi.  $\text{CO}^{2+}$  ionlarining tuproqda yetishmasligi bug'doy, qand lavlagi, beda va kanop kabi o'simliklarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hayvonlar oziqasiga  $\text{CO}^{2+}$  tuzlarini qo'shish ular qonidagi gemoglobin va to'qimalardagi vitamin miqdorini oshiradi.


### **III guruh reagenti va uning kationlarga ta'siri**

III guruh kationlari uchun  $(\text{NH}_4)_2\text{S}$  guruh reagenti hisoblanadi. III guruh kationlarini bu reagent yordamida cho'ktirishda ayrim qoidalarga rioya qilish zarur, chunki ba'zi bir kationlar ( $\text{Fe}^{3+}$ ,  $\text{Fe}^{2+}$ ,  $\text{Mn}^{2+}$ ,  $\text{Zn}^{2+}$ ,  $\text{CO}^{2+}$  va  $\text{Ni}^{2+}$ ) sulfidlar, qolganlari ( $\text{Al}^{3+}$  va  $\text{Cr}^{3+}$ ) gidroksidlar holida cho'kmaga tushadi.



III guruh kationlari aniqlanadigan eritmalarda erkin holdagi kuchli kislotalarning mavjudligi maqsadga muvofiq emas, ular  $\text{NH}_4\text{OH}$  eritmasi yordamida neytrallanishi kerak. Bunga sabab, metallar sulfidlari bilan ishlash vaqtida vodorod sulfid ajralib chiqishi mumkin. Bunda quyidagi tajribalarni o'tkazish mumkin.

1. Oltita probirkaga  $\text{Fe}^{3+}(1)$ ,  $\text{Fe}^{2+}(2)$ ,  $\text{Mn}^{2+}(3)$ ,  $\text{Zn}^{2+}(4)$ ,  $\text{Ni}^{2+}(5)$  va  $\text{CO}^{2+}(6)$  kationlarining tuzlari eritmasidan 2 tomchidan solib,  $(\text{NH}_4)_2\text{S}$  eritmasidan 3–4 tomchidan qo'shib aralashtirilganda, cho'kmalar hosil bo'lishi kuzatiladi:






2. Ikkita probirkaga olib ulardan biriga  $\text{Al}^{3+}$ , ikkinchisiga  $\text{Cr}^{3+}$  ionlarining biror tuzi eritmasidan 2 tomchidan solinadi va ustiga o'shancha  $(\text{NH}_4)_2\text{S}$  eritmasidan tomiziladi. Natijada  $\text{Al}(\text{OH})_3$  ning oq,  $\text{Cr}(\text{OH})_3$  ning esa kulrang-binafsha cho'kmasi hosil bo'ladi.  $(\text{NH}_4)_2\text{S}$  gidrolizlanishidan eritmada  $\text{S}^{2-}$  va  $\text{OH}^-$  ionlari hosil bo'ladi.  $\text{Cr}(\text{OH})_3$  va  $\text{Al}(\text{OH})_3$  hidroksidlarning eruvchanlik ko'paytmasi kichik bo'lganligi sababli aluminiy va xrom hidroksidlari cho'kmaga tushadi. Gidroksidlarning hosil bo'lishi quyidagi tenglamalarga muvofiq keladi:




$\text{Al}(\text{OH})_3$  va  $\text{Cr}(\text{OH})_3$  hidroksidlari uchinchi guruh kationlarning sulfidlari singari, kuchli kislotalarning suyultirilgan eritmalarda eriydi.

### $\text{Al}^{3+}$ kationiga xos reaksiyalar


1. O'yuvchi ishqorlar bilan bo'ladigan reaksiya. Aluminiy tuzlari  $\text{NaOH}$  yoki  $\text{KOH}$  bilan ta'sirlashib,  $\text{Al}(\text{OH})_3$  ning oq amorf cho'kmasini hosil qiladi:



Aluminiy hidroksidning ishqorlarda erishi natijasida metaaluminat tuzlari hosil bo'ladi:



Natriy metaaluminatga suv molekulalarining birikishi natijasida natriy tetragidrokoaluminat hosil bo'lishi mumkin:




**Reaksiyaning bajarilishi:**  $\text{Al}^{3+}$  tuzining 5–6 tomchi eritmasiga 1–2 tomchi natriy hidroksid qo'shiladi va oq cho'kma  $\text{Al}(\text{OH})_3$  hosil bo'lishi kuzatiladi. Probirkadagi aralashma ikkita probirkalarga bo'linadi. Cho'kmani  $\text{HCl}$  va mo'l ishqorda eruvchanligi sinab ko'riladi.

## **Fe<sup>3+</sup> kationiga xos reaksiyalar**

Temir (III) tuzlarining suyultirilgan eritmalari sariq, konsentr-langan eritmalari qizil-qo‘ng‘ir tusli bo‘ladi. Reaksiyalarni FeCl<sub>3</sub>, yoki Fe<sub>2</sub>(SO<sub>4</sub>)<sub>3</sub> tuzlarining suvdagi eritmalaridan foydalanib bajarish mumkin.


**1.O‘yuvchi ishqorlar va ammoniy gidrooksid bilan o‘tkaziladigan reaksiya.** NaOH, KOH, NH<sub>4</sub>OH temir (III) ionlari bilan Fe(OH)<sub>3</sub> ning kislotalarda eriydigan, lekin ko‘p miqdordagi ishqorlarda ham erimaydigan qizil-qo‘ng‘ir tusli amorf cho‘kma hosil qiladi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** temir (III) tuzining 2–3 tomchi eritmasiga o‘shancha ishqor qo‘shiladi. Qizil-qo‘ng‘ir tusli temir gidrooksid cho‘kmasi hosil bo‘lishi kuzatiladi.


## **2. Kaliy ferrosianid bilan o‘tkaziladigan reaksiya.**

K<sub>4</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>] temir (III) ionlari bilan to‘q ko‘k rangli «berlin lazuri» cho‘kmasini hosil qiladi:



Bu Fe<sup>3+</sup> ioniga xos reaksiyadir.

**Reaksiyaning bajarilishi:** temir (III) tuzining 1–2 tomchi eritmasiga o‘shancha HCl va 2–3 tomchi kaliy ferrosianid eritmasidan qo‘shiladi. Zn<sup>2+</sup> kationi ham K<sub>4</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>] kompleks tuzi bilan oq cho‘kma hosil qiladi:




Cho‘kma ishqorlarda eriydi.


## **Fe<sup>2+</sup> kationiga xos reaksiyalar**

Temir (II) tuzlari eritmada och yashil rangli bo‘ladi. Reaksiyalar FeSO<sub>4</sub> tuzining suvdagi eritmasidan foydalanib o‘tkaziladi.

**1. O‘yuvchi ishqorlar yoki NH<sub>4</sub>OH bilan o‘tkaziladigan reaksiya.** NaOH va KOH temir (II) ionlarini qoramtir-yashil rangli Fe(OH)<sub>2</sub> holida cho‘ktiradi:



Fe(OH)<sub>2</sub> kislotalarda eriydi, havo kislorodi ta’sirida oson oksidlanib, qo‘ng‘ir tusli temir (III) gidrooksid hosil qiladi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** temir (II) sulfat tuzining 2–3 tomchi eritmasiga o‘shancha ishqor yoki NH<sub>4</sub>OH eritmasi qo‘shiladi.

**2.  $\text{Fe}^{2+}$  ionini oksidlantirib,  $\text{Fe}^{3+}$  ga aylantirish yo‘li bilan aniqlash.**  $\text{HNO}_3$ ,  $\text{H}_2\text{O}_2$ ,  $\text{KMnO}_4$  singari oksidlovchilar  $\text{Fe}^{2+}$  ionini  $\text{Fe}^{3+}$  ga aylantiradi. III guruh kationlariga guruh reaktivining ta’siri natijasida hosil qilingan cho‘kma konsentrangan  $\text{HNO}_3$  da eritiladi. Cho‘kma erishi jarayonida  $\text{Fe}^{2+}$  ionlari ham oksidlanib,  $\text{Fe}^{3+}$  ionlariga aylanadi:




$\text{Fe}^{3+}$  ionlari ishqorlar ta’sirida to‘liq cho‘kadi, ana shuning uchun ham  $\text{Fe}^{2+}$  ionining oksidlanishi maqsadga muvofiqdir.

### Mn<sup>2+</sup> kationiga xos reaksiyalar

Mn<sup>2+</sup> ioni tuzlari eritmada och pushti rangli, suyultirilgan eritmalar esa rangsiz bo‘ladi. Reaksiyalarni  $\text{MnSO}_4$  yoki  $\text{Mn}(\text{NO}_3)_2$  tuzlarining suvdagi eritmalaridan foydalanib o‘tkazish mumkin.


**1. Mn<sup>2+</sup> ionining  $\text{MnO}_4^-$  gacha oksidlanish reaksiyasi.** Turli oksidlovchilar ta’sirida Mn<sup>2+</sup> kationi binafsha rangli  $\text{MnO}_4^-$  anioniga aylanadi. Bu reaksiya Mn<sup>2+</sup> ni topish uchun xarakterli reaksiya hisoblanadi. Oksidlovchi sifatida turli moddalarni ishlatalish mumkin.

Qo‘rg‘oshin qo‘sh oksid bilan nitrat kislota yordamida oksidlash. Bunda quydagicha reaksiya bo‘ladi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** probirkaga  $\text{PbO}_2$  dan 2–3 bo‘lakcha solib, 4–5 tomchi suyultirilgan (1:1) nitrat kislota qo‘shiladi va aralashma suv hammomida qizdiriladi. Oksidlovchi aralashmaga 1 tomchi  $\text{MnSO}_4$  qo‘shiladi, shisha tayoqcha bilan aralashtirilib, yana qizdiriladi. So‘ngra sovigunicha qoldiriladi. Sovigach eritma pushti-binafsha tusga kiradi.

**2. O‘yuvchi ishqorlar va  $\text{NH}_4\text{OH}$  bilan o‘tkaziladigan reaksiyalar.** NaOH, KOH va ammoniy gidroksid Mn<sup>2+</sup> ionlari bilan oq cho‘kma  $\text{Mn}(\text{OH})_2$  hosil qiladi:




Cho‘kma kislotalarda eriydi, ishqorlarda erimaydi. Havo tarkibidagi kislorod bilan oksidlanadi.

**Reaksiyaning bajarilishi:** marganes tuzining 2–3 tomchi eritmasiga o‘shancha ishqor yoki  $\text{NH}_4\text{OH}$  qo‘shiladi. Saqlab qo‘yilgan cho‘kmaning rangi asta-sekin o‘zgaradi.

## **Zn<sup>2+</sup> kationiga xos reaksiyalar**

Rux ionining tuzlari rangsiz. Tajribalarda ZnSO<sub>4</sub> yoki ZnCl<sub>2</sub> tuzlarining eritmalaridan foydalanish mumkin.

**1. Vodorod sulfid bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Vodorod sulfid rux ionlari bilan sulfidning oq cho'kmasini hosil qiladi:



Hosil bo'lgan cho'kma xlorid kislotada qisman erigani uchun cho'ktirish to'liq bo'lmaydi.

**Reaksiyaning bajarilishi:** probirkaga rux tuzi eritmasidan 4–5 tomchi, CH<sub>3</sub>COONa tuzi eritmasidan 2–3 tomchi solinadi va tayyorlangan aralashma orqali vodorod sulfid o'tkaziladi.

**2. O'yuvchi ishqorlar va NH<sub>4</sub>OH bilan o'tkaziladigan reaksiya.** NaOH va KOH rux tuzlari eritmasidan rux gidroksidni iviqsimon oq cho'kma holida cho'ktiradi:



Rux gidroksid, aluminiy va xrom(III) gidroksidlari kabi amfoter xossalarga ega va shuning uchun ham kislotalarda, ham ishqorlarda eriydi.

**Reaksiyaning bajarilishi:** rux tuzining 2–3 tomchi eritmasiga ishqor eritmasidan avval 1 tomchi, keyin esa ko'p miqdorda qo'shiladi. Cho'kmaning tushishi va keyinchalik uning erishi kuzatiladi.

## **Co<sup>2+</sup> kationiga xos reaksiyalar**

Kobalt (II) tuzlarining eritmalarini pushti rangli bo'ladi. Reaksiyalarni CoCl<sub>2</sub> yoki Co(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> tuzlarining suvdagi eritmalarini bilan o'tkazish mumkin.

**1. O'yuvchi ishqorlar yoki NH<sub>4</sub>OH bilan o'tkaziladigan reaksiyalar.** Co<sup>2+</sup> ionining tuzlari eritmalariga NaOH yoki KOH ta'sir ettirilganda asosli tuzlarning zangori rangli cho'kmalari hosil bo'ladi:



Agar eritmalar aralashmasi isitilib, yana ishqor qo'shilsa, zangori rangli cho'kma Co(OH)Cl pushti rangli cho'kmaga o'tadi, ya'ni Co(OH)<sub>2</sub> hosil bo'ladi.

**Reaksiyaning bajarilishi:** 4–5 tomchi Co<sup>2+</sup> tuzi eritmasiga NH<sub>4</sub>OH eritmasidan dastlab bir tomchi, so'ngra cho'kma to'liq eriguncha qo'shing.

**2. Ammoniy rodanid bilan o'tkaziladigan reaksiya.**  $\text{NH}_4\text{CNS}$  kobalt ioni bilan  $(\text{NH}_4)_2\text{Co}(\text{CNS})_4$  tarkibli zangori rangli kompleks birikma hosil qiladi:



Eritmaga amil spirt qo'shib chayqatilganda hosil bo'lgan kompleks birikma organik erituvchilar qatlamiga o'tib, uni zangori rangga bo'yaydi, reaksiyaning sezgirligi ortadi.

**Reaksiyaning bajarilishi:** 2 tomchi  $\text{Co}^{2+}$  tuzi eritmasiga 8 tomchi  $\text{NH}_4\text{CNS}$  ning to'yingan eritmasidan va 5–6 tomchi amil spirt qo'shiladi va probirka chayqatiladi.

### **Ni<sup>2+</sup> kationiga xos reaksiyalar**


Nikel (II) tuzining suvdagi eritmalar yashil rangli bo'ladi. Tajribalarni  $\text{NiCl}_2$ , yoki  $\text{NiSO}_4$  tuzlarining suvdagi eritmalaridan foydalanib o'tkazish mumkin.

**1. O'yuvchi ishqorlar yoki  $\text{NH}_4\text{OH}$  eritmasi bilan o'tkaziladigan reaksiyalar.**  $\text{NaOH}$  yoki  $\text{KOH}$   $\text{Ni}^{2+}$  ioni bilan yashil rangli cho'kma  $\text{Ni}(\text{OH})_2$  hosil qiladi:



**Reaksiyaning bajarilishi:**  $\text{NiCl}_2$  tuzining 4–5 tomchi eritmasiga 1–2 tomchi o'yuvchi ishqor eritmasidan qo'shiladi. Cho'kma kislotalarda, ammiak va ammoniyli tuzlarning eritmalarida eriydi. Ammiak  $\text{NiSO}_4$  eritmasidan avval asosli tuz  $(\text{NiOH})_2\text{SO}_4$  ning yashil cho'kmasini, so'ngra ortiqcha  $\text{NH}_4\text{OH}$  da uni eritib, zangori tusli kompleks tuzni hosil qiladi.

**2. Dimetilglioksim reaktivi bilan o'tkaziladigan reaksiya.**  $\text{Ni}^{2+}$  ioni bilan dimetilglioksim  $(\text{CH}_3\text{CNOH})_2$  ammiakli muhitda lola rang qizil cho'kma – ichki kompleks tuzi hosil qiladi.



**Reaksiyaning bajarilishi:** nikel tuzining 2–3 tomchi eritmasiga 4–5 tomchi suyultirilgan  $\text{NH}_4\text{OH}$  eritmasidan va dimetilglioksimning spirtdagi 1% li eritmasidan 2–3 tomchi qo'shilsa, cho'kma nikel dimetilglioksimat hosil bo'ladi.

### **Mustaqil ta'lim uchun savol va mashqlar:**

- III guruh kationlarining har biri uchun xarakterli reaksiylarni yozing.

- 2. Nima uchun guruh reagent ta'sirida III guruh kationlarining ayrimlari gidroksid, qolganlari sulfidlar holida cho'kmaga tushadi?*
- 3. III guruh kationlar birikmalarining biologik ahamiyatini izohlang.*
- 4.  $Al^{3+}$  va  $Cr^{3+}$  kationlari III guruhning qolgan kationlaridan qanday ajratiladi?*

#### ♦ Laboratoriya ishi № 1.8

### IV guruh kationlari va ularning sifat reaksiyalari

IV guruh kationlariga quyidagi metallarning kationlari kiradi:  $Ag^{+1}$ ,  $Hg^{+1}$ ,  $Pb^{+2}$ ,  $Cu^{+2}$ ,  $Hg^{+2}$ ,  $Cd^{+2}$ ,  $Bi^{+3}$ . Bu kationlarning sulfidlari:  $Ag_2S$ ,  $Hg_2S$ ,  $PbS$ ,  $CuS$ ,  $HgS$ ,  $CdS$ ,  $Bi_2S_3$ , suvda va kislota eritmalarida erimaydi, konsentrangan  $HNO_3$  da eriydi. Bu guruh kationlariga umumiy reaktiv  $H_2S$ .

IV guruh kationlari ikkita guruhchaga bo'linadi.

I guruhchaga  $Ag^+$ ,  $Hg^+$ ,  $Pb^{2+}$  ionlari kiradi, ularning xloridlari  $AgCl$ ,  $HgCl$ ,  $PbCl_2$  suvda erimaydigan oq rangli cho'kmalardir. Shuning uchun kumush guruhchasiga alohida guruh reaktiv qilib  $HCl$  qo'llaniladi.

II guruhcha mis guruhchasi deyiladi. Uning tarkibiga  $Cu^{2+}$ ,  $Hg^{+2}$ ,  $Cd^{+2}$ ,  $Bi^{+3}$  kationlari kiradi. Bu kationlarning xloridlari  $CuCl_2$ ,  $HgCl_2$ ,  $CdCl_2$ ,  $BiCl_3$  suvda eriydi.  $HCl$  ta'siri ostida IV guruh kationlarini 2 ta guruhchaga bo'lish mumkin. Kumush guruhchasi cho'kadi, mis guruhchasi eritmada qoladi. Filtrlash natijasida ularni bir-biridan ajratiladi. Eritmada qolgan kationlarni cho'ktirish uchun  $H_2S$  dan foydalaniladi.

IV guruh kationlarining ayrim birikmalari muhim biologik xususiyatga ega.  $Ag^+$  ioni bakterisid, lyapis sifatida  $AgNO_3$  tibbiyotda va veterinariyada qo'llaniladi.

Simob metallining bug'lari va  $Hg^{2+}$  ning tuzlari zaharli, asab tizimini zaharlaydi.  $HgCl_2$  sulema sabzavot urug'larini zamburug' va bakteriya sporalaridan saqlaydigan preparat.  $HgI_2$  teri kasalliklarini davolashda dorivor modda sifatida ishlatiladi. Simob (I) xlorid  $Hg_2Cl_2$  zaharsiz, veterinariyada surgi dorisidir.







Qo'rg'oshin metali va uning barcha tuzlari zaharli.

Vismutning  $\text{Bi}_2\text{O}_2(\text{OH})\text{NO}_3$  tuzi me'danining ayrim kasalliklari da antiseptik va yarani tuzatadigan dorilar tarkibiga kiradi.





Mis birikmalari ham zaharli, shu sababli mis idishlar qalay bilan qoplanadi.  $\text{CuSO}_4$  veterinariyada antigelment preparati, o'simliklardagi zamburug'li (bug'doydag'i qorakuya) kasalliklarga qarshi kurashda qo'llaniladi.  $\text{Cu}^{2+}$  ioni mikroelement holida o'simliklar uchun juda zarur, u uglevodlar almashinuviga ta'sir ko'rsatadi, o'simliklarni zamburug' kasalliklariga chidamliligini oshiradi. Tuproq tarkibida mis ionlari miqdorining kamayishi ekin hosildorligini kamayishiga olib keladi. Oziqa tarkibida  $\text{Cu}^{2+}$  ionlarining yetishmasligi hayvonlarda kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'ladi.

#### ❖ Guruh reaktivining ta'sir qilishi


IV guruh kationlariga umumiy guruh reaktivi  $\text{H}_2\text{S}$ . Uning ta'siri ostida kationlarning suvda eritmaydigan sulfidlari hosil bo'ladi:



#### Mis guruhchasiga guruh reaktivining ta'sir qilishi:



qora




#### ❖ Kumush kationining xususiy reaksiyalari

##### 1. Ishqorlar bilan o'tkaziladigan reaksiya:

O'yvchi ishqorlar va ammoniy gidroksid kumush ionlari bilan kumush oksidining qo'ng'ir cho'kmasini hosil qiladi:




$\text{Ag}_2\text{O}$  – kislota va ishqorlarda erimaydi, faqat  $\text{HNO}_3$  va ortiqcha  $\text{NH}_4\text{OH}$  da eriydi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** kumush nitratning 2–3 tomchi eritmasiga shuncha ishqor eritmasi qo’shiladi, qo‘ng‘ir cho‘kma hosil bo‘lishi kuzatiladi.

## 2. Kaliy xromat bilan o‘tkaziladigan reaksiya.

$\text{K}_2\text{CrO}_4$  kumush ionlari bilan kumush xromatning qizil g‘isht tunganli cho‘kmasini hosil qiladi:




Cho‘kma nitrat kislotada va ammoniy gidroksidda eriydi, lekin shunga kislotada erimaydi.

**Reaksiyaning bajarilishi:** kumush nitratning 1–2 tomchi eritmasiga shuncha kaliy xromat eritmasi quyiladi.

## 3. Xlorid kislota bilan o‘tkaziladigan reaksiya.


$\text{HCl}$  va uning eruvchan tuzlari kumush ionlari bilan kumush xloridning oq cho‘kmasini hosil qiladi:



$\text{AgCl}$  cho‘kmasi yorug‘da parchalanib, kumush metali ajralib chuqishi sababli qorayadi. Kumush xlorid suyultirilgan kislotalarda erimaydi, lekin ammoniy gidroksidda eriydi va kompleks tuz hosil qiladi:




Ozroq nitrat kislota quyilganda kompleks tuz parchalanadi va yana qaytadan kumush xlorid cho‘kmasi tushadi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** kumush nitratning 2–3 tomchi eritmasiga 2–3 tomchi xlorid kislota eritmasi qo’shiladi. Cho‘kmali eritmaga 5–6 tomchi ammiak eritmasi qo’shiladi va aralashma chayqatiladi. Cho‘kmaning erishi kuzatiladi. Olingan eritmaga bir necha tomchi nitrat kislota tomiziladi. Kumush xlorid cho‘kmasi tushishi kuzatiladi.

## 4. Kaliy yodid bilan o‘tkaziladigan reaksiya.

$\text{KI}$  kumush ionlari bilan kumush yodidning  $\text{NH}_4\text{OH}$  da erimaydigan sariq cho‘kmasini hosil qiladi:




**Reaksiyaning bajarilishi:** kumush tuzining 2–3 tomchi eritmasiga shuncha kaly yodid qo'shiladi.


❖ **Qo'rg'oshin kationining xususiy reaksiyalari**

**1. O'yuvchi ishqorlar bilan o'tkaziladigan reaksiya.**

NaOH va KOH qo'rg'oshin ionlari bilan qo'rg'oshin gidroksidning oq cho'kmasini hosil qiladi:



Qo'rg'oshin gidroksid amfoter xususiyatga ega – nitrat va sirka kislotalarda hamda mo'l ishqorda eriydi:




**Reaksiyaning bajarilishi:** qo'rg'oshin tuzining 3–4 tomchi eritmasiga cho'kma tushishiga qarab 1–2 tomchi ishqor eritmasidan tomiziladi. Olingan cho'kma ikki qismga bo'linadi: biriga ozroq nitrat kislota, ikkinchisiga mo'l miqdorda ishqor qo'shiladi.


Ikkala holda ham cho'kmaning erishi kuzatiladi.

**2. Sulfat kislota bilan o'tkaziladigan reaksiya.**

H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> va uning eruvchan tuzlari qo'rg'oshin ionlari bilan qo'rg'oshin sulfatning oq cho'kmasini hosil qiladi:




Qo'rg'oshin sulfat o'yuvchi ishqorlar bilan qizdirilganda erib, plumbitlar hosil qiladi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** qo'rg'oshin tuzining 2–3 tomchi eritmasiga 3–4 tomchi sulfat kislota qo'shiladi. Olingan cho'kmaga ozroq ishqor eritmasi quyiladi va aralashma qizdiriladi. Cho'kmaning erishi kuzatiladi.

**3. Kaliy xromat bilan o'tkaziladigan reaksiyalar.**




K<sub>2</sub>CrO<sub>4</sub> yoki Na<sub>2</sub>CrO<sub>4</sub> qo'rg'oshin ionlari bilan qo'rg'oshin xromatning sariq cho'kmasini hosil qiladi:



Cho'kma sirkə kislotada erimaydi, lekin nitrat kislotası va ishqorlarda eriydi.

#### 4. Kaliy yodid bilan o'tkaziladigan reaksiya.

KI qo'rg'oshin ionları bilan issiq suvda kaliy yodidning ortiqcha miqdori va sirkə kislotada eriydigan sariq cho'kma hosil qiladi:




*Reaksiyaning bajarilishi:* qo'rg'oshin nitratning 2–3 tomchi eritmasiga shuncha kaliy yodid qo'shiladi. Olingan cho'kmali eritmaga 8–10 tomchi distillangan suv qo'shiladi va cho'kma to'liq eriguncha qizdiriladi. Shundan so'ng eritmali probirka vodoprovod jo'mragi ostida suvda sovutiladi yoki asta-sekin sovutish uchun probirka shtativda qoldiriladi. Oltin rang-sariq tangasimon cho'kma tushishi kuzatiladi. Cho'kmaga bir necha tomchi kaliy yodid eritmasi tomiziladi va uning erishi kuzatiladi.


#### Cu<sup>2+</sup> kationning xususiy reaksiyalari

##### 1. Ishqorlar bilan o'tkaziladigan reaksiya.



Mis tuzi eritmasiga ishqor eritmasi qo'shilganda havorang Cu(OH)<sub>2</sub> cho'kmasi hosil bo'ladi:



Cu(OH)<sub>2</sub> – ishqorlarda erimaydi, kislotalarda eriydi. Uni qizdirsak cho'kma qorayadi:



##### 2. Sariq qon tuzi bilan o'tkaziladigan reaksiya.




Cho'kma suyultirilgan kislotalarda erimaydi, ammoniy gidroksidda erib mis ammiakatni hosil qiladi.

## **Hg<sup>2+</sup> kationing xususiy reaksiyalari.**

Mis metali bilan o'tkaziladigan reaksiya.

Mis metali simobni uning tuzlari eritmalaridan qaytaradi:




**Reaksiyaning bajarilishi:** mis plastinkasiga simob (II) tuzi eritmasidan 1–2 tomchi tomiziladi. Biroz vaqtadan so'ng plastin-kada, uni filtr qog'oz bilan artilganda yaltiroq tusga kiradigan kulrang dog' paydo bo'ladi.

## **Hg<sub>2</sub><sup>2+</sup> kationining xususiy reaksiyalari.**

### **1. Xlorid kislota bilan o'tkaziladigan reaksiya.**

HCl va uning eruvchan tuzlari bir valentli simob ionlari bilan oq rangli simob (I) xlorid cho'kmasini hosil qiladi.




Cho'kma ammoniy gidroksid tasirida kompleks birikma oq rangli simob amidxlorid va qora rangli mayda simob metali hosil bo'lishi natijasida qorayadi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** simob (I) nitrat eritmasining 2 tomchisiga shuncha xlorid kislota qo'shiladi. Oq cho'kma tushushi kuzatiladi. Olingan cho'kmaga 2–3 tomchi ammiak eritmasi qo'shiladi va cho'kmaning qorayishi kuzatiladi.

### **2. O'yuvchi ishqorlar bilan o'tkaziladigan reaksiya.**


NaOH va KOH simob (I) tuzlarining eritmalarini bilan simob (I) oksidini qora cho'kmasini hosil qiladi:



Reaksiyaning bajarilishi. Simob (I) tuzining 2–3 tomchi eritmasiga shuncha ishqor eritmasi qo'shiladi.

### **3. Kaliy xromat bilan o'tkaziladigan reaksiya.**


K<sub>2</sub>CrO<sub>4</sub> simob (I) tuzlari bilan qizdirilganda nitrat kislotada eriydigan qizil rangli simob (I) xromat cho'kmasini hosil qiladi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** simob (I) tuzining 2–3 tomchi eritmasiga shuncha kaliy xromat qo'shiladi.

#### **4. Kaliy yodid bilan o'tkaziladigan reaksiya.**



KI simob (I) tuzlari eritmalaridan simob (I) yodidni loyqa-yashil cho'kma holida cho'ktiradi.






**Reaksiyaning bajarilishi:** simob (I) nitratning 2–3 tomchi eritmasiga 2–3 tomchi kaliy yodid qo'shiladi va cho'kma tushishi kuzatiladi. Cho'kmaga bir necha tomchi reaktiv qo'shiladi va uning erishi kuzatiladi.

#### **Vismut kationining xususiy reaksiyalari:**

Vismut kationining eruvchan tuzlari ikki valentli qalay ionlarini stannat ionlarigacha oksidlaydi, bunda vismut metalining qora cho'kmasi ajralib chiqadi:



yoki ionli ko'rinishida:



**Reaksiyaning bajarilishi:** 2–3 tomchi  $\text{SnCl}_2$  eritmasiga avval hosil bo'lgan  $\text{Sn}(\text{OH})_2$  ni to'liq erib ketguncha ishqor eritmasidan qo'shiladi. Hosil bo'lgan eritmaga  $\text{Bi}(\text{NO}_3)_3$  tuzi eritmasidan bir tomchi qo'shiladi. Qora cho'kma – vismut kristali hosil bo'lishi kuzatiladi.

#### **Mustaqil ta'lif uchun savol va mashqlar:**


1. Nima uchun IV guruh kationlari ikkita guruhchalarga bo'linadi?
2. Qaysi kationlarning birikmalari dorivor modda sifatida qo'llaniladi?
3. Qaysi kationlarning tuzlari zaharli preparatlar sifatida ishlataladi?
4.  $\text{Cu}^{2+}$  ionining mikroelement sifatidagi rolini izohlang.

#### **♦ Laboratoriya ishi № 1.9**


#### **V guruh kationlari va ularning sifat reaksiyalari**

V analitik guruh kationlari  $\text{As}^{3+}$ ,  $\text{As}^{5+}$ ,  $\text{Sb}^{3+}$ ,  $\text{Sb}^{5+}$ ,  $\text{Sn}^{2+}$  va  $\text{Sn}^{4+}$  kationlaridan iborat bo'lib, ushbu kationlarning sulfidlarining suvda eruvchanligi IV analitik guruh kationlarining eruvchanligidan


ancha kichik. Ammo IV analitik guruh kationlaridan V guruh kationlari o‘z xossalariiga ko‘ra farq qiladi, Ularning SnS dan boshqa sulfidlari Na<sub>2</sub>S, K<sub>2</sub>S, (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>S ta’sirida tiotuzlar hosil qilib suvda eruvchan shaklga o‘tadi. Masalan,




V guruh kationlari eritma muhiti pH=0,5 bo‘lganda H<sub>2</sub>S ta’sirida sulfidlар hosil qilib cho‘kmaga tushadi. Buning uchun tekshirilayotgan eritmaga ko‘proq HCl qo‘siladi va unga vodorod sulfid yuboriladi(mo‘rili shkaf ostida). Natijada V guruh kationlari sulfidlар shaklida cho‘kmaga tushadi. Masalan,



Eritma muhiti neytral yoki ishqoriy bo‘lsa H<sub>2</sub>S yoki (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>S ta’sirida kationlar cho‘kmaga tushmaydi, sababi tiotuzlarning hosil bo‘lishidir, ya’ni:



Tiotuzlarga HCl ta’sir etib tiokislotalar hosil bo‘ladi, ammo ular beqaror bo‘lgani uchun darhol parchalanadi:



Demak, eritmaga qo‘silgan HCl birinchidan, tiotuzlarni parchalaydi, ikkinchidan, hosil bo‘lgan sulfid tuzlarining kolloid holida eritmaga o‘tishiga to‘sinqinlik qiladi.

V analitik guruh kationlaridan mishyak birikmalari muhim biologik ahamiyatga ega. Mishyak birikmalari juda kam miqdorda hayvon va o‘simliklar to‘qimalarida bo‘ladi, ularning o‘sishiga va rivojlanishiga ijobiy ta’sir etadi. Tuproqda K<sub>3</sub>AsO<sub>3</sub>, kaliy arsenit tuzining bo‘lishi arpa, karam va shu kabi boshqa o‘simliklarning hosildorligining ortishiga olib keladi. Mishyak birikmalari (ayniqsa, As<sup>3+</sup>) zaharli bo‘lgani uchun qishloq xo‘jaligida kemiruvchi zararkunandalarga qarshi kurashda ishlatiladi.


#### ❖ Mishyak ionlariga xos reaksiyalar

Mishyak birikmalari zaharli, shuning uchun ular bilan o’tkalayotgan tajribalarda xavfsizlik texnikasi qoidalariga to‘liq rioya etish lozim.

## **As<sup>3+</sup> ioniga xos reaksiya**

### **1. Kumush nitrat bilan o'tkaziladigan reaksiya.**

AgNO<sub>3</sub>, AsO<sub>3</sub><sup>3-</sup> ionlari bilan sariq rangli kumush arsenit cho'kmasini hosil qiladi:




Cho'kma HNO<sub>3</sub> va NH<sub>4</sub>OH da eriydi. Cho'kma NH<sub>4</sub>OH da eriganda kompleks ionlar [Ag(NH<sub>3</sub>)<sub>2</sub>]<sup>+</sup> hosil bo'ladi. Unga ozroq kislota qo'shilganda kompleks ion parchalanib, yana cho'kma hosil bo'ladi.

**Reaksiyaning bajarilishi:** natriy arsenitning 3–4 tomchi eritmasiga 2–3 tomchi reaktiv eritmasi qo'shiladi.

### **2. Yodli suv bilan o'tkaziladigan reaksiya.**

Yod eritmasi arsenit-ionlar AsO<sub>3</sub><sup>3-</sup> ni arsenat ionlar AsO<sub>4</sub><sup>3-</sup> gacha oksidlaydi, yodning o'zi esa yod ionlarigacha qaytariladi va eritma rangsizlanadi:




**Reaksiyaning bajarilishi:** 3–4 tomchi Na<sub>3</sub>AsO<sub>3</sub> eritmasiga bir necha bo'lak NaHCO<sub>3</sub> kristallari va 1–2 tomchi yod eritmasi qo'shiladi.

## **As<sup>5+</sup> ioniga xos reaksiyalar**

### **1. Kumush nitrat bilan o'tkaziladigan reaksiya.**

AgNO<sub>3</sub>, AsO<sub>4</sub><sup>3-</sup> ionlari bilan shokolad rangli kumush arsenat cho'kmasini hosil qiladi:



Cho'kma HNO<sub>3</sub> da va NH<sub>4</sub>OH da eriydi.


NH<sub>4</sub>OH da erishi quyidagi tenglamaga muvosiq amalgam oshadi:




**Reaksiyaning bajarilishi:** natriy arsenatning 2–3 tomchi eritmasiga 2–3 tomchi kumush nitrat eritmasi qo'shiladi. Olingan cho'kmaga ammoniy gidroksid qo'shilganda cho'kma eriydi.

### **2. Kaliy yodid bilan o'tkaziladigan reaksiya.**

KI kislotali muhitda arsenat-ionlar tasirida erkin yodgacha oksidlanadi va eritma sariq rangga kiradi.





**Reaksiyaning bajarilishi:** natriy arsenatning 2–3 tomchi eritmasiga 1–2 tomchi 6N. HCl eritmasi, 3 tomchi benzin yoki benzol, so‘ngra chayqatib turib bir necha tomchi KI eritmasi qo‘shiladi. Ajralib chiqqan yod benzin qatlamiga o‘tib, uni binafsha rangga bo‘yaydi.

### 3. Magnezial aralashmasi bilan o‘tkaziladigan reaksiya.

(MgCl<sub>2</sub> + NH<sub>4</sub>OH + NH<sub>4</sub>Cl) reaktivи arsenat ionlari ta’sirida magniy-ammoniy arsenatning oq kristall cho‘kmasini hosil qiladi:




Cho‘kma mineral kislotalarda eriydi, lekin NH<sub>4</sub>OH da eri-maydi.

**Reaksiyaning bajarilishi:** magniy xlorid tuzining 2–3 tomchi eritmasiga 2–3 tomchi ammoniy gidroksid va cho‘kmaga tushgan Mg(OH)<sub>2</sub> erishi uchun xuddi o‘shancha ammoniy xlorid qo‘shiladi. Olingan tiniq eritma qizdiriladi va unga cho‘kma paydo bo‘lguncha tomchilatib natriy arsenat qo‘shiladi.

### 4. Molibden suyuqligi bilan o‘tkaziladigan reaksiya.

Reaktiv ((NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>MoO<sub>4</sub> ning HNO<sub>3</sub> dagi eritmasi) arsenat ionlar bilan ammoniy arsenomolibdatning ishqorlarda va ammoniy gidroksidda eriydigan sariq kristall cho‘kmasini hosil qiladi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** 2–3 tomchi natriy arsenat eritmasiga 10–15 tomchi reaktiv va ozgina HNO<sub>3</sub> qo‘shib qizdiriladi.


Qalay ionlariga xos reaksiyalar

Qalay Sn<sup>2+</sup> yoki Sn<sup>4+</sup> oksidlanish darajasi holatlarida rangsiz birikmalarni hosil qiladi.

### Sn<sup>2+</sup> ioniga xos reaksiyalar

#### 1. Temir(III) xlorid bilan o‘tkaziladigan reaksiya.

Sn<sup>2+</sup> ioni Fe<sup>3+</sup> ionini Fe<sup>2+</sup> ga qadar qaytaradi, hosil bo‘lgan Fe<sup>2+</sup> kationi qizil qon tuzi K<sub>3</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>] bilan trunbul zangorisini hosil qiladi:




**Reaksiyaning bajarilishi.**  $\text{FeCl}_3$  eritmasidan 4–5 tomchi olib, unga 2 tomchi  $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$  va 3 tomchi qalay (II) xlorid qo'shib uralushtiriladi.


### **$\text{Sn}^{4+}$ ioniga xos reaksiyalar**

#### **1. O'yuvchi ishqorlar va ammoniy gidroksid bilan o'tkaziladigan reaksiya.**


NaOH, KOH va  $\text{NH}_4\text{OH}$  qalay (IV) ionlari bilan ortostannat kislotasining  $\text{H}_4\text{SnO}_4$  oq amorf cho'kmasini hosil qiladi.



Cho'kma ortiqcha miqdordagi natriy ishqorida erib, natriy stannatni hosil qiladi:



Shuningdek, cho'kma xlorid kislotada ham eriydi:



**Reaksiyaning bajarilishi:**  $\text{SnCl}_4$  tuzining 4–5 tomchi eritmasiga cho'kma hosil bo'lguncha tomchilatib ishqor qo'shiladi. Cho'kmanning ortiqcha miqdordagi ishqorda erishi sinab ko'rildi.

#### **2. Temir metali bilan o'tkaziladigan reaksiya.**

Qalay (IV) ionlari temir ta'sirida  $\text{Sn}^{2+}$  ionlarigacha qaytariladi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** 3–4 tomchi  $\text{SnCl}_4$  eritmasiga 2–3 tomchi 2N HCl qo'shiladi va unga temirning bir necha bo'lakchasi solinadi. Aralashma biroz vaqt suv hammomida qizdiriladi. So'ngra olingen eritmaga kuchli ishqoriy muhitga kelguncha ishqor qo'shib, temir (II) gidroksidining tushgan cho'kmasi ajratiladi va stannat eritmasiga vismut tuzi eritmasidan 1–2 tomchi ta'sir ettiriladi. Eritmada qalay (II) ionlari bo'lganda vismut metalining qora pag'a-pag'a cho'kmasi hosil bo'ladi.

#### **Mustaqil ta'slim uchun savol va mashqlar:**

1. V guruh kationlarining sulfidlari va tiotuzlari qanaqa sharoitda hosil bo'ladi?
2. Mishyak birikmalarining qishloq xo'jaligida ishlatalishi.
3. Qalay va uning qotishmalaridan xalq xo'jaligida foydalanilishi.
4. Nima sabadan V guruh kationlari faqat kislotali muhitdagina  $\text{H}_2\text{S}$  ta'sirida cho'kmaga tushadi?

## ♦ Laboratoriya ishi № 1.10

### Anionlar klassifikatsiyasi

Anionlarni guruhlarga bo'lish reaktivlarning turli xil ta'siriga asoslangan. Reaktivlar sifatida bariy, stronsiy, magniy, kalsiy, kumush qo'rg'oshin va boshqa metallarning tuzlari eritmalari, kislotalar, oksidlovchi va qaytaruvchilar ishlataladi. Bu reaktivlar anionlar bilan gaz moddalar, cho'kmalar va o'ziga xos rangli birikmalar hosil qiladi.

**I guruh anionlariga**  $\text{SO}_4^{2-}$ ,  $\text{SO}_3^{2-}$ ,  $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$ ,  $\text{CO}_3^{2-}$ ,  $\text{PO}_4^{3-}$ ,  $\text{SiO}_3^{2-}$  lar kiradi. Bu guruh anionlari bariy kationi bilan neytral yoki kuchsiz ishqoriy sharoitda suvda erimaydigan, lekin suyultirilgan mineral kislotalarda eriydigan ( $\text{BaSO}_4$  dan tashqari) tuzlarni hosil qiladi.

**II guruh anionlariga**  $\text{Cl}^-$ ,  $\text{Br}^-$ ,  $\text{I}^-$ ,  $\text{S}^{2-}$  lar kiradi. Bu guruh anionlari kumush nitrat eritmasi bilan nitrat kislota ishtirokida suvda va suyultirilgan nitrat kislotalarda erimaydigan tuzlarni hosil qiladi.

**III guruh anionlariga**  $\text{NO}_3^-$ ,  $\text{CH}_3\text{COO}^-$ ,  $\text{NO}_2^-$  lar kiradi. Ularning bariyli va kumushli tuzlari suvda eriydi.

### Anionlarning analitik guruhlarga bo'linishi

| Analitik Guruh | Anionlar  | Guruh reagent   | Hosil bo'lgan cho'kma tavsifi  |
|----------------|---|---|--|
| I              | $\text{SO}_4^{2-}$ , $\text{SO}_3^{2-}$ , $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$ , $\text{CO}_3^{2-}$ , $\text{PO}_4^{3-}$ , $\text{SiO}_3^{2-}$ | $\text{BaCl}_2$ neytral yoki kuchsiz ishqoriy muhitda | Bariyli tuzlari suvda erimaydi                                       |
| II             | $\text{Cl}^-$ , $\text{Br}^-$ , $\text{I}^-$ , $\text{S}^{2-}$  | $\text{AgNO}_2$ N nitrat kislota eritmasi ishtirokida | Kumushli tuzlari suvda va suyultirilgan nitrat kislotalarda erimaydi |
| III            | $\text{NO}_3^-$ , $\text{CH}_3\text{COO}^-$ , $\text{NO}_2^-$   | Umumiy reagent yo'q                                   | Bariyli va kumushli tuzlari suvda eriydi                             |

**I analitik guruh anionlari:**  $\text{SO}_4^{2-}$ ,  $\text{SO}_3^{2-}$ ,  $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$ ,  $\text{CO}_3^{2-}$ ,  $\text{PO}_4^{3-}$ ,  $\text{SiO}_3^{2-}$  ga umumiy tavsif

I guruh anionlarining umumiy guruh reagenti – bariy xlorid  $\text{BaCl}_2$ , faqat neytral yoki kuchsiz ishqoriy muhitda ularni

cho'ktiradi.  $\text{Ba}^{2+}$  kationi bilan birinchi guruh anionlari suvda kam eriydigan, lekin suyultirilgan mineral kislotalarda oson eriydigan (bariy sulfat ( $\text{BaSO}_4$ ) dan tashqari) tuzlar hosil qiladi.

I guruh anionlarini aniqlash muhim amaliy ahamiyatga ega, ularning birikmalari qishloq xo'jaligida keng miqyosda qo'llaniladi.  $\text{K}_2\text{SO}_4$ ,  $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$  mineral o'g'itlar tarkibiga kiradi, mis kuporosi ( $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ ) va temir kuporosi ( $\text{FeSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$ ) qishloq xo'jaligida o'simliklar zararkunandalariga qarshi kurashda ishlataladi.


Tuproqda  $\text{CaCO}_3$ ,  $\text{MgCO}_3$  lar boshqa karbonatlarga nisbatan ko'proq bo'ladi, ishqoriy metallarning karbonatlari juda oz miqdorda bo'ladi. Kalsiy karbonat, dolomit ( $\text{CaCO}_3 \cdot \text{MgCO}_3$ ) kislotali tuproqlarni neytrallash uchun ishlataladi.

Tuproqda, shuningdek, fosfatlar bo'lib, ularning bir qismini o'simliklar o'zlashtira oladigan holatda bo'ladi. Fosfor o'simliklar oziqlanishi uchun zarur makro elementlardan bo'lgani uchun, uning tuproqda yetishmasligi fosforli o'g'itlarni tuproqqa solish yo'li bilan to'ldiriladi. Bu o'g'itlarning ko'pchiligi fosfat kislotaning tuzlaridir. Chunonchi, fosforit va apatit tarkibida kalsiy fosfat ( $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$ ) saqlanadi. Mineral o'g'itlardan pretsipitat tarkibi —  $\text{Ca}_2\text{HPO}_4$  dan, qo'sh superfosfatniki esa —  $\text{Ca}(\text{H}_2\text{PO}_4)_2$  dan iborat. Hayvonlarda fosfatlarning asosiy qismi suyaklar to'qimalarida bo'ladi. Kreminiy birikmalari ba'zi bir o'simliklarda, masalan, donli o'simliklar tanasida to'planadi. Tuproqda silikatlarning yetishmasligidan makkajo'xori, arpa, lavlagi kabi o'simliklarning o'sishi sekinlashadi.

### Sulfat anioni $\text{SO}_4^{2-}$ ning xususiy reaksiyalari

Iajribalarni bajarishda sulfat kislotaning suvda yaxshi eriydigan tuzlarining rangsiz eritmalaridan foydalanish mumkin.


**1. Bariy xlorid  $\text{BaCl}_2$  bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Reaktiv  $\text{SO}_4^{2-}$  anionlari bilan ta'sirlashib,  $\text{BaSO}_4$  ning oq kristall cho'kmasini hosil qiladi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** probirkaga natriy sulfat eritmasidan 4—5 tomchi solib, unga  $\text{BaCl}_2$  eritmasidan 4—5 tomchi qo'shiladi.

Bir daqiqada  $\text{BaSO}_4$  ning oq kristall cho'kmasi hosil bo'ladi, bu cho'kmani ikkiga bo'lib, xlorid kislotada va ishqorda erishi tekshiriladi.

**2. Qo'rg'oshin atsetat  $\text{Pb}(\text{CH}_3\text{COO})_2$  bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Bu reaktiv  $\text{SO}_4^{2-}$  anionlari bilan  $\text{PbSO}_4$  ning oq kristall cho'kmasini hosil qiladi:




**Reaksiyaning bajarlishi:** probirkadagi natriy sulfatning 4–5 tomchi eritmasiga 3–4 tomchi qo'rg'oshin (II) atsetat eritmasidan qo'shilsa, suyultirilgan kislotalarda erimaydigan, lekin o'yuvchi ishqorlarda eruvchi oq kristall cho'kma hosil bo'ladi.

### Sulfit anioni $\text{SO}_3^{2-}$ ning xususiy reaksiyalari

Reaksiyalarni o'tkazishda  $\text{SO}_3^{2-}$  ning tuzlarining suvli eritmalaridan foydalaniladi.

**1. Bariy xlorid  $\text{BaCl}_2$  bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Ushbu reaktiv eritmadagi  $\text{SO}_3^{2-}$  anionlari bilan bariy sulfitning oq cho'kmasini hosil qiladi:




Hosil bo'lgan cho'kma xlorid va nitrat kislotalarida erishi natijasida oltingugurt (IV) oksidi ajralib chiqadi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** Probirkaga natriy sulfitning eritmasidan 4–5 tomchi solib, shuncha miqdorda reagent, eritmasidan qo'shilsa, oq cho'kma hosil bo'ladi.

Cho'kma kislotalarda eritilganda yonayotgan oltingugurt hidiga o'xhash bo'lgan oltingugurt (IV) oksidi ajralib chiqadi.

**2. Yodli yoki bromli suv bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Ular sulfit tuzlari eritmalarida rangsizlanadi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** probirkaga 1–2 tomchi yodli suvdan solinadi, ustiga sulfit tuzi eritmasidan 3–4 tomchi va 5 tomchi  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasidan qo'shiladi. Bunda qo'ng'ir rangli yod eritmasi rangsizlanadi.

Reaksiyani neytral va kislotali muhitlarda olib borish mumkin. Muhit pH<7 bo'lganda bu reaksiya to'liq boradi. Ishqoriy muhitda I<sub>2</sub> ning rangi disproportsiya reaksiyasi hisobiga rangsizlanadi:

Qaytaruvchi va oksidlovchi-ionlarning eritmada bo'lishi reaksiyaning ketishiga xalaqit beradi.

**3. Fuksin eritmasi bilan o'tkaziladigan reaksiya.** SO<sub>3</sub><sup>2-</sup> anioni neytral eritmalarida fuksin bilan reaksiyaga kirishganda fuksinning qizil rangi yo'qolib, rangsizlanadi.


**Reaksiyaning bajarilishi:** fuksin eritmasidan bir tomchisi shisha plastinkaga tomiziladi, ustiga bir tomchi sulfit tuzining neytral eritmadasidan qo'shiladi. (Kislotali eritmalar NaHCO<sub>3</sub> bilan, ishqoriy eritmalar CO<sub>2</sub> gazini fenolftalein rangsizlanguncha o'tkazish bilan neytrallandi). SO<sub>3</sub><sup>2-</sup> anioni ishtirokida fuksin eritmasi rangsizlanadi. Tajribani o'tkazish sharoiti:

- reaksiyani eritma muhiti pH=7–8 bo'lganda o'tkaziladi;
- kislotali eritmalar dastavval natriy gidrokarbonat bilan neytrallanadi;
- S<sup>2-</sup> anionlarini eritmada bo'lishi SO<sub>3</sub><sup>2-</sup> ni topishga xalaqit beradi, chunki S<sup>2-</sup> ionlari ham fuksin eritmasini rangsizlantiradi.

### Tiosulfat anioni S<sub>2</sub>O<sub>3</sub><sup>2-</sup> ning xususiy reaksiyalari

Reaksiyalarni bajarishda Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> ning suvdagi eritmasidan toydalaniladi.

**1. Bariy xlorid BaCl<sub>2</sub> bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Reaktiv bilan eritmadiagi S<sub>2</sub>O<sub>3</sub><sup>2-</sup> ionlari bariy tiosulfatning oq rangli cho'kmasini hosil qiladi:




**Reaksiyaning bajarilishi:** natriy tiosulfat eritmasining 5–6 tomchisiga BaCl<sub>2</sub> eritmasidan 8–10 tomchi qo'shiladi. Oq cho'kma tushishi kuzatiladi. Tajribani o'tkazish sharoiti:

- reaksiya mo'l miqdorda BaCl<sub>2</sub> eritmasi qo'shilganda boradi;
- cho'kma hosil bo'lishi uchun probirkaning suyuqlik bor qismidagi ichki devori shisha tayoqcha bilan ishqalab turiladi.


**2. Kuchli kislotalar bilan o'tkaziladigan reaksiyalar.** Suyultilgan kuchli kislota tiosulfat eritmalariga ta'sir ettirilganda oltingu-

gurt va sulfit angidrid hosil bo‘ladi. Oltingugurt ajralishi tufayli eritma loyqalanadi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** probirkadagi natriy tiosulfat eritmasining 5–6 tomchisiga sulfat kislotaning 2N eritmasidan 3–4 tomchi qo‘shiladi. Ma’lum vaqtadan keyin aralashmaning loyqalanishi kuzatiladi. Sulfidlar kislotalar ta’sir ettirilganda  $\text{SO}_2$  ajratib chiqarsa ham, oltingugurt hosil qilmaydi. Shuning uchun bu reaksiya  $\text{SO}_3^{2-}$  ishtirokida  $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$  ni topishga imkon beradi va **tiosulfat anionining eng muhim reaksiyalaridan biri hisoblanadi.**

**3. Temir (III) xlorid ( $\text{FeCl}_3$ ) bilan o‘tkaziladigan reaksiya.** Reaktiv tiosulfat eritmalarini bilan to‘q binafsha rangli kompleks birikma hosil qiladi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** probirkaga 2–3 tomchi natriy tiosulfat eritmasidan solinadi va unga temir (III) xlorid eritmasidan 1 tomchi qo‘shiladi. Shu zahotiyon to‘q binafsha rang hosil bo‘lishi kuzatiladi. Bu rang 1–2 daqiqadan keyin yo‘qolib ketadi va eritma rangsiz bo‘lib qoladi.


Reaksiyani o‘tkazish sharoiti:

- tajriba kislotali muhitda boradi, chunki qo‘shiladigan  $\text{FeCl}_3$  eritmasi kislotali muhit hosil qiladi;
- oksidlovchilar va qaytaruvchilarning ishtiroki reaksiyaning borishiga xalaqit beradi;
- $\text{SO}_3^{2-}$  anioni  $\text{FeCl}_3$  bilan binafsha rang bermaydi. Temir(III) xlorid eritmasi bilan to‘q binafsha rang hosil qilish faqat  $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$  anioniga xosdir.

**Karbonat anioni  $\text{CO}_3^{2-}$  ning xususiy reaksiyalari**

Tajribalarni  $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ,  $\text{K}_2\text{CO}_3$  yoki  $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$  larning suvdagi rangsiz eritmalaridan foydalanib bajariladi.

**1. Bariy xlorid  $\text{BaCl}_2$  bilan o‘tkaziladigan reaksiya.** Reaktiv eritmadi  $\text{CO}_3^{2-}$  anionlari bilan bariy karbonatning oq cho‘kmasini hosil qiladi:




Hosil bo'lgan cho'kma xlorid, nitrat kislotalarda va hattoki, kislota ham eriydi. Probirkadagi natriy karbonatning 4–5 tomchisiga  $\text{BaCl}_2$  eritmasidan 4–5 tomchi tomiziladi. Oq cho'kma kuzatiladi.


Tajribani bajarish sharoiti:

Reaksiyaning muhiti neytral yoki kuchsiz ishqoriy bo'lishi kerak; reaksiyaning borishiga eritmadi  $\text{SO}_4^{2-}$ ,  $\text{SO}_3^{2-}$  anionlar qalqiqit beradi, chunki ular ham  $\text{Ba}^{2+}$  kationlari bilan oq cho'kma hosil qiladi.

**2. Kuchli kislotalar bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Kuchli kislotalarning suyultirilgan eritmalari karbonat tuzlarini karbonat angidrid gazi hosil qilish bilan parchalaydi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** gaz o'tkazuvchi nayli probirkaga 2–3 ml karbonat tuzi eritmasidan solib, ustiga shuncha hajmda  $\text{HCl}$  ning 2N eritmasidan qo'shiladi. Chiqayotgan gaz ikkinchi probirkadagi ohakli suvning tiniq eritmasi orqali o'tkaziladi. Ohakli suvning loyqalanishi kuzatiladi:




Tajribani bajarish sharoiti:

- reaksiyani eritmadi muhit  $\text{pH} < 7$  bo'lganda o'tkaziladi;
- ohakli suv yangi tayyorlangan va tiniq bo'lishi kerak;
- $\text{SO}_3^{2-}$  anionlari bu reaksiyani bajarishga xalaqit beradi, chunki eritmadi  $\text{SO}_3^{2-}$  ionlari kislota ta'sirida  $\text{SO}_2$  gazini ajratib chiqaradi, sulfit angidridi ham ohakli suvni loyqalatadi. Eritmada  $\text{SO}_3^{2-}$  anionlari bo'lsa,  $\text{CO}_3^{2-}$  anionlarni topishdan oldin tekshiriladigan eritmaga 4–5 tomchi vodorod peroksid qo'shiladi ( $\text{SO}_3^{2-}$  ni  $\text{SO}_4^{2-}$  gacha oksidlash uchun), so'ng  $\text{CO}_3^{2-}$  anionini topishga kirishiladi.

### Fosfat anioni $\text{PO}_4^{3-}$ ning xususiy reaksiyalari

Tajribalarni bajarishda natriy gidrofosfat eritmasidan foydalansa bo'ladi.


**1. Bariy xlorid  $\text{BaCl}_2$  bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Reaktiv natriy gidrofosfat eritmasi bilan ta'sirlashib, bariy gidrofosfatning oq cho'kmasini hosil qiladi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** natriy gidrofosfat eritmasidan 4–5 tomchi olib, ustiga BaCl<sub>2</sub> eritmasidan 2–3 tomchi qo'shiladi. Oq cho'kma hosil bo'lishi kuzatiladi.

BaHPO<sub>4</sub> cho'kmasi kuchli kislotalarda (H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> dan tashqari), shuningdek, sirka kislotalada ham eriydi.

**2. Magnezial aralashma (MgCl<sub>2</sub>+NH<sub>4</sub>OH+NH<sub>4</sub>Cl) bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Reaktiv bilan PO<sub>4</sub><sup>3-</sup> anionlari oq kristall cho'kma MgNH<sub>4</sub>PO<sub>4</sub> hosil qiladi:




**Reaksiyaning bajalishi:** 5–6 tomchi magniy xlorid eritmasiga shuncha tomchi ammiak eritmasi qo'shiladi, hosil bo'lgan magniy hidroksid cho'kmasini NH<sub>4</sub>Cl eritmasi qo'shib to'liq eritiladi. So'ngra olingan magnezial aralashma suv hammomida isitilib, unga natriy gidrofosfat eritmasidan oq cho'kma — MgNH<sub>4</sub>PO<sub>4</sub> magniy-ammoniy fosfat hosil bo'lguncha qo'shiladi.

Tajribani bajarish sharoiti:

- NH<sub>4</sub>Cl eritmasidan ortiqcha qo'shmaslikka harakat qilish lozim. Aks holda kompleks ion hosil bo'lishi hisobiga cho'kma hosil bo'lmaydi;
- eritmansi isitish cho'kma hosil bo'lishini jadallashtiradi;
- eritmadi AsO<sub>4</sub><sup>3-</sup>, SiO<sub>3</sub><sup>2-</sup>, C<sub>2</sub>O<sub>4</sub><sup>2-</sup> ionlari reaksiyaga xalaqit beradi.

**3. Molibden suyuqligi (ammoniy molibdat (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>MoO<sub>4</sub> ning nitrat kislotalagi eritmasi) bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Reaktiv bilan PO<sub>4</sub><sup>3-</sup> anionlari bilan sariq kristall cho'kma — ammoniy-molibdofosfatni hosil qiladi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** probirkaga 8 tomchi ammoniy molibdat eritmasi va 8 tomchi kontsentrlangan nitrat kislota solinadi. Bu aralashmaga 2–3 tomchi natriy gidrofosfat qo'shiladi, shisha tayoqcha bilan aralashtirib, suv hammomida probirkadagi

ralishma  $40^{\circ}-50^{\circ}\text{C}$  gacha isitiladi. Sariq cho'kma hosil bo'lishi  
uzantiladi.

Tajribani o'tkazish sharoiti:

— reaksiya eritma  $\text{pH} < 1$  bo'lganda o'tkaziladi;  
eritmani iliguncha isitish cho'kma hosil bo'lishiga imkoniyat  
yaratadi;


anion-qaytaruvchilar va  $\text{HCl}$  reaksiyani borishiga xalaqit  
beradi;

— bir ismli ion saqllovchi  $\text{NH}_4\text{NO}_3$  va ortiqcha molibdatning  
qo'shilishi cho'kma hosil bo'lishini tezlashtiradi.

### Silikat anioni $\text{SiO}_3^{2-}$ ning xususiy reaksiyalari


Reaksiyalarni o'tkazishda suvdagi eritmalar rangsiz bo'lgan  
 $\text{Na}_2\text{SiO}_3$  va  $\text{K}_2\text{SiO}_3$  lardan foydalaniladi.

**1. Bariy xlorid  $\text{BaCl}_2$  bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Ular  
ortinadagi  $\text{SiO}_3^{2-}$  ionlari bilan bariy silikatning oq cho'kmasini  
hosil qiladi:




**Reaksiyaning bajarilishi:** natriy silikat eritmasining 5–6  
tomchisiga  $\text{BaCl}_2$  eritmasidan 3–4 tomchi qo'shiladi. Oq amorf  
cho'kma tushishi kuzatiladi.

**2. Kuchli kislotalarning suyultirilgan eritmalar bilan o'tkazila-  
digan reaksiya.** Ular silikatlarga ta'sir qilib, silikat kislotaning  
suzmasimon oq cho'kmasini (gelini) hosil qiladi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** natriy silikatning 5–6 tomchi erit-  
masiga  $\text{HCl}$  eritmasidan 3–4 tomchi qo'shiladi. Oq suzmasimon  
cho'kma hosil bo'lishi kuzatiladi.


**3. Ammoniy tuzlari ( $\text{NH}_4\text{Cl}$ ,  $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ ,  $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$ ) bilan  
o'tkaziladigan reaksiya.** Ular silikatlar eritmalariga ta'sir ettiril-  
ganda silikat kislotaning iviqsimon cho'kmasi hosil bo'ladi. Suvli  
eritmalarida silikatlar oson gidrolizlanadi:



Qo'shiladigan ammoniy tuzi gidroliz mahsulotlaridan biri —  
natriy hidroksid bilan reaksiyaga kirishadi:



Shu sababli gidroliz muvozanati silikat kislotaning hosil bo'lishi tomoniga siljiydi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** probirkaga 4–5 tomchi natriy silikat  $\text{Na}_2\text{SiO}_3$  eritmasidan solib, 4–5 tomchi distillangan suv qo'shiladi va ammoniy xlorid  $\text{NH}_4\text{Cl}$  kristallaridan 2–3 dona solinadi, so'ng suv hammomida isitiladi. Natijada silikat kislotaning iviq oq cho'kmasi hosil bo'ladi.

Tajribani o'tkazish sharoiti:

- reaksiya mo'l miqdordagi  $\text{NH}_4\text{Cl}$  ishtirokida o'tkaziladi;
- eritmani isitish gidrolizini kuchaytiradi va cho'kma hosil bo'lishini jadallashtiradi.

#### **Mustaqil ta'lim uchun savol va mashqlar:**

1. I guruh anionlarining umumiyligini xususiyatlari izohlang.
2. I guruh anionlarining biologik ahamiyatga ega birikmalari formulalarini yozing.
3. I guruh  $\text{SO}_4^{2-}$  va  $\text{CO}_3^{2-}$  anionlarini aniqlashda ularning o'zaro xalaqit berishi qanday bartaraf etiladi?
4. Hayvon va insonga nima uchun  $\text{BaSO}_4$  tuzi zaharsiz,  $\text{BaCl}_2$  tuzi esa zaharli?

#### ♦ Laboratoriya ishi № 1.11

#### **II analitik guruh anionlari $\text{Cl}^-$ , $\text{Br}^-$ , $\text{I}^-$ , $\text{S}^{2-}$ ga umumiyligini tasnif**

Anionlarning ikkinchi analitik guruhiga xlorid-ion ( $\text{Cl}^-$ ), bromid-ion ( $\text{Br}^-$ ), yodid-ion ( $\text{I}^-$ ), sulfid-ion ( $\text{S}^{2-}$ ) va ba'zi bir boshqa anionlar kiradi.

Bu anionlar  $\text{Ag}^+$  kationlari bilan suvda va suyultirilgan nitrat kislotada erimaydigan tuzlar hosil qiladi. Ikkinchi guruh anionlarining umumiyligini reagenti nitrat kislotasi ishtirokida kumush nitrat  $\text{AgNO}_3$  hisoblanadi. I guruh anionlarining ko'pchiligi ham kumush nitrat bilan suvda erimaydigan tuzlar hosil qiladi, biroq ularning hammasi nitrat kislotada eriydi va ikkinchi guruh

anionlarini topishga xalaqit bermaydi. Bariy xlorid ikkinchi guruh anionlari bilan cho'kma hosil qilmaydi.

Ikkinchi guruh anionlaridan ba'zilari biologik faol va qishloq xo'jaligida ma'lum darajada ahamiyatga egadirlar.

Xlorid-ion doimo tabiiy suvlardan tarkibida bo'ladi. Tuproq tarkibida xlor ioni birikmalarining bo'lsa va uning yuqori qatlamida 2% tuzlar saqlansa sho'rلانish kuzatiladi. Asosan, NaCl, CaCl<sub>2</sub>, MgCl<sub>2</sub> tuzlari hisobiga sho'rلانish yuzaga keladi. Sut emizuvchi hayvonlar oshqozon suyuqligi tarkibida xlorid kislota bo'lib, ovqat hazm qilish jarayonida muhim vazifani bajaradi. Chunki xlorid ionlari ovqat hazm qiluvchi fermentlar faolligini oshiradi.

Bromidlar markaziy asab tizimini tinchlantirish xossasiga ega.


Yod birikmalarini o'simliklar va hayvonlar to'qimalarda mikroelement sifatida kiradi. To'qimalarda yod ioni yodorganik birikmalar holida bo'lib, ayniqsa, qalqonsimon bez faoliyatida zarur. Tabiiy suvlarda, o'simlik oziqalarida va buning oqibatida mahsulotlarda yod yetishmasligi insonda bo'qoq kasalligi kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Sulfidlar va vodorod sulfid tabiatda oqsil moddalarning chirishi (parchalanishi) hisobiga hosil bo'ladi.

### **Xlorid anioni (Cl<sup>-</sup>) ning xususiy reaksiyalari**


Tajribalar xloridlarning suvdagi rangsiz eritmalaridan foydalanib bajariladi.

**1. Kumush nitrat (AgNO<sub>3</sub>) bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Reaktiv bilan xlorid-ion (Cl<sup>-</sup>) bilan suvda va kislotalarda erimaydigan oq suzmasimon kumush xlorid cho'kmasini hosil qiladi:



Cho'kma NH<sub>4</sub>OHda eriydi, bunda kumushninig kompleks tuzi [Ag(NH<sub>3</sub>)<sub>2</sub>] Cl hosil bo'ladi.


**Reaksiyaning bajarilishi:** konussimon probirkaga 2–3 tomchi natriy xlorid eritmasidan solib, ustiga AgNO<sub>3</sub> eritmasidan 1–2 tomchi qo'shiladi. Hosil bo'lgan cho'kmani sentrifugada ajratib, cho'kma erib ketguncha ammiak eritmasidan qo'shiladi. Hosil bo'lgan kompleks birikmaga nitrat kislota qo'shilsa, kompleks tuz buziladi va qaytadan kumush xlorid cho'kadi:




Tajribani bajarish sharoiti:

- reaksiya nitrat kislotali muhitda o'tkaziladi;
- bu reaksiyani o'tkazishga  $\text{SCN}^-$  va  $\text{CN}^-$  anionlari xalaqit beradi, chunki ular  $\text{Ag}^+$  kationi bilan o'xshash cho'kmalarni hosil qiladi.

**2. Kuchli oksidlovchilar ( $\text{KMnO}_4$ ,  $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$  va boshqalar) bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Oksidlovchilar kislotali sharoitda xlorid-ion  $\text{Cl}^-$  larini erkin xlorgacha oksidlaydi.



**Reaksiyaning bajarilishi:** probirkaga  $\text{NaCl}$  eritmasidan 5 tomchi solib, ustiga  $\text{KMnO}_4$  ning konsentrangan eritmasidan 5 tomchi, yana konsentrangan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  dan 3–4 tomchi qo'shiladi va aralashma (mo'rili shkafda) isitiladi. Bunda,  $\text{KMnO}_4$  eritmasining pushti rangi qisman yoki to'liq rangsizlanishi va gaz holdagi xlor ajralishi kuzatiladi. Xlor gazining chiqayotganligi hididan yoki yod-kraxmalli qog'oz ( $\text{KI}$  eritmasi va kraxmal klavestri shimdirligil filtr qog'ozi)ning ko'karishidan bilsa bo'ladi. Probirka og'ziga nam yod – kraxmalli qog'oz tutilganda xlor gazi ishtirokida elementar yod ajralishi hisobiga qog'oz ko'k rangga kiradi:




Reaksiyani o'tkazish sharoiti:

- $\text{Cl}^-$  anionini oksidlash reaksiyalari kuchli kislotali muhitda boradi. Neytral muhitda xloridlarning oksidlanishi yuz bermaydi. Ishqoriy muhitda xlor ajralib chiqmaydi;
- oksidlovchi sifatida  $\text{KMnO}_4$  foydalanilsa, reaksiya ko'rgazmali chiqadi, chunki  $\text{Cl}^-$  ioni ishtirokida pushti eritma rangsizlanadi;
- isitish oksidlanish-qaytarilish reaksiyasining borishini jadal-lashtiradi.

### Bromid anioni $\text{Br}^-$ ning xususiy reaksiyalari


Reaksiyalarni o'tkazishda suvda eriydigan bromid tuzlarining rangsiz eritmalaridan ( $\text{NaBr}$ ,  $\text{KBr}$ ) foydalaniladi.

**1. Kumush nitrat  $\text{AgNO}_3$  bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Reaktiv bilan bromid-ion ( $\text{Br}^-$ ) lari och sarg'ish kumush bromid cho'kmasini hosil qiladi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** natriy bromid eritmasining 5–6 tomchisiga kumush nitrat eritmasidan 2–3 tomchi qo'shiladi. Sarg'ish cho'kma hosil bo'lishi kuzatiladi. Cho'kma nitrat kislotada erimaydi, biroq mo'l ammiak eritmasi ta'sirida erib kompleks birikma  $[\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]\text{Br}$  hosil qiladi.

**2. Xlorli suv bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Reaktiv eritmasi bromid-ionlarni oksidlab, erkin bromga aylantiradi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** probirkaga 3–5 tomchi kaliy bromid eritmasidan solib ustiga 1–2 tomchi  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ning 2N eritmasidan qo'shiladi. So'ngra 2–3 tomchi xlorli suvdan tomiziladi. Erkin brom hosil bo'lishi hisobiga eritma qo'ng'ir tusga kiradi. 5–6 tomchi benzol qavati qizg'ish-qo'ng'ir tusga kiradi («benzol halqasi»), xlorli suv ortiqcha qo'shilgan bo'lsa, brom xlorid hosil bo'lishi hisobiga sariq-limon rangiga kiradi.


Jajribani o'tkazish sharoiti:

- reaksiya eritmaning  $\text{pH}=5-7$  yaxshi natija beradi;
- xlorli suvni tomchilatib qo'shiladi, ortiqcha xlorli suvdagi xlor erkin brom bilan sarg'ish brom xlorid hosil qiladi;
- benzol o'rнига xloroform, benzin va boshqa organik erituv-chilardan foydalanilsa bo'ladi.

### **Yodid anioni ( $\text{I}^-$ ) ning xususiy reaksiyalari**


Reaksiyalarni amalga oishirishda suvda eruvchan yodidlar –  $\text{NaI}$ ,  $\text{KI}$  eritmalaridan foydalaniladi.

**1. Kumush nitrat ( $\text{AgNO}_3$ ) bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Reaktiv bilan yodid anioni ( $\text{I}^-$ ) sariq cho'kma ( $\text{AgI}$ ) ni hosil qiladi.




**Reaksiyaning bajarilishi:** probirkadagi kaliy yodidning 3–4 tomchi eritmasiga shuncha tomchi kumush nitrat eritmasidan

qo'shiladi. Sariq cho'kma tushishi kuzatiladi. Bu cho'kma nitrat kislotada ham, ammiakda ham erimaydi. Lekin AgI cho'kmasi natriy tiosulfat  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  ta'sirida osongina eritmaga o'tadi:



**2. Qo'rg'oshin (II) kationi ( $\text{Pb}^{2+}$ )ning eruvchan tuzlari bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Reaktiv bilan yodid anionlari sariq  $\text{PbI}_2$  cho'kmasini hosil qiladi:




**Reaksiyaning bajarilishi:** 4–5 tomchi kaliy yodid eritmasiga shuncha tomchi qo'rg'oshin atsetat eritmasidan qo'shiladi. Sariq cho'kma ( $\text{PbI}_2$ ) isitilganda suvda eriydi, sovutilganda esa qaytadan chiroyli tillarang kristallar holida cho'kmaga tushadi.

Reaksiyani o'tkazish sharoiti:

- tajribani sirkalari kislota qo'shish orqali eritmani kislotali muhitga keltirib o'tkaziladi ( $\text{pH} < 7$ );
- KI ning ozgina ortiqchasi reaksiya borishiga zararli ta'sir ko'rsatmaydi.

**3. Kaliy permanganat ( $\text{KMnO}_4$ ) bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Reaktiv kislotali muhitda yodid anionini erkin yodgacha oksidlaydi.  $\text{I}^-$  anioni xlorid va bromid ionlariga nisbatan oson oksidlanadi.




**Reaksiyaning bajarilishi:** probirkaga 3–5 tomchi KI eritmasidan solib, ustiga  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ning suyultirilgan eritmasidan bir necha tomchi,  $\text{KMnO}_4$  eirtmasidan 1–2 tomchi qo'shiladi. Kaliy permanganat eritmasining rangsizlanishi kuzatiladi.

Reaksiyani o'tkazish sharoiti:

- reaksiya kislotali (sulfat yoki sirkalari kislotali) muhitda bajariladi;
- eritmani kuchsiz isitish reaksiyaning borishiga yordam beradi.

**4. Kaliy (yoki natriy) nitrit ( $\text{KNO}_2$ ,  $\text{NaNO}_2$ )lar bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Ular ham  $\text{I}^-$  anionini kislotali muhitda erkin yodgacha oksidlaydi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** kaliy yodid eritmasining 1–2 tomchisiga shuncha  $\text{KNO}_3$  eritmasidan qo'shiladi,  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ning 2N critmasi bilan aralashma kislotali muhitga keltirilib, so'ng 1–2 tomchi kraxmal eritmasidan qo'shiladi. Erkin  $\text{I}_2$  hosil bo'lishi hisobiga kraxmal ko'karadi (kraxmal o'rniiga benzol yoki benzin ishlatilsa, binafsha rang hosil bo'ladi).


Reaksiyani bajarish sharoiti:

- tajriba sovutilgan holda kuchsiz kislotali muhitda o'tkaziladi, chunki isitlganda yod-kraxmalli eritma rangsizlanadi;
- $\text{Br}^-$  ionlari ayni sharoitda nitritlar ta'sirida oksidlanmaydi;
- erkin yod tomonidan oksidlanadigan qaytaruvchilarni bo'lishi reaksiyaga xalaqit beradi.


### Sulfid anioni $\text{S}^{2-}$ ning xususiy reaksiyaları

Reaksiyalarni amalga oshirishda suvda eriydigan sulfidlar  $\text{Na}_2\text{S}$ ,  $\text{K}_2\text{S}$  critmalaridan foydalaniladi.


**1. Kumush nitrat  $\text{AgNO}_3$  bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Reaktiv bilan sulfid ionlari bilan kumush sulfidning qora cho'kmasini hosil qiladi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** probirkadagi 4–5 tomchi natriy sulfid critmasiga  $\text{AgNO}_3$  eritmasidan 2–3 tomchi qo'shiladi. Qora cho'kma hosil bo'lishi kuzatiladi. Bu cho'kma ammoniy gidroksidda erimaydi, lekin qaynatlganda suyultirilgan nitrat kislotada eriydi:



**2. Kaliy permanganat ( $\text{KMnO}_4$ ) bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Reaktiv sulfid anionlarini erkin oltingugurtgacha oksidlaydi.




Probirkaga (gaz o'tkazuvchi nayli)  $\text{FeS}$  tuzidan solib, ustiga  $\text{HCl}$  critmasidan quyiladi, tezlik bilan gaz o'tkazuvchi nayli tijin bilan probirka og'zi bekitiladi va ajralayotgan gaz sulfat kislota qo'shilgan  $\text{KMnO}_4$  eritmasi orqali o'tkaziladi. Eritmaning pushti mangi yo'qolib, ajralayotgan olitingugurt hisobiga loyqalanish kuzatiladi.

Reaksiyani o'tkazish sharoiti:

- sulfidlarni parchalash uchun 15% li xlorid kislota eritmasi ishlataladi;
- HC1 o'rnida nitrat yoki sulfat kislotani ishlatalish tavsiya qilinmaydi, chunki bu kislotalar ta'sirida qo'shimcha oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari ham yuz berishi mumkin;
- qo'llaniladigan  $KMnO_4$  eritmasining kontsentratsiyasi yetarli darajada yuqori bo'lishi lozim;
- boshqa qaytaruvchilar, jumladan, sulfit angidrid eritmani loyqalanishiga olib kelmaydi.

**3. Natriy nitroprussid  $Na_2[Fe(CN)_5NO]$  bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Reaktiv bilan sulfid  $S^{2-}$  ioni bilan qizil-pushti rangli kompleks birikma  $Na_4[Fe(CN)_5NOS]$  ni hosil qiladi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** tekshirilayotgan eritmaning 1 tomchisiga ishqor eritmasi va natriy nitroprussid eritmalaridan 1 tomchidan qo'shiladi. Sulfidlar ishtirokida qizil-pushti rang hosil bo'ladi. Eritma kislotali muhitga keltirilsa, rangsizlanish kuzatiladi.

II guruh anionlaridan faqat sulfid-anion natriy nitroprussid bilan qizil-pushti rang hosil qiladi.

**Mustaqil ta'lim uchun savol va mashqlar:**

1. II guruh anionlariga nima sababdan galogenidlar va sulfidlar ionlari kiradi?
2. Galogenid ionlari birikmalarining biologik xususiyatlarini izohlang.
3. II guruh anionlariga xos xususiy reaksiyalarini yozing.
4.  $H_2S$  gazining inson organizmiga zararli ta'sirini tushuntiring.

#### ♦ Laboratoriya ishi № 1.12

### III analitik guruh anionlari $NO_3^-$ , $CH_3COO^-$ , $NO_2^-$ ga umumiyl tasnif

Anionlarning III analitik guruhiga nitrat ioni ( $NO_3^-$ ), nitrit ioni ( $NO_2^-$ ), atsetat ioni ( $CH_3COO^-$ ) va boshqa ionlar kiradi. Bu anionlarning tuzlari, jumladan, bariyli va kumushli tuzlari

ham suvda yaxshi eriydi. III guruh anionlarining umumiy guruh reagenti yo'q.

O'simliklar uchun muhim oziqlanish elementlaridan biri azot hisoblanadi. Tuproq tarkibidagi azot o'simliklar o'zlashtira oladigan nitratlar va ammoniy tuzlari holida bo'ladi. Tuproq tarkibidagi nitratlar miqdorini tuproqning suvli so'rimi tarkibidagi birikmalarni aniqlash yo'li bilan o'simliklarning azot elementi bilan ta'minlana olish darajasi aniqlanadi.

Nitratlar ko'pchilik mineral o'g'itlar tarkibiga kiradi, chunonchi natriyli ( $\text{NaNO}_3$ ), kaliyli ( $\text{KNO}_3$ ), ammoniyli ( $\text{NH}_4\text{NO}_3$ ), kalsiyli ( $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$ ) selitralar tarkibida bo'ladi.


Nitritlar, nitratlardan farqli o'laroq, juda zaharli va suvni qishloq xo'jalik hayvonlari va o'simliklar iste'moli uchun yaroqsiz holga keltiradi.

Atsetat anionlari ko'pchilik dorivor moddalar tarkibida uchraydi, sirka kislotadan qishloq xo'jalik mahsulotlarini konservalashda foydalaniadi.


### **Nitrat anioni ( $\text{NO}_3^-$ ) ning xususiy reaksiyalari**

Tajribalarni bajarishda suvda yaxshi eriydigan nitrat tuzlarining eritmalaridan foydalananish mumkin.

**1. Mis metali va kontsentrlangan sulfat kislota bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Ular ishtirokida nitrat-ion ( $\text{NO}_3^-$ ) ni azot (II) oksidgacha qaytarishi kuzatiladi:



Hosil bo'lgan azot (II) oksidi havo kislороди ta'sirida qo'ng'ir tusli azot (IV) oksidgacha oksidlanadi.




**Reaksiyaning bajarilishi:** probirkadagi 2–3 tomchi natriy nitrat eritmasiga kontsentrlangan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  dan 1–2 tomchi qo'shiladi, bir bo'lak mis metali tushirib, qizdiriladi. Qo'ng'ir rangli gaz-azot (IV) oksidi ajralib chiqishi kuzatiladi.

Reaksiyanı bajarish sharoiti:

- mis bo'laklari tozalangan va yog'sizlantirilgan bo'lishi kerak;
- eritmada nitrit ionlari bo'lsa, reaksiyanı o'tkazishga xalaqit beradi; bu ionlarni  $\text{NH}_4\text{Cl}$  qo'shib qizdirish bilan yo'qotiladi.

**2. Aluminiy metali bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Ushbu metall kuchli ishqoriy muhitda nitrat ionlarini ammiakkacha qaytaradi:




**Reaksiyaning bajarilishi:** probirkaga 4 tomchi natriy nitrat eritmasidan solinadi, natriy gidroksidning 6N eritmasidan 1–2 tomchi qo'shib, bir bo'lak aluminiy metali solinadi va aralashma isitiladi. Probirka og'ziga namlangan qizil lakkus qog'ozni tutiladi. Uning ko'karishi kuzatiladi.

Reaksiyani o'tkazish sharoiti:

- qaytarish jarayoni unchalik kuchli bo'limgan ishqoriy muhitda (jarayon shiddatli bormasligi uchun) bajariladi;
- eritmada  $\text{NH}_4^+$  ionlari bo'lsa, oldindan ishqor qo'shib qizdirish yo'li bilan yo'qotiladi;
- eritmada  $\text{NO}_2^-$  anionini bo'lishi ham  $\text{NO}_3^-$  anionini topishga xalaqit beradi.

**3. Temir (II) sulfat bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Reaktiv nitrat anionini  $\text{NO}_3^-$  konsentrangan sulfat kislota ishtirokida azot(II) oksidgacha qaytaradi, ortiqcha  $\text{FeSO}_4$  bilan qo'ng'ir rangli kompleks tuz  $[\text{Fe}(\text{NO})]\text{SO}_4$  ni hosil qiladi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** soat oynasiga 2 tomchi natriy nitrat eritmasidan tomizib, ustiga  $\text{FeSO}_4$  ning kristali tashlanadi. Ustidan 1 tomchi kontsentrangan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  quyiladi. Kristall atrofida kompleks birikma hosil bo'lishi hisobiga qo'ng'ir halqa hosil bo'ladi.

Reaksiyani o'tkazish sharoiti:

- reaksiyani kuchli kislotali muhitda  $\text{FeSO}_4$  kristallaridan yoki uning kontsentrangan eritmasidan foydalanib o'tkaziladi;
- $\text{FeSO}_4$  bilan nitritlar ham ta'sirlashadi. Shu sababli nitritlar dastavval parchalab yuborilishi kerak;
- hosil bo'ladigan kompleks birikma beqaror va isitilganda parchalanib ketadi. Shuning uchun reaksiya sovuqda o'tkaziladi.

**4. Difenilamin ( $\text{C}_6\text{H}_5\text{}_2\text{NH}$ ) bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Reaktiv bilan nitrat ion  $\text{NO}_3^-$  to'q ko'k rangli mahsulotni hosil qiladi. Toza va quruq soat oynasiga difenilaminning kontsent-

ralangan sulfat kislotadagi eritmasidan 3–4 tomchi tomiziladi. Unga shisha tayoqcha bilan nitrat tuzi eritmasidan 1 tomchi qo‘shib, aralashtiriladi.  $\text{NO}_3^-$  anioni ishtirokida difenilaminning oksidlanishi hisobiga eritma to‘q ko‘k rangga kiradi.  $\text{NO}_2^-$  anioni ham shunday rang beradi.


Tajribani bajarish sharoiti:

- oksidlovchilar va kontsentrlangan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ta’sirida  $\text{I}_2$  gacha oksidlanuvchi yodid ionlari reaksiya o‘tkazishga xalaqit beradi;
- anion qaytaruvchilar  $\text{SO}_3^{2-}$ ,  $\text{S}^{2-}$  va boshqalar ham  $\text{NO}_2^-$  anionini topishga xalaqit beradi;
- reaksiyani bajarish uchun tekshiriladigan moddaning suyultirilgan eritmalarini olgan ma’qul.

### **Nitrit anioni $\text{NO}_2^-$ ning xususiy reaksiyalari**


Reaksiyalarni o‘tkazishda  $\text{NaNO}_2$  yoki  $\text{KNO}_2$  ning suvdagi eritmasidan foydalaniladi.

**1. Kuchli kislotalar bilan o‘tkaziladigan reaksiya.** Ular nitritlarni parchalaydi, bunda qo‘ng‘ir rangli gaz azot (IV) oksidi ajralib chiqadi:



Natriy nitritning 6–8 tomchisiga sulfat kislotaning konsentrangan eritmasidan 5–6 tomchi qo‘shiladi. Qo‘ng‘ir rangli azot dioksidi hosil bo‘lishi kuzatiladi.

**2. Kaliy yodid (KI) bilan o‘tkaziladigan reaksiya.** Jodid ionlari sulfat kislotaning suyultirilgan eritmasi ishtirokida nitritlar ta’sirida erkin yodgacha oksidlanadi.



**Reaksiyaning bajarilishi:** probirkaga 2–3 tomchi kaliy nitrit eritmasidan solib, ustiga  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ning 2N eritmasidan shuncha tomchi qo‘shiladi. So‘ng kaliy yodid eritmasidan 2–3 tomchi va 1–2 tomchi benzol (benzin) yoki kraxmal eritmasi qo‘shiladi. Ajralib chiqqan yod benzolni binafsha tusga kiritadi, kraxmal esa yod bilan ko‘k rang hosil qiladi.

Reaksiyani bajarish sharoiti:

- reaksiya kuchsiz kisotali muhitda xona haroratida o‘tkaziladi, chunki isitilganda yod-kraxmalli eritma rangsizlanadi.

### **3. Kaliy permanganat ( $KMnO_4$ ) bilan o'tkaziladigan reaksiya.**

Reaktiv kislotali muhitda  $NO_2^-$  ionlarini  $NO_3^-$  ionlarigacha oksidlaydi, bunda eritmaning qizil-pushti rangi yo'qolib, rangsizlanadi:

$$5KNO_2 + 2KMnO_4 + 3H_2SO_4 = 5KNO_3 + 2MnSO_4 + K_2SO_4 + 3H_2O,$$


$$5NO_2^- + 2MnO_4^- + 6H^+ = 5NO_3^- + 2Mn^{2+} + 3H_2O.$$

**Reaksiyaning bajarilishi:** probirkaga 3–5 tomchi  $KMnO_4$  eirtmasidan va suyultirilgan  $H_2SO_4$  eirtmasidan 2–3 tomchi solib, aralashma  $50\text{--}60^\circ C$  gacha suv hammomida isitiladi. Keyin 5–6 tomchi  $KNO_2$  eritmasi qo'shiladi. Bunda  $KMnO_4$  eritmasining rangsizlanishi kuzatiladi.

Reaksiyani o'tkazish sharoiti:

- eritmaning pH qiymati 7 dan biroz kichiq bo'lishi kerak;
- isitish (qaynaguncha emas) reaksiyani tezlashtiradi;
- permanganat tomonidan oksidlanuvchi boshqa qaytaruv-chilarning eritmada bo'lishi  $NO_2^-$  ni topishga xalaqit beradi.


### **4. Sulfanil kislotasi ( $H_2N-C_6H_4-SO_3H$ ) va $\alpha$ -naftilamin ( $C_{10}H_7-NH_2$ ) bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Ushbu moddalar nitrit ionlari bilan o'zaro ta'sirlashganda qizil rangli bo'yoq hosil qiladi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** neytral yoki sırka kislotali muhitdagi  $NaNO_2$  (yoki  $KNO_2$ ) eritmasining bir tomchisini soat oynasiga tomizib, ustiga bir tomchidan sulfanil kislotasi va  $\alpha$ -naftilamin eritmalaridan tomiziladi.  $NO_2^-$  ioni ishtirokida o'ziga xos qizil rang paydo bo'ladi. Reaksiyaning borish sharoiti:

- Nitrit ioni ( $NO_2^-$ ) oksidlashi mumkin bo'lgan oksidlovchilarning eritmada ishtiroki reaksiyani bajarishga xalaqit beradi;
- reaksiyani  $NO_2^-$  anionining kontsentratsiyasi kichik bo'lgan eritmalarda o'tkazish maqsadga muvofiq;
- bu reaksiya nitrat anioni ( $NO_3^-$ ) uchun xos emas.

### **5. Nitrit ion ( $NO_2^-$ ) ni yo'qotish.** $NO_2^-$ anioni bilan nitrat anioni umumiy reaksiyalarga ega. Shu sababli $NO_2^-$ anionlarni topishda ko'pgina hollarda nitrit ionlarini oldin yo'qotishga to'g'ri keladi. Bunga nitrit ionlari bo'lgan eritmaga kristall holdagi ammoniy xlorid yoki ammoniy sulfat qo'shib qizdirish yo'li bilan erishiladi. Hosil bo'ladigan $NH_4NO_2$ erkin azot hosil qilib to'liq parchalanadi:




**Reaksiyaning bajarilishi:** probirkadagi nitrit tuzi eritmasining 3–4 tomchisiga ammoniy xlorid kristallaridan solinadi va suv hammomida 5–6 daqiqa isitiladi.  $\text{NO}_2^-$  ionlarining to'liq yo'qolganligi kaliy permanganat bilan bo'ladigan yoki krazmal eritmasi qo'shilgan KI eritmasi bilan bo'ladigan reaksiya yordamida tekshirib ko'rildi.

### Atsetat anioni $\text{CH}_3\text{COO}^-$ ning xususiy reaksiyalari


Tajribalar suyda eriydigan sirka kislota tuzlari bilan bajariladi.

**1. Sulfat kislota bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Sulfat kislota atsetatlar bilan reaksiyaga kirishib, ulardan erkin sirka kislotani siqib chiqaradi. Ajralgan sirka kislota tekshirilayotgan eritma isitilganda bug'lanib, o'ziga xos sirka hidini hosil qiladi.



**Reaksiyaning bajarilishi.** Probirkaga 5–6 tomchi natriy atsetat eritmasidan solib, ustiga 2 tomchi kontsentrlangan sulfat kislota tomiziladi. Aralashma ehtiyotlik bilan isitiladi. Hosil bo'lган sirka kislotani uning hididan bilib olinadi.

**2. Etil spirit  $\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$  bilan o'tkaziladigan reaksiya.** Spirit bilan atsetat tuzi eritmalari konsentralangan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ishtirokida efir hosil qiladi. Hosil bo'lган efirni o'ziga xos hididan bilish mumkin:



**Reaksiyaning bajarilishi:** probirkaga 0,5 ml natriy atsetat eritmasidan solib, ustiga 1 ml etil spiriti va 0,5 ml konsentrangan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  dan qo'shiladi va probirka isitiladi. Hosil bo'lган etilat-setat efirining xushbo'y hidi seziladi.


Reaksiyani o'tkazish sharoiti:

- reaksiya kuchli kislotali muhitda o'tkaziladi;
- eritmani isitish efir hosil bo'lish reaksiyasini tezlashtiradi;
- eritmada sulfat kislota (katalizator)ning ishtiroki reaksiyani jadallashtiradi.

### 3. Temir (III) xlorid ( $\text{FeCl}_3$ ) bilan o'tkaziladigan reaksiya.

Reaktiv bilan atsetat tuzi eritmalari ta'sirlashib, qizil rangli kompleks tuzni hosil qiladi. Bu kompleks suyultirilganda va qizdirilganda

gidrolizga uchrab, qizil qo'ng'ir rangli temir (III) ionining asosli atsetat tuzi cho'kmasini hosil qiladi:



**Reaksiyaning bajarilishi:** probirkadagi 5–6 tomchi atsetat tuzi eritmasiga shuncha tomchi temir (III) xlorid ( $\text{FeCl}_3$ ) eritmasidan qo'shiladi va isitiladi.

Bunda qizil-qo'ng'ir rangli temirning asosli atsetat tuzi cho'k-maga tushadi.

Reaksiyani o'tkazish sharoiti:

– reaksiya eritma muhitining  $\text{pH}=5–8$  bo'lganda amalgam oshadi;

– atsetat-anionini topishga  $\text{CO}_3^{2-}$ ,  $\text{I}^-$ ,  $\text{SO}_3^{2-}$ ,  $\text{PO}_4^{3-}$ ,  $\text{S}^{2-}$  anionlari xalaqit beradi. Ularni bariy xlorid va kumush nitrat yordamida cho'ktirib, ajratiladi.

**Mustaqil ta'lif uchun savol va mashqlar:**

1. II guruh anionlari uchun nima sababli guruh reagent yo'q?

2.  $\text{NO}_3^-$ ,  $\text{NO}_2^-$ ,  $\text{CH}_3\text{COO}^-$  anionlari uchun eng xususiy reaksiyalarni ko'rsating.

3.  $\text{NO}_3^-$  ionini saqlovchi qaysi tuzlar mineral o'g'it sifatida qo'llaniladi.

4. Atsetat anionini saqlovchi birikmalarning xalq xo'jaligida ishlatalishi.

#### ♦ Laboratoriya ishi 1.13

#### Miqdoriy tahlil usullari va vazifasi

Analitik kimyoning miqdoriy tahlil bo'limi tekshirilayotgan modda tarkibini miqdor jihatdan o'rGANADIGAN usullar majmua-sidir. Bu usullar yordamida birikma tarkibidagi elementlarning foizi aniqlanadi.

Moddaning kimyoviy formulasi, uning tarkibiy qismlarini tahlilda topilgan foiz miqdoriga qarab aniqlanadi. Miqdoriy tahlil kimyoviy, fizik va fizik-kimyoviy usullardan iborat. Kimyoviy tahlil usuli tortma, hajmiy va gaz tahlil usullarini o'z ichiga oladi. Tahlilning fizik va fizik-kimyoviy usullari moddaning elektr o'tkazuvchanligi, yorug'lik nurini yutishi, nurni sindirishi va boshqa xossalardan foydalanishga asoslangan. Fizikaviy usullar

miqdoriy spektral tahlil, luminessent tahlil, fizik-kimyoviy usullar  
kolorimetrik, nefelometrik, xromatografik va boshqa tahlil  
usullaridan iborat.

#### ❖ Tarozida namunani tortish

Kimyo laboratoriyasida qilinadigan ishning aniqlik darajasiga  
qurab quyidagi tarozilardan foydalaniлади:

1. Texnokimyoviy tarozi (namuna massasini 0,01 gr gacha  
aniqlikda o'лchaydi).
2. Analitik tarozi (namuna massasini 0,0002 gr gacha aniqlikda  
o'лchaydi).
3. Mikrotarozilar (namuna massasini 0,000001 gr gacha  
aniqlikda o'лchaydi).
4. Ultramikrotaroz (namuna massasini  $10^{-9}$ – $10^{-12}$  gr aniqlikda  
o'лchaydi).

Analitik kimyoning miqdoriy, yarim mikro va makro tahlilida  
analitik tarozilar ishlataladi.

Oddiy analitik tarozilar ikki xil:

1. Davriy tebranadigan;
2. Tebranishi davriymas, ya'ni dempferli bo'ladi (dempfer-  
liavo yordamida tebranishni to'xtadigan moslama).

Analitik tarozi, shuningdek, boshqa tarozilar ham ular bilan  
ma'lum qoidalarga rioya qilib ishlashni talab etadi. Namunani  
tortishdan oldin tarozininining nolinchı nuqtasini aniqlash kerak.  
Moddani to'g'ridan-to'g'ri tarozi pallasiga qo'yish yaramaydi. Tortiladigan  
modda soat oynasi, byuks, tigel yoki boshqa idishlarga  
solib tortiladi. Tortiladigan moddaning temperaturasi tortish  
oldidan tarozining temperaturasi bilan bir xil bo'lish kerak. Tortiladigan  
moddani o'ng pallaga, toshlarni chap pallaga qo'yish  
darkor. Yuk hamda toshlarni tarozi pallasining o'rtaсiga qo'yish  
lozim. Analitik tarozida tortishni tezlashtirish uchun tortiladigan  
moddani avval texnokimyoviy tarozida tortib, og'irligini taxminan  
bilib olish va so'ngra analitik tarozida tortish tavsiya etiladi.

#### ❖ Moddani tahlilga tayyorlash

Moddani, avvalo, tahlilga tayyorlash kerak. Bu ikki xil yo'l  
bilan amalga oshiriladi:

1. Toza moddaning elementlar bo'yicha kimyoviy tarkibini aniqlash talab qilinsa.

2. Aralashmaning tarkibidagi moddaning miqdorini aniqlash talab qilinsa.


Birinchi yo'l bilan moddani tahlilga tayyorlash – uni qo'shimchalardan tozalash, ya'ni moddani kimyoviy toza holatga keltirishdan iboratdir. Buning uchun, odatda, modda qayta kristallantiriladi. Qayta kristallash tozalanadigan moddani mumkin qadar kam erituvchida eritib, hosil bo'lgan eritmani filtrlash hamda filtratni sovutib yangi kristallarni hosil qilishdan iborat. Qayta kristallashdan tashqari, moddani tozalashda sublimatlash, haydash usullaridan foydalanish ham yaxshi natija beradi. Ikkinci yo'l bilan moddani tahlilga tayyorlash uchun tarkibi aniqlanishi kerak bo'lgan moddadan o'rtacha namuna, ya'ni tahlil qilinadigan moddaning o'rtacha tarkibini tavsiflovchi namuna olinadi. O'rtacha namuna olishning asosi shundan iboratki, o'rtacha namuna tekshirayotgan moddaning har qayeridan mutlaqo beixtiyor ravishda olingan ko'proq qismlaridan iborat bo'lishi kerak.

#### ❖ Tortma tahlildagi hisoblashlar

Tahlil natijasida olingan ma'lumotlar tekshirayotgan modda massasiga nisbatan foiz hisobida ifodalanadi. Buning uchun tekshirayotgan modda namunasining massasini, hosil bo'lgan cho'kma massasini va uning kimyoviy formulasini aniq bilish kerak. Ayrim hollarda elementlarning foiz miqdoriga asoslanib tekshirayotgan modda asosini tashkil etuvchi birikmaning kimyoviy formulasi keltirib chiqariladi. Boshqa hollarda texnik mahsulot tarkibidagi asosiy komponent miqdori aniqlanadi. Masalan, sotishga chiqarilgan bariy xlorid tarkibidagi  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  miqdori yoki  $\text{Ba}^{2+}$  ioni miqdori aniqlanadi. Bu ikkala hol uchun analizni o'tkazish tartibi bir xil, ammo tahlil natijasini hisoblash tartibi har xil bo'lishi mumkin. Buni misollarda ko'rib chiqamiz.

*1-misol.* Texnik bariy xlorid tarkibidagi sof  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  miqdorini aniqlash. Tortim miqdori 0,5956 gr. Qizdirishdan so'ng olingan  $\text{BaSO}_4$  cho'kmasining massasi 0,4646 gr.

*Yechish:* Tahlil o'tkazish quyidagi reaksiya tenglamasiga asoslangan:



Tahlil paytida hosil qilingan 0,4646 gr  $\text{BaSO}_4$  cho'kmasiga men keluvchi  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  miqdorini hisoblab topamiz. 244,30 gr  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  dan 233,40 gr  $\text{BaSO}_4$  hosil bo'ladi,  $x$  gr  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  dan 0,4646 gr  $\text{BaSO}_4$  hosil bo'ladi:

$$x = \frac{244,30 \cdot 0,4646}{233,40} = 0,4862 \text{ gr } \text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}.$$

Tahlil uchun olingan texnik bariy xlorid tarkibidagi sof  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  miqdorini foizlarda ifodalaymiz.

0,5956 gr texnik bariy xlorid 100% ni tashkil etadi.

0,4852 gr sof  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$   $x\%$  ni tashkil etadi.

$$x = \frac{0,4862 \cdot 100}{0,5956} = 81,83\%$$

Demak, texnik bariy xlorid tarkibida 81,83% sof  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  bor ekan.

*2-misol.* Kimyoviy toza  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  tarkibibdagi  $\text{Ba}^{2+}$  ioni miqdorini aniqlang.  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  namunasining tortimi 0,4872 gr, qizdirishdan so'ng olingan  $\text{BaSO}_4$  cho'kmasining massasi 0,4644 gr.

*Yechish:* Avvalo, hosil qilingan 0,4644 gr  $\text{BaSO}_4$  tarkibidagi  $\text{Ba}^{2+}$  (uning atom massasi 137,4 gr) ioni miqdorini hisoblaymiz:

233,40 gr  $\text{BaSO}_4$  tarkibida 137,40 gr  $\text{Ba}^{2+}$  bor,

0,4644 gr  $\text{BaSO}_4$  tarkibida  $x$  gr  $\text{Ba}^{2+}$  bor.

$$x = \frac{0,4644 \cdot 137,0 \cdot 40}{233,40} = 0,2733 \text{ gr}.$$

Analiz uchun olingan sof  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  tarkibidagi  $\text{Ba}^{2+}$  ionning foiz miqdorini hisoblaymiz:

0,4872 gr toza  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  100% i tashkil etadi,

0,2733 gr toza  $\text{Ba}^{2+}$  ioni  $x\%$  ni tashkil etadi.

$$x = \frac{0,2433 \cdot 100}{0,4872} = 59,09\%.$$

Demak, sof  $\text{BaC}_1\cdot 2\text{H}_2\text{O}$  tarkibida 59,09% bariy ioni mavjud ekan.

Agar aniqlanayotgan element yoki ion olingan namuna holida emas, balki boshqa holatda aniqlanayotgan bo'lsa, tortma tahlildagi natijalarini hisoblash paytida qayta hisoblash faktorlaridan foydalilaniladi. Qayta hisoblash faktori  $F$  aniqlanadigan modda atom (yoki molekular) massasining cho'kmadagi moddaning molekular massasiga nisbati bilan aniqlanadi. Qayta hisoblash faktori 1 gr cho'kmada aniqlanayotgan moddadan qancha borligini ko'rsatadi. Aniq holat uchun qayta hisoblash faktori quyidagicha topiladi:

| Aniqlanadigan element<br>yoki birikma | Hosil qilingan cho'kma<br>(tortiladigan shakl) | Qayta hisoblash<br>faktori                            |
|---------------------------------------|--|---|
| Ba                                    | $\text{BaSO}_4$                                | $A_{\text{Ba}}/M_{\text{BaSO}_4}$                     |
| Fe                                    | $\text{Fe}_2\text{O}_3$                        | $2A_{\text{Fe}}/M_{\text{Fe}_2\text{O}_3}$            |
| FeO                                   | $\text{Fe}_2\text{O}_3$                        | $2M_{\text{FeO}}/M_{\text{Fe}_2\text{O}_3}$           |
| MgO                                   | $\text{Mg}_2\text{P}_2\text{O}_7$              | $2M_{\text{MgO}}/M_{\text{Mg}_2\text{P}_2\text{O}_7}$ |

Bariy ioni aniqlanayotgan bo'lsa, cho'kma va tarozida tortiladigan namuna  $\text{BaSO}_4$  formulaga ega bo'lsa, qayta hisoblash faktori, ya'ni analitik ko'paytuvchi quyidagicha topiladi:

$$F = \frac{A_{\text{Ba}}}{M_{\text{BaSO}_4}} = \frac{137,40}{233,40} = 0,5887.$$

Qayta hisoblash faktorining qiymatlari ma'lumotnomalarda berilgan. Tahlil natijalarini hisoblashda qayta hisoblash faktorining qiymati inobatga olingan tayyor formuladan foydalilaniladi:

$$x_{\%} = \frac{F \cdot b}{a} \cdot 100\%$$

Bunda:

$a$  — tekshirilayotgan modda tortimi massasi, gr;

*b* – tortiladigan namuna massasi, gr;

*F* – qayta hisoblash faktori.

Ushbu formuladan hamda 2-misolda keltirilgan ma'lumotlardan soydalanib,  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  tarkibidagi bariyning foiz miqdorini hisoblab topish mumkin:

$$x_{\%} = \frac{F \cdot b}{a} \cdot 100\% = \frac{0,5887 \cdot 0,4644}{0,4872} \cdot 100\% = 59,09\%.$$


Demak, tayyor formuladan foydalanilganda hisoblash ancha osonlashadi.

Tahlil natijalarini laboratoriya jurnaliga tartib bilan tahlil qachon o'tkazilgani, sanasi, analizning nomi, aniqlash uslubi, o'lchash va tarozida tortish natijalari, tahlil natijalarini hisoblashni yozib borish kerak.

### Namunalar tarkibidagi $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ miqdorini aniqlash

Tarkibida  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  bo'lgan tuzdan namuna olinadi va u suvda eritiladi.

So'ngra  $\text{Ba}^{2+}$  ioni  $\text{BaSO}_4$  holida cho'kmaga tushiriladi:



Hosil bo'lgan bariy sulfat cho'kmasi tortma tahlilda cho'kmalarga qo'yiladigan talablarga to'liq javob beradi, ya'ni u havoda barqaror va eng kam eruvchan, tuzning tarkibi kimyoviy formulasiga to'la mos keladi.

Shuning uchun tahlil jarayonida yirik kristallar olishga qaratilgan tadbirlar ko'rildi.

**a) Tortim olish va uni eritish.** Bariy sulfatning kristall holatdagi cho'kmasi massasi taxminan 0,5 gr bo'lgani ma'qul. Cho'ktirish jarayonida 1 mol  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  (244,3 gr) dan 1 mol  $\text{BaSO}_4$  (233,4 gr) hosil bo'ladi. Ikkala tuzning molekular massasi deyarli bir xil bo'lgani sababli 0,5 gr  $\text{BaSO}_4$  hosil qilish uchun taxminan shuncha  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  olish kerak.

Texno-kimyoviy tarozida taxminan 0,5 gr namuna olib soat oynasiga solinadi va oyna bilan birgalikda analitik tarozida tortiladi. Tortim 200–300 ml sig'imi kimyoviy stakanga solinadi, soat oynasi esa analitik tarozida qayta tortiladi. Tortish natijalarining farqi tortim massasi miqdorini ko'rsatadi.

Olingen namuna 90–110 ml distillangan suvda shisha tayoqcha bilan aralashtirib turgan holda eritiladi. So'ngra kolloid eritma hosil bo'lishining oldini olish maqsadida eritmaga 2–3 ml 2N HC1 eritmasidan qo'shiladi.

**b) Cho'ktirish.** Bu jarayonda sulfat kislotaning 2N konsentratsiyali eritmasi ishlataladi.  $\text{Ba}^{2+}$  ionlarining to'liq cho'kishi uchun kerakli  $\text{H}_2\text{SO}_4$  miqdori hisoblab topiladi. Cho'ktiruvchi reaktiv hisoblab topilganidan ko'ra, taxminan 1,5–2 marta ko'proq olinadi. Tahlil qilinadigan eritma deyarli qaynaguncha qizdiriladi (qaynamasligi kerak). Boshqa stakanda taxminan 30 ml distillangan suv olinadi va unga 5 ml 2N  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasidan qo'shib qaynaguncha qizdiriladi. Keyin tahlil qilinadigan bariy xloridning qaynoq eritmasiga shisha tayoqcha bilan aralashtirib turgan holda tomchilatib isitilgan sulfat kislota eritmasidan qo'shiladi. Aralash-tirish paytida shisha tayoqcha stakan tubiga va devorlariga teg-masligi kerak, aks holda stakan devorlarida kristallanish markazlari hosil bo'lib, devorlarga cho'kma qattiq yopishib qolishi mumkin. So'ngra eritmali stakan isitilgan suv hammomida qoldiriladi.

Cho'kma ustidagi eritma tingach,  $\text{Ba}^{2+}$  ionlari to'liq cho'k-kanligi tekshirib ko'rildi. Buning uchun stakan devori bo'ylab eritmaga 2–3 tomchi sulfat kislota tomiziladi. Kislota tomchisi tushgan joyda loyqalanish hosil bo'lmasa cho'kish jarayoni nihoyasiga yetgan bo'ladi. Tayoqchani stakandan olmagan holda chang tushmasligi uchun ustiga bir varaq qog'oz yopiladi va cho'kmani «yetiltirish» uchun keyingi mashg'ulotgacha qoldiriladi.

**c) Filtrlash va cho'kmani yuvish.** Filtrlash uchun qalin filtr (ko'k lentali) olib, voronkaga joylanadi va cho'kma ustidagi tiniq suyuqlikni dekantatsiya qilishga kirishiladi. Voronka shtativ hal-qasiga o'rnatiladi, tagiga toza stakan qo'yiladi va cho'kma shisha tayoqcha yordamida ehtiyyotlik bilan suyuqlikdan ajratiladi. Agar filtrat loyqa bo'lsa, huddi o'sha filtr orqali yana filtrlanadi. Filtrating tiniqligiga ishonch hosil qilingach, u to'kib tashlanadi va cho'kmani yuvishga kirishiladi.

Yuvish suyuqligi tayyorlash uchun stakanda 200–250 ml distillangan suv isitib, unga 4–5 tomchi 2N  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasidan qo'shiladi.


Stakandagi cho'kma ustiga 20–30 ml yuvish suyuqligidan quyilib, tayoqcha bilan aralashtiriladi va cho'kma tindiriladi. Yuvish xlor ionlari batamom yo'qolguncha, ya'ni chayindi suvning  $\text{AgNO}_3$ , ta'sirida loyqalanishi to'xtaguncha bir necha marta takrorlanadi.

Shundan so'ng cho'kmanning hammasi filtrga o'tkaziladi. Filtrda cho'kma ortiqcha  $\text{SO}_4^{2-}$  ionlarini yo'qotish uchun distillangan suv bilan yuviladi. Probirkada yig'ilgan filtrat  $\text{BaCl}_2$  qo'shilganda loyqalanishdan to'xtaguncha yuvish davom ettiriladi.


**d) Cho'kmanni quritish va qizdirish.** Cho'kmali voronka ustini qog'oz bilan berkitib, cho'kmali filtrni temperaturasi 100–105°C bo'lgan quritish shkafiga qo'yildi. So'ngra filtr cho'kma bilan birligida, ehtiyyotlik bilan avvaldan doimiy massaga keltirib qo'yilgan tigelga solinadi. Ichiga cho'kmali filtr joylashtirilgan tigel mo'rili shkafda elektr plitkada qizdiriladi. So'ngra tigel qisqich yordamida mufel pechga joylashtiriladi va 25–30 daqiqa davomida qizdiriladi. Tigel eksikatorda xona tempeturasiga qadar sovitiladi va analitik tarozida tortiladi.

Qizdirish va tortish cho'kmali tigel massasi o'zgarmasdan qolguncha takrorlanadi.

Cho'kmali filtr qizdirilganda filtrning kulga aylanishidan hosil bo'lgan ko'mir hisobiga  $\text{BaSO}_4$  qaytarilib  $\text{BaS}$  hosil bo'ladi:



ammo  $\text{BaS}$  yuqori temperaturada havo kislorodi ta'sirida oksidlanadi:



Cho'kmali tigelning massasi doimiy qiymatga erishishi yuqoridaagi jarayonlarning tugaganligini va bariy sulfat tarkibida bariy sullid qolmaganligini ko'rsatadi.

**e) Hisoblash.** Tortish jarayonlaridagi hamma natijalar laboratoriya daftariga yoziladi va namunadagi bariy xlorid miqdori hisoblab topiladi.

#### ❖ Yozish tartibi

##### 1. Tahlil qilinadigan namunani tortish

Namuna solingan soat oynasining massasi

6,1988 gr

|   |            |
|---|------------|
| Soat oynasining massasi                         | 5,6436 gr  |
| Namuna tortimi                                  | 0,5852 gr  |
| <b>2. Cho'kmani tortish</b>                     |            |
| Tigelning birinchi qizdirishdan keyingi massasi | 11,1240 gr |
| Tigelning ikkinchi qizdirishdan keyingi massasi | 11,1233 gr |

|  |            |
|--|------------|
| Tigelning doimiy massasi   | 11,1233 gr |
| BaSO <sub>4</sub> solingan tigelning birinchi qizdirishdan keyingi massasi | 11,6888 gr |
| BaSO <sub>4</sub> solingan tigelning ikkinchi qizdirishdan keyingi massasi | 11,6819 gr |
| BaSO <sub>4</sub> solingan tigelning doimiy massasi                        | 11,6819 gr |
| Olingan BaSO <sub>4</sub> cho'kmasining massasi                            | 0,5586 gr  |

❖ **Hisoblash quyidagicha olib boriladi:**

Hosil bo'lgan BaSO<sub>4</sub> cho'kmasiga qancha BaCl<sub>2</sub>·2H<sub>2</sub>O to'g'ri kelishini hisoblab topamiz.

233,43 gr BaSO<sub>4</sub> ga 244,30 gr BaCl<sub>2</sub>·2H<sub>2</sub>O to'g'ri keladi,  
0,5586 gr BaSO<sub>4</sub> ga – x g BaCl<sub>2</sub>·2H<sub>2</sub>O to'g'ri keladi.

$$x = \frac{0,5586 \cdot 244,31}{233,43} = 0,5846 \text{ gr.}$$

Namuna tarkibibda necha foiz BaCl<sub>2</sub>·2H<sub>2</sub>O borligini hisoblaymiz.

0,5852 gr namuna 100% ni tashkil etadi,  
0,5846 gr BaCl<sub>2</sub>·2H<sub>2</sub>O – x gr ni tashkil etadi.

$$x = \frac{0,5586 \cdot 100}{0,5852} = 99,89\%.$$

Turli namunalar tarkibidagi ayrim tuzlarning foiz miqdorini hisoblashda ham yuqorida bayon etilgan usuldan foydalanish mumkin.

❖ **Hajmiy tahlil haqida tushuncha**


Titrimetrik tahlilda turli tipdagи kimyoiy reaksiyalar qo'llaniladi. Reaksiya turiga muvofiq ravishda hajmiy tahlil usullari ham bir necha guruhga bo'linadi: 1) ionlarning o'zaro ta'siriga

asoslangan usullar; 2) oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga asoslangan usullar; 3) kompleks hosil bo'lishiga asoslangan usullar.

Birinchi guruhga neytrallash va cho'ktirish, ikkinchi guruhga turli oksidlanish-qaytarilish, uchinchi guruhga elektrolitlar eritmaside kompleks birikmalar hosil bo'lish reaksiyalarini kiradi. Neytrallash usuli neytrallanish reaksiyalariga asoslangan. Ularni umumiyoq ko'rinishda quyidagicha ifodalash mumkin:



yoki





Bu usul eritmalardagi kislota yoki ishqorlar konsentratsiyalarini aniqlashda ko'p qo'llaniladi. Shuningdek, eritmada gidrolizlanuvchi tuzlar konsentratsiyasini aniqlashda ham neytrallash usulidan foydalanish mumkin. Eritmadagi ishqorlar yoki suvdagi eritmalarda gidrolizlanishi natijasida ishqoriy muhit hosil qiluvchi tuzlar konsentratsiyasini aniqlashda standart ishchi eritmalar sifatida kislota eritmasi ishlatiladi. Ushbu tipdagi aniqlashlar atsidimetriya (lotincha acidum – kislota) deb ataladi.

Kislotalarning konsentratsiyasini yoki gidrolizlanish tufayli kislotali muhit hosil qiluvchi tuzlar konsentratsiyasini aniqlashda standart ishchi eritmalar sifatida ishqorlar eritmasi ishlatiladi. Bunday jarayonlar alkalimetriya (lotincha alkali – ishqor) deb ataladi. Neytrallash usulida ekvivalent nuqtani aniqlash uchun indikator rangining o'zgarishidan foydalanish mumkin. Indikatorlardan fenolftalein, laksus, metiloranj, metil qizil ko'p qo'llaniladi. Cho'ktirish usulida aniqlanadigan ion standart ishchi eritma bilan ta'sirlashib, qiyin eruvchan birikma hosil qilib cho'kmaga tushadi. Cho'kma hosil bo'lish jarayonida muhit o'zgaradi, bundan foydalanib, ekvivalent nuqtani aniqlash imkonini tug'iladi. Masalan, titrimetrik tahlilda  $\text{Cl}^-$  ionlarini aniqlashda tekshirilayotgan eritmani  $\text{AgNO}_3$  eritmasi bilan titrlanadi. Indikator sifatida  $\text{K}_2\text{CrO}_4$  tuzi eritmasi qo'shiladi. Tekshirilayotgan eritmada  $\text{Cl}^-$  ionlari  $\text{AgCl}$  holida cho'kmaga to'liq o'tgandan keyin qo'shilgan  $\text{AgNO}_3$  qizil-g'isht rangli  $\text{Ag}_2\text{CrO}_4$  cho'kmasini hosil qiladi,  $\text{Ag}_2\text{CrO}_4$  cho'kmasi hosil bo'la boshlashi sezilgan zahoti titrlashni to'xtatish kerak.

Titrimetrik cho'ktirish usullari ham turlicha nomlanadi. Bunda qanday standart ishchi eritma ishlatilganligi asos qilib olinadi. Masalan, ana shu maqsadda  $\text{AgNO}_3$  eritmasidan foydalanilsa, argentometriya yoki ishchi eritma sifatida  $\text{NH}_4\text{SCN}$  eritmasidan foydalanilsa rodanometriya usuli deb ataladi.

Kompleks hosil bo'lishiga asoslangan titrimetrik usul kam ionlanuvchi kompleks birikmalarning hosil bo'lishiga asoslangan. Titrimetrik usul yordamida turli kationlarni ( $\text{Mg}^{2+}$ ,  $\text{Ca}^{2+}$ ,  $\text{Zn}^{2+}$ ,  $\text{Hg}^{2+}$ ,  $\text{Al}^{3+}$ ,  $\text{Cu}^{2+}$ ,  $\text{Co}^{2+}$ ,  $\text{Ni}^{2+}$ ,  $\text{Mo}^{6+}$ ) va anionlarni ( $\text{CN}^-$ ,  $\text{F}^-$ ,  $\text{Cl}^-$ ) aniqlash mumkin, bunda ushbu ionlarning kompleks birikmalar hosil qilish xususiyatlardan foydalaniladi. Keyingi vaqtarda ionlarning organik moddalar (kompleksonlar) bilan ta'sirlashuviga asoslangan titrimetrik tahlil usullari keng qo'llanilmoqda.

*Kompleksonometrik titrlash deb ataluvchi titrlash bir asrdan ko'proq qo'llanilgan. 1940-yilda xelatlar deb ataluvchi koordinatsiya komplekslarining sinfi analitik kimyoda qo'llanila boshlangan. Xelat metall ionining ikkita yoki undan ortiq donor guruhlari bilan geterotsiklik yadroning beshta yoki oltita a'zolarini hosil qilish uchun ligand bilan bog'lanishidan paydo bo'ladi. Bunga misning glitsin bilan hosil qilgan kompleksi misol bo'la oladi. Bunda mis karboksil guruhidagi kislorod va amin guruhidagi azot bilan kompleks hosil qiladi:*



Misning glitsin bilan hosil qilgan kompleksi

Oksidlanish-qaytarilish usullari tekshirilayotgan eritmadiagi ionlar bilan standart ishchi eritma tarkibidagi ionlar orasida sodir bo'ladigan oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga asoslanadi.

Eritma tarkibidagi aniqlanayotgan ionning xususiyatiga qarab miqdoriy aniqlashlarda standart ishchi eritma sifatida qaytaruvchi ionlar ( $\text{Fe}^{2+}$ ,  $\text{C}_2\text{O}_4^{2-}$ ,  $\text{NO}_2^-$  va boshqalar) yoki oksidlovchi ionlar ( $\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-}$ ,  $\text{MnO}_4^-$ ,  $\text{ClO}_3^-$ ,  $\text{Fe}^{3+}$  va boshqalar) mavjud bo'lgan tuzlar eritmasidan foydalaniadi. Ayrim oksidlanish-qaytarilish usullarini nomlashda tahlilda qanday standart ishchi eritma ishlatalganligiga asoslaniladi.

Miqdoriy tahlilda permanganatometriya, yodometriya, xromatometriya kabi oksidlanish-qaytarilish usullari ko'p qo'llaniladi.

**Permanganatometriya.** Bu usulda standart ishchi eritma sifatida  $\text{KMnO}_4$ , eritmasi ishlataladi. U reaksiyalarda oksidlovchi vazifasini o'taydi.

**Yodometriya.** Erkin yod  $\text{I}_2$  kimyoviy reaksiyalarda oksidlovchi,  $\text{I}^-$  ioni esa qaytaruvchi sifatida ishtirok etadi. Yodometriya usulida indikator sifatida kraxmaldan foydalaniadi.

**Xromatometriya.** Bu usul aniqlanayotgan ionni yoki elementni  $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$  ning standart ishchi eritmasi bilan oksidlanishiga asoslangan.

Oksidlanish-qaytarilish usullaridan bromatometriyada  $\text{KBrO}_3$ , vanadatometriyada  $\text{NH}_4\text{VO}_3$  oksidlovchilar sifatida ishlataladi.

Qaysi usulda tahlil o'tkazilmasin: 1) standart (ya'ni, titri aniq.) ishchi eritma tayyorlashga; 2) mos keluvchi indikator tanlashga; 3) o'zaro ta'sirlashuvchi eritmalarining hajmini to'g'ri o'lchanashga e'tibor berish zarur.

### **Neytrallash usuliga doir laboratoriya mashg'uloti Xlorid kislotaning standart ishchi eritmasini tayyorlash va u yordamida eritmadiagi ishqor miqdorini aniqlash**

Neytrallash usulida ishqorlarning, shuningdek, gidrolizlanganda ishqoriy muhit hosil qiladigan tuzlarning konsentratsiyasini aniqlash uchun ko'pincha, titri bura  $\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  yoki soda  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  bo'yicha aniqlanadigan xlorid kislota ishchi eritma sifatida ishlataladi.

Xlorid kislotanining ishchi eritmasini tayyorlash uchun avval konsentratsiyasi yuqori bo'lgan eritmalaridan foydalanib, taxminan 0,1N konsentratsiyali HCl eritmasi tayyorlanadi, so'ngra analitik tarozida o'lchab olingan tortim bo'yicha dastlabki modda natriy tetraborat ( $\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$ ) ning titri aniq eritmasi tayyorlanadi. Shundan so'ng titrlash yo'li bilan HCl kislotanining tayyorlangan 0,1N eritmasining konsentratsiyasiga aniqlik kiritiladi.

**1. Xlorid kislotanining taxminan 0,1N eritmasini tayyorlash.**  
Xlorid kislotanining ishchi eritmasi uning konsentrangan (k.t. – kimyoviy toza) eritmasiga kerakli miqdor suv qo'shib suyultirish yo'li bilan tayyorlanadi.

Masalan, 200 ml 0,1N xlorid kislotanining eritmasini tayyorlash kerak bo'lsin

$$E_{\text{HCl}} = 36,46 \text{ gr}, \text{ demak, } 1 \text{ ekv HCl } 36,46 \text{ gr} \\ 0,1 \text{ — } 3,646 \text{ gr.}$$

1000 ml 0,1N eritma tayyorlash uchun 3,646 gr HCl kerak,  
200 ml 0,1N eritma tayyorlash uchun  $x$  gr HCl kerak.

$$x = \frac{3,646 \cdot 200}{1000} = 0,7291 \text{ gr.}$$

Keyingi bajariladigan ishlar uchun ishlatiladigan konsentrangan xlorid kislotanining zichligi aniqlanadi. Buning uchun laboratoriyada mavjud uzun silindrga xlorid kislotanining zichligi 1,179 g/sm<sup>3</sup> ga teng bo'lsin. Ma'lumotnomadagi jadvaldan shu zichlikdagi xlorid kislotada necha foiz HCl borligi topiladi. U 36% ga teng. So'ngra 200 ml 0,1N HCl eritmasi tayyorlash uchun konsentrangan xlorid kislotadan qancha olish kerakligi hisoblab topiladi:

100 gr 36 % li xlorid kislotada 36 gr HCl bor,  
 $X$  gr 36 % li xlorid kislotada 0,7291 gr HCl bor.

$$x = \frac{100 \cdot 0,7291}{36} = 2,03 \text{ gr.}$$


Suyuqlikni tarozida tortish noqulay bo'lganligi uchun kislotanining massasi hajmga aylantiriladi:

$$V = \frac{m}{d} = \frac{2,03 \text{ g}}{1,179} = 1,7 \text{ ml.}$$

Pipetkada 1,7 ml 36% li xlorid kislota o'lchab olinadi, uni hajmi 200 ml bo'lgan kolbaga solib, kolbaning belgisiga qadar distillangan suv to'ldiriladi. Tayyorlangan eritma yaxshilab aralash-tiriladi.

## **2. Buraning titrlangan eritmasini tayyorlash va uning konsentratsiyasini hisoblash.**

Bura xlorid kislota bilan quyidagicha reaksiyaga kirishadi:



Reaksiya tenglamasidan ko'rinib turibdiki, bir mol bura ikki mol vodorod ioni bilan reaksiyaga kirishadi. Shuning uchun buraning ekvivalenti uning molekular massasining yarmiga teng:

$$E_{\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}} = \frac{381,42}{2} = 190,71.$$

Aytaylik, 100 ml 0,1N eritma tayyorlash uchun qancha modda olish zarur ekanligi talab etilsin. 1 l 1N eritma tayyorlash uchun 190,71 gr, 100 ml 0,1N eritma tayyorlash uchun esa 1,9071 gr bura olish kerak.

Buraning aniq hisoblangan miqdorini analistik tarozida tortib olish qiyin, ko'p vaqt sarflanadi. Shuning uchun tortim hisoblanganiga yaqinroq, lekin juda aniq qilib olinadi. Avvalo, texnokimyoviy tarozida 1,91 gr bura tortiladi, so'ngra u soat oynasiga yoki quruq toza byuksga solinadi va analistik tarozida tortiladi. Soat oynasi bilan tortimning birqalikdagi massasi ish daftariga yoziladi.

Bura 100 ml hajmli o'lchov kolbasiga keng naychali quruq voronka orqali ehtiyyotlik bilan solinadi. Shundan so'ng soat oynasi (yoki byuks) unda qolgan bura zarrachalari bilan yana analistik tarozida tortiladi. Birinchi va ikkinchi tortishdagi farqdan kolbadagi buraning miqdori hisoblab topiladi.

Voronkadagi hamma bura yuvgichdan yuborilayotgan distillangan suv oqimi bilan yuvib kolbaga tushiriladi. So'ngra kolbaga

distillangan issiq suv (kolba hajmining 2/3 qismiga qadar) qo'shiladi va voronka olinadi.

Aylanma harakat bilan aralashmani chayqatib, kolba ichidagi bura batamom eritiladi. Kolbadagi eritma xona temperaturasigacha sovitiladi va uning belgisiga qadar distillangan suv quyiladi. Kolbanning og'zi tiqin bilan zikh berkitiladi va eritma yaxshilab aralash-tiriladi.

Amalda olingan tortim hisoblab topilganidek aniq bo'lmay, balki unga faqat yaqin miqdor bo'lgani uchun tayyorlangan eritmaning konsentratsiyasi ham aniq 0,1N bo'lmaydi. Shu sababli eritmaning 0,1N konsentratsiyasiga kiritiladigan tuzatma topiladi. Titrlangan eritmalar tayyorlashda tuzatma qiymatini aniqlashda, amalda o'lchab olingan tortim miqdorini nazariy hisoblanganiga bo'lish kerak. Aytaylik, amalda olingan tortim miqdori 1,9132 gr bo'lsa, u holda

$$K = \frac{1,9132}{1,9071} = 1,0032.$$

Shunday qilib, tayyorlangan eritma uchun tuzatma  $K= 1,0032$  dir.

Tayyorlangan bura eritmasining konsentratsiyasini quyidagi usul bilan ham hisoblash mumkin. Avval tortim massasini eritma hajmiga bo'lish bilan tayyorlangan bura eritmasining titri hisoblanadi. Bura tortimi 1,9132 gr bo'lgani uchun:

$$T = \frac{1,9132}{100} = 1,01913 \text{ gr/ml.}$$

1N konsentratsiyali bura eritmasining titri 0,19071 gr/ml ga teng.

1N eritmaning titri 0,19071 gr/ml,

XN eritmaning titri 0,01913 gr/ml.

Tartibda proporsiya tuzib, amalda tayyorlangan eritmaning normalligini hisoblab topish mumkin:

$$x = \frac{1,01913}{0,19071} = 0,1003N.$$

0,1N konsentratsiyali eritma uchun topilgan tuzatmadan toydalanilganda ham shu qiymat kelib chiqadi:

$$0,1N \cdot 1,0032 = 0,1003N.$$

Eritma titrining yoki normalligining qiymati doim to'rt xonali sondan iborat bo'lishi kerak.

Ba'zan eritmaning titri ma'lum bo'lib, eritma konsentratsiyasini normallik bilan ifodalash talab etiladi. Unda quyidagi formuladan toydalanish mumkin:

$$N = \frac{T \cdot 1000}{E}$$

yoki amalda tayyorlangan eritma uchun:


$$N = \frac{0,01913 \cdot 1000}{190,71} = \frac{19,13}{190,71} = 0,1003N.$$

*Neytrallash uchun titrlash kislotalar va asoslarning miqdorini aniqlashda keng qo'llaniladi. Bundan tashqari, neytrallash uchun titrlash vodorod ionlarini hosil qiluvchi yoki sarflovchi reaksiyalar jarayonini ko'rsatishda ham ishlatiladi. Klinik kimyoda, misol uchun, pankreatit kasalligiga zardobdag'i lipaza miqdorini o'lchash orqali tashhis qo'yiladi. Lipaza uzun zanjirli yog' kislota triglitseridini gidrolizlaydi. Reaksiya natijasida mavjud bo'lgan triglitseridning har bir molidan ikki mol yog' kislota va bir mol b-monoglitserid erkin holda ajraladi.*



*Reaksiya ma'lum vaqt davomida boradi va so'ngra erkin holda ajralgan yog' kislota fenolftalein indikatori yoki pH metr yordamida NaOH bilan titrlanadi. Keltirilgan vaqtida ajralgan yog' kislota miqdori lipaza faolligiga bog'liq bo'ladi.*

**3. Xlorid kislotaning konsentratsiyasini buraning standart ishchi eritmasi yordamida aniqlash.** Xlorid kislota eritmasining uniq konsentratsiyasi tayyorlangan standart bura eritmasi bo'yicha aniqlanadi. Eritmani titrlash uchun byuretka, pipetka va konusimon kolba tayyorlash kerak. Tozalab yuvilgan byuretka



7-rasm. HANNA avtomatik titrator

distillangan suv va tayyorlangan HCl eritmasi bilan chayiladi. So'ngra voronka yordamida byuretkaga uning nol darajasining yuqorisigacha xlorid kislota eritmasi bilan to'ldiriladi. Voronkadan kislota tomchisi oqib tushmasligi uchun u olib qo'yiladi va byuretkada meniskning pastki cheti nol darajaga yetguncha jo'mrakni burab ortiqcha kislota to'kiladi.

Pipetka distillangan suv va bura eritmasi bilan kolba esa faqat distillangan suv bilan chayiladi.

Pipetka bilan ma'lum hajmda (masalan, 15 ml) bura eritmasidan o'lchab olinadi va titrlash uchun tayyorlangan kolbaga quyiladi. Pipetkadan oxirgi tomchini puflab tushirmasdan, uning uchi kolba devoriga tegiziladi. Kolbaga 1 tomchi metiloranj indikatori tomiziladi. Bura eritmasi solingen kolba byuretkaning tagiga quyiladi va byuretka uchi kolba ichiga 1–2 sm tushiriladi. Shtativning kolba turadigan joyiga bir varaq oq qog'oz qo'yiladi, chunki bu holda kolbadagi eritma rangining o'zgarishini ko'rish osonlashadi. Shundan so'ng bura eritmasi byuretkadagi kislota eritmasi bilan titrlanadi. Kislotaning ortiqcha birinchi tomchisidan eritmaning sariq rangi och-pushti rangga o'tganda titrlash to'xtatiladi.

Titrlash bir-biridan 0,1 ml dan ko'proq farq qilmaydigan yaqin natijalar olinguncha takrorlanadi. Bunda byuretkadagi eritma sathi har gal nolga keltirilishi zarur. Titrlash natijalarini laboratoriya daftariga yozib boriladi. 2–3 marta titrlashdan o'rtacha arifmetik-

Burada olimadi. Masalan, buraning  $15 \text{ ml}$   $0,1\text{N}$  eritmasini birinchi titrlashda  $14,85 \text{ ml}$ , ikkinchi titrlashda  $14,90 \text{ ml}$ , uchinchi titrlashda  $14,95 \text{ ml}$   $\text{HCl}$  sarflangan bo'lsin. Uchala titrlashning o'rtacha qlymatini topamiz:

$$v_{o'rtakche} = \frac{14,85 + 14,90 + 14,95}{3} = 14,90 \text{ ml.}$$

Titrlash natijasiga ko'ra xlorid kislotaning normalligini aniqlaymiz:

$$N_{HCl} \cdot 14,90 = 0,1003 \cdot 15,00,$$

bundan

$$N_{HCl} = \frac{0,1003 \cdot 15,00}{14,90} = 0,1009 \text{ N.}$$

Xlorid kislota eritmasining normal konsentratsiyasini bilgan holda uning titrini hisoblab topish mumkin:

$$T = \frac{N \cdot E}{1000} = \frac{0,1009 \cdot 36,46}{1000} = 0,003679 \text{ gr/ml.}$$

Ammo aksariyat tahlillar paytida ishchi eritmaning normal konsentratsiyasidan foydalaniadi.

Shunday qilib, titri belgilangan xlorid kislotadan keyingi aniqlashlarda ishchi eritma sifatida foydalanish mumkin.

4. Eritmadagi ishqor miqdorini aniqlash. Xlorid kislotaning titri aniq bo'lganidan keyin bu eritmada foydalanib biror eritmadagi ishqor miqdorini (ya'ni konsentratsiyasini) aniqlay olamiz. Aniqlash 3-bandda bayon etilgan tartibda bajariladi.

Konussimon kolbaga o'Ichov kolbasida tayyorlangan konsentratsiyasi noma'lum ishqor eritmasidan pipetka yordamida  $10 \text{ ml}$  o'Ichab solinadi, unga 1 tomchi metiloranj eritmasi tomiziladi va indikatorning sariq rangi bir tomchi kislota ta'siridan och-pushti rangga o'tguncha xlorid kislotaning ishchi eritmasi bilan titrlanadi.

Tahlil natijasini hisoblashda:

$$N_{NaOH} = \frac{V_{HCl} \cdot N_{HCl}}{V_{NaOH}}.$$

formuladan foydalaniladi. Byuretkadagi kislota normalligini va sarflangan hajmini bilgan holda titrlangan eritmadi NaOH (yoki KOH) miqdorini hisoblab topiladi.

### ❖ Elektrokimyoviy tahlil usullari

Bu usullarda tekshirilayotgan modda tarkibidagi aniqlanayotgan moddaning elektrokimyoviy xususiyatlaridan foydalaniladi. Ularga potensiometrik, konduktometrik, poliyarografik va eleketrogravimetrik usullar kiradi.

Potensiometrik usul eritmaga tushirilgan elektrodda vujudga keladigan potensialni o'lhashga asoslangan. Potensialning kattaligi eritmadi ionlar konsentratsiyasiga to'g'ri proporsional bo'ladi. Masalan, mis elektrodi potensiali kattaligi u tushirilgan mis (II) sulfat eritasidagi mis (II) ionlarining konsentratsiysiga bog'liq ravishda o'zgaradi. Bunda metall elektrod tarkibi noma'lum bo'lган tuz eritmasiga tushiriladi va elektrodda paydo bo'lган potensial o'lchanadi. Potensiometrik tahlil usulida elektrodlar yuzasida hosil bo'ladigan elektr yurituvchi kuchaytiruvchi (E.YU.K.)ni o'lhashda maxsus lampa bilan jihozlangan lampali potensiometr LP-5 asbobidan foydalaniladi.

Konduktometrik usul ma'lum temperaturada eritmadi elektrolit konsentratsiyasi bilan eritmaning elektr o'tkazuvchanligi orasidagi bog'lanishga asoslangan. Odatda, eritmaning konsentratsiyasi qancha yuqori bo'lsa, uning elektr o'tkazuvchanligi shuncha yuqori bo'ladi. Agar eitmada bitta elektrolyt mavjud bo'lsa, bu usulda uni aniqlash osonlashadi. Buning uchun dastlab aniqlanuvchi elektrolyt konsentratsiyalari ma'lum bo'lган eritmalarining elektr o'tkazuvchanligini o'lhash yo'li bilan kalibrangan grafik tuziladi. So'ngra tekshirilayotgan eritmaning elektr o'tkazuvchanligi o'lchanadi va kalibrangan grafikdan foydalaniib, ayni elektr o'tkazuvchanlikka muvofiq keluvchi konsentratsiya topiladi.

Masalan, HCl ning turli konsentratsiali eritmalarining elektr o'tkazuvchanligini o'lhash yo'li bilan kalibrangan grafik tuziladi. So'ngra noma'lum konsentratsiyali HCl erimasining elektr o'tazuvchanligi o'lchanadi va unga muvofiq konsentransiya kolibrangan grafikdan foydalaniib aniqlanadi.

Polyarografik tahlil usuli ham tekshirilayotgan eritmani elektroliz qilishga asoslangan. Bu usulda polyarografiyadan foydalaniladi. Polyarograflar aftomatik ravishda volt – amper bog'lanishni chiza oladi. U kuchlanishning ko'tarilishi bilan diffuzion tok kuchining o'zgarishidan iborat bog'lanishni ifodaiydi. Ana shu bog'lanish xarakteriga ko'ra, eritmada kationlarning muvjudligi va ularning miqdori to'g'risida xulosa qilinadi.

Bu usul 1922-yilda chek olimi Ya. Geyrovskiy tomonidan kashf etilgan bo'lib, ko'p afzalliliklarga ega. Birinchidan, tahlil tez bajariladi va uning sezgirligi yuqori. Ikkinchidan, tahlil natijasi to'la ishonchli bo'ladi, chunki unda o'ta sezgir galvonometrlardan foydalaniladi. Uchinchidan, ayrim ionlarni boshqa ionlar ishtirokida aniqlash mumkin. Elektrogravimetrik usuli aniqlanayotgan elementni elektroliz yordamida elektrod yuzasiga cho'ktirishga asoslangan. Bunda elektrod yuzasi tozalanadi va uning massasi o'lchanadi, so'ng tekshirilayotgan eritmaga tushiriladi, elektrodlarga o'zgarmas tok beriladi, elektroliz tugagandan so'ng elektrondning massasi yana aniqlanadi. Elektrod massalarining farqidan foydalanib, eritmadiagi element (modda) miqdori to'g'risida xulosa chiqarildi. Elektr toki cho'ktiruvchi «reaktiv» vazifasini o'taydi. Cho'kish elektrodlarning bittasida ro'y beradi. Elektrodlar, asosan, metallar ( $Cu$ ,  $Ag$ ,  $Au$ ,  $Ni$ ,  $Cr$ ) oksidlar (masalan:  $PbO_2$ ), tuzlar (masalan:  $AgCl$ ) bo'lib, ulur cho'kishi mumkin.

### ❖ Xromatografik tahlil usullari

Xromatografik tahlil usuli 1903-yilda rus olimi M.S. Svet tomonidan kashf etilgan. Bu usul tanlab adsorbsiya qilish hodisidan foydalanishga asoslangan.

Miqdoriy tahlilda xromatografiyadan moddani miqdoriy tahlil qilishdan oldin keladigan yordamchi usul sifatida foydalaniladi.

Xromatografik tahlil usullaridan adsorbsion, ion almashinish, taqsimlanish va cho'ktirish xromatografiyalari miqdoriy tahlilda keng ko'lamda ishlataladi.

Adsorbsion xromatografiya bir yoki bir necha moddaning eritmasidan molekulalararo kuchlar ta'sirida ayrim ionlarning tanlab adsorbsiyalanishiga asoslangan. Tahlil qilinayotgan eritma

xromatografik kolonkadan mayda adsorbent donalari bilan to‘ldirilgan shisha naydan o‘tkaziladi. Rangsiz adsorbentli kolonkadan asorbilanadigan moddaning rangli eritmasi o‘tkazilganda shisha naycha ichidagi adsorbenda ma’lum qalinlikda xromatogramma hosil qiladigan ragli qavatlar paydo bo‘ladi.

Tahlil qilinayotgan eritmada u yoki bu ionlarning borligi to‘g‘risida xromatogramma asosida fikr yuritiladi.

Adsorbentlar sifatida aktivlangan ko‘mir, Mg, Al va shu singari metallarning hamda ishqoriy yer metallarining oksid va gidroksidlari, silikagel kabilar ishlatiladi. Masalan,  $\text{CaCO}_3$  dan adsorbent sifatida foydalanib, benzolda eritilgan xlorofill tarkibidagi zarachalarni bir-biridan ajratish mumkin.

Taqsimlanish xromatografiyasi erigan moddaning o‘zaro aralashmaydigan ikki fazasi orasida taqsimlanish hodisasiga asoslangan.

Qog‘oz xromatografiyasi taqsimlanish xromatografiyasining bir turidir. Bunda turli qo‘shimchalardan tozalangan maxsus filtr qog‘ozlardan foydalaniladi. Tahlil jarayoni quyidagicha o‘tkaziladi. Tekshirilayotgan eritma (kationlar aralashmasi)dan pipetka yordamida bir tomchi olinadi va chetidan 1–2 sm qoldirib filtr qog‘ozga tomiziladi. So‘ngra filtr qog‘oz yopiq kameraga ilib qo‘yiladi. Bunda tekshirilayotgan eritma tomizilgan tomoni erituvchiga botib turishi zarur, natijada erituvchi filtr qog‘oz bo‘ylab yuqoriga ko‘tarila boshlaydi va shu yo‘nalishda aralashma tarkibidagi komponentlar ham turlicha tezlikda harakatlanadi. Ma’lum vaqt o‘tgandan so‘ng filtr qog‘oz kameradan chiqarib olinadi, quritiladi va unga bir-biridan ajratiladigan ionlar bilan rangli birikma hosil qiluvchi reaktiv eritmasidan purkaladi. Masalan,  $\text{Mn}^{2+}$  ioni  $\text{AgNO}_3$  eritmasi bilan,  $\text{Fe}^{+3}$  va  $\text{Cu}^{+2}$  ionlari esa kaliy geksatsianoferrat (III)  $\text{K}_4(\text{Fe}(\text{CN})_6)$  eritmasi bilan rangli dog‘lar hosil qiladi.

Cho‘ktirish xromatografiyasi komponentlari ajratiladigan aralashma bilan cho‘ktiruvchidan hosil bo‘ladigan qiyin eriydigan birikmalarning eruvchanligi har xilligiga asoslangan.

Cho‘ktirish xromatografiyasi o‘tkaziladigan kolonka inert mudda (yo‘yuvchi) va cho‘ktiruvchi reaktivdan iborat bo‘ladi. Cho‘ktiruvchi reaktiv tekshirilayotgan eritma tarkibidagi ionlar bilan

cho'kmalar aralashmasini hosil qiladi va ular o'z eruvchanligiga ko'ra kolonka balandligi bo'ylab ma'lum ketma-ketlikda joylashadi.

Masalan, tarkibida  $Hg^{+2}$  va  $Pb^{+2}$  ionlari bo'lgan eritmani tahlil qilishda shisha naycha  $Al_2O_3$ ,  $NaI$  larning 9:1 nisbatidagi aralashmasi bilan to'ldiriladi. So'ngra naychaga tarkibida  $Hg(NO_3)_2$  va  $Pb(NO_3)_2$  tuzlarini saqllovchi eritmadan asta-sekin tomiziladi. Eritma takibidagi  $Hg^{+2}$  va  $Pb^{+2}$  ionlari  $NaI$  bilan ta'sirlashib, kam eruvchan tuzlar  $HgI_2$  va  $PbI_2$  larini hosil qiladi. Bunda juda kam eruvchan  $HgI_2$  kolonkaning yuqorigi qismida,  $PbI_2$  esa pastki qismida joylashadi.  $HgI_2$  joylashgan qavat sarg'ish-qizg'ish,  $PbI_2$  joylashgan qavat sarg'ish rangga bo'yaladi.

Ion almashinish xromatografiyasini tahlil qilinayotgan aralashma ionlarining adsorbentni harakatchan ionlariga almashinish reaksiyalariga asoslangan. U miqdoriy tahlilda tekshiriladigan moddalar tarkibiy qismlarini aniqlash, qo'shimcha moddalarni ajratish, sof kimyoiy preparatlar olish, elektrolitlarning eritmada umumiy konsentratsiyalarini aniqlash va boshqa maqsadlarda foydalaniadi.

Ion almashinish xromatografiyasida adsorbent sifatida yuqori molekular birikmalar – ionitlar ishlataladi. Ular suvda va organik crituvchilarda erimaydigan va ion almashinish xususiyatiga ega bo'lgan qattiq moddalardir. Adsorbent bilan eritma orasida ionlar ekvivalent nisbatlarda almashinadi.

Eritmalardan kationlarni yutadigan adsorbentlar kationitlar, anionlarni yutadigan adsorbentlarni esa anionitlar deyiladi.

Xromatografik kolonkani ionit bilan to'ldirishdan avval adsorbentni qo'shimcha modda zarrachalaridan, mexanik aralashmalaridan tozalash maqsadida distillangan suv bilan 2–3 marta yuviladi va bo'ktirish uchun 4–5 soat ustiga suv to'ldirib qo'yiladi.

Kolonka tubiga shisha toladan tig'in qo'yiladi va jo'mrakni ochib, ionitli kolonka yuvib tushiriladi. Ionit qavati 8–10 sm qalinlikda bo'lishi kerak.

So'ngra ionit qanday ( $H^+$  yoki  $OH^-$ ) formada bo'lishi kerakligiga qarab 3% li  $HCl$  eritmasi yoki 5% li  $Na_3CO_3$  eritmasi bilan yuviladi, keyin neytral muhitga kelguncha distillangan suv bilan yuviladi. Ionit donachalari orasida havo pufakchalari qolmasligi shart. Ionit donachalari yuzaga suzib qolmasligi uchun kolonkadagi

ionit ustiga paxta tiqin qo'yiladi, uning ustida doimo 1 sm qalinlikda suyuqlik bo'lishi shart.

### ❖ Fizikaviy tahlil usullari

Miqdoriy tahlilda fizikaviy tahlil usullaridan radiometrik va mass-spektrometrik usullari eng ko'p qo'llaniladi. Radiometrik tahlil tekshirilayotgan modda tarkibidagi radioaktiv elementdan chiqayotgan nurlanishni o'lchashga asoslangan. Unda aralashma tarkibidagi radioaktivlik xususiyatiga ega bo'lgan izotoplar miqdori aniqlanadi.

Radioaktiv izotoplarni aniqlashda yarim yemirilish davridan yoki chiqarayotgan nurlanish energiyasidan foydalaniadi. Miqdoriy tahlil amaliyotida radioaktiv izotoplar  $\alpha$ ,  $\beta$  va  $\gamma$  nurlanishlari faolligini o'lchash usulidan keng foydalaniadi.

Radiometrik usul kimyoviy tahlil usullariga qaraganda bir qadar afzalliklarga ega bo'lib, uning sezgirlik darajasi, hatto, fizik-kimyoviy usullarning sezgirlik darajasidan ham yuqori. Masalan, bu usul yordamida  $\text{Co}^{60}$ ,  $\text{Ni}^{65}$  izotoplarining  $10^{-8}$  grammini  $\text{Cu}^{64}$ ,  $\text{As}^{76}$  izotoplarining esa  $3,4 \cdot 10^{-10}$  grammini aniqlash mumkin.

Ammo bu usulning aniqlik darajasi kimyoviy tahlilnikidan past (nisbiy xato =  $\pm 5-20\%$ ). Shunga qaramasdan kam miqdordagi elementlarni aniqlashda radiometrik usuldan foydalanadi.

Hozir radioaktivatsion tahlil usuli keng qo'llanilmoqda. Bu usulning mohiyati quyidagilardan iborat. Elementning (radioaktivmas) barqaror izotopi atom reaktorida nurlatish yo'llari bilan radioaktiv holatga o'tkaziladi, so'ngra uning radioaktivligini o'lchash yo'li bilan modda tarkibidagi elementning miqdori haqida xulosa chiqariladi. Masalan, po'lat tarkibidagi uglerod miqdorini aniqlash uchun po'lat namunasi protonlar oqimi bilan nurlantiriladi va unda hosil bo'lgan nurlanish intensivligi o'chanadi. Hosil bo'lgan nurlanish intensivligi po'lat tarkibidagi uglerod miqdoriga to'g'ri proporsional bo'ladi. Bu usulda uglerod miqdorini aniqlash uchun 5-19 daqiqa vaqt kifoya. Protonlar oqimi o'tnida neytronlar oqimidan foydalanilganda bu usulning sezgirlik darajasi yana ortadi. Neytron-aktivatsion usul yordamida 10-6% va hatto, undan ham kam miqdordagi elementlarni aniqlash mumkin. Amaliyotda

biologik obyektlarda mikroelementlar miqdorini aniqlashda ushbu usuldan keng foydalaniladi.

Mass-spektrometrya usulidan elementlarning izotoplaridan iborat aralashma tarkibini o'rganishda foydalaniladi. Bu usul elektr yoki magnit maydoni ta'sirida hosil bo'lgan ionlangan atom va molekula yoki radikal oqimlarning massasini aniqlashga asoslangan.

Ajratilgan zarrachalar oqimning turiga qarab bu usul ikkiga bo'linadi:

1. Mass spektrometriya;
2. Mass spektrografiya.

Mass-spektrometriyada zarrachalarni qayd etish elektr asbob yordamida amalga oshirilsa, mass-spektrografiya esa fotografiya yordamida qog'ozga qayd holida amalga oshiriladi. Bu usullarda tahlil o'tkazish uchun mass spektrometr yoki mass spetrograf kerak bo'ladi.

***Mustaqil ta'lim uchun savol va mashqlar:***

1. Miqdoriy tahlil usullarining tavsifi.
2. Tarozi turlari, ulardan kimyoviy tahlilda foydalanish.
3. Hajmiy tahlil usullarining turlariga izoh bering.
4. Fizikaviy tahlil usullari tavsifi, ularning qo'llanish sohalari.

---

## **II. FIZIKAVIY VA KOLLOID KIMYODAN LABORATORIYA ISHLARI**

### **♦ Laboratoriya ishi № 2.1**

#### **Diffuziya va osmos hodisasi**

Suyultirilgan eritmalarda erituvchi va erigan modda molekulalari bir tekisda tarqalishga harakat qiladi. Bu jarayon molekulalarining kinetik energiyasi hisobiga yuzaga keladi. Eritilayotgan modda molekulalarini erituvchi muhitida taqsimlanishiga diffuziya deyiladi. Tiniq (rangsiz) erituvchida rangli modda kristallarini eritish jarayoni yaxshi ko'rindi.

## **1-tajriba. Diffuziyani va unga harorat ta'sirini kuzatish.**

**Kerakli jihoz va reaktivlar:** 200 ml li stakan, qisqich, KMnO<sub>4</sub>, K<sub>2</sub>Cr<sub>2</sub>O<sub>7</sub> yoki K<sub>2</sub>CrO<sub>4</sub> kristallari, silikat yelim.

**Ishning bajarilishi:** rangli modda (KMnO<sub>4</sub> yoki xromat tuzlari) kristallarini qisqich yordamida suyuq yelimga bir necha sekund davomida ushlab turiladi. So'ngra yelim olib stakandagi suvga tashlanadi. Yelim qavati erigach, rangli modda kristallari eriy boshlaydi va molekulalarining tartibsiz harakat bilan erituvchi muhitida taqsimlanishi kuzatiladi.

Diffuziyaga haroratning ta'sirini o'rganish uchun yuqoridaǵi tajriba 2 stakan suvdan foydalanib o'tkaziladi. Birinchisı xona haroratida saqlangan, ikkinchisi esa 60–70°C ga qizdirilgan holatda bo'lishi lozim. Stakanlardagi erish jarayoni tezliklari solishtiriladi va tegishli xulosa chiqariladi.

## **2-tajriba. Osmometr yordamida osmos hodisasini kuzatish.**

**Kerakli jihoz va reaktivlar:** osmometr, shtativ, stakan, saxaroza (shakar)ning ozgina bo'yoq qo'shib tayyorlangan 30% li eritmasi.

**Ishning bajalishi:** eng sodda tuzilishga ega osmometr sxemasi rasmida ifodalangan. Uchi kengaytirilgan naychadagi suyuqlik sathining o'zgarishini kuzatish uchun shkala yopishtirilgan, kengaytirilgan qismining og'zi esa yarim o'tkazgich membrana (mol puflagich yoki sellofan qog'ozi) bilan qoplangan. Yarim o'tkazgich parda erituvchi molekulalarini o'tkazadi, ammo erigan modda molekulalari u orqali o'ta olmaydi. Uni shakarning 30% li eritmasi bilan shkaladagi «nol» belgisiga qadar to'ldirilgan va distillangan suv solingan stakanga tushiriladi va shtativga o'rnatiladi. Suv molekulalari yarim o'tkazgich parda orqali ichki idishga o'tganligi sababli (osmos hodisasi) eritmaning hajmi ortib, shisha naydag'i eritma sathi ko'tarila boshlaydi. Bu jarayon ichki va tashqi idislardagi suyuqliklar osmotik bosimlari tenglashguncha davom etadi.

Agar osmometr somibili monometrga ulansa, eritmaning osmotik bosimini o'lchash mumkin.


Osmotik bosimi, qonning shunday bosimiga teng bo'lgan eritmaga izotonik eritma deb aytildi. Hayvon qonining normal osmotik bosimi +37°C da  $7,8 - 8,1 \cdot 10^5$  Paskalga teng. Osmotik

bosimi qonning osmotik bosimidan katta bo'lgan eritmaga giper-tonik, kam bo'lsa gipotonik eritma deb aytildi.

### **3-tajriba. Sun'iy Traube hujayrasining kattalashuvini kuzatish.**

**Kerakli jihoz va reaktivlar:** shtativ (probirkalari bilan), pipet-kalar, CuSO<sub>4</sub> ning 5% li eritmasi, K<sub>4</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>] kristallari.

**Ishning bajarilishi:** CuSO<sub>4</sub> eritmasiga K<sub>4</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>] tuzi kristallaridan qo'shilgan quyidagi tenglamaga muvofiq almashinish reaksiyasi sodir bo'ladi:



Ortiqcha K<sub>4</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>] kristallarining yuza qismida hosil bo'la-digan Cu<sub>2</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>] birkmasi sun'iy yarim o'tkazgich vazifasini o'taydigan parda hosil qilib, suv molekulalarini bir tomonlama o'tkazadi. Natijada kristallarni qoplab turgan yarim o'tkazgich pardali sun'iy hujayralar yiriklasha boshlaydi. Jarayonni amalda kuzatish uchun probirkaga CuSO<sub>4</sub> ning 5 % li eritmasidan 4–5 ml quyiladi, ustiga K<sub>4</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>] kristallaridan 4–5 dona tashlanadi. Probirka shtativda 3–4 daqiqa saqlanadi va sun'iy hujayralarning yiriklashish jarayoni kuzatiladi.

### **4-tajriba. Osmotik bosimlari turlicha eritmalarning eritrosit va o'simlik hujayralariga ta'siri.**

**Kerakli jihoz va reaktivlar:** mikroskop va unga tegishli shisha plastinkalar, probirkalar, shisha tayoqchalar, natriy xloridning 0,1; 0,8 va 10% li eritmalar, qon, piyozi.

**Ishning bajarilishi:** suyultirilgan eritmalar o'zining osmotik bosimlari qiymatiga ko'ra izotonik, gipotonik va gipertonik eritmalarga bo'linadi.

Izotonik eritmalarda o'simlik va hayvon hujayralari o'zining fiziologik holatini o'zgartirmaydi, ya'ni normal holatini saqlaydi.

Gipotonik eritmlarda erituvchi molekulalari hujayraga so'riladi va to'qimalar taranglashadi. Bu jarayon biologiyada turgor hodisasi deb nomланади.

Gipertonik eritmaga tushirilgan eritrosit yoki o'simlik hujayrasi o'zidan suvni yo'qotadi, natijada hujayralar bujmayadi, kichrayadi. Bu hodisa biologiyada plazmoliz deb nomланади.

Bayon etilganlarni kuzatish uchun uchta probirka olib ularga NaCl ning quyidagi foizli eritmlaridan 2 ml dan solinadi:

1-probirkaga 10% li, 2-probirkaga 0,8% li, 3-proborkaga 0,1% li.

Uchala probirkaning har biriga 1–2 tomchidan qon (yoki piyoz bo‘lakchasi) solinadi va aralashtiriladi.

Qonli aralashmadan shisha plastinka ustiga bir tomchidan olinadi va mikroskop ostida ko‘rib eritrositlarda bo‘layotgan o‘zgarishlar kuzatiladi.

Piyoz bo‘lakchalari eritmalardan olinib, mikroskop ostida ularning hajmlaridagi nisbiy o‘zgarishlar solishtiriladi va tegishli xulosa chiqariladi.

#### ***Mustaqil ta’lim uchun savol va mashqlar:***

1. Osmotik hodisasi qanday yuzaga keladi?
2. Osmotik bosimni qanday hisoblash mumkin?
3. Osmotik bosimga konsentratsiya va harorat qanday ta’sir ko‘rsatadi?
4. 0,1 molyar glukoza eritmasining 20°C dagi osmotik bosimini hisoblang.
5. Osmos hodisasining biologik jarayonlardagi ahamiyatini izohlang.

#### **♦ Laboratoriya ishi № 2.2**

#### **Tuzlarning erish issiqligini aniqlash**

Tuzlar suvda eriganda issiqlik yutilishi yoki chiqarilishi mumkin. Jarayonlarning issiqlik effektini termokimyo fani o‘rganadi. Termokimyoning asosida akademik G.I. Gess tomonidan 1840-yilda ta’riflab berilgan quyidagi qonun yotadi: «Kimyoviy reaksiyalarning issiqlik effekti boshlang‘ich va oxirgi moddalarning holatiga bog‘liq bo‘lib, boshlang‘ich moddalarning oxirgi holatga qanaqa yo‘l bilan kelganligiga bog‘liq emas». Bu qonun yordamida amalda o‘tkazilishi qiyin bo‘lgan biror bosqichning issiqlik effektini hisoblash mumkin.

Masalan,  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  kristall gidratning hosil bo‘lishi issiqligini aniqlashda, avvalo, suvsiz  $\text{CuSO}_4$ , so‘ngra  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  tuzining erish issiqliklarini aniqlab, ular orasidagi farq qiyamatidan foydalanamiz:

$$Q = Q_{\text{CuSO}_4} - Q_{\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}}$$

## **Tuzlar suvda erishi jarayonida:**

1. Ularning kristall panjaralari buziladi, molekulalar ionlarga dissotsialanadi, bunda  $Q_1$  – miqdor issiqlik yutiladi.
2. Hosil bo‘lgan ionlar suv molekulalari bilan o‘rab olinadi, ya’ni gidratlanadi, bunda  $Q_2$  – miqdor issiqlik ajralib chiqadi.

Tuzlarning erish issiqligi ikkala jarayonlarning effektlari yig‘indisiga teng, ya’ni


$$Q_{\text{erish}} = Q_1 + Q_2.$$

Mustahkam kristall panjaraga ega va ionlari kuchsiz gidratlanuvchi modda erishida issiqlik yutiladi. Kuchsiz kristall panjaraga ega va ionlari kuchli gidratlanuvchi moddalar eriganda issiqlik ajralib chiqadi. Natijaning to‘g‘ri bo‘lishi uchun eritilayotgan modda bilan erituvchi molekulalari soni 1 molga: (200–400) moldan kam bo‘imasligi kerak.

Moddaning erish issiqligi deyilganda 1 mol modda erituvchining shunday miqdorida eritilganda ajralib chiqadigan issiqlik tushuniladiki, o’sha eritmaga qo‘sishmcha miqdor erituvchi qo‘shilganda issiqlik ajralishi kuzatilmasligi kerak.

Jarayonlarning issiqlik effektini o‘lchashda termometr va kalorimetrik asbobidan foydalilaniladi. Ishlatiladigan termometrnin aniqlik darajasi 0,02–0,01 atrofida bo‘lishi shart. Biz eng sodda kalorimetrdan foydalanamiz. Kalorimetr katta va kichik ikkita shisha stakanlardan iborat, kichik stakan kattasi ichida qo‘ylgan yog‘och pukkakli taxtacha ustida joylashtiriladi. Stakanlar devorlari bir-biriga tegmasligi kerak. Ichki stakanga termometr va aralashtirgich tushirilgan bo‘ladi. Erish issiqligini aniqlashda kalorimetrik asbobi bilan uni o‘rab olgan muhit o‘rtasidagi, erish jarayonidagi temperatura qiymatining o‘zgarishini kuzatib borish kerak.

Kalorimetrdada tuz erishi paytida ajralgan yoki yutilgan issiqlik miqdori stakan, aralashtirgich, termometr, suv va tuzlardan olinadi yoki aksincha ularga beriladi. Shuning uchun ularning issiqlik sig‘imlarini va og‘irliklarini (grammda) hisobga olish kerak.



8-rasm.

**Kerakli asbob va reaktivlar.** Kalorimetrik, termometr (aniqligi 0,02°C), o'lchov silindri (500 ml), byuretka, soat oynasi, tarozi va uning toshlari.

Tuzlar: NaCl, NH<sub>4</sub>Cl, NaNO<sub>3</sub>, KNO<sub>3</sub>, NH<sub>4</sub>NO<sub>3</sub>.

Ishning bajarilishi:

1. Kalorimetrik ichki stakanini aralashtirgich bilan texnokimyoviy tarozida o'chanadi  $m_1$  — gr.

2. Ichki stakaniga 500 ml distillangan suv solib, uni katta stakan ichiga joylashtiriladi  $m_2$  — 500 gr.

3. Kalorimetrdagi suvgaga faqat simobli sharchasi  $V_{ml}$  botadigan qilib termometrnii shtativ lapkasi yordamida ilib qo'yiladi.

4. Termometr suvgaga tushirilgan paytdan boshlab, suv temperaturasining har bir daqiqada o'zgarishi kuzatiladi va yozib boriladi. Kuzatish temperatura qiymati keyingi 5 daqiqa ichida o'zgarmasdan qolguncha davom ettiriladi. ( $t_1$ ).

5. Oldindan tortib olingan 10 gramm tuz ( $m_3$ ) kalorimetrdagi suvda eritiladi, aralashtirgich bilan yaxshilab aralashtiriladi va temperaturanering o'zgarishi kuzatiladi. Kuzatish 4–5 daqiqa davomida temperatura o'zgarmay qolguncha davom ettiriladi. ( $t_2$ )

6.  $t_2 - t_1 = \Delta t$  aniqlangach tuzning erish issiqligi [q] ni hisoblab topish mumkin.

Kuzatilganlarni yozish tartibi va erish issiqligini hisoblash.

Vaqt davomida temperaturanering o'zgarishiga ko'ra quyidagi jadval to'ldiriladi.

|                 |  |  |  |  |  |  |  |
|-----------------|--|--|--|--|--|--|--|
| Vaqt, minut     |  |  |  |  |  |  |  |
| Temperatura, °C |  |  |  |  |  |  |  |

1 mol tuz eriganda ajraladigan yoki yutiladigan issiqlik miqdori quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$Q = \frac{M \cdot q}{10};$$

$q$  — 10 gramm tuz 500 gramm suvda eriganda ajraladigan yoki yutiladigan issiqlik miqdori. Uni aniqlashda quyidagi formuladan foydalilanildi:

$$q = (m_1 c_1 - m_2 c_2 - V C_3 - m_3 c_4) \cdot \Delta t.$$

$m_1$  – stakan bilan aralashtirgich massasi, gramm;

$c_1$  – shishaning solishtirma issiqlik sig‘imi – 0,20;

$m_2$  – erituvchi massasi – 500 gramm;

$c_2$  – erituvchi (suv) ning solishtirma issiqlik sig‘imi – 1;

$V$  – termometrning simobli sharchasining hajmi, ml (byuretkadagi suyuqlikka termometrning simobli sharchasini botirib, uni hajmi necha ml ekanligini aniqlanadi);

$c_3$  – termometrning simobli qismining solishtirma issiqlik sig‘imi – 0,46;

$m_2$  – tuzning og‘irligi – 10 gramm;

$c_4$  – eritilgan tuzning issiqlik sig‘imi (jadvalda).

| Tuzlar             | Issiqlik sig‘imi, $C_4$ |
|--------------------|-------------------------|
| NaCl               | 0,978                   |
| NH <sub>4</sub> Cl | 0,982                   |
| NaNO <sub>3</sub>  | 0,975                   |
| KNO <sub>3</sub>   | 0,976                   |
| NaH <sub>4</sub>   | 0,972                   |
| NO <sub>3</sub>    |                         |

#### **Mustaqil ta’lim uchun savol va mashqlar:**

1. Termodinamikaning birinchi qonuni qanday ta’riflanadi?
2. Ichki energiya va entalniyaga tushuncha bering.
3. Termokimyo nimani o‘rganadi?
4. Erish issiqligi nima?
5. Termodinamikaning birinchi qonuni biologik jarayonlarda qo’llanilishga misollar keltiring.

#### ♦ Laboratoriya ishi № 2.3

#### **Vodorod ionlarining konsentratsiyasini aniqlash**

Suvning H<sup>+</sup> va OH<sup>-</sup> ionlariga dissotsilanishi  $H_2O \leftrightarrow H^+ + OH^-$  massalar ta’siri qonuniga muvofiq dissotsilanish konstantasi bilan xarakterlanishi mumkin.

$$K = \frac{[H^+] \cdot [OH^-]}{[H_2O]} \quad (1)$$

$H^+$  va  $OH^-$  ionlarining konsentratsiyasi juda kichik bo'lgani sababli, dissotsilanmagan suv molekulalarining konsentratsiyasi doimiy qiymat deb qabul qilinishi mumkin. U 1 l hajmdagi mollar hisobida ifoda qilinsa:

$$[H_2O] = \frac{1000}{18} = 55,56 \text{ kelib chiqadi,}$$

2-formuladan foydalaniб,

$$K = \frac{[H^+] \cdot [OH^-]}{55,56} \text{ yoki}$$

$$55,56 \cdot K = [H^+] \cdot [OH^-]$$

ni hosil qilamiz. Suv uchun  $K = 1,8 \cdot 10^{-16}$  ga teng ( $25^{\circ}\text{C}$  temperaturada) qiymatini formulaga qo'yib,

$$[H^+] \cdot [OH^-] = 55,56 \cdot 1,8 \cdot 10^{-16} = 1 \cdot 10^{-14}$$

ekanligi bilib olinadi. Toza suvda va neytral eritmalarda

$$[H^+] = [OH^-] = \sqrt{1 \cdot 10^{-14}} = 1 \cdot 10^{-7} \text{ bo'ladi.}$$

Vodorod ionlarining konsentratsiyasi kislotali eritmalarda  $1 \cdot 10^{-7}$ dan ko'п, ishqoriy eritmalarda  $1 \cdot 10^{-7}$ dan kam bo'ladi.

Masalan, kislotaning 0,01N eritmasida, agar  $\alpha \approx 1$  bo'lsa,  $[H^+] = 10^{-2}$  bo'ladi,  $[OH^-]$  miqdori esa:

$$[H^+] \cdot [OH^-] = 10^{-14} \text{ yoki } [OH^-] = \frac{10^{-14}}{[H^+]} = \frac{10^{-14}}{10^{-2}} = 10^{-12} \text{ bo'ladi.}$$

Vodorod ionlari konsentratsiyasining qiymati manfiy ko'rsat-kichli son bilan ifodalanadi, shu sababli bu qiymat o'rnidagi vodorod ko'rsatkichidan foydalanish ancha qulay, uni pH (*peash*) bilan belgilanadi, qiymati esa vodorod konsentratsiyasining o'nlik logarifmasini manfiy qiymatiga teng —  $\ell g [H^+] = pH$ .

Agar  $[H^+] = 10^{-4}$  bo'lsa,  $pH = -\log[H^+] = -\log 10^{-4} = 4$  teng.

Shunday qilib, pH kichik sonlar bilan ifodalanadi, bu hisoblashlarni osonlashtiradi.

Vodorod ionlarining konsentratsiyasini topishda qo'llaniladigan kolorimetrik, ya'ni indikator qo'llashga asoslanilgan usul bilan tanishib chiqamiz.

### **1-tajriba. Indikatorlar yordamida bufer eritma pH ini o'lchash.**

Bu usul vodorod ionlarining konsentratsiyasi har xil bo'lganda turli indikatorlarning rangli o'zgarishi xususiyatiga asoslangan.

Indikatorlar kuchsiz kislotalar yoki kuchsiz asoslar deb qaralishi mumkin. Indikatorlarning dissotsilanmagan molekulalari va ularning dissotsilanishi natijasida hosil bo'ladigan anionlar yoki kationlar boshqacha rangda bo'ladi:



Kislotali muhitdagi eritmada, ya'ni vodorod ionlarining konsentratsiyasi katta bo'lgan eritmada rangli anionlar juda oz bo'ladi. Shunday qilib eritma  $HInd$  molekulalar rangiga kiradi.

Ishqoriy eritmada  $[OH^-]$  gidroksil ionlari konsentratsiyasi katta bo'ladi. Eritmada indikator, asosan,  $HIndOH$  molekulalari holida bo'ladi va eritma o'sha rangga bo'yaladi.

pH ni o'lchashda qo'llaniladigan kolorimetrik usul indikatorlar sifatida nitrofenol qatoriga kiradigan ba'zi organik birikmalardan foydalanishga asoslangan. Bu birikmalar barqarorligi jihatidan boshqa birikmalardan farq qiladi. Bu usulda turli rang hosil qilish uchun faqat bирgina soda eritmasi olinadi va unga indikatordan turli miqdorda qo'shib, eritma turli rangga kiritiladi.

Eritmalarning tarkibi quyidagicha bo'lishi kerak:

*m* – nitrofenol 0,300 gr 1000 ml distillangan suvda;

*p* – nitrofenol 0,100 gr 1000 ml distillangan suvda;

3,5 – dinitrofenol 0,100 gr 2000 ml distillangan suvda;

2,6 – dinitrofenol 0,100 gr 4000 ml distillangan suvda.

Bu eritmalar probirkalarga jadvalda ko'rsatilgan miqdorda – har qaysi probirkaga sodaning 0,1N eritmasidan qo'shiladi va probirkadagi eritmaning hajmi 7 ml ga yetkaziladi. Shundan so'ng

probirka og'zi kavsharlanadi va pH qiymati yozilgan qog'oz probirka sirtiga yopishtirib qo'yiladi. III qatorda № 9 probirka qo'yilmaydi, chunki undagi eritmaning rangi sezilmaydi. Probirkalar qopqoqli qutichaga to'rt qatorda terib qo'yiladi (Mixaelis asbobiga qarang)

|                                  | Probirkalar raqami |     |     |     |      |      |      |      |      |
|----------------------------------|--------------------|-----|-----|-----|------|------|------|------|------|
|                                  | 1                  | 2   | 3   | 4   | 5    | 6    | 7    | 8    | 9    |
| I qator m-nitrofenol uchun       |                    |     |     |     |      |      |      |      |      |
| Indikator eritmasi, ml           | 5,2                | 4,2 | 3,0 | 2,3 | 1,5  | 1,0  | 0,56 | 0,43 | 0,27 |
| pH ning qiymati                  | 8,4                | 8,2 | 8,0 | 7,8 | 7,6  | 7,4  | 7,2  | 7,0  | 6,8  |
| II qator p-nitrofenod uchun      |                    |     |     |     |      |      |      |      |      |
| Indikator eritmasi, ml           | 4,05               | 3,0 | 2,0 | 1,4 | 0,94 | 0,63 | 0,40 | 0,25 | 0,16 |
| pH ning qiymati                  | 7,0                | 6,8 | 6,6 | 6,4 | 6,2  | 6,0  | 5,8  | 5,6  | 5,4  |
| III qator 3,5-dinitrofenol uchun |                    |     |     |     |      |      |      |      |      |
| Indikator eritmasi, ml           | 6,6                | 5,5 | 4,5 | 3,4 | 2,4  | 1,65 | 1,1  | 0,51 | —    |
| pH ning qiymati                  | 5,4                | 5,2 | 5,0 | 4,8 | 4,6  | 4,4  | 4,2  | 4,0  | --   |
| IV qator 2,6-dinitrofenol uchun  |                    |     |     |     |      |      |      |      |      |
| Indikator eritmasi, ml           | 6,7                | 5,7 | 4,6 | 3,4 | 2,5  | 1,74 | 1,20 | 0,72 | 0,74 |
| pH ning qiymati                  | 4,4                | 4,2 | 4,0 | 3,8 | 3,6  | 3,4  | 3,20 | 3,0  | 2,8  |

*pH ni kolorimetrik usulda o'lchash uchun ishlataladigan asbobda quyidagi reaktivlar eritmalarini va idishlar bo'ladi:*

- 1.Yuqorida nomlari ko'rsatilgan indikatorlar eritmalarini solingan to'rtta shisha idish;
2. Bir rangdan boshqa rangga o'tish oraliq'i  $pH=3,0-8,0$  bo'lgan universal indikator eritmasi.
3. Kalibrlangan oltita probirka.
4. Probirkalarga solib og'zi kavsharlangan va qutida to'rt qator qilib terib qo'yilgan eritmalar (solishtirish uchun).
5. Uchta chinni idish.
6. Komparator, unda 6 ta probirka joylashadi (sut va ko'k rangli oynasi bilan).
7. Rangli tablitsa.

Bu usul pH ni 0,1 gacha aniqlik bilan o'lchashga imkon beradi, chunki har qaysi qatorda yonma-yon turgan etalonlar orasidagi farq 0,2 ga teng. pH ni o'lchash uchun eritmaga asosiy indikatorlarning biridan ma'lum miqdor qo'shish natijasida paydo bo'lgan eritma rangini shu indikator qatorida turgan etalonlar rangi bilan solishtirish kerak.

**Kerakli reaktiv va idishlar:** Mixaelis asbobi, aniqligi 0,1 ml bo'lgan 3 ta 10 ml li pipetka, 1 ml li 4 ta pipetka. Shtativ (probirkalari bilan), 0,1N  $\text{CH}_3\text{COOH}$ , 0,1N  $\text{CH}_3\text{COONa}$  eritmalari, sig'imi 100 ml bo'lgan konussimon kolba.

### pH ni aniqlash tartibi.

Tekshirilishi (№ I–IV eritmalardan) lozim bo'lgan eritmadan 3–5 ml olinib, asbobdagi chinni idishlardan biriga qo'yiladi va universal indikatordan 3–5 tomchi qo'shiladi. Tekshirilayotgan critma quyidagicha tayyorlanadi.

| Reaktivlarning 0,1N eritmalari | Kolbachalarning nomerlari |    |     |    |
|--------------------------------|---------------------------|----|-----|----|
|                                | I                         | II | III | IV |
| $\text{CH}_3\text{COOH}$ , ml  | 16                        | 12 | 8   | 4  |
| $\text{CH}_3\text{COONa}$ , ml | 4                         | 8  | 12  | 16 |


Chinni idishdagi eritma rangini universal indikatorning rangli jadvalda ko'rsatilgan rangi bilan solishtirib, pH ning izlanayotgan qiymati 0,5 gacha aniqlik bilan topiladi.

pH ning universal indikator yordamida topilgan qiymatiga qarab nitrofenolning etalon eritmasidan mos keluvchi probirka topib olinadi. Shundan so'ng tekshirilayotgan eritmadan probirkaga 6 ml solinadi va mos kelgan nitrofenol eritmasidan 1 ml qo'shiladi.

Agar tekshirilayotgan eritmaga 3,5-dinitrofenol eritmasidan solingan bo'lsa, uning rangi 3,5-dinitrofenol qatoridagi etalonlar bilan komparatorda solishtiriladi (*9-rasmga qarang*).

Bunda ikki hol ro'y berishi mumkin:

A) tekshirilayotgan eritmaning rangi etalon rangiga to'g'ri keladi, demak, eritma bilan etalonning pH qiymatlari bir-biriga teng.



**9-rasm. Komparatorning  
raqamlar bilan belgilangan  
uyachalariga eritmalar to‘ldirilgan  
probirkalar joylashtirilishi tartibi**

B) eritmaning rangi bir etalon rangidan ochroq, ammo qo‘shti etalon rangidan to‘qroq, demak, eritmaning pH qiymati etalonlar pH ning o‘rtacha arifmetik qiymatiga teng. Masalan, tekshirilayotgan eritmaga 3,5-dinitrofenolning eritmaside qo‘sish natijasida hosil qilingan rang (dinitrofenol qatoridagi) pH=5,0 ga to‘g‘ri keladigan etalondan ochroq, lekin pH = 4,8 ga to‘g‘ri keladigan etalondan to‘qroq. U vaqtida

$$pH = \frac{5,0 - 4,8}{2} = 4,9 \text{ bo‘ladi.}$$

Aniqlangan qiymatlar quyidagi tartibda yoziladi.

|                                   | Kolbachalarning raqamlari |    |     |    |
|-----------------------------------|---------------------------|----|-----|----|
|                                   | I                         | II | III | IV |
| pH ning aniqlangan qiymati        |                           |    |     |    |
| pH ning hisoblab topilgan qiymati |                           |    |     |    |

**2-tajriba. Universal indikator yordamida eritmalar pH ini aniqlash.**


**Kerakli reaktiv va idishlar:** universal indikator qogo‘zi, pH kattaligi va unga mos keluvchi rangli etalon shkala, pipetkalar, xlorid kislota va natriy ishqorining 0,1N eritmaları, qon zardobi, siydk, suv.

**Ishning bajarilishi:** universal indikator muhit sharoitiga qarab o‘z rangini o‘zgartirish xususiyatiga ega bo‘lgan bir nechta

indikatorlar aralashmasidan iborat. pH ni aniqlash uchun ko'pincha universal indikator eritmasida ho'llab olingan filtr qog'ozdan ham foydalaniladi. Bu usul yordamida 1–10 oralig'idagi pH qiymatlarni o'lchash mumkin. 1 ta birlikka qadar aniqlikda o'lchash mumkin.

Tekshirilayotgan eritmalar pH ini aniqlash uchun universal indikator qog'ozlaridan 5 ta qog'ozga yirtib olinadi va ularning birinchisiga HCl (0,1N) eritmasi, ikkinchisiga NaOH(0,1N) eritmasi, uchinchisiga qon zardobi, to'rtinchisiga siyidik, beshinchisiga suvdan pipetka yordamida bir tomchidan tomiziladi.

Indikator qog'oz bo'laklarida hosil bo'lgan ranglarni etalon shkaladagi ranglar bilan solishtiriladi va tekshirilayotgan eritmalar uchun pH qiymatlari nechaga teng ekanligi bilib olinadi.



*10-rasm. Fenolftalein rangining o'zgarishi va molekular ko'rinishi: (a) lakton forma gidrolizidan so'ng kislota formasi; (b) asos formasi*

### **Mustaqil ta'lim uchun savol va mashqlar:**

1. Suvning elektrolitik dissotsialanishi.
2. Vodorod ko'rsatkich nima?
3. Vodorod ionlari konsentratsiyasining biologik jarayonlardagi roli.
4. Suvning ionli ko'paytmasi nima?
5. Agar eritmada  $[OH^-]$  ionlarining konsentratsiyasi  $10^{-8}$  gr · ion/l ga teng bo'lsa, vodorod ko'rsatkichini hisoblang.
6. pH ni qanaqa usullar bilan aniqlash mumkin?

### **♦ Laboratoriya ishi № 2.4**

#### **Bufer sistemalar**

Ba'zi eritmalarga kuchli kislota yoki ishqor qo'shilsa, ular suyultirilsa vodorod ionlarining konsentratsiyasi ma'lum chegaragacha o'zgarmaydi. Bundan eritmalar bufer eritmalar (sistemalar) deb ataladi.

Bufer eritmalar kuchsiz kislota va uning kuchli asos bilan hosil qilgan tuzi aralashmasidan yoki kuchsiz asos va uning kuchli kislota bilan hosil qilgan tuzi aralashmasidan iborat bo'ladi.

Bufer eritmalarining ta'sirini sirka kislota va natriy atsetatdan iborat bufer aralashma misolida ko'rib chiqamiz:



Massalalar ta'siri qonuniga muvofiq,

$$K = \frac{[CH_3COO^-] \cdot [H^+]}{[CH_3COOH]} \quad (1)$$

Bunda kislutaning elektrolitik dissotsilanish konstantasi. Bu formuladan vodorod ionlari konsentratsiyasining qiymatini topamiz:

$$[H^+] = K \frac{[CH_3COOH]}{[CH_3COO^-]} \quad (2)$$

Sirka kislutaning elektrolitik dissotsilanish darajasi juda kichik bo'lganligi uchun eritmada kislutaning dissotsilanmagan mole-

kulalari ko'p bo'ladi. Suvda eritilganda natriy asetat tuzi quyidagi tenglamaga muvofiq to'liq ionlarga parchalanadi:



Agar bu tuz sirka kislotaning suvdagi eritmasiga qo'shiladigan bo'lsa, kislotaning elektrolitik dissotsilanish darjasи shu qadar kamayib ketadiki, bunda kislotaning dissotsialmagan molekulalari konsentratsiyasi shu kislotaning, odatda, analitik kimyo usullari yordamida topiladigan konsentratsiyaga qariyb teng bo'lib qoladi.

Tenglama (2) da  $[CH_3COOH]$  ning qiymati o'rniغا to'g'ridan-to'g'ri (kislota) so'zini yozib qo'yish mumkin. Xuddi  $[CH_3COO^-]$  dek, ioni tuz konsentratsiyasiga teng bo'lib qoladi, chunki  $[CH_3COO^-]$  ionlari amalda faqat natriy atsetat eritmada elektrolitik dissosilanishi natijasida vujudga keladi.

Formula (2) dagi  $[CH_3COOH]$  va  $[CH_3COO^-]$  o'rniغا tegishli qiymatlar qo'yilib:

$$[H^+] = K \cdot \frac{[kislota]}{[tuz]} \quad (3)$$

hosil qilinadi.



$K$  – kislotaning elektrolitik dissotsilanish konstantasi berilgan sharoitda doimiy qiymat. Shu sababli vodorod ionlari konsentratsiyasining tuz konsentratsiyasi nisbatiga teng bo'ladi. Xuddi shunday mulohaza yuritib, kuchsiz asos va uning kuchli kislota bilan hosil qilgan tuzi aralashmasidan iborat bufer eritma uchun quyidagicha tenglama chiqarilsa bo'ladi:

$$[OH^-] = K \cdot \frac{[asos]}{tuz}$$

Bufer eritmadiagi vodorod ionlarining konsentratsiyasi kislota bilan tuzning absolut konsentratsiyasining mutlaqo qiymatiga bog'liq emas, balki shu qiymatlarining nisbatiga bog'liq ekanligi (3) tenglamadan ko'rinish turibdi. Shuning uchun bufer eritmalar suyultirilganda vodorod ionlarining konsentratsiyasi amalda o'zgarmaydi.

Bufer aralashma vodorod ionlarining konsentratsiyasi ko'pa'yishi yoki kamayishiga to'sqinlik qiladi, shu jihatdan olinganda bufer aralashmalar o'z tarkibida faqat kislota (yoki faqat asos) saqlaydigan eritmalardan farq qiladi.

Darhaqiqat, agar sirka kislota bilan natriy atsetatdan iborat aralashmaga xlorid kislota qo'shilsa natriy atsetat bilan almashinishi reaksiyasiga kirishadi va natriy xlorid hosil qilib, kuchsiz sirka kislotani ajratib chiqaradi:



Buferlik ta'sirini baholash uchun bufer sig'imidan foydalilaniladi. Bufer eritmaning pH ini bir birlikka o'zgartirish uchun zarur bo'lgan kuchli kislota yoki asosning gramm ekvivalentlari soni bufer sig'imi deyiladi. Bufer eritmadagi kislota va tuzning konsentratsiyasi qancha yuqori bo'lsa, ularning bufer sig'imi ham shuncha katta bo'ladi. Bufer aralashmalarga ozroq kuchli kislota yoki kuchli asos qo'shilsa shu aralashmadagi vodorod ionlarining konsentratsiyasi (eritmaning bufer sig'imi chegarasida) juda kam o'zgaradi.

Bufer aralashmalar juda katta ahamiyatga ega. Jumladan, ular qon va to'qimalar tarkibidagi vodorod ionlarini doimiy konsentrasiyasini saqlab turadi. Tuproqda pH ning keskin o'zgarib ketmasligini ta'minlaydi.

*Polifunksional kislotalar va asoslar ko'plab kimyoviy va biologik sistemalarda muhim rol o'ynaydi. Inson tanasida, to'qimalarida va tana suyuqligi, masalan qonda bufer eritmalarining murakkab sistemalari bor. Rasmida arteriya bo'ylab harakatlanuvchi qizil qon tanachalarining elektron skanerlovchi mikroskopda tushirilgan tasviri keltirilgan. Inson qonining pH qiymati 7,35 dan 7,45 gacha bo'lган oraliqda bo'lishi, asosan, karbonat kislota – bikorbanat bufer sistemasi orqali nazorat qilinadi.*

*1-tajriba. pH ning bufer sistemalar tarkibiga va suyultirilishiga bog'liqligi.*

**Kerakli reaktiv va idishlar:** 0,1N  $CH_3COOH$  va 0,1N  $CH_3COONa$

Universal indikator, distillangan suv, shtativ (probirkalari bilan), 10 ml li pipetka.

Kislota va tuz nisbatlari har xil bo‘lgan uchta atsetat bufer eritmalarini tayyorlang. Buning uchun uchta toza probirka olinadi.

1-probirka: 9 ml 0,1N  $CH_3COOH$  va 1 ml 0,1N  $CH_3COONa$  quyiladi.

2-probirka: 5 ml 0,1N  $CH_3COOH$  va 5 ml 0,1N  $CH_3COONa$  quyiladi.

3-probirka: 1 ml 0,1N  $CH_3COOH$  va 9 ml 0,1N  $CH_3COONa$  quyiladi.

Aralashtirilgandan keyin eritmalarining har biridan pipetka bilan 1 ml dan olinadi va ikkinchi qator uchta ( $1^1$ ,  $2^1$ ,  $3^1$ ) probirkaga quyiladi. Keyin ularga 8 ml dan distillangan suv quyiladi. Shunda ikkinchi qator bufer eritmalar bиринчи тайорланган еритмаларга нисбатан 9 мarta suyultirildi.

Shunday tarzda tayyorlangan hajmlari ham bir xil (9 ml) bo‘lgan oltita probirkalardagi bufer eritmaga universal indikator eritmasidan 5 tomchidan qo‘sib aralashtiriladi va bиринчи qator-dagi ( $1$ ,  $2$ ,  $3$ ) probirkalar ( $1^1$ ,  $2^1$ ,  $3^1$  bilan) o‘zaro solishtiriladi. Bufer eritma pH ning tuz va kislota nisbatiga bog‘liqligi haqida qanday xulosaga kelish mumkin.

Shu eritmalarining pH – qiymatini

$$pH = pK + \lg \frac{[tuz]}{[kislota]}; \quad K_{CH_3COOH} = 1,85 \cdot 10^{-5}$$

tenglama yordamida hisoblab xulosangizni isbotlab bering. Bu tenglamadagi pK – sirka kislotaning ionlanish konstantasining teskari ishora bilan olingan logarifmasi.

Pprobirkalar 1 va  $1^1$ ; 2 va  $2^1$ ; 3 va  $3^1$  ranglarini solishtiring va suyultirishning bufer eritmalarining pH qiymatiga ta’siri haqida xulosa chiqaring.

**2-tajriba.** Bufer sistemaga kuchli kislota va kuchli ishqorlarning ta’siri.



11-rasm.

### **Kerakli reaktiv va idishlar:**

1. 0,1N  $\text{CH}_3\text{COOH}$ , 0,1N  $\text{CH}_3\text{COONa}$ , 0,9% li NaCl, 0,01N va 0,1N HCl, 0,1N NaOH, universal indikator eritmalari.
2. Shtativ (probirkalari bilan).
3. 6 ta 10 ml li pipetka.

Ikkita probirkaga 4 ml dan 0,1N sirkal kislota va 6 ml dan 0,1N natriy atsetat eritmalaridan soling. Xuddi shunday ikki probirkaga 10 ml fiziologik eritmadan (0,9% li NaCl) solinadi. Bu to'rt probirkaning har biriga 5 tomchidan universal indikator eritmasi qo'shiladi va aralashtiriladi. Fiziologik eritmasi bo'lgan probirkalarga ularning rangi bufer rangi bilan bir xil bo'lguncha 0,01N xlorid kislota tomiziladi. Bufer eritma solingan va fiziologik eritmasi bo'lgan probirkalardan bittadan olib ularga 5 tomchidan 0,1N xlorid kislota qo'shing, qolgan ikki bufer va fiziologik eritma solingan probirkalarga 5 tomchidan 0,1N ishqor qo'shing.

Probirkalardagi suyuqliklar ranglarining o'zgarishiga asoslanib, kuchli kislota va ishqorlarning bufer eritma pH qiymatiga ta'siri haqida xulosa chiqaring.

### **3-tajriba. Bufer sig'imining suyultirishga bog'liqligi.**

#### **Kerakli reaktiv va idishlar:**

1. 0,1N  $\text{CH}_3\text{COOH}$ , 0,1N  $\text{CH}_3\text{COONa}$ , metiloranj, 0,1N NaOH eritmalari, distillangan suv.

2. Shtativ (probirkalari bilan), 4 ta 10 ml li pipetka.

Probirkada 9 ml 0,1N  $\text{CH}_3\text{COOH}$  eritmasidan va 1 ml 0,1N  $\text{CH}_3\text{COONa}$  eritmasidan aralashtiriladi. Tayyorlangan bufer eritmadan 1 ml ni boshqa probirkaga olib, unga 8 ml distillangan suv qo'shib suyultiriladi. Har ikki probirkaga ikki tomchidan metiloranj qo'shib aralashtiriladi. So'ngra ikkala probirkaga barobar miqdorda 0,1N ishqor eritmasidan 3–5 tomchi tomiziladi. Eritmalar ranglarining o'zgarishiga asoslanib, suyultirishning bufer sig'imiga ta'siri haqida xulosa chiqaring.

### **4-tajriba. Bufer eritmalar tayyorlash.**

#### **Kerakli reaktiv va idishlar:**

1. 0,1N  $\text{CH}_3\text{COOH}$ , 0,1N  $\text{CH}_3\text{COONa}$ , universal indikator eritmalari.
2. Shtativ (probirkalari bilan), 2 ta 10 ml li pipetka.

7 ta probirkaga darajalangan pipetka yordamida 0,1N sirkakislota va 0,1N natriy asetat eritmasidan jadvalda ko'rsatilgan miqdorda soling va universal indikator tomizib, yaxshilab aralash-tiring.

|  | Probirkraqami |     |   |   |   |     |     |
|--|---------------|-----|---|---|---|-----|-----|
|  | 1             | 2   | 3 | 4 | 5 | 6   | 7   |
| Kislota miqdori, ml                                | 9,8           | 9   | 8 | 5 | 3 | 1,5 | 0,2 |
| Tuz miqdori, ml                                    | 0,2           | 1,0 | 2 | 5 | 7 | 8,5 | 9,8 |
| pH ning rangli jadval yordamida aniqlangan qiymati |               |     |   |   |   |     |     |
| pH ning hisoblangan qiymati                        |               |     |   |   |   |     |     |

Eritmalarning rangini rangli jadval bilan solishtiring va pH qiymatini aniqlang. Eritmada vodorod ionlarining konsentratsiyasini quyidagi formuladan toping. Har ikkita natijalarни o'zaro solishtiring.

$$[H^+] = K \cdot \frac{[kislota]}{[tuz]}$$

$$pH = -\lg[H^+] = \lg K - \lg \frac{[kislota]}{[tuz]}$$

$$K = 1,85 \cdot 10^{-5} [CH_3COOH \text{ uchun}].$$

### 5-tajriba. Sut zardobining bufer hodisasini o'rganish.

Sig'imi 200 ml bo'lган konussimon kolbag'a 50 ml sut solinib, uni suv hammomida 40°C ga qadar qizdiriladi, ustiga 0,05 gr shirdon fermentidan qo'shib, aralashma 10–15 daqqa suv hammomida saqlanadi. Sut ositiga cho'kkан kazeinni filtrlab ajratiladi.

Filtrat sut zardobi pH ni Mixaelis asbobi yordamida aniqlanadi.

Probirkaga 5 ml sut zardobidan olinadi, ustiga shuncha distillangan suv quyiladi, chayqatib aralashdiriladi va pH-i aniqlanadi.

Qolgan sut zardobidan 5 ml dan o'lchab, ikkita pobirkaga quyiladi, ular ustiga 1 tomchidan universal indikator eritmasidan

tomiziladi. Birinchi probirkaga 0,01N HCl va ikkinchi probirkaga 0,01N NaOH eritmasidan 2 tomchidan tomiziladi, aralashmalar chayqatiladi. Hosil bo'lgan ranglar etalon eritmalar ranglari bilan solishtiriladi.

Kuzatilgan jarayonda olingan natijalarga asoslanib, sut zardobida buferlik xususiyati mavjudligi haqida xulosa chiqariladi.

***Mustaqil ta'lif uchun savol va mashqlar:***

1. Bufer eritmalar deb qanaqa eritmalariga aytildi?
2. Bufer eritmalarining turlariga misollar keltiring.
3. Eritmalardagi bufer ta'sir mexanizmini tushuntiring.
4. Bufer sig'im deb nimaga aytildi?
5. Bufer eritmalarining ahamiyatini misollar bilan izohlang.
6. Tuproqda bufer eritma xususiyati mavjudmi?

♦ **Laboratoriya ishi № 2.5**

**Kimyoviy reaksiya tezligiga ta'sir etuvchi  
omillarni o'rGANISH**

**1-tajriba. Reaksiya tezligining reaksiyaga kirishuvchi moddalar  
konsentratsiyasiga bog'liqligi.**


**Asboblar:** shtativ (probirkalari bilan), 5, 10 va 15 ml li pipetkalar.

**Reaktivlar:** 1N  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  va 1:5 suyultirilgan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmaları, Zn metalining bo'lakchasi,  $\text{H}_2\text{O}$  (distillangan).

**Ishning mazmuni:** uchta probirkaga  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  eritmasidan quying: birinchisiga 15 ml, ikkinchisiga 10 ml, uchinchisiga 5 ml. Ikkinchi probirkaga 5 ml, uchinchisiga 10 ml suv quying. Uchta boshqa probirkaga 1:5 suyultirilgan sulfat kislotadan 5 ml dan quying.  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  li har qaysi probirkaga boshqa probirkadagi  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasidan 5 ml dan quyib chayqating. Kislota quyligandan keyin necha sekundda loyqalanish hosil bo'lganini kuzating, ma'lumotni jadvalga yozing.

Reaksiya uchun sarflangan vaqtini 100/t ko'rinishida ordinata o'qiga, eritmaning konsentratsiyasi C ni obsissa o'qiga qo'yib, olingan natijalarni grafik usulda ifodalang. Reaksiya tenglamasi qisqartirilgan ionli holda quyidagicha bo'ladi:

| Probirkraqami | $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3 \text{IN}$ eritmasi, ml | $\text{H}_2\text{O}$ , ml | $\text{H}_2\text{SO}_4 \text{ 1:5}$ suyultirilgan eritmasi | t – loyqahosil bo'lish uchun sarflangan vaqt 100/t ko'rinishda |
|---------------|--|---------------------------|--|--|
| 1             | 15   | 0                         | 5  |  |
| 2             | 10   | 5                         | 5  |  |
| 3             | 5  | 10                        | 5  |  |



Tajriba natijalariga asoslanib, reaksiya tezligining konsentratsiyaga bog'liqligi haqida xulosa chiqaring.

Ikkita probirkaga olib, har biriga 2 donadan (bir xil kattalikda) rux bo'lagidan soling.

Birinchi probirkaga 5 ml (1:5) sulfat kislota, ikkinchi probirkaga esa 5 ml (1:10) suyultirilgan sulfat kislota eritmasidan bir vaqtda quying. Qaysi probirkada reaksiya tezroq amalga oshishini aniqlang va sababini tushuntiring.

**2-tajriba. Reaksiya tezligining qattiq moddaning maydalanganligiga bog'liqligi.**

**Asboblar:** shtativ (probirkalari bilan).

**Reaktivlar:** bo'r bo'lakchasi va bo'r kukuni, 2N  $\text{CH}_3\text{COOH}$ , 5% li  $\text{CuSO}_4$ , 2N  $\text{HCl}$ , rux bo'lakchalari, rux qirindisi.

1. Ikkita probirkaga olib, birinchi probirkaga 1 gr bo'r bo'lagini czmasdan, ikkinchi probirkaga esa 1 gr bo'mni hovonchada ezib, kukun holiga keltirib soling. Ikkala probirkaga bir xil miqdorda 2N sirka kislota eritmasidan quying. Ikkinci probirkada ko'pik hosil bo'lib, probirkaga tashqarisiga to'kilishining sababini tushuntiring. Reaksiya tenglamasini yozing.

2. Ikkita probirkaga olib, birinchi probirkaga 1 dona temir bo'lagi, ikkinchisiga temir qipig'i solib, har bir probirkaga 1–2 ml dan mis (II) sulfat eritmasidan quying. Ikkinci probirkada eritma rangi tez o'zgarishining sababini tushuntiring. Reaksiya tenglamasini yozing.

3. Ikkita probirkaga olib, birinchi probirkaga 1–2 ml 2N xlorid kislota, ikkinchi probirkaga esa 1–2 ml 2N sirka kislota eritmasidan quying. Ularning har biriga 1 donadan rux bo'lagidan soling.

Probirkalarda vodorod ajralib chiqishi bir xil emasligiga ishonch hosil qiling. Sababini tushuntiring va har bir reaksiya tenglamasini yozing.

**3- tajriba. Kimyoviy reaksiya tezligining o‘zaro ta’sirlashuvchi moddaning tabiatiga bog‘liqligi.**

**Asboblar:** shtativ (probirkalari bilan).

**Reaktivlar:** 2N  $\text{BaCl}_2$ , 2N  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasi, Zn metali.

**Ishning mazmuni:** 1. Probirkaga baryx xloridning 2N eritmasidan 1–2 ml quying. Ustiga sulfat kislotaning 2N eritmasidan 2 ml qo‘sning. Bir zumda oq cho‘kma tushishini kuzating. Reaksiya tenglamasini yozing. Probirkaga 1 dona rux bo‘lagidan solib, ustiga 2N sulfat kistota eritmasidan 2–3 ml quying. Vodorod ajralib chiqishini kuzating. Vodorod ajralib chiqishi uzoq davom etishiga ishonch hosil qiling. 1- va 2-tajribalar uchun olingan moddalarni reaksiya tezligiga ta’siri haqida xulosa chiqaring.

**4-tajriba. Reaksiya tezligiga temperaturaning ta’siri.**

**Asboblar:** shtativ (probirkalari bilan), spirt lampasi, suv hammomi.

**Reaktivlar:**  $\text{KMnO}_4$ , 1:20 suyultirilgan  $\text{H}_2\text{SO}_4$ , 0,5N  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$ , 1:3 suyultirilgan  $\text{HNO}_3$  eritmalari, CuO.

**Ishning mazmuni:** 1. Ikkita probirka olib, ularga bir xil miqdorda kaliy permanganat ( $\text{KMnO}_4$ ) kristalidan soling. Birinchi probirkani past alangada, ikkinchi probirkani esa yuqori alangada qizdiring. Ikkinchi probirkada kaliy permanganatning parchalanish tezligini kuzating. Uchi cho‘g‘ bo‘lib turgan cho‘pni probirka og‘ziga tuting. Uning ravshan yonishini kuzating. Reaksiya tenglamasini yozing.

2. Ikkita probirka olib, ularning har ikkalasiga 1:20 nisbatda suyultirilgan sulfat kislota eritmasidan 10 ml dan quying. Birinchi probirkani suv hammomida qizdiring. Ikkinchisini esa qizdirmang. Ikkala probirkaga 10 ml dan 0,5N natriy tiosulfat eritmasidan bir vaqtda quying. Reaksiya boshlanishini (oltingugurt loyqalanib cho‘-ka boshlaydi) soatga qarab belgilang. Birinchi probirkada loyqalanish tez boshlanganligining sababini tushuntiring. Reaksiya tenglamasini yozing.

3. Ikkita probirka olib, har biriga 0,5 gr dan mis (II) oksid soling. Ikkala probirkaga nitrat kislotaning (1:3) suyultirilgan

eritmasidan 2 ml dan quying. Birinchi probirkani qizdiring, ikkinchisini qizdirmang. Qizdirilgan probirkada eritma rangini tez o'zgarishining sababini tushuntiring. Reaksiya tenglamasini yozing.


### **5-tajriba. Kimyoviy reaksiya tezligiga katalizator ta'siri.**

**Asboblar:** shtativ (probirkalari bilan).

**Reaktivlar:** 3% li  $H_2O_2$  eritmasi,  $MnO_2$ ,  $PbO_2$ .

**Ishning mazmuni:** ikkita probirka olib, ularning har biriga 5 ml dan 3% li vodorod peroksid  $H_2O_2$  eritmasidan quying. Ikkala probirka og'ziga uchi cho'g' bo'lib turgan cho'pni tushiring. Cho'pning yonmasligini kuzating. Probirkalardan biriga ozgina marganes (IV) oksid ( $MnO_2$ ) kukunidan soling. Gaz ajralishini kuzating. Ikkala probirkalar og'ziga uchi cho'g' bo'lib turgan cho'pni tuting. Marganes (IV) oksid solingan probirkada cho'pning yonishini kuzating. Sababini tushuntiring. Reaksiya tenglamasini yozing. Yuqoridagi tajribani qo'rg'oshin (IV) oksid ( $PbO_2$ ) bilan ham takrorlang. Qanday o'zgarish bo'ldi? Xulosa chiqaring.

**Hozirgi zamон avtoulovлari to'liq yonmagan uglevodorodlar, uglerod oksidlari va azot oksidlарini tashqi muhitga kam chiqaruvchi qurilma katalizatorli qayta hosil qiluvchi konvertor bilan jihozlangan. Uning ishlash mexanizmi shundaki, CO ni oksidlaydi va oxirigacha yonmagan uglevodoradlarni ( $CO_2$  va  $H_2O$  gacha) oksidlaydi bu yo'l azot oksilarini kamaytirib, gaz holatidagi  $N_2$  hosil bo'lishiga olib keladi. Shunday qilib, ikki turdagи katalizator ishlatiladi — oksidlovchi va qaytaruvchi katalizatorlar. Katalizatorlar sifatida, odatda, platina, radiy yoki palladiy kabi metallardan foydalaniladi.**



12-rasm.

### **Mustaqil ta'lim uchun savol va mashqlar:**

1. Kimyoviy reaksiya tezligi deb nimaga aytildi?
2. Kimyoviy reaksiya tezligiga ta'sir etuvchi omillarni sanab, ularni izohlang.
3. Katalizatorning biologik jarayonlardagi rolini tushuntiring.

### **♦ Laboratoriya ishi № 2.6**

#### **Adsorbsiya**

Har qanday modda sirtida erkin energiya mavjud bo'ladi. Ana shu energiyani sarflash bilan boradigan jarayonlar o'z-o'zicha boradi. Ikki modda chegara sirtlarida sodir bo'ladigan yutilish (adsorbsiya) bunga misol bo'ladi. Sirtida modda to'planadigan modda adsorbent, yutiladigan modda adsorbtiv deyiladi. Adsorbsiya qaytar jarayon, unga teskari desorbsiya ham mavjud.

Adsorbsiya yutuvchi va yutiluvchi moddalarning tabiatiga, temperatura va konsentratsiyaga bog'liq. Adsorbsiya bilan konsentratsiya orasidagi bog'lanishni Freyndlixning empirik formulasida ifodalash mumkin:

$$\frac{x}{m} = k \cdot c^{\frac{1}{n}},$$

$x$  — adsorbsiyalangan modda miqdori, gr yoki mollarda;

$m$  — adsorbent massasi, gr;


$c$  — adsorbtivning muvozanatdagи konsentratsiyasi;

$k, n$  — o'zgarmas qiymatlar.


Agar  $\frac{x}{m}$  ning C bog'liqligini grafik usulda tasvirlasak, adsorbsiya izotermasini hosil qilamiz *I-chizma*.

Freyndlix tenglamasini logarifmlaymiz:

$$\lg \frac{x}{m} = \lg k + \frac{1}{n} \lg C$$



1-chizma.



2-chizma.

va  $\lg \frac{x}{m}$  ning  $\lg C$  ga bog'liqligi to'g'ri chiziqdan iboratligi

2-chizmadan ko'rindi. Bu grafik bog'lanish  $k$  va  $n$  qiymatlarning nechaga tengligini ko'rsatadi.

### **1-tajriba. Sirkasi kislotaning tuproqda adsorbsilanishi.**

#### **Kerakli reaktiv va jihozlar:**

1. Sirkasi kislotaning 0,2; 0,1; 0,05; 0,025N, fenolftalein, 0,1N NaOH eritmalari, tuproq.

1. 250 ml sig'imli 12 ta konussimon kolba 20 ml li o'lchov silindri, 4 ta voronka, byuretka.

#### **Ishning bajarilish tartibi:**

12 dona kolba olib, 1 dan 12 gacha raqamlanadi. 1–4 kolbalarda 200 ml dan sirkasi kislotaning 0,025N, 0,05N, 0,1N, 0,2N konsentratsiyali eritmalari solinanadi. 1–4 kolbalardagi eritmalaridan 100 ml dan olib mos ravishda 5–8 kolbalarga solinadi (ya'ni 1 kolbadan 5 kolbag'a, 2 kolbadan 6 kolbag'a va h.k.). Texnokimyoviy tarozida 10 gramindan tuproq o'lchab olinadi va ular 5–8 kolbalardagi sirkasi kislotasi bilan aralashtiriladi. Aralashma 30 daqiqa davomida chayqatiladi. So'ngra 5–8 kolbalardagi eritmalar 9–12 kolbalarga (ya'ni 5 kolbadagi eritma 9 kolbag'a, 6 kolbadagi eritma 10 kolbag'a va h.k.) filtrlanadi. Demak, 1–4 kolbalarda dastlabki, 9–12 kolbalarda adsorbsion muvozanatdagi eritmalar bo'ladi. Ana shu kolbalardagi eritmalaridan 20 ml dan olib unga 1–2 tomchi fenolftalein qo'shib 0,1N NaOH eritmasi yordamida titrlanadi va olingan natijalar jadvalga yoziladi.

| Kislotaning<br>konsentra-<br>tsiyasi | 20 ml CH <sub>3</sub> COOH eritmasini titrlash uchun sarf bo'lgan<br>0,1N NaOH eritmasi |                  |    |     |                                 |              |                           |    |    |                                 |                                  |
|--------------------------------------|---|------------------|----|-----|---------------------------------|--------------|---------------------------|----|----|---------------------------------|----------------------------------|
|                                      | Kol-<br>ba №  | Dastlabki eritma |    |     |                                 | Kol-<br>ba № | Muvozanat konsentrasiyasi |    |    |                                 |                                  |
|                                      |   | I                | II | III | O'rtacha<br>titr T <sub>1</sub> |              | I                         | II | II | O'rtacha<br>titr T <sub>1</sub> | T <sub>1</sub><br>T <sub>2</sub> |
| 0,025N                               | 1   |                  |    |     |                                 |              | 9                         |    |    |                                 |                                  |
| 0,05N                                | 2   |                  |    |     |                                 |              | 10                        |    |    |                                 |                                  |
| 0,1N                                 | 3   |                  |    |     |                                 |              | 11                        |    |    |                                 |                                  |
| 0,2N                                 | 4   |                  |    |     |                                 |              | 12                        |    |    |                                 |                                  |

Adsorbilangan sirka kislota miqdori 100 gr tuproqda yutilgan kislotaning milliekvivalentlar soni bilan ifodalanadi va quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$x = \frac{[T_1 - T_2] \cdot B \cdot N \cdot 100}{b_1 \cdot m}.$$

$x$  – 100 gr tuproqda adsorbilangan kislota miqdori.

$[T_1 - T_2]$  – 0,1N NaOH eritmasi millilitrlari soniga ekvivalent bo'lgan 20 ml eritmagan tuproqda adsorbilangan sirka kislotaning miqdori:

$B_1$  – titrlash uchun olingan sirka kislota hajmi, (20 ml);

$B$  – adsorbsiya uchun olingan kislota hajmi, (100 ml);

$N$  – ishqorning normalligi;

$m$  – har bir kolbaga solingan tuproqning massasi.

100 raqam adsorbilangan kislota miqdorini 100 grammga qayta hisoblash uchun ishlataladigan son.

Berilgan qiymatlarni formulaga qo'yib quyidagini yozish mumkin.

$$X = 5[T_1 - T_2].$$

Kislotaning muvozanat konsentratsiyasi 1 litr eritmaga bo'lgan milliekvivalent soni bilan o'lchanadi va u quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$C = \frac{T_2 \cdot 1000 \cdot N}{b_1}, \quad b_1 = 20ml; \\ N = 0,1N; \\ C = 5 \cdot T_2.$$

Tajriba natijalari jadvalga yoziladi:

| Kislota konsentrasiyasi | X | C |
|-------------------------|---|---|
| 0,25N                   |   |   |
| 0,05N                   |   |   |
| 0,1N                    |   |   |
| 0,2N                    |   |   |

Tajribada topilgan qiymatlarga asoslanib, millimetrali qog'ozda adsorbsiya izotermasini chizing. Buning uchun absisa o'qiga C ning, ordinata o'qiga X ning qiymatlari qo'yiladi.

### 2-tajriba. Tuzlarni bir-biridan xromatografik usulda ajratish.

**Kerakli asbob va reaktivlar:** xromatografik kolonka (yoki byuretka) shtativ, 50 va 100 ml li stakanlar, voronka, paxta,  $Al_2O_3$ ,  $FeCl_3$ ,  $Cu(NO_3)_2$ ,  $Co(NO_3)_2$  tuzlarining 1% li eritmalari.

**Tajribaning bajarilish tartibi:** tuzlar aralashmasini tarkibiy qismlarga ajratish uchun xromatografik kolonka (yoki byuretka) dan foydalanamiz. Uning uzunligi 20–25 sm, ichki diametri 15–20 mm bo'lishi kerak, pastki qismiga bekitish uchun paxta tiqib qo'yiladi.

Adsorbent sifatiga aluminiy oksiddan foydalaniadi. Xromatografik kolonkaning 3/4 qismi  $Al_2O_3$  bilan to'ldiriladi va shtativga o'rnatiladi.

Adsorbentni zichlantirish uchun uning ustidan 10 ml distillangan suv quyiladi va kolonka tagida stakan qo'yiladi. Adsorbentning butun balandligi ho'llanib bo'lgandan so'ng, stakandagi tuzlar aralashmasidan iborat eritma kolonkaga quyiladi. Tajribani bajarish uchun 1% li  $FeCl_3$ ,  $Cu(NO_3)_2$ ,  $Ca(NO_3)_2$  eritmalaridan 5 ml dan olib ular bitta stakanda aralashtiriladi. Kolonka rasmini chizing va unda moddalarning joylanish tartibini ko'rsating.

### **3-tajriba. Tuproqdagi kation almashinish jarayonini o‘rganish.**

**Kerakli reaktiv va asboblar:** 1N ammoniy xlorid, ammoniy oksalat eritmalari, tuproq, 2 ta 100 ml li stakan, 2 ta voronka o‘rnatilgan shtativ, filtr qog‘oz.

**Tajribaning bajarilishi:** ikkita shtativda o‘rnatilgan voronka-larga filtr qog‘ozlari joylashtiriladi va ularga 10 grammdan tuproq solinadi. Voronkalar tagiga stakanlar qo‘yiladi va birinchi voron-kadagi tuproq distillangan suv, ikkinchisidagi esa 1N  $NH_4Cl$  eritmasi bilan yuviladi. Ikkala stakanlardagi eritmalardan 1 ml dan olib 2 ta probirkaga solinadi va ularda  $Ca^{+2}$  bor-yo‘qligini bilish uchun ammoniy  $[NH_4]_2C_2O_4$  oksalat yordamida sifat reaksiyasi o‘tkaziladi.

Suvli so‘rimda  $Ca^{+2}$  ionlari yo‘qligi, tuzli so‘rimda esa mavjudligi sababini tushuntiring. Tuproqda sodir bo‘ladigan ion alma-shinish sxemasini yozing.

### **4-tajriba. Bo‘yoq moddalar va zollarning ko‘mirda adsorbsilani va bu jarayonga erituvchilar tabiatining ta’siri.**

**Kerakli jihoz va reaktivlar:** shtativ (probirkalari bilan) voronka, pipetkalar, chayqatish apparati, filtr qog‘ozi, suv ham-momi, mis sulfat va kaliy bixromat, kobalt xlorid tuzlari eritmalari, fuksinning suvdagi hamda spirtdagi eritmalari, yangi tayyorlangan temir (III) gidroksid hamda Berlin lauzeri, metilen ko‘ki, aktivlangan ko‘mir, yod eritmasi, so‘lak eritmasi, kraxmalning 0,1% eritmasi.

**Tajribaning bajarilishi:** 6 ta probirka olib, raqamlanadi va 2 ml dan:

1-probirkaga  $CuSO_4$  eritmasidan;

2-probirkaga fuksinning suvli eritmasidan;

3- probirkaga fuksinning spirtli eritmasidan;

4-probirkaga  $Fe(OH)_3$  suspenziyasidan;

5-probirkaga Berlin lauzeri suspenziyasidan;

6-probirkaga  $K_2Cr_2O_7$  eritmasidan solinib, ustiga 0,1 gramm-dan aktivlangan ko‘mir qo‘shiladi. Eritmalarni saqlovchi probirkalar chayqatish apparatida 5 daqiqa chayqatiladi. So‘ngra quyqalarni cho‘ktirish uchun probirkalar 10 daqiqa atrofida shtativda tinch holatda saqlanadi. Probirkalardagi cho‘kmalar ustidagi suyuqliklar rangiga qarab adsorbsiya sodir bo‘lganligi yoki

bo‘limganligi haqida har bir holat uchun alohida-alohida xulosa chiqariladi.

### **5-tajriba. So‘lak amilazasining aktivlangan ko‘mirda adsorb-silanishi**

**Kerakli jihoz va reaktivlar:** 4-tajribadagi kabilar.

**Tajribaning bajarilishi:** ikkita probirka olib, ularga 2 ml dan so‘lak eritmasidan solinadi. Probirkalardan biriga 0,2 gramm aktivlangan ko‘mir bo‘lakchalaridan tashlab, 5–6 daqiqa davomida chayqatiladi. Ikkinchи probirka(nazorat) solishtirish uchun qoldiriladi. Aktivlangan ko‘mir solingan probirkadagi aralashma qog‘oz yordamida filtrlanadi. Nazorat va filtrat probirkalariga kraxmalning 0,1 % li eritmasidan 5 ml dan quyib, aralashmali probirkalar 15 daqiqa davomida 37–40°C li suv hammomida isitiladi. Probirkalardagi eritmalar xona haroratiga qadar sovutiladi va 2-tomchidan yod eritmasidan tomiziladi. Qaysi probirkada kraxmal qolgan bo‘lsa, o‘sha eritma ko‘k rangga bo‘yaladi.

Aktivlangan ko‘mir ishtirokidagi jarayon haqida xulosa chiqaring.

### **6-tajriba. Adsorbilanish yordamida moddalarni bir-biridan ajratish.**

**Kerakli jihoz va reaktivlar:** 4-tajribadagi kabilar.

**Tajribaning bajarilishi:** Kobalt xloridi va metilen ko‘ki eritmalar rangiga e‘tibor bering va ulardan 2 ml dan probirkada aralashting, ustiga 0,2 gramm aktivlangan ko‘mir bo‘lakchalarini tashlab, 3–5 daqiqa davomida chayqating va oldindan ho‘llangan filtr qog‘ozida filtrlang. Qaysi modda filtrat tarkibida bo‘ladi? Qaysi inmodda ko‘mirda adsorbsiyalanib, filtr qog‘ozda qoldi?


### **Mustaqil ta’lim uchun savol va mashqlar:**

1. Adsorbsiya deb nimaga aytildi? Uning turlari?
2. Gaz va suyuq moddalarning qattiq jismida adsorbilanishini qanaqa usullar bilan aniqlash mumkin?
3. Gibss tenglamasi nimani ifodalaydi?
4. Adsorbilanish muvozanati nimadan iborat?
5. Xromatografik tahlil nima?
6. Tuproqda adsorbsiyaning qanaqa turlari vujudga keladi?
7. Adsorbsiyaning atrofimizdagи hodisalar ko‘rinishda uchrashiga misollar keltiring.

## ♦ Laboratoriya ishi № 2.7

### Kolloid eritmalarining olinishi, mitsellaning tuzilishi

Kolloid eritmalar, asosan, ikki usulda olinishi mumkin:  
a) maydalash (ya'ni dispergatsiyalash) usuli, bunda o'lchami katta zarrachalar o'lchami kichiklashtiriladi. b) yiriklashtirish (ya'ni kondensatsiyalash) usuli, bunda o'lchami kichik zarrachalar o'lchami katta zarrachalarga aylantiriladi.



Kolloid eritma hosil bo'lishi uchun ikkita shart bajarilishi kerak.

Kolloid eritmasi hosil qilinayotgan modda suvda (umumiy holda erituvchida) erimasligi shart.

Eritmada barqarorlashtiruvchi (stabilizator) bo'lishi kerak.

Barqarorlashtiruvchi vazifasini kolloid eritmasi hosil qilinayotgan modda tarkibida mavjud ionlardan birini saqlovchi elektritolitlar bajaradi.

Masalan, kumush yodid kolloid eritmasida barqarorlashtiruvchi vazifasini  $\text{AgNO}_3$ , yoki  $\text{KI}$  bajarishi mumkin.



Ayrim hollarda buzilgan ammo eskirib ulgurmagan kolloid eritmani tiklash – peptizatsiya ham qo'llaniladi.

Kolloid eritma dispersion muhit (erituvchi) va dispers faza (mitsella ya'ni kolloid zarrachalar yig'indisi)dan iborat.

Misol tariqasida kremniy (IV) oksid mitsellasining tuzilishini qarab chiqamiz.

**Kerakli jihozlar va reaktivlar:** kanifol, distillangan suv. kanifolning etil spirtdagи 2% li eritmasi,  $\text{AgNO}_3$ , 0,05N eritmasi,  $\text{KI}$  0,05N eritmasi,  $\text{FeCl}_3$  tuzining 2% li, 0,7 N va 0,005N eritmalari,  $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$  tuzining 0,1N va 0,005N eritmalari,  $\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4$  – oksalat kislotaning 0,1N eritmasi.

Probirkalar, shisha tayoqcha, temir shtativ, voronka, stakan, qora tuproq, filtr qog'oz.



1.3-rasm. Kremniy oksidi zoli mitsellasining tuzilishi

### **1-tajriba. Kanifolning chin eritmasi suspenziysi va gidrozolini olish.**

- Probirkaga biroz kukun holdagi kanifol soling. Uning ustiga suv qo'shib, shisha tayoqcha bilan aralashtiring.
- Boshqa probirkaga 10 ml distillangan suv olib, kanifolning spirtdag'i 2% li eritmasidan 5 tomchi qo'shing. Hosil bo'lgan aralashmadan spirtni chiqarib yuborish uchun uni qaynaguncha qizdiring.
- Uchinchi probirkaga kukun holdagi kanifoldan biroz solib, 10 ml spirt qo'shing va kanifol erib ketguncha shisha tayoqcha bilan aralashtiring. Uchala probirkada hosil bo'lgan eritmalarining qaysi biri suspenziya, kolloid eritma va chin eritma hisoblanadi. Buni qanday bilish mumkin?

### **2-tajriba. Kumush yodid gidrozolining olinishi.**

Probirkaga 10 ml distillangan suv olib, bir necha tomchi kumush nitrat eritmasidan tomizing. Eritmani qaynaguncha qizdiring. Qaynab turgan eritmaga kaliy yodidning yangi tayyorlangan 1% li eritmasidan har daqiqadan so'ng sariq rang hosil bulgunga qadar tomchilab qo'shib boring. Vaqt o'tishi bilan zolning rangi o'zgaradimi? Olingan kumush yodidning zoli Tindal konusini hosil qiladimi? Gidrozol qanday usul bilan olingan? Kumush yodid mitsellasining formulasini yozing.

### **3-tajriba. Temir gidroksid zolini olish.**

Kimyoviy stakanga 50 ml suv olib, qaynaguncha qizdiring. Qaynab turgan suvga temir (III) xloridning 2% li eritmasidan

1–2 ml qo'shing. Zol qaysi usul bilan va qaysi reaksiyaga muvofiq olindi; temir gidroksid zolining mitsella formulasini yozing.

#### **4-tajriba. Berlin lazurinning gidrozolini olish.**

Probirkaga temir (III) xloridning 0,005N eritmasidan 1 ml oling, ustiga sariq qon tuzining to'yingan eritmasidan 1 ml qo'shing. Cho'kmani filtr qog'oziga qo'yib rangsiz filtrat hosil bo'lguncha distillangan suv bilan yuvning. Cho'kmali voronka tagiga toza probirkaga qo'yib, unga 0,1N oksalat kislota ( $H_2C_2O_4$ ) eritmasidan qo'shing. Filtrdan o'tgan suyuqlik qanday rangga kiradi? Zol qanday usul bilan olinadi?

#### **5-tajriba. Kolloid eritmalar hosil qilishda reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentratsiyasining ta'siri.**

a) Probirkaga temir (III) xloridning 0,005N eritmasidan 1 ml olib, uning ustiga sariq qon tuzining 0,005N eritmasidan 1 ml quying. Hosil bo'lgan eritma qanday ko'rinishga ega? Xulosa chiqaring.

b) Probirkaga temir (III) xlorid ning 0,1N eritmasidan 1 ml va sariq qon tuzining 0,1N eritmasidan 1 ml qo'ying. Nimani kuzatdingiz? Xulosa chiqaring.

c) Probirkaga sariq qon tuzining to'yingan eritmasidan 2 ml olib, unga temir (III) xloridning to'yingan eritmasidan 1 ml qo'shing. Hosil bo'lgan zoldan boshqa probirkaga biroz olib, unga 10 ml suv qo'shing. Nima sodir bo'ladi? Xulosa chiqaring.

#### **6-tajriba. Peptizatsiya usulida tuproq zarrachalarining zolini olish.**

Shtativga temir halqa berkitiladi va unga ichida filtr qog'oz joylashtirilgan shisha voronka o'rnatiladi. Voronkadagi filtr qog'ozning 2/3 qismiga maydalangan qora tuproqdan solinadi. Voronka 3–4 normal konsentratsiyali NaCl eritmasidan tuproq yuzasi to'la yopiladigan qilib quyiladi va voronka ostiga stakan qo'yib filtrat yig'ib olinadi. Ana shu jarayon yana uch marta takrorlanadi. Bunda tuproq yutish kompleksi tarkibidagi  $Ca^{+2}$  ionlari  $Na^+$  ionlariga almashinadi.

Stakandagi filtrat rakhovinaga to'kib tashlanadi va voronkada joylashgan tuproqni endi  $Na^+$  ionlaridan tozalanadi. Buning uchun xuddi yuqoridagidek qilib tuproq yuviladi, bunda faqat distillangan

suvdan foydalaniladi. Yuvishtan jarayonida filtratning rangiga e'tibor berish kerak. Filtrat, avvalo, rangsiz, so'ngra sarg'ish, keyin sariq, oxirida qoramtil-qo'ng'ir tusga kiradi. Oxirgi rangining paydo bo'lishi tuproq kolloidlarining eritmaga o'tishidan darak beradi. Ana shu paytda voronka tagida toza stakan qo'yish kerak va tuproq zarrachalarining 100–200 ml zolidan yig'ib olish kerak. Uni keyingi darslardagi tajribalar uchun saqlab qo'ying.

Eritmadagi tuproq kolloidi mitsellasining formulasini yozing.

***Mustaqil ta'lif uchun savol va mashqlar:***

1. *Kolloid eritmalarining klassifikatsiyasi.*
2. *Kolloid mitsellasining tuzilishi.*
3. *Peptizatsiya nima?*
4. *Kolloid eritmalarining barqarorligiga sabab nima?*
5. *Kolloid eritmalar hosil bo'lishiga konsentratsiyaning ta'sirini izohlang.*


♦ **Laboratoriya ishi № 2.8**

**Kolloid sistemalarning elektr xususiyatlari**

***1-tajriba. Elektroforez.***

Qattiq fazadan iborat kolloid zarracha va erituvchi chegarasida bir xil zaryadli ionlarining tanlab yutilishi (adsorbsiyalanishi) natijasida potensiallar farqi yuzaga keladi. Qattiq faza qanaqa ishorali zarrachalarni yutganligiga qarab o'shandek zaryadlanadi. Elektrodlar elektr maydoni ta'sirida kolloid zarrachalar bir tomoniga, erituvchi esa boshqa tomoniga qarab harakatlanadi, chunki erituvchi qarshi ionlarni o'zida saqlaydi. Kolloid zarrachalarning elektr maydoni ta'sirida biror qutbdagi elektrod tomon harakatlanishi elektroforez deb nom olgan. Elektroforezni kuzatish tufayli kolloid zarrachanining harakatlanish tezligini, ular zaryadi belgisini aniqlash mumkin.

**Ish uchun zarur asboblar va reaktivlar:** elektroforezni kuzatish uchun asbob, 2 V kuchlanishli batareya yoki akkumulyator, loy parchasi, yuvilgan qum, distillangan suv.



14-rasm.

**Ishning bajarilishi:** o'lchami  $8 \times 15$  sm va qalinligi 4 sm bo'lgan loy parchasiga 2 sm chuqurlikda diametri  $1,5-2$  sm bo'lgan shisha naychalar joylashtiriladi. Shisha naychalarga qalinligi 0,5 sm qilib toza yuvilgan qum solinadi va uning ustiga qumdan  $4-5$  sm baland qilib suv quyiladi. Bunda suvning sathi shisha naychalarning elektrodlaridan baland bo'lishi kerak. Elektrodlarning simlari kuchlanishi 2 V bo'lgan batareya yoki akkumulyatorga ularadi. Tok ulangandan so'ng bir necha daqiqa o'tgandan keyin elektroforez boshlanadi. Batareyaning musbat qutbi uilangan naychaga loy zarrachalari o'tadi, buni suvning loyqalanishidan bilish mumkin.

Tuproq kolloid mitsellasining formulasini yozing.

### **2-tajriba. Kolloid zarrachalar zaryadining belgisini aniqlash.**

**Kerakli reaktivlar:**  $0,005\text{N FeCl}_3$ ,  $0,05\text{N K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$  eritmalari, pipetka probirkalar, filtr qog'oz.

Ikki probirkada berlin lazurining kolloid eritmasi tayyorlanadi. Buning uchun birinchi probirkadagi 1 ml  $0,005\text{N FeCl}_3$  eritmasiga  $3\text{ ml K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$   $0,005\text{N}$  eritmasidan, boshqa probirkadagi 3 ml  $0,005\text{N FeCl}_3$  eritmasiga 1 ml  $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ ,  $0,005\text{N}$  eritmasidan qo'shing.

Birinchi probirkadagi eritmadan filtr qog'oziga bir tomchi tomiziladi. Bu tomchi qog'ozga shimilgandan keyin, taxminan uning diametriga teng bo'lgan masofada ikkinchi eritmadan bir tomchi tomiziladi, hosil bo'lgan dog'larning xususiyatlarini o'zar solishtiring. Odatda, filtr qog'ozini kolloid eritmalar bilan namlanganda, uning tolalari manfiy zaryadlanadi. Shuni hisobga olgan holda yuqoridagi kolloid eritmalar zarrachalarining zaryad belgisi haqida xulosa chiqaring. Kolloid zarrachalar zaryadining belgisi olingan moddalarning konsentratsiyalari nisbatlariga bog'liqmi? Ikkala eritmalar uchun ham mitsellalar formulalarini yozing.

### **Mustaqil ta'lim uchun savol va mashqlar:**

1. Kolloid eritmalarining qanaqa elektr xususiyatlari bor?
2. Kolloid zarracha sirtidagi qo'sh elektr qavat qanday tuzilgan?
3. Elektroforez va elektroosmos bir-biridan qanday farqlanadi?
4. Termodinamik va elektrokinetik potensiallar nima?
5. Tuproq kolloidlarining mitsellasining qanday tuzilishga ega?

## ♦ Laboratoriya ishi № 2.9

### Kolloid eritmalarining xossalari, koagulyasiyasi va himoyalanishi

Kolloid zarrachalar sirtida elektr zaryadining mavjudligi kolloid zarrachalar barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Mitsella elektroneytral zarracha, chunki undagi potensial aniqlovchi ionlarning zaryadini qarshi ionlar o'z zaryadlari bilan neytrallab turadi. Potensial aniqlovchi ionlar agregat zarracha sirtida adsorbiyalangan, qarshi ionlarning ayrimlari adsorbsion, qolganlari esa diffuzion qavatlarda bo'ladi.

Kolloid zarrachalar o'zaro yaqinlashganda, ularning diffuzion qavatlari bir-birini qoplaydi. Ular orasida itarilish kuchlari bilan bir qatorda tortishish kuchlari ham ta'sir etadi. Agar tortishish kuchlari kuchliroq bo'lsa, zarrachalar birikib kattaroq agregatlar hosil bo'ladi, ya'ni kolloid eritma koagulyatsiyalanadi.

Liofob kolloidlarda (suvda erimaydigan moddalar kolloidlari) elektrolitlar ta'siri juda seziluvchan bo'ladi. Ozgina elektrolit butun kolloid eritmani buzib, kolloid zarrachalarni yoppasiga cho'kmaga tushiradi. Zolda koagulyatsiyani vujudga keltiruvchi elektrolitning eng kam miqdori ( $C_k$ )ga koagulyatsiya arafasi (koagulyatsiya bo'sag'asi) deyiladi. Koagulyatsiya arafasiga teskari kattalik elektrolitning koagulyatsiyalash qobiliyati ( $P$ ) deyiladi:

$$P = \frac{1}{C_k}.$$

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, koagulyatsiyalovchi ionning zaryadi qancha katta bo'lsa uning koagulyatsiya arafasidagi miqdori shuncha kam bo'ladi.

$$C_1 : C_2 : C_3 = 500 : 10 : 1$$

1, 2, 3 – koagulyatsiyalovchi ionlarning oksidlanish darajalari,  
500, 10, 1 – ionlarning miqdoriy nisbatlari.

Qarama-qarshi zaryadli kolloidlar bir-biriga aralashtirilganda ham cho'kma hosil bo'lishi kuzatiladi, buni kolloidlarning o'zaro koagulyatsiyasi deyiladi. Kolloid zarrachalarining potensial aniqlovchi ionlari bir-birini neytrallaydi. Zaryadsiz agregatlar o'zaro

birikib cho'kmaga tushadi. Gidrofob kolloid eritmalarga yuqori molekular birikmaning (masalan jelatina) qo'shilishi tufayli zolning barqarorligi ortadi. Yuqori molekular birikma kolloid zarracha sirtida yupqa qavat hosil qilib, uni elektrolitlar ta'siridan himoyalaydi.

**1-tajriba:** Temir (III) gidroksid zoli uchun koagulyatsiya arafasini aniqlash.

**Kerakli eritmalar:** 2%  $\text{FeCl}_3$ ; 2N  $\text{NaCl}$ ; 0,01N  $\text{Na}_2\text{SO}_4$ ; 0,001N  $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ ; 1%  $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ .

**Kerakli idishlar:** sig'imi 250 ml bo'lgan ikkita konussimon kolba, sig'imi 100 ml bo'lgan 4 ta konussimon, 2 ta 10 ml li pipetka 25 va 100 ml li 2 ta o'lchov silindrлari, uchta byuretka o'rnatilgan shtativlar, probirkalari bor shtativ, shishaga yozadigan qalam.

**Tajribaning bajarilishi:** sig'imi 100 ml bo'lgan 4 ta kolbachaga 25 ml dan  $\text{Fe(OH)}_3$  zolidan soling. Kolbachalardan 2-ni olib (birinchisi solishtirish uchun) byuretkadagi 2N  $\text{NaCl}$  eritmasidan (salgina loyqa hosil bo'lguncha) tomchilatib qo'ying. Bunda kolbadagi eritma aralashtirib turiladi. Koagulyatsiyani vujudga keltirish uchun sarflangan  $\text{NaCl}$  eritmasi hajmini daftarga yozib qo'ying. Uchinchi kolbachadagi zolni byuretkadagi 0,01N  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  eritmasi bilan salgina loyqa hosil bo'lguncha titrlang. Sarflangan  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  eritmasi hajmini yozib qo'ying.

To'rtinchi kolbachadagi zolni titrlash uchun byuretkadagi 0,001N  $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$  eritmasidan foydalilanadi va uning ham sarflangan hajmi yozib qo'yiladi. Uchala elektrolitlar uchun koagulyatsiya arafasi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$C_K = \frac{N_{el} \cdot V_{el} \cdot 100}{V_z + V_{el}} \text{ mg} \cdot \text{ekv/l.}$$

Bunda  $C_K$  – koagulyasiya arafasi;

$V_z$  – zolning hajmi;

$V_{el}$  – elektrolitning hajmi;

$N_{el}$  – elektrolit eritmasining normalligi;

$C_K$  – ning turli elektrolitlar uchun topilgan qiymatlarini solish-tiring va kolloid zarracha zaryadining ishorasi haqida xulosa chiqaring.

## **2-tajriba. Liofob zollarining o'zaro koagulyatsiyasi.**

**Kerakli reaktiv va idishlar.** 1-tajribada yozilgan.

**Tajribaning bajarilishi:** a) Berlin lazurining zolini olish. 100 ml suvgaga 3 ml 1% li  $K_4[Fe(CN)_6]$  va tomchilatib 2% li  $FeCl_3$  eritmasidan 5–7 tomchi qo'shing. Eritma ko'k rangga bo'yaladi. Hosil bo'lgan zol mitsellasining tuzilishini yozing va eritmani keyingi tajriba uchun saqlab qo'ying.

b) Berlin lazuri va  $Fe(OH)_3$  zollarining o'zaro koagulyatsiyasi. Manfiy zaryadli berlin lazuri va musbat zaryadli  $Fe(OH)_3$  zollari 1-jadvalda keltirilgan nisbatlarda aralashtiriladi.

*I-jadval*

| Zollar                                    |     |     |     |     |     |     |     |   |
|---|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|---|
|   | 1   | 2   | 3   | 4   | 5   | 6   | 7   | 8 |
| 1. Temir (III) gidroksid zoli, ml         | 0,5 | 1,0 | 1,5 | 2,0 | 2,5 | 3,0 | 3,5 |   |
| 2. Berlin lazuri zoli, ml                 | 3,5 | 3,0 | 2,5 | 2,0 | 1,5 | 1,0 | 0,5 |   |
| 3. Kuzatilgan effekt                      |     |     |     |     |     |     |     |   |
| 4. Qanaqa zaryadli kolloid zarracha ortiq |     |     |     |     |     |     |     |   |

Kuzatilgan effektda cho'kma bor-yo'qligi, koagulyasiya qisman yoki to'liq ekanligi yoziladi. 4-bandda esa cho'kmadan qolgan kolloid zarrachalar zaryadi ko'rsatiladi.

## **3-tajriba. Temir gidroksid cho'kmasini peptizatsiyalash.**

**Kerakli reaktivlar:** 0,5N  $FeCl_3$  va  $NH_4OH$ , 0,1N HCl va  $FeCl_3$  ning to'yingan eritmalari, distillangan suv.

**Kerakli idishlar:** shtativ (probirkalar bilan), voronka, filtr qog'oz, 10 ml li pipetka.

**Tajribaning bajarilishi:** probirkaga temir (III) xlorid tuzining 0,5N eritmasidan 5 ml soling. Temir (III) gidroksidi to'liq cho'kib bo'lguncha ammiak eritmasidan tomchilab quying. Hosil bo'lgan cho'kmani dekantatsiya usuli bo'yicha distillangan suv bilan yuviling. Yuvilgan cho'kmaga 10 ml distillangan suv qo'shing va aralashtiring. Hosil bo'lgan aralashmani barobar miqdorida uchta probirkaga quying. Birinchi probirkaga 0,1N HCl eritmasidan 10

tomchi, ikkinchi probirkaga temir (III) xloridning to'yingan eritmasidan 10 tomchi qo'shing. Uchinchi probirkani solishtirish uchun qoldiring. Uchta probirkani ham yaxshilab chayqating va 5–10 daqiqa o'tgandan so'ng ularni o'zaro solishtiring. Kuzatish natijalarini tushuntiring.

#### **4-tajriba. Jelatinaning himoyalash xususiyatini o'rganish.**

**Kerakli reaktivlar:** 0,1% li jelatina, 0,025N  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  va  $\text{Fe}(\text{OH})_3$  zoli eritmalar.

**Kerakli idishlar:** shtativ (probirkalar bilan), 10 ml li pipetka.

**Tajribaning bajarilishi:** pipetka bilan to'rita probirkaga temir gidroksidining gidrozolidan 10 ml dan solinadi. Keyin har bir probirkaga pipetka orqali jelatina va  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  eritmalaridan 2-jadvalda ko'rsatilgan miqdorda solib aralashtiriladi.

*2-jadval*

| Probirkalar №                                 | 1   | 2   | 3   | 4   |  |
|---|-----|-----|-----|-----|--|
| $\text{Fe}(\text{OH})_3$ zoli, ml             | 10  | 10  | 10  | 10  |  |
| Jelatinning 0,1% eritmasi, ml                 | 0,2 | 0,3 | 0,4 | 0,5 |  |
| 0,0025N $\text{Na}_2\text{SO}_4$ eritmasi, ml | 3   | 3   | 3   | 3   |  |

Har bir probirkani chayqating va 5 daqiqa o'tgandan keyin suyuqligi tinib qolgan va suyuqligi biroz loyqalangan probirkalarni topping. Jelatinada himoyalash qobiliyati mavjudligi haqida xulosa chiqaring.

#### **5-tajriba. Organik kolloid eritmalaridagi qaytmas koagullanish.**

**Kerakli jihoz va reaktivlar:** shtativ (probirkalari bilan) tuxum oqsilining 2% li, mis sulfatning 5% li, kumush nitratning 5% li, qo'rg'oshin asetatning 5% li eritmalar.

**Tajribaning bajarilishi:** organik moddalarning kolloid eritmalariga Solloid elektritolitlar qo'shilganda ular ta'sirida cho'kmalar hosil qilib qaytmas koagullanishi yuzaga keladi. Bu jarayonni kuzatish uchun 3 ta probirkaga 2–3 ml dan tuxum oqsilining 2% li eritmasidan solinib, ularning birinchisiga 2 ml 5% li mis sulfat eritmasidan, ikkinchisiga 2 ml 5% li kumush nitrat eritmasidan uchinchisiga 2 ml 5% li qo'rg'oshin asetat eritmasidan qo'shiladi. Natijada tuxum oqsilining eritmadorligi

buziladi va probirkalarda cho'kma hosil bo'lishi kuzatiladi. Barcha probirkalarga 5–6 ml dan distillangan suv qo'shib, yaxshilab aralashtiriladi. Qaytmas koagullanish yuzaga kelganligi tufayli cho'kma eritma holatiga o'tmaydi.

***Mustaqil ta'lif uchun savol va mashqlar:***

1. Koagulyatsiya qanday omillar ta'sirida vujudga keladi?
2. Koagulyatsiya atamasi nimani anglatadi?
3. Shulse – Gardi qoidasini tushuntiring.
4. Koagulyatsiya qanday mexanizmga muvosiq amalga oshadi?
5. Kolloid himoyalanishni tushuntiring.

♦ **Laboratoriya № 2.10**

**Gellar va iviqlarda sodir bo'ladigan  
kimyoviy reaksiyalar**

Gellar va iviqlar tashqi ko'rinishi bo'yicha qattiq moddalarga o'xshaydi. Ular gidrosob kolloidlar yoki polimer makromolekulalarning fazoviy to'r hosil qilishi natijasida yuzaga keladi. Fazoviy panjara oraliglaridagi bo'shliqlar erituvchi molekulalarini saqlaydi. Dispersion muhit va dispers fazaning tabiatiga bog'liq ravishda gellar yoki iviqlar hosil bo'ladi.

Gellar  $\text{Al(OH)}_3$ ,  $\text{Fe(OH)}_3$ ,  $\text{Sn(OH)}_4$ ,  $\text{H}_2\text{SiO}_3$  singari anorganik moddalardan hosil bo'ladi. Bu moddalar quritilganda ularning hajmlari kam o'zgaradi, qattiq va mo'rt, g'ovaklari ko'p moddalarga aylanadi. Ular sanoatda adsorbentlar sifatida keng qo'llaniladi.

Iviqlar yoki elastik gellar yuqori molekular moddalardan hosil bo'ladi. Jelatin, agar-agar, kauchuk, polietilen bunga misol bo'ladi. Iviqlar o'z xossalariiga ko'ra gellardan farq qiladi. Iviqlar tibbiyotda, biologiyada, veterinariyada katta ahamiyatga ega, chunki inson, o'simlik va hayvon to'qimalari, asosan, iviqlardan iborat.

Gellar va iviqlar xossalariiga ko'ra qattiq modda va eritma oralig'ida turadi.

Gellardagi diffuziya va ba'zi bir kimyoviy reaksiyalar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Gel konsentratsiyasining ortishi bilan zarrachalarning gelda diffuziyalanish tezligi pasayadi. Shu sababli

gellarda kimyoviy reaksiyalar kichik tezlikda boradi, natijada yirik kristallar hosil bo'lishiga sharoit yaratiladi. Agar kimyoviy reaksiya natijasida erimaydigan moddalar hosil bo'lsa, cho'kma odatda gel ichida bir tekisda tarqalmay, qavat-qavat bo'lib ajralib turadi.


Qavatlar orasida cho'kmasiz tiniq qavatlar joylashadi. Bu hodisani birinchi marta Lizegang degan ohim tekshirgan.

### **1-tajriba. Lizegang halqalarini hosil qilish.**

**Kerakli jihozlar va reaktivlar.** Jelatin, kaliy bixromat ( $K_2Cr_2O_7$ ) tuzi, 8,5% li  $AgNO_3$  eritmasi, distillangan suv,  $NiSO_4$ ,  $FeSO_4 \cdot 7H_2O$ ,  $CuSO_4 \cdot 5H_2O$ ,  $CoCl_2$  tuzlari, probirkalar, tubi yassi kosacha yoki farfor kosachalar.

Tajribaning bajarilishi 2 gr jelatina 0,06 gramm kaliy bixromat  $K_2Cr_2O_7$  tuzini 60 ml distillangan suvda qaynatilib eritiladi. Hosil bo'lgan qaynoq eritmani ikkita yassi kosachaga yupqa qavat qilib solinadi va sovutiladi.

Ikki probirkaga ham shu eritmadan issiq holda tindirib qo'yiladi. Probirkadagi va kosachadagi eritmalar ustiga 8,5%  $AgNO_3$  eritmasidan tomiziladi. Gel qavatida  $AgNO_3$  sekin-asta diffuziya-lanadi va  $K_2Cr_2O_7$  bilan reaksiyaga kirishadi:



Hosil bo'lgan qizil tusli cho'kma gelda bir tekis bo'lmay, qavat-qavat bo'lib joylashadi. Bu hodisa Lizegang hodisasi deyiladi.

### **2-tajriba. Kolloid bog'i o'simtasini hosil qilish.**

10% li yelim eritmasini tayyorlab 5 ta probirkaga soling. Shu probirkalarning har biriga quyidagi tuzlarning kristallaridan kam-kamdan tashlang. I, II, III va IV probirkalarga mos ravishda  $NiSO_4$ ,  $FeSO_4 \cdot 7H_2O$ ,  $CuSO_4 \cdot 5H_2O$ ,  $CoCl_2$ , tuzlari kristallaridan soling.

V probirkadagi eritmaga  $NiSO_4$ ,  $CoCl_2$ ;  $FeSO_4 \cdot 7H_2O$ ,  $CuSO_4 \cdot 5H_2O$ , tuzlari kristallarini birgalikda o'zaro aralashtirib qo'shing. Biroz vaqt o'tgandan keyin gel ichida (yelim ham gel bo'lib hisoblanadi) sekin-asta kimyoviy reaksiya boshlanadi. Har bir kristallning o'zaro birikib o'sishi kuzatiladi. Bu hodisaga kolloid bog'i o'simtasi deyiladi.

### **Mustaqil ta'lim uchun savol va mashqlar:**

1. Kolloid eritmalarining olinish usullari.
2. Kolloid sistemalarda diffuziya va osmotik bosim mavjudmi?
3. Iviqlar deb nimaga aytildi?
4. Gel deb nimaga aytildi? Gellarga misol keltiring.

## **III. BIOORGANIK KIMYODAN LABORATORIYA ISHLARI**

### **♦ Laboratotiya ishi № 3.1**

#### **Bir asosli karbon kislotalar**


**Reja:**

1. Karbon kislotalarning turlari.
2. Bir asosli to'yingan va to'yinmagan karbon kislotalar, gomologik qatori, izomeriyasi, nomlanishi.
3. Karbon kislotalarning ishlatalishi.


#### **1-tajriba. Chumoli kislotani xloroformdan olish.**

**Reaktivlar:** xloroform, 10% li NaOH eritmasi.

Probirkaga 5 tomchi xloroform va 2 ml NaOH eritmasidan solinadi, suyuqliklarni chayqatib aralashtirib turgan holda qizdirilsa, xloroformning gidrolizlanishi natijasida chumoli kislota hosil bo'лади:




Uni aniqlash uchun eritmaning bir qismiga kumush oksidning ammiakdagи eritmasidan bir necha tomchi qo'shib qizdiriladi. Bunda probirka devorida ko'zgu tarzida kumush metalining ajralishi eritmada chumoli kislota borligini ko'rsatadi:



## **2-tajriba. Sirka kislotani olish.**


**Reaktivlar:** natriy atsetat, kons.  $H_2SO_4$ .

Probirkaga 1 gr natriy atsetat va 1 ml kons.  $H_2SO_4$  solinadi va aralashma qizdiriladi. Bunda sirka kislotaning hidi seziladi. Sirka kislotaning o'ziga xos hidi va probirka og'ziga tutilgan ko'k lakmus qog'ozining qizarishi uni aniqlash imkonini beradi:




## **3-tajriba. Sirk kislotaning temirli tuzini olish va uning gidrolizlanishi.**

**Reaktivlar:** natriy atsetatning 5%li eritmasi, temir (III) xlorid eritmasi. Probirkaga natriy atsetat eritmasidan 2 ml solib, uning ustiga temir (III) xlorid eritmasidan bir necha tomchi qo'shiladi, aralashma to'q qizil tusga kiradi. Bundan avval  $Fe(CH_3COO)_3$ , tuzi hosil bo'ladi:




Eritma qizdirilsa, uning qizil rangi qo'ng'ir tusga o'tadi va temir (III) ioni erimaydigan gidroksiatsetat holida cho'kmaga tushadi.



## **4-tajriba. Sovundan erkin yog' kislotalarini olish.**

**Reaktivlar:**sovun eritmasi, 10%li  $H_2SO_4$  eritmasi.



Sovun eritmasidan probirkaga solib, unga kislotali muhit hosil bo'lguncha sulfat kislota eritmasidan qo'shilsa, yog' kislota (stearin kislota) ajralib chiqadi:

## **5-tajriba. Sovunning spirtdagi eritmasini gidrolizlash.**

**Reaktivlar:** sovun, etil spirt, fenolftaleinning spirtdagi eritmasi.

Quruq probirkaga sovunning kichik bo'lakchasi va 1 ml spirt solib chayqatiladi. Hosil bo'lgan sovun eritmasiga 1 tomchi fenolftalein eritmasi qo'shilsa, eritmada rang o'zgarishi kuzatilmaydi. Sovun eritmasiga bir necha tomchi distillangan suv qo'shilsa pushti rang paydo bo'ladi, ya'ni sovunning gidrolizlanishi natijasida o'yuvchi natriy hosil bo'lganligini bildiradi.

## **Mustaqil ta'lim uchun savol va mashqlar:**

1. Valerian kislota izomerlarini yozib, ularni IYUPAK bo'yicha nomlang.
2. Quyidagi kislotalarning qaysi birida sis- va trans- izomerlar mavjud: stearin kislota, palmitin kislota, olein kislota.

3. Chumoli kislotani sirka kislotadan qanday farqlash mumkin?
4. Sanoaida sirka kislota qanaqa moddani xomashyo sifatida ishlatib olinadi?

## ♦ Laboratoriya ishi № 3.2

### Murakkab efirlar. Yog'lar


*Reja:*

1. Murakkab efirlarning turlari.
2. Etereifikatsiya reaksiyalari.
3. Murakkab efirlarning tabiatda uchrashi.

#### **1-tajriba. Sirka-izoamil efirini olish.**

**Reaktivlar:** quruq natriy atsetat, izoamil spirt, kons. H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>.

Quruq probirkada 1 gr natriy atsetat 1 ml izoamil spirt bilan yaxshilab aralashtiriladi va tomchilatib 1 ml konsentrangan H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> qo'shiladi. So'ngra reaksiyon aralashma asta-sekin qizdirilsa qorayadi va sirka-izoamil efirning nok essensiyasiga o'xshash hidi chiqadi.



#### **2-tajriba. O'simlik moyining turli erituvchilarda erishi.**

**Reaktivlar:** paxta moyi, etil efir, benzin, benzol, etil spirt.

Diametri 10 sm bo'lgan filtr qog'ozini olinadi va qalam yordamida diagonal chizib 4 ga bo'linib, har bir chorakda bir tomchidan paxta moyi tomiziladi va moyli dog' hosil qilinadi. Birinchi chorakdag'i dog' markaziga pipetkadan tomchilatib efir qo'shiladi. Ikkinci va uchinchi choraklardagi dog' markaziga pipetkalardan benzin va benzol tomiziladi. Uchala holatda ham erituvchilar uchib ketgandan so'ng kattalashgan halqalar chetiga moy joylashganini ko'ramiz. Efir, benzin va benzol yog'lar va moylar uchun yaxshi erituvchilar bo'lib, paxta moyni qog'ozdan ekstraksiya qiladi. To'rinchchi chorakdag'i dog' markaziga etil spirt pipetkadan tomchilatib

qo'shiladi. Bu holda spirit uchib ketgach, moyli dog' o'zgarishsiz qoladi, ya'ni moyning spirtda yomon erishini ko'rsatadi.

### **3-tajriba. Yog'larning Sovunlanishi.**

**Reaktivlar:** yog', 10% li NaOH ning to'yingan eritmasi.

Chinni kosachaga 2 ml paxta moy solib, ustiga NaOH eritmasidan 40 ml quyiladi va aralashtirib turib asbestoslangan to'r ustida vaqtiga vaqtiga bilan suv qo'shib to'liq gidrolizlanguncha aralashma qizdiriladi. Gidroliz jarayoni tamom bo'lganligini bilish uchun gidrolizatning bir tomchisi 1–2 ml suv ustiga tomizilganda, gidrolizat suvda batamom erisa, sovunlanish yakunlangan bo'ladi. Reaksiya yakunlangach aralashma sovutiladi va unga aralashtirib turib osh tuzining to'yingan eritmasidan 20 ml qo'shiladi. Hosil bo'lgan qattiq sovun eritma betiga qalqib chiqadi. Uni doka orasiga siqib yig'ib olinadi.

### **Mustaqil ta'lim uchun savol va mashqlar:**

1. Moy kislotaning izopropli efirining tuzilish formulasini yozing.
2. Yog'lar va moylar qaysi tarkibiy qismiga ko'ra bir-biridan farq qiladi?
3. Mumlar tarkibida qanaqa organik birikmalarning qoldiglari bor?
4. Yog'dan sovun olish reaksiyasi tenglamasini yozing, hosil bo'lgan mahsulotning kimyoviy nomi qanday?

## **♦ Laboratoriya ishi № 3.3**


### **Oksikislotalarning xossalari**

#### **Reja:**

1. Oksikislotalarning turlari va nomlanishi.
2. Aldegid - va ketokislotalarning ayrim vakillari.
3. Sut va vino kislotalar xossalariiga doir tajribalar.


### **1-tajriba. Sut kislotaning parchalanishi.**

**Reaktivlar:** sut kislota, konsentrangan sulfat kislota, fuksin sulfit kislota. Probirkaga 1 ml sut kislota va 2 ml konsentrangan sulfat kislota quyiladi.



Chumoli kislota o'z navbatida is gazi bilan suvgaga parchalanadi.


$\text{HCOOH} \rightarrow \text{CO} + \text{H}_2\text{O}$  ni yondirsa ko'kish alanga berib yonadi.




Probirkaning og'zi gaz chiqadigan nay o'rnatilgan tiqin bilan berkitiladi. So'ngra aralashma qaynaguncha ohista qizdiriladi. Bunda sut kislota parchalanib, sirka aldegid va chumoli kislota aralashmasi hosil bo'ladi. Sirka aldegid hosil bo'lganligini isbotlash uchun gaz chiqish nayining ikkinchi uchi fuksin sulfit kislota eritmasi solingan probirkaga tushirilganda eritma pushti-binafsha rangga bo'yaladi.

### 2-tajriba. Vino kislota tuzlarini olish.

**Reaktivlar:** vino kislota, o'yuvchi natriyning 5% li eritmasi, o'yuvchi kaliyning 5% li eritmasi. Probirkada 0,1 gr atrofidagi vino kislota 1 ml suvda eritiladi va unga tomchilatib, shisha tayoq-chani probirka devorlariga ishqalangan holda o'yuvchi kaliy eritmasidan qo'shiladi. Natijada vino kislotaning suvda yomon eriydigan kaliyli tuzi oq kristallari cho'kma holida hosil bo'ladi.




Shundan keyin olingan cho'kma erib ketguncha tomchilatib 1 ml o'yuvchi natriy eritmasi quyiladi. Natijada yaxshi eriydigan o'rta tuz (segnet tuzi) hosil bo'ladi.



Hosil qilingan segnet tuzi eritmasi keyingi tajribada ishlataladi.

### 3-tajriba. Feling suyuqligini hosil qilish.

**Reaktivlar:** segnet tuzi eritmasi, mis sulfatning 5% li eritmasi, o'yuvchi natriyning 10% li eritmasi.




Yuqoridagi tajribada olingan segnet tuzi eritmasiga aniq ishqoriy muhit hosil bo'lguncha ishqor eritmasidan, so'ngra tomchilatib mis kuporosi eritmasidan qo'shiladi. Bunda avval mis (II) gidrok-sidning havo rang cho'kmasi hosil bo'ladi, u probirka chayqa-

tilganda eriydi va feling suyuqligi deb ataladigan tiniq ko'k rangli eritma hosil bo'ladi. Feling suyuqligi oksidlovchi xossalarga ega bo'lib, qaytaruvchi moddalar (aldegidlar, glukoza, maltoza, va hokazo)ni aniqlash uchun ishlataladi.

#### **4-tajriba. Feling suyuqligini aldegidlarni aniqlashda qo'llanilishi.**

**Reaktivlar:** formalin, feling suyuqligi.

Probirkaga 1 ml feling suyuqligi va formalinning suyultirilgan eritmasidan 1 ml solib qizdiriladi. Bunda mis (I) oksidning qizil cho'kmasi hosil bo'ladi yoki mis metall holatiga qadar qaytarilib mis ko'zgu kuzatiladi.



#### **Mustaqil ta'lim uchun savol va mashqlar:**

1. Oksimoy kislota izomerlarini yozib, ularni nomlang.
2. Oksisirka kislotaning izopropil spirt va sırka kislota bilan o'zaro ta'sir reaksiyalari tenglamalarini yozib, hosil bo'lgan moddalarni nomlang.
3. Vino kislotani 1 mol hamda 2 mol NaOH bilan reaksiyasini tenglamasini yozing.
4. Pirouzum kislotani etil spirt bilan o'zaro ta'sir reaksiyasini yozing.
5. 1 mol limon kislota o'rta tuz hosil qilishi uchun necha mol NaOH bilan reaksiyaga kirishadi.

#### ♦ Laboratoriya ishi № 3.4


#### **Monosaxaridlarning xossalari**

##### **Reja:**

1. Monosaxaridlarning turlari.
2. Glukoza va fruktozaga xos sifat reaksiyalar.
3. Glukoza xossalarni o'rganishga doir tajribalar.

### **I-tajriba. Glukoza bilan kumush ko'zgu reaksiyasi.**


**Reaktivlar:** glukozaning 1% li eritmasi, kumush nitratning 1%li eritmasi, ammiakning 10% li eritmasi.



Kumush oksidning ammiakdagи eritmasi  $[\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]\text{OH}$  3.5-laboratoriya ishida bayon qilinganidek tayyorlanadi. So'ngra toza probirkaga shu eritmadan 1 ml quyiladi va unga 1 ml glukoza eritmasi qo'shiladi. Suyuqliklar aralashtiriladi va probirka 70–80°C gacha isitilgan suv hammomiga tushiriladi, 5–10 daqiqa o'tgach, probirka devorlarida kumush ko'zgu, ya'ni kumush metali ajraladi va oksidlanish mahsuloti glukon kislota hosil bo'ladi.

### **2-tajriba. Saxaridlarning va monosaxaridlarning mis (II) gidroksid bilan o'zaro ta'siri.**

**Reaktivlar:** glukozaning 1% li eritmasi, fruktozaning 1% li eritmasi, mis (II) sulfatning 5% li eritmasi, o'yuvchi natriyning 10% li eritmasi.



Ikkita probirka olib, ularning birinchisiga glukoza eritmasidan 3 ml, ikkinchisiga fruktoza eritmasidan 3 ml quyiladi va har ikkala probirkaga 1 ml dan suyultirilgan ishqor hamda 0,5 ml dan mis (II) sulfat eritmalari qo'shiladi. Bunda ajralib chiqadigan mis gidroksidning cho'kmasi chayqatilganda erib ketadi va saxarat hosil bo'ladi.


Probirkalardagi aralashmalar qizdirilganda, glukoza qo'shilgan birinchi probirkada Cu<sub>2</sub>O ning qizil cho'kmasi hosil bo'ladi.

Fruktoza (ikkinchi probirka) sovuqda glukoza kabi saxarat hosil qiladi. Ammo qizdirilganda Cu<sub>2</sub>O ning qizil cho'kmasi hosil bo'lmaydi, chunki unda oson oksidlanadigan aldegid guruhni yo'q.

### **3-tajriba. Glukozaning feling suyuqligi bilan reaksiysi.**

**Reaktivlar:** glukozaning 1%li eritmasi, feling suyuqligi.

Probirkada 1 ml dan feling-1 (mis sulfat eritmasi) va feling-2 (segnet tuzining ishqoriy eritmasi) eritmalari o'zaro aralashtiriladi va hosil bo'lgan suyuqlikga glukoza eritmasidan 1ml qo'shib qizdiriladi. Kamgina vaqt o'tgach, aralashmaning ko'k rangi o'zgarib, mis (I) oksidning qizil rangli cho'kmasi hosil bo'ladi.



Feling suyuqligida mis birikmalari erigan holatda bo'ladi. U mis (II) gidroksid o'mida islilatilganda reaksiya tez hamda to'liq amalga oshadi.

### **4-tajriba. Fruktozaga xos sifat reaksiya.**

**Reaktivlar:** glukozaning suvdagi 2% li eritmasi, fruktozaning suvdagi 2% li eritmasi, rezortsin, kontsentrlangan HC1.

Ikkita probirka olib, birinchisiga glukozaning 2% li eritmasidan 1ml, ikkinchisiga esa fruktoza eritmasidan taxminan shuncha miqdorda quyiladi. Har ikkala probirkaga yangi tayyorlangan Selivanov reaktivi (0,01 gr rezortsining 10 ml suv bilan 10 ml HC1 aralashmasidagi eritmasi) dan 2 ml dan qo'shiladi. Probir-

Kalardagi aralashmalar chayqatiladi, har ikkala probirkani ham qaynab turgan suv hammomida bir necha daqiqa davomida qizdiriladi. Bunda fruktozali eritma tezda och qizil rangga bo'yaladi, glukozali eritma esa biroz sarg'ayadi.

Tajriba bir xil sharoitda o'tkazilganda fruktozaga, glukozaga nisbatan oksimetil furfurolga 15–20 marta tezroq aylanadi. Oksimetil furfurol o'z navbatida rezortsin bilan kondensatlanish reaksiyasiga kirishadi va qizil rangli mahsulot hosil bo'ladi.

### 5-tajriba. Panov usulida fruktozani aniqlash.


**Reaktivlar:** fruktoza (5% li eritma), glukoza (5% li eritma) etil spirt, konsentrangan  $H_2SO_4$ ,  $\alpha$ -naftolning spirtdag'i 5% li eritmasi.

Probirkaga fruktozaning suvdagi 5% li eritmasidan 0,5–1 ml, etil spirt bilan kontsentrlangan  $H_2SO_4$ , ning 4:1 nisbatdagi aralashmasidan 5 ml va  $\alpha$ -naftolning spirtdag'i 5% li eritmasidan 3–4 tomchi solinadi. So'ngra aralashmali probirka qaynab turgan suv hammomida 2–3 daqiqa qizdiriladi.


Probirkadagi eritma binafsha rangga bo'yaladi.

Fruktoza eritmasi o'mida glukozaning suvdagi 2% li eritmasidan 0,5–1 ml olib, yuqoridagi tajriba takrorlanganda rang hosil bo'lmaydi.

Oksimetil furfurolning, glukozadan hosil bo'lishiga nisbatan fruktozadan hosil bo'lishi 15–20 marta tezroq ekanligi 4-tajribada bayon etildi. Oksimetilfurfurolning  $\alpha$ -naftol bilan ta'sirlashishi naijasida binafsha rangli mahsulot hosil bo'ladi.



D-glukoza



15-rasm.

D-fruktoza

*Glukoza va fruktozaning molekular modeli. Glukoza va fruktoza muhim monosaxaridlar hisoblanadi. Glukoza poligidroksialdegid, fruktoza esa poligidroksoketon hisoblanadi. Glukoza bilogik to‘qimalarda asosiy energristik manba hisoblanadi. Fruktoza esa meva va sabzavotlarda asosiy shakar hisoblanadi. Ikkala shakar ham bitta yoki bir nechta ferment uchun substrat hisoblanadi.*

***Mustaqil ta’lim uchun savol va mashqlar:***

1. *Glukozani fruktozadan qanday reaksiyalar yordamida farqlash mumkin?*
2. *Glukoza bilan sirka kislota ta’sirlashishi reaksiyasi tenglamasini yozing.*
3. *Glukoza halqasimon shaklda necha xil holatda uchraydi?*
4. *90 gr glukozaning bijg‘ishidan necha gramm etanol hosil bo‘ladi?*

♦ **Laboratoriya ishi № 3.5**

**Di- va polisaxaridlar xossalari**

***Reja:***

1. *Di- va polisaxaridlar haqida tushuncha.*
2. *Disaxaridlarning turlari.*
3. *Saxaroza va kraxmal ishtirokida boradigan reaksiyalarni o‘rganish.*

***1-tajriba. Saxarozaga xos sifat reaksiyalar.***

***Reaktivlar:*** saxarozaning suvdagi 5% li, natriy ishqorining 5% li, kobalt sulfatning 2% li, nikel sulfatning 2% li eritmalar.

Ikkita probirkaga saxarozaning suvdagi 5% li erimasidan 2 ml va NaOH 5% li erimasidan 1 ml dan quyiladi. So‘ngra probirkalarning birinchiiga kobalt sulfatning 2% li erimasidan bir necha tomchi qo‘shiladi. Bunda aralashma binafsha tusga bo‘yaladi.

Ikkinci probirkadagi aralashmaga nikel sulfatning 2% li erimasidan qo‘shilganda eritmada ko‘k rang paydo bo‘ladi. Saxaroza uchun xos bo‘lgan bu sifat reaksiyalar juda seziluvchan bo‘lib, eritmalarda va disaxaridlar (qandlar) aralashmasida saxarozani aniqlashda qo’llaniladi, chunki laktoza, maltoza va sillobioza bunday sifat reaksiyalarga kirishmaydi.

## **2-tajriba. Maltoza va laktozaning ammiak bilan o‘zaro reaksiyasi.**

**Reaktivlar:** maltoza va laktozaning suvdagi 5% li eritmalar, NH<sub>4</sub>OH 10% li eritmasi.

Ikkita probirkaga maltoza va laktoza eritmalaridan 1–2 ml dan solinadi. So‘ngra har qaysi probirkaga ammiakning 10% li eritmasidan 2 ml dan qo‘shiladi va aralashmali probirkalar suv hammomida 80–90°C da bir necha daqiqa qizdiriladi. Har ikkala probirkalardagi eritmalar qizil rangga bo‘yaladi.

## **3-tajriba. Laktozaga xos sifat reaksiya.**

**Reaktivlar:** laktozaning suvdagi 1% li, NH<sub>4</sub>OH 10% li, qo‘rg‘oshin atsetatning 1% li eritmalar.

Probirkaga laktozaning suvdagi 1% li eritmasidan 2–3 ml quyiladi va probirka 65–70°C li suv hammomida 4–5 daqiqa qizdiriladi. So‘ngra issiq eritmaga 1–2 tomchi ammiak eritmasidan va qo‘rg‘oshin atsetatning 1% li eritmasidan chayqatganda yo‘qolmaydigan qizil rang paydo bo‘lguncha tomchilatib qo‘shiladi. Ma’lum vaqt o‘tgandan keyin sarg‘ich-qizil rangli cho‘kma hosil bo‘ladi. Bu reaksiya boshqa disaxarid uglevodlar uchun xarakterli emas.

## **4-tajriba. Saxaratning olinishi.**

**Reaktivlar:** saxaroza, ohak suti.

Disaxaridlar ham monosaxaridlar kabi ayrim metallarning gidroksidlari va oksidlari bilan reaksiyaga kirishib, alkogolyatlar ko‘rinishidagi tuzsimon birikmalar – saxaratlarni hosil qiladi.

Probirkada 1 gr saxaroza 5 ml suvda eritiladi va unga chayqatib turgan holda yangi tayyorlangan ohak suti (kalsiy gidroksidning suvdagi 10–15% li suspenziyasi)dan tomchilatib qo‘shiladi. Qo‘shilayotgan dastlabki ohak suti tomchilarini eriydi va saxaroza bilan reaksiyaga kirishib, kalsiy saxarat hosil qiladi. Tiniq eritmaga chayqatilganda erimaydigan cho‘kma hosil bo‘lguncha ohak sutidan qo‘shilaveradi va eritma kuchli chayqatiladi. Cho‘kma filtrlash yo‘li bilan ajratib tashlanadi. Filtrlangan eritmada suvda yaxshi criydigan C<sub>12</sub>H<sub>22</sub>O<sub>11</sub>·3CaO·3H<sub>2</sub>O tarkibli kalsiy saxarat bo‘ladi.

Eritma qizdirilganda kalsiy saxarat cho‘kmaga tushadi. Sovitilganda esa cho‘kma yana erib ketadi. Hosil qilingan kalsiy saxaratning tiniq eritmasidan 2–3 ml olib, boshqa probirkaga

solinadi va unga pipetka orqali o'pkadan chiqayotgan havo puflanadi. Havo tarkibidagi  $\text{CO}_2$  saxarat tarkibidan saxarazoni siqib chiqaradi va saxaratdan ajralib chiqqan kalsiy ionlari suvda erimaydigan  $\text{CaCO}_3$  hosil qiladi. Natijada eritma loyqalanadi.

### **5-tajriba. Disaxaridlarning qaytaruvchanlik xossalari.**

**Reaktivlar:** saxaroza, laktoza va maltozaning 2% li eritmalari, kumush nitratning 1% li eritmasi, ammiakning 10% li eritmasi, o'yuvchi natriyning 10% li eritmasi, feling suyuqligi.

Uchta probirkaning biriga saxaroza eritmasidan 2 ml, ikkinchisiga laktoza eritmasidan 2 ml va uchinchisiga maltoza eritmasidan 2 ml solinadi. Har qaysi probirkaga 2 ml dan feling suyuqligi qo'shib, barcha probirkalar ichidagi aralashma qaynaguncha qizdiriladi. Bunda saxarozali probirkada mis qaytarilmaydi, chunki uning molekulasida bo'sh aldegid guruhi yo'q, qolgan ikkita probirkada mis (I) oksid cho'kmasi hosil bo'ladi, chunki laktoza va maltoza molekulalarida aldegid guruhi oksidlanib karboksil guruhga aylanadi, mis (II) gidroksid esa qaytariladi va mis (I) oksid hosil bo'ladi.

Disaxaridlarning qaytaruvchanlik xususiyatini kumush oksidning ammiakdagи eritmasi bilan ham tekshirib ko'rish mumkin. Saxaroza ishtirokida kumush ko'zgu reaksiyasi amalga oshmaydi.

### **6-tajriba. Kraxmalning xossalari.**

**Reaktivlar:** kraxmal, feling suyuqligi, yodning kaliy yodiddagi eritmasi.

Probirkaga 1 gr kraxmal solib, ustiga 5–6 ml suv quyiladi va aralashma qattiq chayqatiladi. Natijada «kraxmal suti» hosil bo'ladi va u 50 ml qaynab turgan suvgaga quyiladi. Bunda salgina tovlanadigan kraxmal kleystri hosil bo'ladi. Tayyorlangan eritma sovutiladi va u bilan tajribalar o'tkaziladi.

a) 1–2 ml kraxmal kleystri boshqa probirkaga solib, unga bir necha tomchi yod eritmasi tomiziladi. Bunda kraxmal uchun xos ko'k rang paydo bo'ladi. Eritma qizdirilsa, ko'k rang yo'qoladi, sovutilganda rang qayta paydo bo'ladi.

b) Probirkaga kraxmal kleystridan 1–2 ml solib, ustiga 2 ml feling suyuqligi qo'shiladi va aralashma qaynaguncha qizdiriladi.


Bunda eritmaning rangi o'zgarmaydi, ya'ni Cu<sub>2</sub>O qizil cho'kmasi hosil bo'lmaydi.

Kraxmal molekulasining juda uzun zanjirida bo'sh glukozid gidroksil guruhlari faqat zanjirning chekkalarida joylashgan, ya'ni ularning molekulasi dagi nisbiy miqdori juda kam. Shuning uchun kraxmal ishqoriy muhitda mis (II) gidroksidni qaytarmaydi.

### **7-tajriba. Kraxmalni kislotalar ta'sirida gidrolizlash.**

**Reaktivlar:** kraxmal kleystri, sulfat kislotaning 10% li eritmasi, o'yuvchi natriyning 10% li eritmasi, yodning kaliy yodiddagi eritmasi.

Kraxmal kleystridan 20 ml stakanga solinadi va ustiga 2 ml suyultirilgan sulfat kislota qo'shib aralashtiriladi, so'ngra 8–10 daqiqa qaynatiladi. Qaynatish davomida har ikki daqiqada alohida probirkalarga qaynayotgan eritmadan namunalar olib turiladi. Bu eritmalar ishqor bilan neytrallanadi va ularga yod eritmasidan bir necha tomchi tomiziladi. Bunda namunalarning yod bilan reaksiyasida rangning asta-sekin o'zgarishi kuzatiladi. Bu kraxmalning va birlamchi hosil bo'layotgan molekular og'irligi katta dekstrinlarning yana ham chuqurroq gidrolizlanishi va og'irligi ancha kichik yangi molekulalarning hosil bo'lishi natijasidir.



Eritma rangi yod ishtirokida o'zgarmay qolgach, stakandagi qolgan aralashma yana 2–3 daqiqa qaynatiladi. So'ngra sovutiladi va kalsiy karbonat kukunidan qo'shib neytrallanadi. Hosil bo'lgan cho'kma filtrlab ajratiladi.



Olingan tiniq eritma bilan monosaxaridlarga xos reaksiyalarni o'tkazishda foydalanish mumkin.

### **Mustaqil ta'llim uchun savol va mashqlar:**

1. Maltoza, laktoza, tarkibiga qanaqa monosaxaridlar kiradi?
2. Kraxmal va selluloza molekulalari tuzilishining fragmentini yozing.
3. Kraxmalni gidrolizlanish sxemasini yozing.
4. Kraxmalning ishlatalishi.

## ♦ Laboratoriya № 3.6

### Azot saqlovchi organik birikmalar. Aminlar.

**Reja:**

1. Azot saqlovchi organik birikmalarning turlari.
2. Alifatik va aromatik aminlar.
3. Aminlarning xossalalarini o'rganishga doir tajribalar.


#### **1-amaliy mashq.**

**Alifatik va aromatik aminlarning** gomologik qatori, ayrim vakillari izomerlarini yozish, ularni ratsional hamda IYUPAK nomenklaturasida nomlash, birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi aminlarga hamda diaminobirikmalarga doir ma'lumotlarni tahlil etish.

#### **1-tajriba. Anilin tuzlarini hosil qilish.**


**Reaktivlar:** anilin, konsentrangan xlorid kislota, sulfat kislota -ning 10% li eritmasi.

a) Probirkaga 2–3 tomchi anilin solib, ustiga 4–5 ml suv va bir necha tomchi konsentrangan xlorid kislota tomiziladi. Bunda anilinning xlorgidrat tuzi hosil bo'lishi tufayli erimaydigan qavatlar aralashib ketadi, ya'ni gomogen eritma hosil bo'лади:



Anilinning xlorgidrat tuzi suvda yaxshi eriydi.

b) Probirkaga 2–3 tomchi anilin va 1 ml suv solib aralashtiriladi va unga 1 ml sulfat kislota eritmasidan aralashtirib, probirka chayqatiladi. Bunda anilin sulfatning cho'kmasi hosil bo'лади:



Anilinning sulfat tuzi suvda qiyin eriydi.

#### **2-tajriba. Anilinning brom bilan o'zaro ta'siri.**

**Reaktivlar:** anilin, bromli suv.

Probirkaga 0,5 ml anilin va suv solib, emulsiya hosil bo'lguncha chayqatiladi va ustiga teng hajmda bromli suv qo'shiladi. Hosil bo'lgan tribromanilin moysimon suyuqlik tarzida ajraladi va qotadi:



2, 4, 6-tribromanilinning oson hosil bo'lishi orto- va para-holatlardagi vodorod atomlarining harakatchanligi bilan tushuntiriladi.

### **3-tajriba. Anilinni kaly bixromat bilan oksidlash.**

**Reaktivlar:** anilin, kaly bixromatning 10% li eritmasi, konsentrlangan sulfat kislota.

Chinni kosachaga 1 ml konsentrangan sulfat kislota solinadi va ustiga 5–6 tomchi anilin qo'shiladi. Bunda anilin sulfatning cho'kmasi hosil bo'ladi. Cho'kmaga 5–10 tomchi kaly bixromat eritmasi quyiladi va olingan massa shisha tayoqcha bilan aralashdiriladi. Natijada anilin oksidlanib, avval yashil rangga bo'yaladi, so'ngra ko'karadi va oxirida aralashma qora tusga kiradi. Hosil bo'lgan mahsulot bo'yoq bo'lib, «qora anilin» nomi bilan terilar va gazlamalarini bo'yash uchun ishlataladi.

### ***Mustaqil ta'lim uchun savol va mashqlar:***

1. Anilinning olinishi qanaqa kimyoviy tenglamalarga muvofiq keladi?
2. Anilin suvda va ishqorning suvdagi eritmasida erimaydi, ammo kislota ishtirokida suvda yaxshi erishi sababini tushuntiring.
3. Anilin bilan bromli suvni o'zaro ta'sirlashishidan qanaqa mahsulot hosil bo'ladi?
4. Anilindan diazo birikma hosil qilish reaksiyasi tenglamasini yozing.

## **♦ Laboratoriya ishi № 3.7**

### **Kislota amidlari**

#### **Reja:**

- 1 Kislotalarning amidlariga tavsif.
2. Peptid bog'lanish haqida tushuncha bering.
3. Mochevina misolida amidlar xossalalarini o'rGANISH.

#### **1-amaliy mashq.**

Karbon kislotalarning karboksil guruhidagi gidroksil guruhining amin guruhga almashinishi natijasida hosil bo'lgan birikmalar kislota amidlari deyiladi va quyidagi umumiy formula bilan ifodalanadi: **R-CONH<sub>2</sub>**.

Kislota amidlari juda kuchsiz ifodalangan asos va kislota xossalariiga ega.



Chumoli va sirkalari kislotalarning amidlari qanday reaksiyalar natijasida hosil bo'ladi, ularni gidrolizga duchor bo'lishi qanaqa

tenglamalarga muvofiq keladi. Karbonat kislotalaning to‘liq amidi – mochevina hosil bo‘lishi reaksiyasi tenglamasini yozing.

### **1-tajriba. Mochevinanining tuzilishini gidrolizlab aniqlash.**

**Reaktivlar:** mochevina, baritli suv, qizil lakmus qog‘oz.

Probirkada mochevinaning suvli eritmasiga baritli suv qo‘shib qaynatiladi. Natijada erimaydigan bariy karbonat cho‘kmasi hosil bo‘ladi va ammiak ajralib chiqadi. Ammiak hididan va qizil lakmus qog‘ozni ko‘karishidan bilib olinadi:



Kislota amidlari oson gidrolizga uchraydi. Ular ana shu xossalari bilan aminokislotalardan keskin farq qiladi. Aminokislotalarda aminoguruh radikal bilan mustahkam bog‘langan bo‘lib, gidrolizga uchramaydi.


### **2-tajriba. Mochevinanining qizdirilganda parchalanishi.**

**Reaktivlar:** mochevina, qizil lakmus qog‘oz, o‘yuvchi kaliyning 5% li eritmasi, mis (II) sulfatning 10% li eritmasi.

Quruq probirkaga 1 gr mochevina solib qizdiriladi. Bunda mochevina avval suyuqlanadi, so‘ngra parchalanib, ammiak ajralib chiqadi. Ma’lum vaqt o‘tgandan keyin qattiq oq modda holida biuret hosil bo‘ladi. Probirka sovutilgach, biuretga 1–2 ml suv quyiladi, so‘ngra qizdirib, biuret eritiladi va eritma boshqa probirkaga quyib olinadi.

Hosil qilingan eritmaga o‘yuvchi kaliyning 5% li eritmasidan 1 ml va mis (II) sulfat eritmasidan 1 ml qo‘shilsa, aralashma pushti-binafsha rangga bo‘yaladi.

Suyuqlanish temperaturasidan yuqori temperaturada qizdirilganda mochevina ammiak ajralib chiqishi bilan parchalanadi. 150–160°C haroratda ikki molekula mochevinadan bir molekula suv ajralib chiqadi va iliq suvda yaxshi eriydigan biuret hosil qiladi:



Biuret ishqoriy muhitdagi eritmada mis(II) tuzlari bilan kompleks birikma hosil qiladi.



**Mustaqil ta'lim uchun savol va mashqlar:**

1. Chumoli, sirka kislotalari amidlarining hosil bo'lishi bilan boradigan reaksiyalar tenglamalirini yozing.
2. Machevinaning xlorid hamda nitrit kislotalari bilan ta'sirlashishi reaksiyalarini tenglamalarini yozing.
3. Hajmi 44,8 l (n.sh.) bo'lgan ammiakdan mos keluvchi reaksiyalar yordamida qancha karbamid hosil qilinishi mumkin?
4. Qishloq xo'jaligida karbamid qanaqa maqsadda ishlatalidi?

♦ **Laboratoriya ishi № 3.8**

**Aminokislotalar va oqsillarga xos reaksiyalar**

**Reja:**


1. Aminokislotalar, ularning turlari, nomlanishi.
2. Aminokislotalardan polipeptidlarning hosil bo'lishi.
3. Aminokislotalarga va oqsillarga xos sifat reaksiyalar.

**1-tajriba. Aminokislotalarning ningidrin bilan reaksiyasi.**

**Reaktivlar:** glitsinning 0,1 %li eritmasi, ningidrinning 0,1 %li eritmasi.


Probirkaga glitsin ( $\alpha$ -aminosirka kislota) ning 0,1 %li eritmasidan 1 ml solib, ustiga 0,1 %li ningidrin eritmasidan bir necha tomchi qo'shiladi va yaxshilab aralashtiriladi. So'ngra aralashma qaynaguncha qizdirilsa, u avval pushti, so'ng qizil, va nihoyat, ko'k rangga bo'yaladi. Qo'yib biroz kutilsa, rangning intensivligi ortadi.

Bu reaksiyada  $\alpha$ -aminokislota ningidrin ta'sirida oksidlanib, ammiak, karbonat angidrid va aldegidga parchalanadi. Ningidrin esa qaytariladi va dastlabki ortiqcha olingan ningidrin ammiak molekulalari bilan kondensatlanadi. Natijada ko'k rangga bo'yagan murakkab tarkibli birikma hosil bo'ladi.



16-rasm.

*Aminokislota, alanining strukturasi va molekular modeli. Alanin ikki xil ko‘zguda ko‘rinish formulasiga ega: chap qo‘l (L) va o‘ng qo‘l (R) formalariga. Tabiatda uchraydigan barcha aminokislotalar chap qo‘l formasidagilardir.*



17-rasm.

Asparagin kislota bu 2 ta karboksil guruhga ega aminokislota. Uni fenilalaninga biriktirib, oddiy shakardan shirinroq bo‘lgan sun’iy shirin tam beruvchi modda (aspartame)ni olish mumkin.


**2-tajriba. Oltingugurt saqlovchi aminokislotalarga xos reaksiya.**

**Reaktivlar:** tuxum oqsilining 1% li eritmasi, o‘yuvchi natriyning 30% li eritmasi, qo‘rg‘oshin atsetatning 5% li eritmasi.

Probirkaga tuxum oqsilining 1% li eritmasidan 1ml solinadi va unga shuncha miqdorda o‘yuvchi natriy hamda bir tomchi qo‘rg‘oshin atsetat eritmasidan qo‘shiladi. Aralashma qizdirilsa, u avval qo‘ng‘ir rangga kiradi, so‘ngra esa qo‘rg‘oshin sulfidining qora cho‘kmasi hosil bo‘ladi.

Sistein, sistin, metionin kabi oltingugurt saqlovchi aminokislotalar ishqor ishtirokida qizdirilganda parchalanib, sulfid ionini ajratadi. Oltingugurt ioni esa natriy bilan natriy sulfidni, oxirgi

mahsulot esa qo'rg'oshin atsetat ta'sirida qora cho'kma qo'rg'oshin sulfidni hosil qiladi. Sodir bo'ladigan reaksiyalarni quyidagi tenglamalarda ifodalash mumkin.



### **3-tajriba. Oqsilni organik erituvchilar bilan cho'ktirish.**

**Reaktivlar:** tuxum oqsilining 1% li eritmasi, etil spirt, atseton.

Ikkita probirkaning har biriga tuxum oqsilining 1% li eritmasidan 1ml dan qo'shib, birinchi probirkaga 3–4 ml spirt, ikkinchisiga esa 3–4 ml atseton qo'shiladi. Bunda har ikkala probirkada ham loyqalanish kuzatiladi va so'ngra oqsil cho'kmasi hosil bo'ladi.

### **4-tajriba. Oqsilni konsentrangan mineral kislotalar bilan cho'ktirish.**

**Reaktivlar:** tuxum oqsilining 1% li eritmasi, konsentrangan nitrat kislota.

Probirkaga 1–2 ml konsentrangan nitrat kislota quyiladi va probirkani qiya holda ushlab, ehtiyyotlik bilan probirkaga devori bo'ylab pipetka yordamida teng hajmdagi tuxum oqsilining eritmasi quyiladi. Ikkala suyuqlik qatlami chegarasida yupqa parda ko'rinishida oqsil cho'kmasi hosil bo'ladi. Tajribani o'tkazishda konsentrangan sulfat yoki xlorid kislotalardan foydalanish mumkin.

Oqsil konsentrangan kislotalar ta'sirida denaturalizatsiyalanadi va degidratlanadi, kolloid zarrachalardagi zaryadning neytrallanishi oqibatida cho'kma hosil bo'ladi.

### **Mustaqil ta'lim uchun savol va mashqlar:**

1. Diaminomonokarbon, monoaminodikarbon kislotalarga misollar yozing.
2. Tarkibida fenil, indolil guruhlarini saqlovchi aminokislotalarga misollar yozing.

3. Tarkibida glitsin, alanin, serin va sistein aminokislotalari qoldiqlarini saqllovchi tetrapeptid formulasini yozing.
4. Metandan foydalanib, aminosirka kislotani sintez qiling. Bu jarayonda yana qanaqa moddalardan foydalaniladi.

#### ♦ Laboratoriya ishi № 3.9

### **Ikki asosli karbon kislotalar**


**Reja:**

1. Ikki asosli karbon kislotalarning gomologik qatorni, izomeriyasi, nomlanishi.
2. Ikki asosli karbon kislotalarni tabiatda uchrashi.
3. Oksalat kislota misolida ikki asosli karbon kislotalar xossalarini o'rghanish.

#### **1-tajriba. Oksalat kislota tuzlarini olish.**

**Reaktivlar:** natriy formiat, kalsiy xloridning 10% li eritmasi.

Probirkaga 1 gr natriy formiat solib, gaz alangasida qizdiriladi. Qizdirish natijasida natriy oksalat va vodorod hosil bo'ladi. Ajralib chiqayotgan vodorodni yondirib tekshiriladi. Reaksiya tamom bo'lgach, probirkadagi modda sovitiladi va hosil bo'lgan natriy oksalat 1–2 ml suvda eritiladi. So'ngra eritmaga kalsiy xlorid eritmasidan 1 ml qo'shiladi. Natijada kalsiy oksalatning oq cho'kmasi hosil bo'ladi:



Probirkadagi cho'kma sirka kislotada eriydi


#### **2-tajriba. Oksalat kislotaning parchalanishi.**

**Reaktivlar:** oksalat kislota, kons. sulfat kislota, ohakli suv.

Probirkaga 1 gr oksalat kislota va 2 ml kons. sulfat kislota solinadi. So'ngra probirka og'zi egilgan nay o'tkazilgan tijin bilan berkitiladi. Probirka qisqich yordamida shtativga o'rnatiladi va asta-sekin qizdiriladi. Natijada oksalat kislota parchalanib, karbonat

angidrid va chumoli kislota ajralib chiqadi. Chumoli kislota kons. Sulfat kislota ishtirokida o'z navbatida is gazi va suvgaga parchalanadi:

### 3-tajriba. Oksalat kislotaning oksidlanishi.





**Reaktivlar:** oksalat kislota, kaliy permanganatning 5% li eritmasi, sulfat kislotaning 10% li eritmasi, ohakli suv.

Probirkaga kaliy permanganat eritmasidan 2–3 ml, sulfat kislota eritmasidan 2 ml va oksalat kislotaning to'yingan eritmasidan 1 ml quyiladi. So'ngra probirkaning og'zi egilgan nay o'rnatilgan tiqin bilan berkitiladi va qisqich yordamida shtativga mahkamlanadi. Gaz chiqadigan nayning ikkinchi uchi ohakli suv quyilgan probirkaga tushiriladi. Probirkadagi aralashma ehtiyyotlik bilan qizdiriladi.

Bunda kaliy permanganatga xos binafsha rang yo'qoladi, oksalat kislota oksidlanib karbonat angidrid va suv hosil bo'ladi:  
 $\text{5HOOC-COOH} + 2\text{KMnO}_4 + 3\text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow 10\text{CO}_2 + 2\text{MnSO}_4 + \text{K}_2\text{SO}_4 + 8\text{H}_2\text{O}$ .

Karbonat angidrid hosil bo'lganligini ohakli suvning loyqalanishidan bilib olinadi:



18-rasm.

**Oksalat kislotasining molekular strukturasi. Kalsiy tuzlariga oksalat kislota mahsuloti va natriy yoki kalsiy tuzlari oksalat kislotasining asosini tashkil qiladi. Standart titrimetriyadan**

*foydalaniładi. Oksalat kislotasi bir qancha sanoat korxonalarida ishlataladi. Bu kislotadan keramika sanoatida, metallurgiya sanoatida, qog'oz sanoati va fotografiyada foydalaniładi.*

**Mustaqil ta'lif uchun savol va mashqlar:**

1. Etilmalon va xlorqahrabo kislotalarining tuzilish formulalarini yozing.
2. Etilendikarbon kislotaning bromli suv bilan o'zaro ta'sirlashish reaksiyasi tenglamasini yozing.
3. Qahrabo kislotaning 2 mol etil spirt bilan ta'sirlashish reaksiyasi tenglamasini yozing.
4. Qahrabo va glutar kislotalarining degidratlanish reaksiyalari tenglamalarini yozing.

#### ♦ Laboratoriya ishi № 3.10

#### Aromatik karbon kislotalar


**Reja:**

1. Aromatik karbon kislotalarga tushuncha berish, izomerlarini yozib ularni nomlash.
2. Benzoy va salitsil kislotalar xossalalarini o'rGANISH.

**1-tajriba: Benzoy kislotani toluolni oksidlاب olish.**

**Reaktivlar:** toluol, kaliy permanganatning 5% li eritmasi, sulfat kislotaning 10%li eritmasi.

Probirkaga 2 ml toluol, 2 ml kaliy permanganat eritmasidan va 1 ml sulfat kislota eritmasidan solib, aralashma chayqatib aralash-tiriladi va stakandagi qaynoq suvda qizdiriladi. Toluolning oksidlanishi tufayli kaliy permanganat rangsizlanadi. Eritma issiq holatda filtrlanadi va filtrat sovitiladi. Sovuq suvda benzoy kislota kam eriydi. Shu sababli benzoy kislota kristallari cho'kadi:




**2-tajriba: Benzoy kislotaning etil esirini hosil qilishi.**

**Reaktivlar:** benzoy kislota, etil spirt, kons. sulfat kislota.

Probirkaga 1 gr benzoy kislota, 3 ml etil spirt, 1 ml konsentr-langan sulfat kislota solib, 2–3 daqiqa davomida qizdiriladi va

qaynatiladi. Probirkadagi aralashma sovitiladi va 6–8 ml suv solingan boshqa probirkaga quyiladi. Bunda suv yuzasida o'ziga xos hidli moysimon etil benzoat efir qatlami hosil bo'ladi:



### **3-tajriba. Salitsil kislotaning temir (III) xlorid bilan reaksiyasi.**


**Reaktivlar:** salitsil kislotasining suvdagi to'yigan eritmasi, temir xloridning 1% li eritmasi.

Probirkaga salitsil kislotaning suvdagi eritmasidan 1–2 ml solinadi. Uning ustiga bir necha tomchi temir (III) xlorid eritmasi qo'shiladi. Natijada eritma binafsha rangga bo'yaladi. Bu reaksiyani salitsil kislota ( $\text{HOC}_6\text{H}_4 - \text{COOH}$ ) tarkibida fenol gidroksil guruhি borligini tasdiqlaydi.

### **4-tajriba. Atsetilsalitsil kislotani gidrolizlash.**


**Reaktivlar:** atsetilsalitsil kislota, temir (III) xloridning 1% li eritmasi. Probirkadagi 5 ml suvda 0,2–0,3 gr atsetilsalitsil kislota (aspirin) eritiladi va uning yarmi boshqa probirkaga solinadi. Birinchi probirkadagi eritmaga temir (III) xlorid eritmasidan bir necha tomchi qo'shilsa binafsha rang hosil bo'lmaydi, chunki aspirin tarkibida erkin fenol gidroksil guruh yo'q.

Ikkinci probirkadagi aspirin eritmasi 5 daqiqa qaynatiladi va sovitiladi. Unga bir necha tomchi temir (III) xlorid eritmasi qo'shiladi. Natijada eritma binafsha rangga bo'yaladi. Bu atsetilsalitsil kislotaning gidrolizlanganini va erkin fenol gidroksil guruh hosil bo'lganligini ko'rsatadi:



Atsetilsalitsil kislota murakkab efir bo'lganligi sababli, u suvdagi eritmada qaynatilganda oson gidrolizlanadi.

Temir (III) xlorid bilan o'tkazilgan reaksiya dorivor modda sifatida ishlatiladigan aspirininning tozaligini aniqlashda foydalaniladi.



19-rasm.

## *Aspirinning strukturasi va molekular modeli. Bundagi aspirinning signali prostaglandinlardan ekanligini bilish mumkin.*

### **Mustaqil ta'lif uchun savol va mashqlar:**

1. m – nitrobenzoy kislota, p-toluil kislota, antranil kislotalarning tuzilish formulalarini yozing.
2. Aromatik dikarbon kislotalardagi izomeriyani izohlang, ularning nomlanishi.
3. Ftal kislota bilan fosfor (V) oksid ta'sirlashishidan qanday moddalar hosil bo'ldi?
4. Aromatik karbon kislotalarning xalq xo'jaligida ishlatalishi.

### ♦ Laboratoriya ishi № 3.11

#### **Terpenlar**

##### **Reja:**

1. Terpenlar va terpenoidlarga tavsif, ularning sinflari.
2. Limonen, Pinen, Mentol, Kamfora, Bromkamfora haqida tushinchcha.
3. Skipidar va kamfora misolida terpenlar xossalariini o'rGANISH.

#### **1-amaliy mashq.**

Terpenlar orasida eng ahamiyatlisi siklik (monosiklik terpenlar) va ikkita qo'sh bog' saqlangan (lemonen) hamda ikkita sikel (bisiklik terpenlar) va bitta qo'sh bog' saqlangan (pinen) terpenlar formulalarini yozib o'rGANILADI.

#### **1-tajriba. Terpenlarning to'yinmaganligini isbotlash.**

**Reaktivlar:** skipidar, bromli suv.

Probirkaga 1 ml bromli suv va 0,5 ml skipidar solinadi va ular yaxshi chayqatiladi. Bunda skipidar tarkibidagi terpen molekulasingin qo'sh bog'ini uzilishi hisobiga bromning brikishi amalgamoshadi. Buning oqibatida sariq rangli bromli suv rangsizlanadi.

#### **2-tajriba. Terpenlarning oksidlari ularning to'yinmaganligini aniqlash.**

**Reaktivlar:** skipidar, kaliy permanganatning 0,1N eritmasi, suv (dist.)

Probirkaga kaliy permanganatning 0,1N eritmasidan 1 ml va 5 ml suv solinadi. Hosil qilingan pushti rangli eritmaga 1 ml skipidar solib yaxshilab chayqatiladi. Bunda skipidar tarkibidagi terpen


molekulasing qo'sh bog'ini oksidlanishi natijasida kaliy permanganatga xos rang yo'qoladi. Qo'shbog' tutuvchi uglevodo-rodлага kaliy permanganat eritmasi ta'sirida ikki atomli spirt hosil bo'ladi. Bu reaksiya rus kimyogari Vagner tomonidan birinchi marta o'rganilgani uchun Vagner reaksiyasi deb yuritiladi.

### **3-tajriba. Terpenlar ta'sirida kislород faolligining ortishi.**

**Reaktivlar:** skipidar, kaliy yodning 0,5N eritmasi, kraxmal kleystrining 0,5% li eritmasi.

Probirkaga kraxmal kleystrining 0,5% li eritmasidan 1 ml kaliy yodining 0,5N eritmasidan 1 ml va 1 ml skipidar solib, aralashma chayqatiladi. Bir necha sekunddan so'ng to'q binafsha rang hosil bo'ladi va bu rang asta sekin ko'k rangga o'tadi. Ko'k rang kaliy yodidning oksidlanishi natijasida erkin yod hosil bo'lganligini ko'rsatadi va u yod-kraxmalni ko'k ranga bo'yaydi.

Kaliy yodidning gidrolizlanishi, odatda, juda kam miqdorda amalga oshadi:



Hosil bo'layotgan vodorod yodid erkin yodgacha oksidlanganda esa kimyoviy muvozanat o'ng tamonga siljiyi va gidroliz sezilarli darajada amalga oshadi:



Reaksiyon aralashmada ozonning hosil bo'lishini quyidagicha tushuntiriladi.

Terpenlar tarkibidagi qo'sh bog' hisobiga havo kislороди bilan oksidlanib peroksidlar hosil bo'ladi. Peroksidlarning oson parchalanishi natijasida kislород aktiv modda ozonga aylanadi. Igna bargli o'rmonlar havosining o'pka kasali bilan og'rigan bemorlarga ijobiy ta'siri shu hodisa bilan tushuntiriladi. Efir moylarini dezinfeksiyalash maqsadida qo'llanishi ham terpenlar ta'sirida kislородning faollanishiga asoslangan. Aktiv kislородни (ozon holida) sifat jihatdan aniqlash uchun unga kaliy yodid qo'shilganda ajralgan yodning kraxmal bilan ta'siridan foydalanib aniqlanadi.

### ***Mustaqil ta'lim uchun savol va mashqlar:***

1. Terpenlar qanday klassifikatsiyalanadi?
2. Asiklik terpenlarga misollar yozing.

- Siklik terpenlarning sinflanishi.*
- Qaysi reaksiyalar yordamida benzolni skipidardan farqlash mumkin.*
- Geraniol va sitral formulalarini yozing.*

#### ♦ Laboratoriya ishi № 3.12

#### **Optik faollik va uni o'lichashga doir tajribalar**

**Reja:**

- Optik faollik qanday moddalarda mavjud?*
- Polyarimetrik yordamida solishtirma burish burchagini va eritilgan modda konsentratsiyasini aniqlash.*
- Kamforaning solishtirma burish burchagini aniqlash.*
- Saxarozaning gidrolizlanishini polyarimetrik usulda o'rGANISH va uni o'lichash.*

#### ❖ Optik faollik

Talabalarga qutblanmagan, qutblangan nur haqida, optik faollik qanday moddalarda mavjud, uning asosiy sababi molekulada asimmetrik uglerod atomining bo'lishi ekanligi, optik izomerlar (D, L), optik antipodlar, ratsemik aralashma to'g'risida tushuncha beriladi.

Olma kislotada uglerod atomlaridan bittasi, vino kislotada esa ikkala uglerod atomlari ham asimmetrik ekanligi tuzilish formulalar yordamida ko'rsatiladi.

Optik izomerlardan qaysilarida yorug'likning qutblanish tekisligini o'ngga (+) yoki chapga (-) buruvchi ekanligi haqida ma'lumot beriladi.

Moddalarning optik faolligini taqqoslash uchun solishtirma burish burchagi ( $\alpha$ )  $20^{\circ}\text{C}$  da quyosh spektrining D chizig'ida quyidagi formula(1) bo'yicha hisoblanadi:

$$[\alpha]D^{20} = \frac{\alpha \cdot 100}{l \cdot C}. \quad (1)$$

Moddaning konsentratsiyasi (C) 1 g/ml va qatlam uzunligi (l) 1 dm ga teng bo'lgan eritmaning burish burchagi solishtirma burish burchagi deyiladi. Solishtirma burish burchagining qiymati har modda uchun o'ziga xos o'zgarmas kattalikdir.

Moddaning solishtirma burish burchagi qutblangan nur to'l-qininin uzunligiga, temperaturaga va erituvchining tabiatiga eritmaning konsentratsiyasiga bog'liqdir.

Shuning uchun solishtirma buruvchanlikni o'lchashda qanday temperaturada va qaysi erituvchida olib borilganligini va nurni o'nga (+) yoki chapga (-) burishligini ko'rsatilishi kerak. Masalan, vino kislotaning  $[\alpha] D^{20} = +11,98^\circ$  (suvda).

Moddaning solishtirma burish burchagini o'lchashda optik faol bo'limgan erituvchilar, masalan, spirt, efir, xloroform, benzol, suv, atseton, shuningdek, spirt yoki atsetonning suv bilan aralashmalar, sirka kislota va boshqalar ishlataladi.

Polyarimetning tuzilishi va undan foydalanib optik faollikni o'lchash o'qituvchi tomonidan tushintiriladi. Optik faollikni aniqlab, ikki muhim muammoni yechish mumkin.

**Birinchisi:** moddaning haqiqiy ekanligi solishtirma burish burchagi qiymatidan foydalanib tasdiqlanadi (1-formula)

**Ikkinchisi:** namunani tarkibidagi optik faol moddaning konsentratsiyasini aniqlash mumkin (2-formula)

$$C = \frac{\alpha \cdot 100}{[\alpha] \cdot l}. \quad (2)$$

$C$  – Optik faol moddaning konsentratsiyasi gr/ml;

$\alpha$  – Optik faol modda eritmasining polyarimetorda aniqlangan burish burchagi;

$[\alpha]$  – Optik faol moddaning solishtirma burish burchagi;

$l$  – optik faol modda eritmasi solingan naychaning uzunligi, dm.

**1-tajriba. Kamforaning solishtirma burish burchagini aniqlash.**

**Reaktivlar:** kamforaning spirtdagi 0,1 gr/ml eritmasi.

Polyarimetr nayi kamforaning spirtdagi 0,1 gr/ml eritmasi bilan to'ldiriladi. Uni polyarimetrga joylashtiriladi va eritmanig optik faolligi, ya'ni qutblanish tekisligining burlishi burchagi  $\alpha$  o'chanadi.

Olingan ma'lumotlar asosida kamforaning solishtirma burish burchagi  $[\alpha]D^{20}$  quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$[\alpha]D^{20} = \frac{\alpha \cdot 100}{C \cdot l}$$

Bunda:

$\alpha$  — qutublanish tekisligining burilish burchagi (polyarimetr shkalasi bo'yicha);

$l$  — polyarimetr nayi uzunligi, dm;

$C$  — kamfora eritmasining konsentratsiyasi.

**2-tajriba.** Qand lavlagi tarkibidagi saxaroza miqdorini aniqlash.

**Reaktivlar:** qand lavlagi, distillangan suv.

Qand lavlagining kichkina bo'lagi qirg'ichdan o'tkaziladi va tarozida undan 50 gr tortim (namuna) olib quritish shkafida doimiy massagacha quritiladi va sig'imi 500 ml bo'lgan konusimon kolbag'a solinadi. Uning ustiga 100 ml distillangan suv quyib aralashtiriladi va 30 daqiqa qoldiriladi. Shundan so'ng aralashma filtrlanadi va filtrat bilan polyarimetr nayi to'ldiriladi. Nay polyarimetrd'a joylashtiriladi va eritmaning qutblangan nur tekisligini burish burchagi aniqlanadi. Eritmadagi saxaroza konsentratsiyasini aniqlashda (2) formuladan foydalanadi.

Konsentrasiyasining g/ml da ifodalanganligidan foydalanib lavlagi tarkibidagi saxaroza miqdori quyidagicha aniqlanadi:

1 ml filtratda  $\alpha$  gr;

100 ml filtratda  $X$  gr;

$X = 100\alpha$  gr.

(100- $\alpha$ ) gr saxaroza 50 gr namunada saqlanadi. Demak, 50 gr lavlagida — 100- $\alpha$  gr saxaroza, 100 gr —  $\beta$  gr saxaroza bor:

$$\beta = \frac{100 \cdot (\alpha \cdot 100)}{50} = 200 \cdot \alpha \text{ gr}(\%).$$

**Mustaqil ta'lif uchun savol va mashqlar:**

1. Qanday holatda modda tarkibidagi uglerod atomi asimmetrik bo'jadi?
2. Glukoza molekulasida nechta asimmetrik uglerod atomlari mavjud?
3. D va L sut kislotalar formulalarini yozing.
4. Optik faollikni aniqlashdan maqsad nima?

## Geterosiklik birikmalar

**Reja:**


1. Tabiatda geterosiklik birikmalarning uchrashi.
2. Besh va olti a'zoli geterosiklik birikmalar.
3. Furan, Pirrol, Tiofen, Piridin va indol misolida geterosiklik birikmalar xossalarini o'rGANISH.

**1-tajriba.** Furanning olinishi va unga xos sifat reaksiya.

**Reaktivlar:** sliz kislota kristallari, kons HC1, archa cho'pi.

Probirkaga 0,2–0,3 gr sliz kislota kristallaridan solib, parchalanishi boshlanguncha qizdiramiz va qizdirishni davom ettirgan holda ajralayotgan bug'ga konsentrlangan xlorid kislota bilan ho'llangan archa cho'pi bo'lagini tutamiz. Bunda cho'p furan bug'lari ta'sirida yashil rangga bo'yaladi.

Tajriba asosida quyidaga reaksiya yotadi. Sliz kislota qizdirilganda avval uch molekula suvni yo'qotib va dekarboksillanib siklik birikma pirosliz kislotasini hosil qiladi. U esa yana qizdirilganda dekarboksillanib furanni hosil qiladi. Furanning qaynash temperaturasi +32° C bo'lganligi sababli, reaksiya amalga oshayotgan sharoit haroratida qaynab bug'lanadi.




Probirkaga og'ziga xlorid kislota bilan ho'llangan archa cho'pi tutilganda ajralib chiqayotgan furan bug'lari uni yashil rangga bo'yaydi.

**2-tajriba.** Pirrolning olinishi va unga xos sifat reaksiya

**Reaktivlar:** sliz kislota kristallari, kons NH<sub>4</sub>OH, kons HC1, archa cho'pi.

Probirkaga 0,1–0,2 gr sliz kislota kristallaridan solib ustiga 0,5 ml konsentrlangan NH<sub>4</sub>OH eritmasi quyiladi va alanganda

probirkani chayqatib turgan holda undagi eritma qurib qolguncha qizdiriladi. Probirkadagi quruq qoldiq xona haroratiga qadar sovitiladi va ustiga yana 0,5 ml konsentrangan ammiak eritmasidan qo'shiladi va yana quruq qoldiq hosil bo'lguncha probirka qizdiriladi. Qizdirish davom etayotgan jarayonda pirrol bug'lari ajrala boshlaydi. Probirka og'zida, xlorid kislota bilan ho'llangan archa cho'pi tutilsa, cho'p sirti qizil rangga bo'yaladi. Tajriba asosini tashkil etuvchi kimyoviy jarayon quyidagi tenglamalarga muvofiq keladi.




### **3-tajriba. Piridinning eruvchanligi va uning asoslik xossasi.**

**Reaktivlar:** piridin, qizil lakkus qog'ozzi, temir uch xloridning 1% li eritmasi.

Probirkaga 5–6 tomchi piridin solib, ustiga 5–6 tomchi suv qo'shamiz. Bunda tiniq eritma hosil bo'ladi. Ustiga yana 5–10 tomchi suv qo'shilsa ham loyqa hosil bo'lmaydi. Bu piridinning suvda yaxshi erishini ko'rsatadi. Qizil lakkus qog'ozining uchini piridin eritmasiga botiramiz, natijada qog'oz kuchsiz ko'karadi. Demak, piridin kuchsiz asos xossasini namoyon etadi.

Piridinning suv bilan yaxshi aralashishiga quyidagi sabab bo'ladi. Piridin molekulasidagi azot atomining elektronlari halqaning elektron buluti bilan mustahkam bog'lanib turadi. Azot ana shu elektron juftlari hisobiga protonni biriktirib oladi va oqibatda asos hosil bo'ladi.



Piridin ishtirokidigi reaksiyalar mo'ili shkafda bajarilishi lozim, chunki u o'ziga xos qo'lansa hidli modda.

#### **4-tajriba. Antipirinning $\text{FeCl}_3$ bilan sifat reaksiyasi.**

**Reaktivlar:** antipirin,  $\text{FeCl}_3$  ning 1% li eritmasi.

Probirkaga antipirinning bir necha kristallaridan solib, ustiga 2–3 tomchi suv va 1–2 tomchi temir uch xloridining 1% li eritmasidan qo'shiladi. Eritmada barqaror intensiv qizil rang paydo bo'ladi. Antipirin tibbiyotda issiqlikni pasaytiruvchi va og'riqni qoldiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Antipirin suvdagi eritmalarda keton va yenol tautomer shakllarda uchraydi.  $\text{FeCl}_3$  ta'sirida muvozanat yenol shakli tamon siljiydi. Yenol shaklidagi antipirinni  $\text{FeCl}_3$  bilan ta'sirlashishidan intensiv qizil rang paydo bo'ladi.

#### **5-tajriba. Amidopirinning $\text{FeCl}_3$ bilan sifat reaksiyasi.**

**Reaktivlar:** amidopirin,  $\text{FeCl}_3$  ning 1% li eritmasi.


Probirkaga amidopirinning kristallaridan 2–3 dona solib, ustiga 3–4 tomchi distillangan suv va 1 tomchi 1% li  $\text{FeCl}_3$  eritmasidan qo'shiladi. Natijada eritma ko'kintir-binafsha rangga bo'yaladi. Ammo eritma vaqt o'tishi bilan rangsizlanadi. Temir uch xloridning eritmasidan bir necha tomchi qo'shilganda rang yana paydo bo'ladi va asta-sekin rangsizlana boradi. Amidopirinda pirazolon halqasida vodorod atomlari bo'limganligi sababli, antipirinda mavjud yenol tautomer shakliga o'ta olmaydi. Buning oqibatida amidopirin temir uch xlorid bilan barqaror rangli birikma hosil qilmaydi. Tezda o'chib ketadigan rang amino guruhning temir uch xlorid bilan oksidlanishi hisobiga yuzaga keladi. Amidopirin ham antipirin kabi tana haroratini pasaytiruvchi va og'riqni qoldiruvchi vosita sifatida tibbiyotda qo'llaniladi.

#### **6-tajriba. Mureksid reaksiyalari. (Urea kislotasiga sifat reaksiya)**

**Reaktivlar:** urea kislotasi (konsentrangan  $\text{HNO}_3$ ), 10% li  $\text{NH}_4\text{OH}$ , 10%li  $\text{NaOH}$ .

Urea kislotasidan skalpel uchida chinni kosachaga solib, ustiga 2–3 tomchi suv va 1–2 tomchi natriy gidroksidining 10% li eritmasidan qo'shib aralashtiriladi. Hosil bo'lgan natriy ureatga 1–2 tomchi konsentrangan nitrat kislotadan qo'shib, asta-sekin alanga ustiga qizdirib bug'latamiz. Eritma bug'lanib ketgach, qolgan quruq qoldiq qizara boshlaydi. Shundan so'ng qizdirishni to'xtatib, qizil dog' yoniga pipetka yordamida 1 tomchi ammiakning 10% li

eritmasidan tomiziladi. Ammiak eritmasi va qizg'ish qoldiqning bir-biriga tekkan chegarasida pushti-binafsha rang hosil qiladi. Urea kislotasi nitrat kislota bilan alloksantin hosil qiladi. Unga ammiak ta'sir ettinganda beqaror modda purpur kislotasining ammoniyli tuzi-mureksid hosil bo'ladi.



Mureksid

Mureksid reaksiyasi purin asoslari bo'lmish kofein, teobromin va boshqa alkaloidlarni sifat jihatdan aniqlashda ham ishlatiladi.

#### *Mustaqil ta'lim uchun savol va mashqlar:*

1. Besh va olti a'zoli bir geteroatom saqlagan geterosiklik birikmalarning formulalarini yozing.
2. Quyidagi birikmalar:  $\alpha$ -brom piridin, 3-etyl pirrol,  $\beta$ -piridinsulfokislota,  $\beta$ -metilpiridinning struktura formulalarini yozing.
3. Quyidagi reaksiyalarni tugallang va mahsulotlarni nomlang:  
a) pirrol+vodorod; b) nikotin kislota + ikkilamchi piropil spirit  
c) piridin+vodorod.

## IV. BIOLOGIK KIMYODAN LABORATORIYA ISHLARI

### ♦ Laboratoriya ishi № 4.1

#### Ayrim yog'da eruvchi vitaminlarga xos reaksiyalar

Vitaminlar haqidagi gipotezaning ta'rifi 1911-yilda Londonda ishlagan polyak olimi Kazimir Funk tomonidan berildi. U guruch kepagidan oz miqdorda berilganda ham beri-beri kasalligini davolash mumkinligini qayta aniqlab, undan kristall holatda toza modda ajratib olishga tuyassar bo'lган.

K. Funk shu ajratib olingan moddaning kimyoviy tarkibini o'rganib, uning tarkibida aminogruppa holatida azot elementi borligini aniqladi va bu moddaga hayot uchun zarur bo'lgan yangi bir kimyoviy birikma deb qarab, unga «vitamin» nomini berdi. «Vita» — lotinchada «hayot», «amine» tarkibida azot elementini tutuvchi funksional gruppa, ya'ni vitamin — «hayot amini» ma'nesini anglatadi.

Keyinchalik tarkibida aminograppasi va umuman azot elementi mutlaqo uchramaydigan ko'pgina vitaminlar ham aniqlangan, lekin Funk tomonidan berilgan bu nom fanda va turmushda shu qadar mustahkam moslashib qolganki, uni o'zgartirmasdan hamon qo'llanilib kelinmoqda.

Vitaminlarni birinchi marotaba aniqlashga katta hissa qo'shgan olimlar N.I. Lunin, K. Funk va Eykmanlardir. Keyinchalik esa bu sohada rus olimlaridan P.V. Pashutin, S.A. Sosin va amerikalik olim Gopkinslarning ham xizmatlari katta bo'lgan.

Hozirgi vaqtida 25 dan ortiq vitamin va vitaminlik xususiyatiga ega bo'lgan moddalar aniqlangan bo'lib, ularning ko'plari tabiiy oziqaviy mahsulotlardan va kimyoviy yo'l bilan hosil qilingandir.

Vitaminlar har xil kimyoviy tabiatli organik birikmalar bo'lib, ular odam va hayvon organizmining hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan jarayonlarda katta rol o'yndaydi. Ular, asosan, o'simliklar va mikroorganizmlarning hujayralarida sintezlanadi.

Hayvon organizmi ko'pchilik vitaminlarni tayyor holatda oziqaviy mahsulotlar bilan qabul qiladi, chunki ular hayvon organizmida deyarli sintezlanmaydi. Shuning uchun ham hayvon oziqasi to'la qiymatli bo'lib, organizmni har tomonlama, ya'ni organizm uchun kerakli bo'lgan moddalar (oqsillar, yog'lar, karbonsuvarlar, mineral tuzlar va suv kabi) bilan vitaminlarga bo'lgan talabni ham qondira olishi kerak.

Vitaminlar — tirik organizmda har xil biokimyoviy va fiziologik jarayonlar me'yorida o'tib turishini ta'minlaydigan moddalardir. Vitaminlar oz miqdorda bo'lishiga qaramasdan, moddalar almaschinuvi jarayoniga kuchli ta'sir etadigan biologik aktiv modda bo'lganligi sababli ularning nomi ko'pincha davolash xususiyatlari qarab va fiziologik ta'sirlariga qarab berilgan hamda ularni

lotin alisbosining ayrim harflari bilan belgilash qabul qilingan. Keyinchalik esa vitaminlarning kemyoviy tarkibi va tuzilishi aniqlangandan keyin ularning kemyoviy tarkibiga qarab ham nom berilgan. Masalan, B<sub>5</sub> vitamini nikotinamid, C vitamini askorbin kislota deb ataladi.

Vitaminlar o'zлari davolashlari mumkin bo'lgan kasallikkarning nomlariga «anti» qo'shimchasini qo'shish yo'li bilan ham nomlanadi. Bunday nomlar vitaminlarning quyidagi tasnifida berilgan. Vitaminlarning erituvchilarda erish xususiyatlari turlicha bo'lganligi sababli, ularning eruvchanligiga qarab quyidagi 2 guruhga bo'lib o'rganish qabul qilingan.

### ❖ **Yog'da eruvchi vitaminlar**

Ayrim yog'da eruvchi vitaminlardan vitamin A va Dlarga xos bo'lgan sifat reaksiyalarni ko'rib chiqamiz.

Vitamin A hayvon organizmida oziqa tarkibidagi alfa, betta va gamma karotinlar jigarda karotinaza fermenti ta'sirida hosil bo'ladi. Karotinlar beda, sabzi va oshqovoqda ko'p miqdorda bo'ladi. Hayvon mahsulotlaridan, sariyog'da, jigarda va tuxum sariq'ida uchraydi. Organizmda A vitaminining yetishmasligi natijasida moddalar almashinushi buziladi, hayvonlar o'sishdan orqada qoladi, ozadi, mahsuldarligi kamayadi. Hayvon terisi va ichki organlarining po'stlog'i yallig'lanadi. Natijada hayvonlarning yuqumli kasalliklarga chidamliligi kamayadi, kseroftalmiya yuz beradi.

D vitamini antiraxitik xususiyatlari vitamindir. Odam va hayvon organizmida D vitaminining yetishmovchiligi raxit kasalligini keltirib chiqaradi.

Yosh organizmlarda raxit kasalligining eng muhim belgisi suyaklarda kalsiy va fosfor tuzlarining kamayishi natijasida suyak hosil bo'lish jarayonining izdan chiqishiga olib keladi. Raxit bilan kasallangan hayvon suyaklari shu qadar yumshoq bo'ladiki, juda oson kesiladi va gavda og'irligi ta'sirida oyoqlar egilib qiyshiq bo'lib qoladi. Qovurg'alarning suyak-tog'ay chegarasida yug'onlashmalar vujudga keladi. Natijada ko'krak qafasi suyaklari va bosh suyaklar noto'g'ri o'sib, nomutanosib shaklga o'tadi.

D vitamini odatdag'i ovqat mahsulotlaridan sariyog' va tuxum sarig'ida ko'p bo'ladi. Bاليق yog'i D vitaminiga eng boydir. Raxit kasalligiga qarshi profilaktik jarayonlarda bاليق moyi keng ishlataladi.

Raxit bilan kasallangan hayvon organizmida oksidlanish jarayonlari sekinlashadi, ovqat hazm bo'lish jarayonlari buziladi, ishtaha yo'qoladi va natijada organizmining har xil kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyati pasayadi.

**1-tajriba. A vitamini (retinol)ga xos sifat reaksiyalari.**

**a) A vitaminining temir (III) xlorid tuzi bilan reaksiyasi.**

**Kerakli asboblar:** 1. Shtativ (probirkalari bilan). 2. Pepetkalar.

3. Nesterov asbobi (Komparator).

**Reaktivlar:** 1. O'simlik moyining xloroformdagi 10% li eritmasi. 2. Bاليق yog'inining xloroformdagi 10% li eritmasi. 3. Temir (III) xloridning 1% li eritmasi. 4. Konsentrangan sulfat kislotasi. 5. Surma (III) xlorid tuzining xloroformdagi eritmasi. 6. Chinni hovoncha. 7. Shisha varonka. 8. O'lchov silindri. 9. Aluminiy oksidi. 10. Sirka angidrid. 11. Ho'l va quruq pichan.

**Ishning bajarilishi:** ikkita probirka olib, biriga 1–2 ml bاليق yog'inining xloroformdagi 10% li eritmasidan va ikkinchisiga 1–2 ml o'simlik moyining xloroformdagi 10% li eritmasidan quyiladi. Ikkala probirkaga ham bir necha tomchidan temir xlorid tuzining 1% li eritmasidan tomiziladi. Probirkalardagi aralashma rangining o'zgarishi kuzatiladi. Tarkibida A vitamini bo'lgani och yashil rangga bo'yaladi.

**b) A vitamining sulfat kislotasi bilan reaksiyasi.**

**Kerakli asboblar va reaktivlar:** yuqoridagi tajribada berilgan.

**Ishning bajarilishi:** ikkita probirka olib, birinchisiga 2 ml bاليق yog'inining xloroformdagi 10% li eritmasi, ikkinchisiga o'simlik moyining 10% li xloroformdagi eritmasidan 2 ml quyiladi. Keyin ikkala probirkaga ham 1,5–2 ml dan konsentrangan sulfat kislotasidan solinadi. Tarkibida A vitamini bo'lgan probirkadagi aralashma oldin ko'k keyin binafsha va oxiri qizil-qo'ng'ir rangga bo'yaladi.

**c) A vitamining surma (III) xlorid bilan reaksiyasi.**

**Kerakli asbob va reaktivlar:** yuqoridagi tajribada berilgan.

**Ishning bajarilishi:** probirkaga bir necha ml baliq moyining xloroformdagi 10% li eritmasidan quyilib, ustiga 10 tomchi sirka aldegidining va 10 ml surma xloridning xloroformdagi eritmasidan quyiladi.

Agarda aralashmada A vitaminini bo'lsa, ko'k rangga bo'yalib, keyin rangsizlana boshlaydi. Agarda aralashmada karotin va boshqa pigmentlar bo'lsa, u ko'k yashil rangga bo'yaladi.

### **2-tajriba. Oziqa tarkibidagi karotin miqdorini Nesterov asbobi yordamida aniqlash.**

Karotinlar A vitaminning provitaminlaridir. Ular faqat o'simlik oraganizmlarida uchraydi. Karotinlarning uch turi ma'lum: alfa, betta va gamma karotinlar. Ularning tuzilishi hozirda to'la-to'kis o'rganilgan bo'lib, bir-biridan tarkibiga kiramagan halqalarning tabiatini va soni bilan farq qiladi. Shulardan eng muhim ahamiyatga ega bo'lgani betta-karotindan karatinaza fermenti ta'sirida 2 molekula A vitamin, alfa va gamma karotinlardan esa bir molekula A vitamin hosil bo'ladi.

**Kerakli asbob va reaktivlar:** nesterov asbobi, chinni hovoncha, shisha varonka, o'chov silindri, aluminiy oksidi, pichan, benzin yoki petroley efiri, paxta, natriy sulfat.

**Ishning bajarilishi:** 3 gr yanchilgan pichan olib, uni chinni hovonchada maydalangan shishalar yordamida yaxshilab eziladi. Shisha siniqlari pichanning maydalanishini osonlashtiradi. Silos tarkibidagi karotinni aniqlash uchun biroz suvsizlantiriladi, buning uchun 3–4 gr suvsiz natriy sulfat (glauber tuzi) tuzidan olinib, hovonchadagi aralashmaga qo'shiladi.

Yem, xashak va siloslар maydalanganda ularning tarkibidagi kislotalarni neytrallash uchun ozroq oziqa sodasi ham qo'shiladi.

Maydalangan pichan va shishalar birgalikda shisha voronkaga solinadi. Shisha voronkaga avval 2–2,5 sm qalinlikda (ozroq paxta qo'yib) adsorbent aluminiy oksididan ( $Al_2O_3$ ) solib presslanadi (zich bosiladi). Shu tariqa tayyorlangan voronka o'chov silindriga joylashtiriladi. Keyin voronka ichidagi maydalangan pichan aralashmasini usti qoplaguncha, oz-ozdan (5–10 ml) benzin yoki petroley efiridan quyiladi. Bu vaqtida adsorbentga eritmadiagi hamma rangli moddalar shimalib qolib, filtratga faqatgina karotinning

sariq rangli eritmasi tomchilab o'ta boshlaydi. O'lhash silidridagi eritmaning miqdori  $60\text{ ml}$  ga yetgunga qadar, varonkadagi aralashma benzin bilan yuviladi. Eritmaning oxirgi tomchilar rangsiz bo'lishi kerak.

Karotinning benzinli eritmadi miqdorini aniqlash uchun eritmaning rangi standart ampuladagi eritma rangi bilan solishtiladi. Buning uchun benzinli karotin eritmasini yaxshilab aralashtirib, boshqa probirkaga quyiladi. Eritma solingan probirkaga Nesterov asbobidagi shtativning bir teshigiga joylashtiriladi.

### **3-tajriba. D vitaminga xos bo'lgan sifat reaksiyaları.**

#### **a) D vitamining surma (III) xlorid bilan reaksiyasi.**

**Kerakli asboblar:** 1. Shtativ (probirkalari bilan). 2. Pipetkalar.

**Reaktivlar:** 1. Aniqlanayotgan yog'ning xloroformdagi 10% li eritmasi. 2. Yog'ning xloroformdagi eritmasi. 3. Surma (III) xloridning xloroformdagi to'yingan eritmasi, 4. Sirka angidrid. 5. Anilinning xlorid kislotali birikmasi (bu birikma 15 qism anilin va 1 qism konsentrangan xlorid kistota qo'shib tayyorlanadi).

**Ishning bajarilishi:** probirkaga 2–3 ml aniqlanayotgan yo'g'ning xloroformdagi 10% li eritmasidan quyilib, ustiga 10 tomchi sirka aigidridi va 10 ml surma (III) xloridning xloroformdagi to'yingan eritmasidan quyiladi. Agarda aralashmada D vitamini bo'lsa, aralashma sariq rangga bo'yaladi.

#### **b) D vitaminining brom bilan reaksiyasi.**

**Kerakli asbob va reaktivlar:** yuqoridagi tajribada berilgan.

**Ishning bajarilishi:** probirkaga 2–3 ml aniqlanayotgan yog'ning xloroformdagi eritmasidan va bromning xloroformdagi eritmasidan quyiladi. Agarda probirkadagi aralashmada D vitamini bo'lsa, aralashma pushti rangga bo'yaladi.

#### **c) D vitaminining anilin bilan reaksiyasi.**

**Kerakli asbob va reaktivlar:** yuqoridagi tajribada berilgan.

**Ishning bajarilishi:** probirkaga 1–2 ml aniqlanayotgan yog'ning xloroformdagi 10% li eritmasidan quyilib, ustiga teng miqdorda anilinning xlorid kislotali eritmasidan solinadi. Yaxshilab aralashtiriladi va doimo chayqatib turilib, qaynaguncha qizdiriladi. Agarda aralashmada D vitamini bo'lsa sariq rangli emulsiya oldin yashil, so'ngra qizil rangga bo'yaladi. 1–2 daqiqadan keyin

probirkadagi emulsiya ikki qavatga ajraladi. Aralashmaning ostki qismi ozroq bo'lsa-da A vitamini bo'lganligi sababli ochiq qizil rangga bo'yaladi. Biroz turgandan keyin rang o'zgarib qoraya boshlaydi.

### ***Mustaqil ta'lif uchun savol va mashqlar:***

1. Vitaminlar nima? Avitaminoz gipo- va gipervitaminminozni ta'riflang.
2. «Vitamin» atamasi qachon va kim tomonidan berilgan?
3. Provitaminlar nima? Misollar bilan ifodalang.
4. A vitamini. A vitaminining hayvon organizmida qanday belgilari bor? Rodopsin haqida fikr yuriting.
5. Avitaminoz D ning organizmdagi asosiy belgilari nimadan iborat?
6. Avitaminoz E ning kimyoviy tuzilishini yozing va uning organizmdagi o'ziga xos ta'siroti nimadan iborat?
7. Avitaminoz K da qonning ivish xususiyatining pasayishi nima bilan ifodalanadi?
8. D<sub>2</sub> va D<sub>3</sub> vitaminlari organizmda nimadan sintezlanadi?
9. Yo'g'da eriydigan vitaminlarning kimyoviy tuzilishini yozing.

### **♦ Laboratoriya ishi № 4.2**


#### **Ayrim suvda eruvchi vitaminlarga xos reaksiyalar**

Suvda eruvchi vitaminlardan C ga xos bo'lgan sifat reaksiyalarni ko'rib chiqamiz.



C vitamini kimyoviy tuzilishi jihatidan L-askorbat kislota deb ataladi. U suvda juda oson eriydigan oq kristall birikmadir. C vitaminining fiziologik ahamiyati, uning organizmda oksidlanish va qaytarilish jarayonlarida aktiv qatnashishidan iborat.

C vitamini organizmda yetishmaganda singa kasalligi yuzaga keladi. Singa kasalligiga chalingan organizmlarda umumiy darmonsizlik, yurakning tez-tez urib turishi, hansirash, qon tomirlari devorlarining shikastlanishi, milklarning qonashi, suyaklarning kuchsizlanib sinishi, tish suyaklarining yemirilishi va tishlarning qimirlab tushib ketishi kuzatiladi.

C vitaminining asosiy manbalari o'simliklardir. Qalampir, xren, qora smarodina, karam, na'matak, qarag'ay kabilar askorbat kislotaga boydir.



L-askorbat kislota



L-degidroaskorbat kislota

Insonning C vitaminiga bo'lgan ehtiyoji sutkasiga o'rtacha 50–100 mg ga to'g'ri keladi. Homiladorlik, emiziklik davrida (laktatsiya), shuningdek, yuqumli kasalliklarda (xususan, silda) organizmning C vitaminiga bo'lgan ehtiyoji ortadi.

Askorbat kislotasiga xos oksidlanish va qaytarilish reaksiyalaridan uning sifat reaksiyalarini va miqdorini aniqlashda foydalaniлади.

### ***1-tajriba. C vitaminiga xos sifat reaksiyalari.***

a) C vitaminininining qizil qon tuzi va temir xlorid tuzi bilan reaksiyasi.

***Kerakli asboblar:*** 1. Shtativ (probirkalari bilan). 2. Pipetkalar.

***Reaktivlar:*** qizil qon tuzining 45% li eritmasi. 2. Temir xlorid tuzining 1% li eritmasi. 3. Tarkibida C vitamini bo'lgan biror xil eritma. 4. Xlorid kislotasining 10%li eritmasi. 5. Vodorod peroksidning 3%li eritmasi. 6. 2,6-dixlorfenolindofenolning natriyili tuzining 0,001N eritmasi.


***Ishning bajarilishi:*** ikkkta probirka olib, birinchisiga 2–3 ml tarkibida C vitamini bo'lgan eritma (pomidor, limon, karam suvi va h.k.) solinadi. Ikkinci probirkaga deyarli shuncha miqdorda distillangan suv quyiladi. Ikkala probirkaga bir necha tomchidan qizil qon tuzining 45% li eritmasidan va bir necha tomchidan temir xlorid tuzi eritmasidan tomziladi.

Agarda aralashmada C vitamini bo'lsa, aralashma oldin ko'k rangga bo'ylib, keyin berlin lazurining qoramtilar ko'k rangli cho'kmasi hosil bo'ladi.

Ikkinchisi probirkadagi eritma qo'ng'ir rangga bo'ylib.

b) C vitaminining 2,6-dixlorfenolindofenolning natriyili tuzi bilan reaksiyası.

Bu reaksiya askorbat kislota bilan 2,6-dixlorfenolindofenol rangli birikma o'rtaqidagi oksidlanish reaksiyasiga asoslangan.



Degidroaskorbat kislota

**Ishning bajarilishi.** Ikkita probirka olib, aniqlanishi kerak bo'lgan (C vitamini tutuvchi) eritmada 2 ml dan quyiladi. Probirkalarning biriga aralashmadagi C vitaminni parchalash uchun unga bir necha tomchi vodorod peroksid tomizilib qaynatiladi. Keyin ikkala probirkadagi aralashmalar ustiga 2 tomchidan xlorid kislotasining 10% li eritmasidan va 1 tomchidan 2,6-dixlorfenolindofenolning natriyili tuzidan tomiziladi.

C vitamini bo'lgan probirkada aralashma rangsizlanadi. Probirkadagi aralashmaga yana biron indikatoridan tomizilsa, aralashma pushti rangga bo'ylib, chunki aralashmada hamma askorbat kislota oksidlangan, indikator boshqa qaytarilmaydi.

C vitamini parchalangan probirkadagi eritma esa rangsizlanmaydi, hattoki bir ikki tomchi indikator tomizilishi bilan aralashma gulobi rangga bo'ylib.

### **2-tajriba. Riboflavinning qaytarilish reaksiyası.**

Riboflavinni B<sub>2</sub> vitamini ham deb yuritiladi. Organizmda o'sish va rivojlanishga ta'sir etadigan biologik aktiv modda. B<sub>2</sub> vitamini

yetishmasligi hayvon organizmida jun to'kilishiga va ko'z kasalligiga olib keladi. Ko'z olmasi yallig'lanib, toladigan bo'lib qoladi. Shox pardada o'zgarishlar bo'la boshlaydi. Riboflavin tabiiy pigment bo'lib, sarg'ish yashil flyuoreyesensiyaga ega. Suvda yaxshi eriydi. Uning siklik strukturasida biaologik aktiv xususiyatni hosil qiluvchi qo'sh bog'lar mavjud. Shu qo'sh bog'lar bor joyiga vodorod biriktirib olib, osongina leykobirikmaga aylanadi.

Shu leykobirikma tegishli sharotlarda vodorodini berib yana rangli birikmaga aylanadi. Shu xususiyati uning oksidlanish-qaytarilsh jarayolarida ishtirok etishi mumkin ekanligidan dalolat beradi.

Quyidagi reaksiya riboflavinning qaytarilib leykoflavin holatiga o'tishi va qaytadan vodorodini havo kislorodiga berib o'z holatiga, ya'ni rangiga o'tishiga asoslangandir.

**Kerakli asboblar:** 1. Shtativ (probirkalari bilan). 2. Pipetkalar.

**Reaktivlar:** 1. Riboflavinning 0,0025% li eritmasi. 2. Konsentrlangan xlorid kislota. 3. Rux bo'lakchalari.

**Ishning bajarilishi:** probirkaga 10 tomchi riboflavinning 0,0025% li eritmasidan solinib ustiga 5 tomchi konsentrlangan xlorid kislotasidan tomiziladi. Aralashma ustiga ruxning mayda bo'lakchasi tashlanadi. Bu vaqtda reaksiya ketib, pufakchalar holatida vodorod ajralib chiqsa boshlaydi, aralashma oldin astasekinlik bilan pushti ranga bo'yalib, keyin esa rangsizlana boshlaydi. Probirkadagi aralashmani ikkinchi probirkaga quyib, qolgan ruxni ajratib olib probirkadagi aralashma chayqatilsa, eritma qaytadan sarg'ish rangga o'ta boshlaydi.

**Mustaqil ta'llim uchun savol va mashqlar:**

1. Vitamin  $B_1$ ,  $B_2$ ,  $B_6$  nima? PP va H biotinlarning tuzilish formulalarini yozing.
2.  $B_1$ ,  $B_2$  va RR vitaminlari qaysi fermentlarning tarkibiga kiradi?
3.  $B_1$ ,  $B_2$ ,  $B_6$  va PP vitaminlarining biokimyoiy funksiyalarini tushuntiring.
4. Avitaminozlar nima. Misollar keltiring.
5. C vitaminining kimyoiy tuzilishi formulasini yozing va uning organizmdagi biokimyoiy funksiyasini tushuntiring.

## Fermentlarning xossalari. Fermentlarning o‘ziga xosligi

Fermentlar tirik hujayralar tomonidan ishlab chiqarilib, shu organizmda o‘tadigan barcha kimyoviy jarayonlarni tezlashtirishda ishtirok etadigan maxsus oqsil moddalar, biologik katalizatorlar deb ataladi. Fermentlar barcha tirik organizm hujayralari, to‘qimalari va suyuqliklari tarkibida uchraydi.

Fermentlar, ya’ni biologik katalizatorlar oddiy katalizatorlarga o‘xshashdir, lekin ular ishtirok etadigan reaksiyalarning xususiyatiga qarab bir-birlaridan farq qiladi. Oddiy katalizatorlar o‘tayotgan kimyoviy reaksiyalarni tezlashtirishda ishtirok etsa, fermentlar faqatgina o‘zlari ishtirok etganda yuzaga keladigan kimyoviy reaksiyalarni tezlashtiradilar.

Tirik organizmda o‘tadigan biokimyoviy jarayonlarning tezligi organizm yashovchanligining asosiy belgilardan biri hisoblanadi. Oddiy sharoitda deyarli o‘zgarmaydigan yoki o‘zgartirish, ya’ni tarkibiy qismlarga parchalash uchun kuchli kislotalar yoki ishqorlar ta’sirida 110–120°C haroratda 20–24 soatlab qizdirish kerak bo‘ladigan oqsil, yog‘ va uglevodlar oziqa bilan hayvon organizmiga o‘tganda tezda o‘zgaruvchan holatga o‘tib, parchalanib ketadi. Oziqaviy mahsulotlarning hayvon organizmida oddiy sharoitda 37–40°C da kuchsiz ishqoriy yoki kislotali muhitda juda qisqa muddatda tarkibiy qismlarga parchalanib ketishi, ya’ni organizmdagi oksidlanish jarayonlari uzoq yillardan buyon olimlarning diqqatini o‘ziga jalb qilib keldi. Tekshirishlar natijasida bu jarayonlarda qandaydir kimyoviy reaksiyalarni katalizlaydigan moddalar, katalizatorlar yoki biologik katalizatorlar ishtirok etishi shart degan fikrlar paydo bo‘ldi.

Keyinchalik esa haqiqatda ham ularni parchalashda ishtirok etadigan spetsifik (maxsus) oqsil tabiatli moddalar bor ekanligi aniqlanib, ular ferment (enzim) deb atalgan. Umuman «ferment» degan nom lotinchada «fermentatio» bijg‘ish, ya’ni gaz ajratib chiqish bilan bo‘ladigan jarayon degan ma’noni anglatadi.

Tirik organizmda kimyoviy reaksiyalarning o'tishida fermentlarning naqadar katta rol o'ynashini rus olimi I.P. Pavlov quyidagicha ta'riflagan: «Ferment – barcha tirik mavjudotlar tarkibida o'tadigan kimyoviy reaksiyalarning qo'zg'atuvchisidir». Umuman fermentlar haqidagi ta'lilot XIX asrning boshlarida paydo bo'la boshlagan, 1914-yilda K.S. Kirxgof yangi unib chiqayotgan arpa yoki bug'doy maysalarining shirasi kraxmalni parchalab, maltoza hosil qilishi mumkinligini aniqlab, kraxmal faqatgina hujayralar ichida emas, balki tashqi muhitda ham parchalanishi mumkinligini isbotlab bergen. Shiradan ajratib olingan moddaga esa amilaza deb nom bergen. 1933-yilga kelib Payon va Perso ismlar shu shira tarkibida diastaza fermenti ham bor ekanligini aniqladilar.

*1926-yilda Dj. Samner birinchi bo'lib loviya urug'inining tarkibidan ureaza fermentini kristall holatda ajratib oldi. 1931–1932-yillarda esa Nortrop va Kunits bir qancha boshqa fermentlarni, jumladan pepsin fermentini kristall holatida ajratib olishga tuyassar bo'lganlar. Hozirgi vaqtida esa juda ko'p fermentlar kristall holatda ajratib olinib, ularning ko'pchiligining aminokislota tarkiblari ham belgilab berilgan.*

*Fermentlarning kimyoviy tabiatini haqida XX asrning boshlariga qadar deyarli ma'lumotlar bo'lmagan. Hattoki, 1926–1930-yillarda Vilshetter, J. Samner, D. Nortrop kabi olimlar fermentlarni kristall holatda ajratib olganlarida ham ularning kimyoviy tabiatini haqida to'liq tasavvurga ega bo'lmaganlar. Bu sohani o'rganish bo'yicha keyingi 40–50 yil ichida katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Fermentlarning kimyoviy tabiatini haqidagi dastlabki fikr Paster achish fermentlarini qaynatganida ularning aktivligi mutlaqo yo'qolganidan keyingina paydo bo'lgan, ya'ni fermentlar oqsillarga o'xshash moddalar ekan deb qaralgan. Chunki oqsilli moddalargina qaynatilganda denaturatsiyaga uchrab, o'z biologik xususiyatini o'zgartirish xossasiga ega.*


Keyinchalik, kristall holatda ajratib olingan fermentlar hidrolyzlanganda aminokislotalar hosil bo'lganligi aniqlanganidan keyin ular haqiqatda ham oqsil tabiatli moddalar ekanligi haqida to'liq ma'lumot paydo bo'lgan.

I.P. Pavlov laboratoriyasida me'da shirasining tarkibiy qismlari sinchiklab o'rganilganda, undagi pepsin va boshqa fermentlarning oqsil moddalar ekanligi aniqlab berilgan.

*Masalan, Lui Paster qaynatish natijasida bijg'ishning sodir bo'lmasligini kuzatgan. Bu esa fermentlarning oqsil tarkibli ekanligidan dalolat bergen, chunki fermentlar ham boshqa oqsillar singari denaturatsiyalanadi (tabiiy holatini yo'qotadi).*

Barcha fermentlar turli fizik va kimyoviy omillar (ultrabinafsha nurlar, ultratovushlar, mineral yoki ayrim organik kislotalar, ishqorlar, og'ir metallar tuzlari kabilar) ta'sirida oqsillar singari denaturatsiyalanadi. Fermentlar ham gidrolizlanganda oqsillar singari aminokislotalar hosil bo'ladi va bular hammasi fermentlarning oqsillardan iborat ekanligini tasdiqlay boshlagan. Fermentlarning aniq oqsil tarkibli ekanligini isbotlovchi dalillardan biri ularni sof (kristall) holda ajratib olishdir. Hozirgi paytda 2000 dan ko'proq ferment aniqlangan bo'lib, ularning 200 dan ko'prog'i toza kristall holda ajratib olingan.

*Ko'plab fermentlar uchun reaksiya ketishining umumiy mexanizmi:*



*Bu mexanizmda, ya'ni Mixaelis-Menton mezanizmida E-ferment S-substrat bilan qaytar ta'sirlashib, ferment-substrant (E-S) kompleksini hosil qiladi. Bu kompleks qaytmas reaksiya larga kirishib mahsulotni va regeneratsiyalangan fermentni hosil qiladi.*

*Fermentning aktivligi fermentning katalizator sifatida aktivligini namoyon etadi. Aktivlik oqsilning uchlamchi formasi bilan bevosita bog'liq. Substrat oqsilning aktivlashgan qismi bilan ta'sirlashadi. Fermentning spetsifik ko'rsatkichi fermentning aktivlashgan qismi bilan bog'liq. Aktivlashgan markazning stexiometrik formasi katalizatorning spetsifikligini aniqlab beradi.*

*Klinik kimyoda, misol uchun, ponkreatit kasalligida zardob-dagi lipaza miqdorini o'lchash orqali tashxis qo'yiladi. Lipaza uzun zanjirli yog' kislota-triglitseridni gidrolizlaydi. Reaksiya*

*natijsasida mavjud bo‘lgan triglitseridning har bir molidan ikki mol yog‘ kislota va bir mol b-monoglitserid erkin holda ajraladi. Reaksiya ma’lum vaqt davomida boradi va so‘ngra erkin holda ajralgan yog‘ kislota fenolftalein indikatori yoki pH metr yordamida NaOH bilan titrlanadi. Keltirilgan vaqtda ajralgan yog‘ kislota miqdori lipaza faolligiga bog‘liq bo‘ladi.*

#### ♦ Laboratoriya ishi № 4.4

### Fermentlar faoliyatiga harorat, muhit, pH ning ta’siri

#### **1-tajriba. Fermentlarning aktivligiga haroratning ta’siri.**

Umuman, kimyoviy reaksiyalarda haroratning ko‘tarilishi, reaksiyaning tezlashishiga olib keladi. Lekin fermentlar maxsus oqsil moddalar bo‘lganligi sababli yuqori haroratga chidamsiz bo‘lib, denaturatsiyalanishi mumkin. Shuning uchun, fermentlar ishtirokida bo‘ladigan reaksiyalarda haroratning ko‘tarilishida avval kimyoviy reaksiya tezligi oshadi, keyin esa tezda pasayadi. Ko‘pchilik fermentlar 36–40°C da maksimal aktiv bo‘lib, ularning aktivligi 50°C ga qadar ortib boradi va 80–100°C da aktivligini yo‘qotadi, ya’ni denaturatsiyaga uchraydi.

Fermentlarning haroratga nisbatan juda sezgirligi anorganik katalizatorlardan farq qiladigan asosiy xususiyatidir. 0°C da fermentlarning aktivligi minimal bo‘ladi.

**Kerakli asboblar:** 1. Shtativ (probirkalari bilan). 2. Muz solingan stakan. 3. Suv hammomi va stakan. 4. Termometr.

**Reaktivlar:** 1. Suyultirilgan so‘lak. 2. Yodning kaliy yoddagi eritmasi. 3. 0,3% li natriy xlorid eritmasida tayyorlangan, kraxmalning 1% li eritmasi. Suyultirilgan so‘lak eritmasini tayyorlash quyidagicha: og‘iz oldin distillangan suv bilan chayiladi, keyin og‘izga 20–25 ml distillangan suv olib, bir necha daqiqa davomida saqlanadi va uni filtrlab tozalab olinadi.

**Ishning bajarilishi:** to‘rtta probirka olib, har biriga 5 ml dan kraxmal eritmasidan quyiladi va 1, 2 va 3-probirkalarga 7–3 ml dan suyultirilgan so‘lak eritmasidan solinadi. To‘rtinchchi probirkaga

2–3 ml oldindan qaynatilgan so'lak eritmasidan qo'shiladi. Probirkadagi aralashma yaxshilab chayqatilib, birinchi probirkani muzli stakanga joylashtirilib, ikkinchisini xona haroratida qoldirilib, uchinchi va to'rtinchi probirkalarni 36–40°C li suv hammomiga joylashtiriladi.

10 daqiqadan keyin suv hammomidagi probirkalar sovutilib, hamma probirkalarga yod eritmasidan 1–2 tomchidan tomiziladi.

Bu vaqtida birinchi probirkadagi aralashma ko'k rangga, ikkinchisidagi binafsha yoki qizg'ish qo'ng'ir, uchinchisidagi sariq va to'rtinchi probirkadagi aralashma esa ko'k rangga bo'yaladi.

Agarda birinchi probirkadagi aralashmani 36–40°C li suv hammomida 10 daqiqa saqlansa, kraxmalning gidrolizlanish hatijasida aralashmaning rangi o'zgaradi. Bu jarayon past temperaturaning ferment aktivligiga ta'sirini ko'rsatadi.

### **2-tajriba. Fermentlarning o'ziga xosligi.**

Fermentlar o'ziga xos ta'sirga ega. Har bir ferment ma'lum bir substratga (moddaga) yoki ma'lum bir kimyoviy bog'ga ta'sir ko'rsatadi. Fermentlar ta'sirining o'ziga xosligi ko'pincha shu bilan ham ifodalananadiki, moddalarning bir nechta izomerlaridan bittasiga ta'sir etish xususiyatiga ega bo'ladi.

**Kerakli asboblar:** 1. Shtativ (probirkalari bilan). 2. Suv hammomi va termometr. 3. Pipetkalar.

**Reaktivlar:** 1. Suyultirilgan so'lak. 2. Saxarozaning eritmasi. 3. Saxarozaning 2% li eritmasi. 4. Feling reaktivi. 5. 0,3% li natriy xlorid tuz eritmasida tayyorlangan kraxmalning 1% li eritmasi. 6. Lyugol (yod) eritmasi.

**Ishning bajarilishi:** to'rtta probirkka olib, 1- va 3-probirkalarga 4–5 ml kraxmal eritmasidan quyiladi. 2- va 4- probirkalarga esa 4–5 ml saxarozaning 2% eritmasidan quyiladi. Keyin 1- va 2-probirkalarga 2 ml dan suyultirilgan so'lak eritmasidan, 3- va 4-probirkalarga esa saxarozaning eritmasidan 2 ml dan quyiladi.

Probirkadagi aralashmalar yaxshi chayqatilib 38°C li suv hammomiga joylashtiriladi. 20 daqiqadan keyin har bir probirkadagi aralashma ikki probirkaga bo'linadi va ulardan biri bilan feling reaksiyasi o'tkaziladi, ikkinchisiga esa yod ta'sir ettiriladi.

To'plangan ma'lumotlar quyidagi jadvalga belgilanadi:

| Probirka nomeri | Substrat | Ferment | Feling reaktivи | Yod bilan reaksiya |
|-----------------|----------|---------|-----------------|--------------------|
|                 |          |         |                 |                    |
|                 |          |         |                 |                    |
|                 |          |         |                 |                    |
|                 |          |         |                 |                    |

***Mustaqil ta'lif uchun savol va mashqlar:***

1. Fermentlar nima?
2. Fermentlarning kimyoiy tabiatи. Ularning bir va ikki komponentli bo'lishi nimaga asoslangan?
3. Fermentlarning apofermenti, kofermenti va prostetik gruppasi nima?
4. Fermentlariнг umumiy xossalari nimadan iborat?
5. Profermentlar deb nimaga aytildi? Profermentni fermentga aylanishini misol bilan ko'rsating?

♦ Laboratoriya ishi № 4.5

**Fermentlarning aktivatorlari va paralizatorlari**

Fermentlarning aktivligiga harorat va muhitning pH idan tashqari, eritma tarkibidagi turli birikmalar ham katta ta'sir ko'rsatadi. Shu birikmalardan fermentlarning aktivligini orttiradigan moddalarga — aktivatorlar, susaytiradiganlariga esa — paralizatorlar deb ataladi. Bunday birikmalarning ta'siri ko'pincha o'ziga xos bo'ladi, ya'ni bitta fermentning aktivligini susaytiradigan modda boshqa ferment aktivligiga ta'sir qilmaydi yoki aksincha uning aktivligini kuchaytirishi ham mumkin.

Aktivatorlar fermentning maksimal aktivligini ta'minlovchi muhitning zaruriy qismi bo'lib hisoblanadi. Aktivatorlardan tozalangan yoki ajratilgan ferment o'z aktivligini yo'qotadi. Eritmaga aktivator moddadan qo'shilgandan keyingina, ferment o'z aktivligini tiklay oladi.

**1-tajriba. So'lak amilazasining aktivatori va paralizatori.**

**Kerakli asboblar:** 1. Shtativ probirkalari bilan. 2. Suv hamnomi va termometr. 3. Muzli stakan.

**Reaktivlar:** 1. Suyultirilgan so'lak. 2. Kraxmalning 1% li yangi tayyorlangan eritmasi. 3. Natriy xloridning 1%li eritmasi. 4. Mis sulfatning 1%li eritmasi. 5. Yodning kaliy yoddagi eritmasi.

**Ishning bajarilishi:** uchta probirkaga 1ml dan quyidagi eritmalaridan quyiladi: birinchi probirkaga suv, ikkinchisiga natriy xlorid eritmasidan, uchinchisiga — mis sulfat tuzi eritmasidan. Uchala probirkaga ham 2 ml dan kraxmal eritmasi va 1 ml dan suyultirilgan so'lak eritmasidan quyiladi. Hamma probirkalar shu vaqtning o'zida 38°C li suv hammomiga joylashtiriladi. 10–15 daqiqadan keyin uchala probirkaga ham muzli stakanga ko'chiriladi. Hamma probirkaga yodning kaliy yoddagi eritmasidan tomiziladi.

Natriy xlorid eritmasi, so'lak amilazasi uchun aktivator bo'lganligi sababli, shu eritma solingan probirkada kraxmal juda yaxshi gidrolizlanadi.

Mis sulfat tuzi solingan probirkada esa kraxmalning gidrolizlanish jarayoni kuzatilmaydi, chunki mis ionlari so'lak amilazasi uchun paralizator bo'lib hisoblanadi.

### **2-tajriba. Amilaza fermentining aktivligiga pHning ta'siri.**

Fermentlarning aktiviligiga muhitning pH'i ham juda kuchli ta'sir ko'rsatadi. Har bir ferment munit pHining ma'lum bir kattaligida maksimal aktiv bo'lib, pHning o'zgarishi bilan fermentning aktivligi ham susayadi va yo'qolishi ham mumkin.

Masalan, amilaza va maltoza fermentlari pH=6,7–6,8 bo'linda maksimal aktiv bo'lib, muhit pH=1,5–2,0 ga o'zgarganda ularning aktivligi mutlaqo yo'qoladi.

**Kerakli asboblar:** 1. Shtativ (probirkalari bilan). 2. Pipetkalar. 3. Termostat.

**Reaktivlar:** 1.  $\text{NaH}_2\text{PO}_4$  ning 0,15 M eritmasi. 2.  $\text{Na}_2\text{HPO}_4$  ning 0,15 M eritmasi. 3. Kraxmalning 0,5%li eritmasi. 4. So'lak eritmasi. 5. Yod eritmasi.

**Ishning bajarilishi:** quyidagi jadval bo'yicha uchta raqamlangan probirkada pH kattaliklari har xil bo'lgan fosfat bufer eritmalari tayyorlanadi.

Keyin uchala probirkaning har biriga 5 ml dan kraxmalning 0,5% li eritmasidan va 1 ml dan so'lak eritmasidan solinib probirkalar termostatga (38–40°) joylashtiriladi. 5 daqiqadan keyin

| Reaktivlar                              | Probirkada nomerlari |     |     |
|---|----------------------|-----|-----|
|   | 1                    | 2   | 3   |
| NaH <sub>2</sub> PO <sub>4</sub> 0,15 M | 4,7                  | 2,5 | 0,3 |
| Na <sub>2</sub> HPO <sub>4</sub> 0,15 M | 0,3                  | 2,5 | 4,7 |
| Bufer eritmaning pH-i                   |                      |     |     |
| Yod ta'siridagi rangi                   | 5,5                  | 6,8 | 8,1 |

ikkinchi raqamli probirkadagi eritmadan 4–5 tomchi olinib, yod eritmasi ta'sir ettirilib eritmaning rangi kuzatiladi. Jarayon bir necha bor (har 2–3 daqiqada) takrorlanadi. Jarayon ikkinchi probirkadagi kraxmal to'liq gidrolizlanib, eritmada yod ta'sirida sarg'ish qizil rang hosil bulgunga qadar davom ettiriladi.

Keyin barcha probirkadagi aralashmalar sovutilib, barchasiga 2 tomchidan yod tomiziladi. Probirkadagi aralashmalar kraxmaling fermentativ gidrolizlanish darajasiga qarab turli xil rangga bo'yaladi.

So'lak amilazasi uchun optimal aktivikka ega bo'lgan pH kattalikni aniqlang.

#### ***Mustaqil ta'sir uchun savol va mashqlar:***

1. Qanday fermentlarga fermentlarning aktivatorlari va paralizatorlari deb qaraladi? Misollar keltiring.
2. Qanday fermentlarga murakkab fermentlar deb aytildi?
3. Fermentlar qanday tamoyil asosida klassifikatsiyalanadi? Vakillarini ko'rsating va qisqacha xarakteristika bering.
4. Fermentlarning ta'sir etish mexanizmi haqida tushuncha bering.

#### ♦ Laboratoriya ishi № 4.6

#### **Gormonlar**

Tirik organizmdagi barcha bezlar ish faoliyatlariga ko'ra ikki katta guruhga: ekzokrin (tashqi) va endokrin (ichki) sekretsiya bezlariga bo'linadi. Ekzokrin bezlar mustaqil chiqaruv yo'llariga ega bo'lib, o'z suyuqliklarini organizmning boshqa qismlariga (ovqat hazm qilish organlariga, siydiq yo'llariga, ter kanalchalariga

va h.k.) chiqaradi. Endokrin bezlari esa mustaqil chiqaruv yo'llariga ega bo'lmaydi, ular qon tomirlari bilan juda zich ta'minlangan bo'lib, o'zлari ishlab chiqadigan suyuqliklarini shu qon tomirlariga o'tkazadi. Ichki sekretsiya bezlarining maxsus hujayralari tomonidan oz miqdorda ishlab chiqilib, qonga o'tadigan, u orqali turli xil organ va to'qimalarga tarqalib, organizmda kechadigan barcha fiziologik va biokimyoviy jarayonlarga boshqaruvchi ta'sir ko'rsatadigan moddalarga gormonlar deb ataladi. Ularning bu taxlitda boshqaruvchanlik ta'siri gumoral boshqarish deyiladi.

*Endokrin bezlari va gormonlar haqidagi birinchi ma'lumotlar*  
**1955-yilda ingliz olimi Addison buyrak usti bezi po'stloq qavatining shikastlanishi natijasida paydo bo'ladigan terining sarg'ayishi kasalligining vujudga kelishini va Klod Bernar esa o'zining ishlab chiqqan suyuqliklarini to'g'ridan-to'g'ri qonga quyadigan organlar va bezlar bor ekanligini asoslab bergenidan keyin paydo bo'la boshlagan. Ichki sekresiya bezlari tushunchasi ham Klod Bernar tomonidan kiritilgan. «Gormon» (grekcha – qo'zg'otaman, uyg'otaman) atamasi fanga 1905-yilda Beylis va Sterling degan olimlar tomonidan kiritilgan.**

Hozirgi vaqtida 100 dan ortiq turli xil gormon va gormonal xususiyatga ega moddalar aniqlangan bo'lib, bu moddalarning tirik organizmlarga ko'rsatadigan biologik ta'siri juda kichik konsentratsiyada ham amalga oshishi va ular ta'siri doimo markaziy nerv sistemasi tomonidan boshqarilishi hamda ularning spetsifik xususiyatlari ekanliklari aniqlab berilgan.

Organizmdagi ayrim organlarning maxsus hujayralaridan gormonsimon moddalar ishlab chiqilib, ular boshqa organlarga o'tmasligi ham aniqlangan bo'lib, bunday gormonlar «hujayra yoki to'qima gormonlari» deb ataladi, ular hosil bo'lgan joydagina o'z ta'sirlarini o'tkazish xususiyatlariga egadirlar.

Umuman, biror ichki sekretsiya bezi ish faoliyatining o'zgarishi, ya'ni gormonni oz ishlab chiqarishi (bezning gipofunksiyasi) yoki ko'p ishlab chiqarishi (bezning giperfunksiyasi) natijasida kelib chiqadigan kasalliklar boshqa ichki sekresiya bezlarining ish faoliyatlariga sezilarli salbiy ta'sir etishi mumkinligi aniqlangan.

Har xil tashqi va ichki qo‘zg‘atuvchilar ta’sirida (teri va boshqa organlardagi) o‘ta sezgir retseptorlarda impulslar hosil bo‘ladi va bu impulslar, avvalo, markaziy nerv sistemasiga, keyin gipotalamusga o‘tkaziladi, u yerda esa rilizing omillar (neyrogormonlar) deb ataluvchi dastlabki biologik faol gormonal moddalar hosil bo‘ladi. Rilizing omillarning xos xususiyatlari shundan iboratki, ular qon tomirlariga quyilmaydi, lekin maxsus (portal) yo‘llar orqali gipofiz beziga o‘tadi, u yerda bu bez gormonlarning hosil bo‘lishi yoki to‘xtashini boshqarib turadi. Gipofiz bezining gormonlari esa qon orqali borib, boshqa ko‘pchilik ichki sekretsiya bezlarining funksiyasini boshqarib turadi.

Gormonlar maxsus ichki sekresiya bezlarida hosil bo‘lib turadi, lekin qon orqali borib, har biri alohida to‘qima va organlar faoliyatini boshqarib boradi, ya’ni gormonlar uzoqdan turib va tanlab ta’sir etish xususiyatiga egadir.

#### ❖ Adrenalin gormoniga xos sifat reaksiyalari

Adrenalin va noradrenalinlar buyrak usti bezining mag‘iz qavatidan ishlab chiqariladigan gormonlardir. Bu gormonlar organizmda, asosan, fenilalanin va tirozin aminokislotalaridan sintezlanadi. Adrenalin kristall holatda ajratib olingan (1901-yil Tokamine) va kimyoviy tarkibi o‘rganilgan gormondir. Hozirgi davrda sintetik yo‘l bilan ham hosil qilinmoqda. Qon tarkibida uning miqdori juda oz (tana vaznining har bir kg ga 0,00001 mg % to‘g‘ri keladi). Lekin oraganizmda biror ta’sirlanish ro‘y berгganda uning miqdori tezda ko‘payib ketib, yurakning ish faoliyatini kuchaytirib yuboradi. Uglevodlar almashinuvini stimullaydi, jigarda shlikogenning parchalanishini kuchaytirib, qonda glukoza miqdorini oshiradi. Adrenalinning ayrim xossalari bilan quyidagi tajribalar yordamida tanishamiz.

**1-tajriba. Qon tarkibidagi glukozani orto-toluidin metodi bo‘yicha aniqlash.**

**Kerakli asboblar:** 1. Shtativ (probirkalari bilan). 2. Pipetkalar. 3. Qaychi. 4. 2 ml li shpris. 5. Stakanchalar.

**Reaktivlar:** 1. Adrenalinning suvdagi eritmasi (sotuvdag‘i adrenalinning 1 ampulasi 100 ml da eritiladi). 2. Yodning 0,1N

eritmasi. 3. Temir xloridning 3% li eritmasi. 4. Natriy gidroksidning 1,4 va 30% li eritmalar. 5. Osh tuzining 0,9% li eritmasi. 6. Ksilol. 7. Sotuvdagagi adrenalin va insulin. 8. Sirkal kislotasining 0,5% li eritmasi. 9. Mis sulfatning 1% li eritmasi.

**a) Adrenalinning yod bilan reaksiyasi.**

**Ishning bajarilishi:** probirkaga 3 ml adrenalinning suvdagi eritmasidan solinib, ustiga 3–4 tomchi yodning 0,1N eritmasidan tomiziladi. Probirkadagi aralashma yaxshi chayqatilib spirt lampasi alangasi ustida asta-sekin qizdiriladi. Bu vaqtida probirkadagi aralashma oldin pushti keyin qizg'ish rangga bo'yaladi. Bu jarayon adrenalinni yod ta'sirida oksidlanganligidan dalolat beradi.

**b) Adrenalinning temir xloridi bilan reaksiyasi.**

**Ishning bajarilishi:** probirkaga 2–3 ml adrenalinning suvdagi eritmasidan va uning ustiga 1 ml temir xloridning 3% li eritmasidan solinadi. Aralashma biroz chayqatiladi, keyin probirkadagi aralashma katexinlarga xos bo'lgan zangori rangga bo'yaladi. Uning ustiga biroz ishqor solinsa probirkadagi zangori rangli eritma qizg'ish rangga o'ta boshlaydi. Bu jarayonlar aralashma tarkibida adrenalin bor ekanligidan dalolat beradi.

**c) Qon tarkibidagi glukoza miqdorining ortishiga adrenalinning ta'siri.**

Bu tajribani ma'lum bir muddat (12–15 soat) och saqlangan quyonning qonidan olib o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Quyonning qoni tarkibidagi glukozaning miqdorini ikki marta ya'ni qonga adrenalin yuborishdan oldin va adrenalin yuborilgandan 1 soat keyin o-toluidin metodi yordamida aniqlanadi. Glukoza miqdorining farqiga qarab adrenalinning ta'siri haqida fikr yuritiladi.

**Ishning bajarilishi:** quyonning qulog'i oldin ksilol bilan ho'llanga paxta bilan artilib so'ng, iliq suvda yuvib, quruq paxta bilan artilib keyin uning vena qon tomiridan 0,1 ml qon olinib o-toluidin metodi yordamida glukoza miqdori aniqlanadi. (4.8 laboratoriya ishining 6-tajribasida bayon etilgan).

Keyin quyon terisi ostiga 2 ml adrenalin eritmasidan yuborib, 1 soatdan keyin xuddi yuqoridagidek qon olinib o-toluidin metodi yordamida glukoza miqdori aniqlanib, uning miqdori oshganligi

haqida fikr hosil qilinadi. Bu jarayon giperglikemiya deb yuritiladi. Adrenalin eritmasi quyon vaznining har 1 kg og‘irligiga 0,4 ml dan yuboriladi.

### ***Mustaqil ta’lim uchun savol va mashqlar:***

1. Qanday moddalarga gormonlar deb ataladi? Ularning kimyoviy tabiatini haqida fikr yuriting.
2. Gormon ishlab chiqaradigan qanaqa ichki sekresiya bezlarini bilasiz?
3. Ichki va tashqi sekresiya bezlari nimasi bilan farq qiladi?
4. Qalqonsimon bez tomonidan qanday gormonlar ishlab chiqiladi? Ularning ta’sir etish mexanizmini tushuntiring.
5. Gipofiz bezining oldingi bo‘lagidan qanday gormonlar ishlab chiqiladi? Ularning biologik rolini tushuntiring.
6. Gipofiz orqa bo‘lagining gormonlari qanday nom bilan yuritiladi? Ularning bioloik roli nimadan iborat?
7. Gipofiz o‘rtta bo‘lagi gormonining nomi va uning biologik rolini ta’riflang.

### **♦ Laboratoriya ishi № 4.7**

#### ***Insulin gormoniga xos sifat reaksiyalari***

Insulin – bu me’da osti bezining eng muhim gormoni bo‘lib, Langergans orolchasining hujayralaridan ishlab chiqiladi. Uni sof bolatda ajratib olish metodini birinchi bo‘lib 1901-yilda rus olimi Sobolev yaratgan.

Insulin tirik organizmda, asosan, uglevodlar almashinuviga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Qonda qand miqdori ko‘payganda insulin ham ko‘p ishlab chiqiladi va aksincha. Insulin qonda glukoza miqdorining doimo me’yorda bo‘lishligini ta’minlaydi. Agarda teri ostiga insulin gormoni yuborilsa, u qon tarkibidagi glukoza konsentratsiyasini pasaytiradi.

##### **a) Insulinning natriy ishqori bilan reaksiyasi.**

***Ishning bajarilishi:*** probirkaga insulinning suyultirilgan eritmasidan 2 ml quyilib, ustiga natriy gidroksid ishqorining 30% li eritmasidan ikki barobar ko‘p quyiladi. Probirkadagi bu aralashma yaxshilab chayqatilib ustiga mis sulfatining 1% li eritmasidan 2-3 tomchi tomizilib chayqatiladi. Bu vaqtida aralashma qizg‘ish

binafsha rangga bo'yaladi. Bu aralashma tarkibidagi oqsilning peptid bog'laridan darak beradi.

**b) Insulinning oqsil tabiatli modda ekanligini ko'rsatuvchi Biuret reaksiyasи.**

**Ishning bajarilishi:** probirkaga insulinning suyultirilgan eritmasidan 2 ml quyilib, ustiga natriy gidroksid ishqorining 30% li eritmasidan ikki barobar ko'p quyiladi. Probirkadagi bu aralashma yaxshilab chayqatilib, ustiga mis sulfatining 1% li eritmasidan 2–3 tomchi tomizilib chayqatiladi. Bu vaqtida aralashma qizg'ish binafsha rangga bo'yaladi. Bu aralashma tarkibidaga oqsilning peptid bog'laridan darak beradi.

**c) Qon tarkibidagi glukoza miqdoriga insulinning ta'siri.**

**Ishning bajarilishi:** 1 sutka och saqlangan quyonning qulq suprasidan 0,1 ml qon olinib, shu qonda glukozaning miqdori o-toluidin metodi yordamida aniqlanadi. Buning uchun quyonning qulog'i oldin ksilolda keyin esa suv bilan namlangan paxta bilan va quruq paxta bilan yaxshilab artiladi. Keyin shu quyon terisi ostiga, quyon vaznining har bir kg hisobiga 1,5 birlik insulin yuboriladi. 1 soatdan keyin xuddi yuqoridagi tartibda quyonning qulq venasidan 0,1 ml qon olib, yuqorida ko'rsatilgan metod bo'yicha giukoza miqdori aniqlanadi (4.8-laboratoriya ishining 6-tajribasida bayon etilgan).

Qon tarkibidagi oldingi va keyingi tajribadagi glukoza miqdorini solishtirib, uning miqdori insulin ta'sirida ancha kamayganligi haqida fikr hosil qilinadi. Buni gipoglikemiya jarayoni deb yuritiladi.

Ikkinci marta qon olingandan keyin, quyon terisi ostiga tezda insulin shokining oldini olish maqsadida 5–6 ml glukoza eritmasidan yuboriladi.

**Mustaqil ta'lim uchun savol va mashqlar:**

1. *Insulin gormonini qaysi bez ishlab chiqaradi? Uning kimyoviy tabiatini va modda almashinuviga ta'sirini tushuntiring.*
2. *Adrenalin gormonining tuzilishi va uning modda almashinuvidagi roli va xossalalarini tushuntiring.*
3. *Erkak va urg'ochi jinsiy gormonlarini yozing. Ularning biologik rolini tushuntiring.*

## • Laboratoriya ishi № 4.8

### Uglevodlar va ularning almashinuvi. Monosaxaridlarga xos sifat reaksiyalari

Uglevodlar tabiatda juda keng tarqalgan bo'lib, ular barcha tirik mavjudotlar: o'simlik, odam va hayvon organizmlarining tarkibida uchraydi. Lekin, o'simlik va hayvon organizmlarining tarkibida uglevodlarning miqdori bir xil emas. Odam va hayvon organizmida uglevodlarning miqdori 2% dan oshmaydi. Lekin odam va hayvon oziqasining asosiy qismi (o'rtacha 50–60%) uglevodlarga to'g'ri keladi. O'simlik organizmlarida esa ularning miqdori 80–85% ga qadar bo'ladi, chunki yashil o'simliklar xlorofil donachalari va quyosh energiyasi ishtirokida karbonat angidrid bilan suvdan foydalaniib, uglevodlarni sintez qilish qobiliyatiga ega. Bu sintez o'simliklarda fotosintez jarayoni asosida amalga oshiriladi. Turli xil o'simlik mahsulotlari va donlarning tarkibida uglevodlarning miqdori bir xil emas. Donlardan uglevodlarga eng boy bo'lganlari guruch (76%), makkajo'xori (68%), bug'doy (52%) kabilardir. Olma, sabzi, karam, piyoz kabi mahsulotlar tarkibida esa uglevodlar 6–13% ga qadar bo'ladi. O'simliklarda uglevod asosiy oziqaviy manba (kraxmal) sifatida xizmat qiladi hamda tayanch vazifasini bajaruvchi birikmalar (kletchatka) sifatida hujayra va to'qimalar tarkibiga kiradi.

Odam va hayvon organizmida esa oqsillar singari uglevodlar ham hujayra shiralari tarkibiga kiradi hamda tirik organizm hayotida hal qiluvchi rol o'ynaydi, ayniqsa energiya manbayi sifatida xizmat qiladi, ya'ni 1 gr uglevod oksidlanganda 4,1 kkal energiya ajralib chiqadi.

Murakkab tuzilishga ega bo'lgan uglevodlardan mukopolisaxaridlар hayvon organizmlarida birlashtiruvchi to'qima va hujayralaro moddalar tarkibiga kiradi hamda organizmga ta'sir qiladigan har xil moddalarning to'qimalar orqali o'tishiga qarshilik qiladi. Uglevodlar kimyoviy tarkiblari jihatidan ko'p atomli spirlarning aldegid va ketonlari hisoblanadi. Chunki bularning molekulalarida aldegid, karbonil, gidroksil funksional guruhlari uchraydi. Aldegid va spirt guruhini tutuvchilarni aldospirtlar (glukoza, galaktoza,

riboza, ksiloza), keton guruhini tutuvchilarni (fruktoza) ketospirtlar deyiladi.

*German Email Fisher tadqiqotlari natijasida organik kimyo-ning uglevodlar haqidagi kashfiyotlari glukobiologiyaning vujudga kelashiga sababchi bo'ldi. Fisher tomonidan uglevodlarning turli strukturalari yaratildi va ularning turli steriokimyoviy epemerlari yaratildi. U monosaxaridlardan glukoza, mannoza va fruktozaning umumiy sintez yo'llarini o'ylab topdi. O'n yil (1884–1894) davomida qilgan bu kashfiyoti to'rt valentli uglerod birikmalari haqida Vant Goff va Le Bel tomonidan aytib o'tilgan edi. Bu kashfiyotlar tez rivojlanishiga qaramay, glukobiologiyada yig'ilgan ma'lumotlarning ko'pchiligidagi dolzarb muammolar yechimini topmay qolmoqda. Masalan, Nuklien kisota va oqsillarga qaraganda oddiy sintez yo'llari yo'q. Lekin polisaxaridlarning kam miqdorda sintez qilishning umumiy usuli mavjud. Bu kamchiliklarga qaramasdan, uglevodlarning tabiiy hosil bo'lishi va polisaxaridlarning xossalari o'rghanish natijasida ulkan yutuqlarga erishildi. O'tgan 50 yil davomida inson organizmida, ayniqsa, hujayralararo aloqalarda uglevodlarning ko'plab funksiyalari o'rGANildi. Bu sayi harakatlar inson glukobiologiyasida kimyoviy biologlarning imkoniyatlarini kengaytirib, hujayralar va undan tashqa-rida uglevodlarning energiya manbayi ekanliklari aniqlanmoqda.*

Uglevodlar, asosan, uch guruhga monosaxaridlар, oligosaxaridlар va polisaxaridlarga bo'lib o'rGANiladi.

#### ❖ Monosaxaridlар va ularga xos tajribalar







Monosaxaridlар sof holatda oddiy bitta molekuladan tashkil topgan, suvda juda yaxshi eriydigan, shirin ta'mli qattiq kristall moddalardir. Monosaxaridlarning umumiy formulasini quyidagicha  $C_nH_{2n}O_n$  belgilash mumkin. Ular molekulalaridagi uglerod atomlarining soniga qarab: triozalar, tetrazolar, pentozalar, geksozalar va geptozalar deb o'qiladi.


Bularning ichida hayvon organizmida keng tarqalganlari va muhim ahamiyatlilari trioza, pentoza va geksozalardir. Triozalar molekulasida uchta uglerod atomini tutuvchi monosaxarid  $C_3H_6O_3$  bo'lib, hayvon to'qimalarining tarkibidagi uglevodlarning parcha-

fanish va uch atomli spirt glitserinning birlamchi yoki ikkilamchi spirt guruhlarini oksidlash yoki degidrotatsiya qilish mahsulotlaridir.


Pentozalar molekulasida beshta karbon atomini tutuvchi monosaxaridlar  $C_5H_{10}O_5$  bo‘lib, ularga riboza, dezoksiriboza, arabinoza va ksilozalar kiradi. Bulardan riboza va dezoksiribozalar hayvon to‘qima hujayralarining tarkibiga, ya’ni ribonuklein kislota (RNK) va dezoksiribonuklein kislota (DNK) larning tarkibiy qismlariga kiradilar.

Pentozalarning tuzilishi quyidagicha:






Siklik arabinoza



Siklik ksiloza

Geksozalar — molekulasida oltita karbon atomini tutuvchi monosaxaridlar ( $C_6H_{12}O_6$ ) bo‘lib, ularga glukoza, galaktoza, mannozalarni hamda fruktozani kiritish mumkin. Bulardan fruktoza — ketospirlarni, qolganlari esa aldospirlarni tashkil etadi. Bularning tuzilishi quyidagicha:



Barcha monosaxaridlar assimetrik uglerod atomlariga ega. Barcha valentlik qo‘llari har xil guruhlar bilan birikkan uglerod atomlari assimetrik uglerod atomi deyiladi. Masalan, triozalarda 1 ta, pentozalarda 3 ta, geksozalarda 4 ta assimetrik uglerod atomlari bor.

### **1-tajriba. Kumush ko‘zgu reaksiyasi.**

Bu reaksiyada, kumush oksidi (ammiakli eritmasi) glukoza bilan reaksiyaga kirishishi natijasida ajralib chiqayotgan kumush probirka devoriga o‘tib (yopishib) ko‘zgu hosil qiladi.

**Kerakli asboblar:** 1. Shtativ (probirkalari bilan). 2. Suv hamnomi. 3. Pipetkalar. 4. Kimyoviy stakanlar.

**Reaktivlar:** 1. 3% li kumush nitrat tuzining eritmasi. 2. Ammiakning 10% li suvdagi eritmasi. 3. Glukozaning va fruktozaning 1% li eritmasi.

**Ishning bajarilishi:** ikkita toza probirkaga kumush oksidining ammiakli eratmasidan 3–4 ml dan quyladi. Ularning biriga glukozaning 1% li eritmasidan 2 ml, ikkinchisiga esa fruktozaning 1% li eritmasidan 2 ml qo'shiladi. Ikkala probirkadaga eritmalar ham yaxshilab aralashdirilib, 70 – 80°C li suv hammomida qizdiriladi. 5–10 daqiqa o'tgach, glukoza 1% li eritmasi quylgan probirka devorida kumush ko'zgu hosil bo'ladi.

Fruktoza eritmasi quylgan probirka devorlarida kumush ko'zgu hosil bo'lmaydi, chunki ketonlar aldegidlarga nisbatan qiyin oksidlanadi.


**2-tajriba. Glukoza molekulasida gidroksil gruppasining borligini aniqlash.**

Monosaxaridlarning umumiy xossalari ularning molekulalaridagi aldegid, keton va gidrokso gruppalari bilan ifodalanadi. Shuning uchun ular spirtlar kabi polimerizatsiya, qaytarilish va oksidlanish reaksiyalariga kirishadi.

**Kerakli asboblar:** shtativ (probirkalari bilan).

**Reaktivlar:** 1. Natriy ishqorining 30% li eritmasi. 2. Glukozaning 5% li eritmasi. 3. Sulfat kislotaning 10% li eritmasi. 4. Mis sulfat tuzining 1% li eritmasi.

**Ishning bajarilishi:** probirkaga glukozaning 5% li eritmasidan 6 ml va natriy ishqorining 30% li eritmasidan 2 ml solinib, mis sulfat tuzining 1% li eritmasidan 4–5 tomchi tomiziladi. Hosil bo'lgan mis gidroksidi glukoza borligi uchun erib ketadi, eritma esa ko'k rangga bo'yaladi:



**3-tajriba. Aldegid gruppasiga xos Mur reaksiyasi.**

**Ishning bajarilishi:** probirkaga glukozaning 5% li eritmasidan 2 ml va natriy ishqorining 30% li eritmasidan 2 ml qo'shiladi. Aralashma qaynaguncha qizdiriladi. Avvalo, eritma sariq, keyin qora qo'ng'ir rangga bo'yaladi. Eritmaga sulfat kislotaning suyulti-

rilgan eritmasidan qo'shilganda karamel konfetining hidi hosil bo'ladi. Bu jarayonda glukozaning polimerlanishi natijasida hosil bo'lgan polimer karamel hidiga ega.

#### **4-tajriba. Trommer reaksiyasi.**

**Kerakli asboblar:** shtativ (probirkalari bilan), 1–3 ml li pipet-kalar, spirt lampasi.

**Reaktivlar:** 1. Natriy ishqorining 10% li eritmasi. 2. Glukozaning 1% li eritmasi. 3. Mis sulfat tuzining 1% li eritmasi.

**Ishning bajarilishi:** probirkaga glukozaning 1% li eritmasidan 3 ml solib uning ustiga natriy ishqorining 10% li eritmasidan 1 ml qo'shiladi va 4–5 tomchi mis sulfat tuzining 1% li solinadi. Probirka chayqatiladi va ehtiyyotlik bilan qaynatiladi. Avvalo, CuOH sariq cho'kmasi keyin Cu<sub>2</sub>O qizil cho'kmasi hosil bo'ladi.

#### **5-tajriba. Feling reaksiyasi.**

Bu reaksiya ham Trommer reaksiyasiga o'xshaydi. Farqi shundaki, reaksiyada Feling reaktividan foydalaniлади. Bu reaktiv tarkibida ikki valentli mis, segnet tuzi bo'ladi.

**Kerakli asboblar:** shtativ (probirkalari bilan), 1–3 ml li pipet-kalar, spirt lampasi.

**Reaktivlar:** 1. Glukozaning 1% li eritmasi 2. Feling-1 va feling-2 reaktivlari.

**Ishning bajarilishi:** probirkaga glukozaning 1% li eritmasidan 2–3 ml solib uning ustiga teng hajmda feling reaktivi quyiladi. Probirkadagi aralashmaning yuqori qismi qaynaguncha qizdiriladi. Avvalo, CuOH sariq cho'kmasi, keyin Cu<sub>2</sub>O qizil cho'kmasi hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan kislorod glukozaning glukon kislotasigacha oksidlanishiga sarflanadi.

#### **6-tajriba. Qon tarkibidagi glukozani orto-toluidin reaktivi yordamida miqdoriy aniqlash.**

Qon tarkibida glukoza, riboza, 2-dezoksiriboza va hokazo monosaxaridlar uchraydi. Ular hayvon organizmining hayot-chanligi uchun muhim ahamiyatga ega. Glukozadan fermentativ reaksiyalar natijasida fosfatli mahsulotlar hosil bo'ladi. Sog'lom hayvon qonida 0,006–0,008% glukoza saqlanadi, unning kam bo'lishi kam quvvatlikka, ortib ketishi qandli diabet kasalligiga olib keladi. Shuning uchun ham qon tarkibidagi glukoza miqdorini

aniqlash usulini bilish muhim amaliy ahamiyatlidir. Aniqlash jarayoni glukozaga orto-toluidin (2-amino toluol)ni trixlorsirka ishtirokida ta'sir etishidan hosil bo'ladigan eritma rangi optic zichligini o'lchashga asoslangan.

**Kerakli asboblar:** shtativ probir, pipetkalar, suv hammomi, gaz gorelkasi yoki spirtli lampa, sentrifuga, FEK-56M kyuvetalari bilan.

**Reaktivlar:** orto-toluidin, trixlorsirka kislotaning 3% li eritmasi, qon, muz, glukozaning 1% li eritmasi.

**Ishning bajarilishi:** probirkaga trixlorsirka kislotaning 3% li eritmasidan 0,9 ml va 0,1 ml qon (quyondan olingan) solib aralashtiriladi, so'ngra sentrifugalananadi. Sentrifugatdan boshqa probirkaga 0,5 ml olib ustiga 4,0 ml orto-toluidin reaktividan va 0,5 ml distillangan suv quyiladi. Aralashmali probirkani qaynayotgan suv hammomida 8–10 daqiqa qizdiriladi. Shundan so'ng probirkaga suv hammomidan chiqarib olinib, oqayotgan vodoprovod suvida tutib sovutiladi. Xona haroratiga keltirilgan eritma qalinligi 1 sm bo'lgan kyuvetaga solinib, solishtirish (etalon) eritmali kyuvetaga nisbatan optik zichligi 590–650 nm to'lqin uzunligi (to'q sariq yoki qizil yorug'lik filtri) da FEK-56M apparatida o'lchanadi. Etalon eritma tarkibi 0,5 ml trixlorsirka kislotaning 3% li eritmasi, 0,5 ml distillangan suv va 4,0 ml orto-toluidin reaktivi eritmasidan iborat bo'ladi. Optik zichlik ( $D_x$ ) qiymatiga kalibrangan grafikdan mos keluvchi glukoza ( $C_x$ ) konsentratsiyasi foiz qiymati aniqlab olinadi. Kalibrangan grafik, glukozaning turli konsentratsiyali eritmalari va ularga mos keluvchi D ning qiymatlarini (jadvaldagagi ma'lumotlar) koordinata o'qlariga joylashtirish yo'li bilan tuziladi. Bunda qon zardobi o'rnila 1,0 % li glukoza eritmasidan foydalangan holda tarkibida yuqorida bayon etilgandek tartibda bajariladi.

#### **Mustaqil ta'lim uchun savol va mashqlar:**

1. Monosaxaridlarning vakillariga misollar keltingir.
2. Monosaxaridlarni gidrolizlanadimi, yo'qmi? Sababini tushuntiring.
3. Glukoza va fruktozaning qaysi funksional guruhlarini farqlash mumkin?
4. Fruktoza nima uchun kumush ko'zgu reaksiyasini bermaydi?
5. Monosaxaridlarning tirik organizmlar uchun ahamiyati.

| Probirka<br>tartib<br>raqami | Sarflangan komponentlar hajmi, ml |   |                   |     | Tayyorlangan<br>eritmada<br>glukoza<br>konsentratsi-<br>yasi (C) % | FEK-<br>56M da<br>aniqlangan<br>D<br>qiymatlari |
|------------------------------|-----------------------------------|---|-------------------|-----|--|---|
|                              | Glukoza-<br>ning 1,0%<br>eritmasi | Trixlorsirk<br>kislotaning<br>3% li<br>eritmasi | Orto-<br>toluidin | Suv |  |   |
| 1                            | 0,1                               | 0,5   | 4,0               | 0,4 | 0,02   | D <sub>1</sub>                                  |
| 2                            | 0,2                               | 0,5   | 4,0               | 0,3 | 0,04   | D <sub>2</sub>                                  |
| 3                            | 0,3                               | 0,5   | 4,0               | 0,2 | 0,06   | D <sub>3</sub>                                  |
| 4                            | 0,4                               | 0,5   | 4,0               | 0,1 | 0,08   | D <sub>4</sub>                                  |
| 5                            | 0,5                               | 0,5   | 4,0               | —   | 0,10   | D <sub>5</sub>                                  |
| Etalon                       | —                                 | 0,5   | 4,0               | 0,5 | 0  |   |

#### ♦ Laboratoriya ishi № 4.9


### Uglevodlar va ularning almashinuvi. Disaxaridlar va ularga xos sifatiy reaksiyalari

Tarkibi ikki molekula monosaxarid geksozalardan tashkil topgan uglevodlar disaxaridlar deb atalib, ularga, saxaroza, maltoza, laktoza kabi uglevodlar kiritiladi. Ularning molekular tarkibi  $C_{12}H_{22}O_{11}$  deb belgilanadi. Molekulasi uchta monosaxarid geksoza qoldiqlaridan tashkil topgan uglevod esa trisaxarid deb yuritilib, uning molekular tarkibi  $C_{18}H_{32}O_{16}$  ga tengdir. Trisaxaridlarning asosiy vakili rafinoza bo'lib, u uch molekula monosaxariddan 2 molekula suv ajralib chiqib qoldiq geksozalarning 1,6 va 1,2 holatlarda o'zaro birikishidan hosil bo'lgan mahsulotdir. Rafinoza qand lavlagisi, chigit, qurigan evkalipt (asosan, Avstraliyada o'sadigan doimiy yashil ulkan daraxt) shirasi tarkibida uchraydi.

Bulardan saxaroza molekulasida geksozalarning o'zaro birikishi glukozid gidroksil guruuhlarining hisobiga yuz beradi. Ya'ni ulardan bir molekula suv ajralib chiqib, o'zaro kislorod ko'priq hosil qilib birikadi.


**Saxaroza** – bu qand lavlagisi va shakarqamishning shakaridir. U o'simlik tuganaklarida, tomirlarida, poyalarida, barglarida, urug va mevalarining tarkibida keng tarqagan.

Saxaroza tarkibi jihatidan  $\alpha$ -glyukopiranoza va  $\beta$ -fruktofuranozadan tashkil topgan. Saxarozaga biror xil kislota qo'shib, yuqori haroratda qizdirilsa u tezda glukoza va fruktoza molekulalariga parchalanadi. Bu jarayon inversiya hodisasi deb ataladi.




Silliq saxaroza

**Laktoza** – sut tarkibidagi eng asosiy shakarli moddadir. Uning tarkibi galaktopyranoza va glukopiranoza molekulalarining o'zaro birikishidan hosil bo'lgan. Galaktozaning birinchi glukozid gidroksidi glukozaning to'rtinchi uglerod atomidagi gidroksili bilan birikadi. Glukozaning glukozid gidroksili esa molekulada o'zgarishsiz qoladi. Shuning uchun ham laktoza qaytaruvchi disaxarid hisoblanadi.




Galaktoza qoldig'i




Glukoza qoldig'i

Laktoza




Galaktoza qoldig'i




Glukoza qoldig'i

Laktoza

**Maltoza** – bu sumalak shakaridir. U murakkab shakarli modda kraxmalning gidrolizlanishi natijasida ham hosil bo'ladi. Molekular tarkibi ikki molekula  $\alpha$ -glukopiranoza molekulalarining o'zaro birikishidan tuzilgan. Glukopiranoza molekulalarining birida erkin glukozid hidroksili saqlanib qoladi. Shuning uchun maltoza ham qaytaruvchi disaxariddir.



Maltoza



Sikiik maltoza

### **1-tajriba. Metallarning qaytarilish reaksiyasi.**

Bu tajribada saxarozada qaytaruvchanlik xususiyat yo‘q ekanligi, ya’ni uning molekulasida karbonil guruhlari mavjud emasligi haqida fikr hosil qilinadi.

**Kerakli asboblar:** 1. Shtativ (probirkalari bilan). 2. Pipetkalar. 3. Lakmus qog‘ozi.

**Reaktivlar:** 1. Saxarozaning 1% li eritmasi. 2. Konsentrangan xlorid kislota. 3. Natriy ishqorining 10% li eritmasi. 4. Mis sulfat tuzining 1% li eritmasi.

**Ishning bajarilishi:** ikkita probirkaga saxarozaning 1% li eritmasidan 2–3 ml quyiladi. Birinchi probirkaga bir necha tomchi xlorid kislota tomiziladi va yaxshilab aralashtiriladi, keyin alanga ustida 3–5 daqiqa qizdiriladi. Keyin shu probirkadagi eritma

chayqatilib, natriy ishqoring 10 % li eritmasidan tomizilib neytral-laydi. Muhitni aniqlashda laksmus qog'ozidan foydalaniladi. Ikkala probirkadagi eritma bilan ham (qaynatilgan va qaynatilmagan) Trommer reaksiyasi o'tkaziladi.

Birinchi (xona haroratida saqlangan) probirkada Trommer reaksiyasi yuzaga kelmaydi, chunki saxaroza tarkibida erkin karboksil guruh bo'lmaydi.

Ikkinci (qaynatilgan) probirkadagi eritma Trommer reaksiysiga kirishadi va qizil rangli cho'kma hosil bo'ladi. Aralashmada mis (I) oksidning qizil rangli cho'kmasini hosil bo'lishini, qaynatilganda saxaroza gidradlanganini va natijada glukoza va fruktoza hosil bo'lganligini ko'rsatadi.

### **2-tajriba. Saxarozagа xos rangli reaksiya.**

Bu reaksiya eritmada saxaroza bo'lganda kobalt sulfat  $\text{CoSO}_4$  bilan ishqoriy muhitda binafsha rangli kompleks hosil qilishga asoslangan.

**Kerakli asboblar:** 1. Shtativ (probirkalari bilan). 2. Pipetkalar.

**Reaktivlar:** 1. Kobalt sulfat tuzining 2% li eritmasi. 2. Saxaroza 1% li eritmasi. 3. Natriy ishqorining 10% li eritmasi. 4. Selivanov reaktiv.

**Ishning bajarilishi:** probirkaga saxarozaning 1% li eritmasidan 2–3 ml qo'yib, ustiga bir necha tomchi kobalt sulfat tuzining 2% li eritmasidan tomiziladi. Keyin aralashmaga natriy ishqorining 10% li eritmasidan 1–2 ml qo'shilganda aralashma binafsha rangga bo'yaladi.

### **3-tajriba. Selivanov reaksiyasи.**

Bu reaksiya saxarozaning gidrolizlanishi natijasida hosil bo'lgan fruktozaning karbonil gruppasiga xos reaksiyadir. Fruktozaning xlorid kislotadagi eritmasiga rezorsin eritmasidan qo'shib qizdirilganda eritma qizil-qo'ng'ir rangga bo'yaladi.

**Kerakli asboblar:** shtativ (probirkalari bilan), 1–3 m li pipet-kalar, spirt lampasi.

**Reaktivlar:** 1. Fruktozaning 1% li eritmasi, konsentrangan xlorid kislota va rezorsin kristallari.

**Ishning bajarilishi:** probirkaga 3 ml fruktozaning 1% li eritmasidan hamda 1 ml konsentrangan xlorid kislota quyiladi va

qizdiriladi. Natijada aralashmada oksimetil furfurol hosil bo'ladi. So'ngra hosil bo'lgan aralashmaga bir necha dona rezorsin kristallaridan solinadi. Oksimetil furfurol konsentrangan xlorid kislota ta'sirida rezorsin bilan kondensatlanish reaksiyasiga kiri-shadi va aralashma to'q qizil rangga bo'yaladi.

#### **4-tajriba. Maltoza va laktozaga xos reaksiyalar.**

Maltoza va laktoza molekulalarida erkin karbonil gruppalarini mayuddir. Shuning uchun ular qaytarilish reaksiyalariga kirishish xususiyatiga ega.

- Kerakli asboblar:** 1. Shtativ (probirkalari bilan). 2. Pipetkalar. 3. Kimyoiy stakanlar.

**Reaktivlar:** 1. Maltoza va laktozaning 1% li eritmalari, monosaxaridlar uchun ishlatilgan reaktivlar.

**Ishning bajarilishi:** probirkalarga maltoza va laktoza eritmalardan 1–3 ml dan olib, ular bilan Trommer, Feling va Nilander reaksiyalarini o'tkaziladi. Ishninig bajarilishi monasaxaridlar mavzusida yozilgan.

Trommer va Feling reaksiyalarida mis (I) oksidining qizil rangli cho'kmasining hosil bo'lishi va Nilander reaksiyasida qoramtilgichcho'kma hosil bo'lishi maltoza va laktozada karbonil gruppasi borligini isbotlaydi.

#### **5-tajriba. Barfed reaksiyasi.**

Bu reaksiya monosaxaridlarning kislotali muhitda ham mis asetat tuzini qaytarishiga, disaxaridlarning esa faqatgina ishqoriy muhitdagina bu reaksiyaga kirishishiga asoslangan.

- Kerakli asboblar:** 1. Shtativ (probirkalari bilan). 2. Pipetkalar. 3. Gaz gorelkasi yoki spirt lampasi.

**Reaktivlar:** 1. Glukozanining va laktozning 1% li eritmalari. 2. Barfed reaktivi: 1 litr distillangan suvda 50 gr sirkalik kislotasining mis tuzi, 50 gr sirkalik kislotasining natriyli tuzi va 5 gr konsentrangan sirkalik kislotasi eritiladi.

**Ishning bajarilishi:** ikkita probirka olib, biriga glukozanining 1% li eritmasidan 2–3 ml, ikkinchisiga laktozning, 1% li eritmasidan 2–3 ml quyiladi. Ikkala probirkada eritma ustiga ham teng (2–3 ml) miqdorda Barfed reaktividan quyiladi. Ikkala probirka ham bir vaqtning o'zida qizdiriladi.

Glukoza eritmasi solingen probirkada mis (I) oksidining qizil cho'kmasi hosil bo'ladi, laktoza eritmasi solingen probirkada esa reaksiya bormaydi.

**Mustaqil ta'lim uchun savol va mashqlar:**

1. Disaxaridlarning vakillariga misollar keltiring.
2. Saxaroza gidrolizlanganda qaysi monosaxaridlar hosil bo'ladi?
3. Maltoza gidrolizlanganda qaysi monosaxaridlar hosil bo'ladi?
4. Qaytariladigan va qaytarilmaydigan disaxaridlarga misollar keltiring.
5. Disaxaridlarning hazm qilish organlarida gidrolizlanish jarayonini tushuntiring.

♦ **Laboratoriya ishi № 4.10**

**Uglevodlar va ularning almashinuvi.  
Polisaxaridlar va ularga xos tajribalar**

Polisaxaridlar – yuqori molekular birikmalar bo'lib, bularning asosiy vakillari qilib kraxmal, glikogen, inulin, kletchatka – selluloza (selluloza, lotincha sellula hujayra so'zidan olingan)larni ko'rsatish mumkin. Bularning molekulalari yuz va minglab monosaxarid geksozalarning qoldiqlari o'zaro birikishidan hosil bo'lgan. Shuning uchun ham bular yuqori molekulali birikmalar bo'lib, ularning umumiy tarkiblari ( $C_6H_{10}O_5$ )<sub>n</sub> formula bilan belgilanadi. Bu formulada *n*-kimyoviy birikmaning juda katta, yuqori molekulali ekanligidan dalolat beradi.

Bular molekulasiga birikib kelayotgan monosaxarid geksozalarning turiga qarab ikki guruhga bo'lib, ya'ni bir xil geksozalardan tashkil topganlarini gomopolisaxaridlar, turli xil geksoza qoldiqlaridan tashkil topganlarini esa geteropolisaxaridlar deb o'rganiladi.


Kraxmal, glikogen faqatgina glukozadan, inulin esa faqatgina fruktozadan tashkil topganligi sababli bular gomopolisaxaridlarning asosiy vakillari hisoblanadi.

**Kraxmal** o'simliklar uchun eng asosiy oziqaviy modda zaxirasi hisoblanadi. U yashil o'simliklarning barglari tomonidan  $CO_2$  gazini assimilyatsiyalab hosil qiladigan asosiy mahsulot bo'lib, o'simliklar dunyosida keng tarqalgan moddadir. U o'simlik mevalari

va g'allasimon o'simliklar tarkibida ko'kdir. Kraxmal kartoshkada 20%, g'allada esa 70% ga qadar bo'ladi.

Turli xil g'alla tarkibidagi kraxmal zarrachalari bir-birlaridan hajmi va shakli jihatidan farq qiladi.

Tabiiy kraxmal ikki qismdan: amiloza va amilopektin deb aytiluvchi polisaxaridlardan tashkil topgan. Ular  $\alpha$ -glukopiranoza molekulalari qoldiglarining o'zaro birikishidan hosil bo'lgan yuqori molekulali birikmalar bo'lib, o'zlarining tuzilishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Amiloza glukopiranoza molekulalari faqatgina 1,4 holatda, ya'ni to'g'ri zanjir holatida birikkan bo'lsa, amilopektinda 1,6-holatda ham birikib tarmoqlar hosil qilgan bo'ladi. Kraxmal zarrachasining 15–20% i amiloza bo'lib, qolgan qismi (80–85%) amilopektin moddasiga to'g'ri keladi.



Amiloza suvda juda yaxshi erish xususiyatiga ega bo'lib, amilopektin esa yaxshi erimaydi. Yod ta'sirida amiloza ko'k rang, amilopektin esa binafsha rang berish xususiyatiga ega. Amilozaning suvdagi eritmalari tezda cho'kmalar hosil qiladi, amilopektinning eritmalari esa ancha turg'undir. Amilazaning har bir molekulasi 100 tadan 1000 taga qadar glukopiranoza molekulalari tashkil etgan bo'lsa, amilopektin molekulasi esa 600 dan 6000 ga qadar glukopiranoza molekulalariga kirgan bo'ladi. Shular asosida ularning modekular og'irliklari ham bir-birlaridan katta farq qiladi.


Amilopektin makromolekulasi tuzilishining bir parchasini quyidagicha yozish mumkin. Uning molekulasida glukopiranoza molekulalari 1,4 va 1,6-holatlarda o'zaro birikib, tarmoqlangan zanjirlar hosil qiladi. Umuman, turli xil o'simlik tugunaklari va urug'lari tarkibidagi kraxmal zarrachalarining hajmi va shakli bir xil emas.

Kraxmal ancha murakkab tuzilishga ega yuqori molekular birikma bo'lib, suvda erishi natijasida kolloid eritma hosil qiladi. Ular fermentlar yoki kislotalar ta'sirida gidrolizlanib, oldin kraxmalga nisbatan ancha soddaroq tuzilishga ega bo'lgan oraliq birikmalar, ya'ni dekstrinlar (amilodekstrin, eritrodekstrin, malto-dekstrin) hosil qilib, oxirida maltoza, u o'z navbatida ikki molekula glukozaga parchalanadi. Dekstrinlar yod ta'sirida har xil rang berish xususiyatiga ega.

**Glikogen** – bu hayvon organizmi uchun zaxira holatidagi uglevod bo'lib, organizmda, asosan, glukozadan sintezlanib jigarda (20%) va mushak to'qimalarida (4%) to'planadi. Kimyoviy tuzilishi va molekular og'irligi jihatidan amilopektinga yaqin bo'lgan uglevoddir.

Glikogen quruq holatda oq amorf kukun modda bo'lib, uning suvdagi eritmasi yod ta'sirida qizil qo'ng'ir rang berish xususiyatiga ega. U hayvon organizmida fermentlar ta'sirida tezda gidrolizlanib, oldin dekstrinlar, maltoza va glukozaga aylanadi, so'ngra fosfotlanib, modda almashinuvi jarayonida ishtirok etadi.

**Kletchatka** (selluloza) bu o'simlik hujayralari devorining asosiy tarkibiy qismini tashkil etadigan maxsus polisaxariddir. Uning tarkibi bir necha ming  $\beta$ -D-glukopiranoga molekulalari qoldiqlarining bir-biri bilan (1-4) glukozid bog'lari bilan birikishidan tashkil topgandir. O'simliklarda selluloza doimo gemiselluloza, lignin, piktin kabi birikmalar bilan aralashma holatida uchraydi. U sanoatda yog'ochni qayta ishlaydigan eng asosiy xomashyo hisoblanadi. Yog'ochni yuqori harorat va bosim ostida ishqorlar



Selluloza

hamda kalsiy bisulfat tuzlari ishtirokida qayta ishlash natijasida sof tolasimon holatdagи selluloza ajratib olinadi.

*Selluloza va kraxmal 4-gidroksil guruh orqali bog'langan D-glukozaning qoldiglaridan iborat bo'lib, kraxmal va selluloza o'rtaqidagi asosiy strukturaviy farq ularda monomerlarning turi va bog'lanishidadir. Sluloza, asosan, Selluloza bilan kraxmal o'z tarkibiga ko'ra bir xil molekular formula ( $C_6H_{10}O_5$ )<sub>n</sub> ga ega. Ammo bu birikmalar o'z xossalari jihatidan bir-biridan tamoman farq qiladi. Buning sababi kraxmal molekulalari chiziqsimon (amiloza) hamda tarmoqlangan (amilopektin) strukturaga ega. Selluloza molekulalari chiziqsimon tuzilgan. Bundan tashqari, kraxmal tarkibiga kiruvchi chiziqli tuzilishga ega bo'lgan amiloza makromolekulalari – glukoza qoldiglaridan tuzilgan. Selluloza molekulalari esa  $\beta$ -glukoza molekulasining qoldig'idan tashkil topgan. Polisaxaridlarning gidrolizlanishi o'ziga xos bo'lib, ulardan glukoza anomerlari hosil bo'ladi. Kraxmal gidrolizidan olti yetti va sakkiz siklli dikstren, ularning gidrolizidan esa gulukoza hosil bo'ladi.*

*German Email Fisher tadqiqotlari natijasida organik kimyoning uglevodlar haqidagi kashfiyotlari glukobiologiyaning vujudga kelishiga sababchi bo'ldi. Fishir tomonidan uglevodlarning turli strukturalari yaratildi va ularning turli sterokimyoviy epemerlari yaratildi. U monosaxaridlardan glukoza, mannoza va fruktozaning umumiy sintez yo'llarini o'ylab topdi. O'n yil (1884–1894) davomida qilgan bu kashfiyoti to'rt valentli uglerod birikmalar haqida Vant Goff va Le Bel tomonidan aytib o'tilgan edi. Bu kashfiyotlar tez rivojlanishiga qaramay, glukobiologiyada yig'ilgan ma'lumotlarning ko'pchiligi dolzarb muammolar bo'lib qolmoqda. Masalan Nuklien kisota va oqsillarning oddiy sintez yo'llari yo'q. Lekin polisaxaridlar kam miqdorda sintez qilishning umumiy usul mayjud. Bu kamchiliklarga qaramasdan, uglevodlarning tabiiy hosil bo'lishi va polisaxaridlarning xossalarni o'rganish natijasida ulkan yutuqlarga erishildi. O'tgan 50 yil davomida inson organizmida, ayniqsa, hujayralararo aloqalarda uglevodlarning ko'plab fuksiyalari o'rganildi. Bu sa'yi harakatlar inson glukobiologiyasida kimyoviy biologlarning imkoniyatlarini*

*kengaytirib, hujayralar va undan tashqarida uglevodlarning energiya manbayi ekanligi aniqlanmoqda.*

**1-tajriba.** Kraxmalning so'lak fermentlari ta'sirida gidrolizlanishi.

So'lak tarkibidagi amilaza fermenti ta'sirida kraxmal disaxarid-maltozaga qadar parchalanadi. Maltoza esa maltaza fermentining ta'sirida glukozaga qadar gidrolizlanadi.

**Kerakli asboblar:** 1. Shtativ (probirkalari bilan). 2. Har xil pipetkalar. 3. Suv hammomi. 4. Varonka. 5. Termometr. 6. Kim-yoviy filtr qog'oz.

**Reaktivlar:** 1. Kraxmalning 1% li eritmasi. 2. So'lak eritmasi.

Ishning bajarilishi: Probirkaga 2–3 ml kraxmal eritmasidan solib, ustiga so'lak eritmasidan solinadi. Probirkadagi aralashma yaxshi chayqatilib 35–40°C li suv hammomida 10–15 daqiqa saqlanadi. Keyin ikkinchi probirkaga shu qizdirilayotgan aralashmadan 1 ml olib, yod eritmasidan ta'sir ettirib ko'riladi. Agar kraxmal gidrolizlangan bo'lsa, yod ta'sirida eritma ko'k rangga kirmaydi. Keyin dastlabki eritmaga 2–3 ml feling suyuqligi qo'shilib aralashma qizdiriladi. Probirkadagi aralashmani qizdirish natijasida hosil bo'lgan glukoza feling suyuqligini qaytarib Cu<sub>2</sub>O qizil rangli cho'kma hosil bo'ladi.

#### ***Mustaqil ta'llim uchun savol va mashqlar:***

1. *Ovgat hazm qilishda, uglevodlarning parchalanishida qanday fermentlar ishtirot etadi?*
2. *Kavsh qaytaruvchi hayvonlarda uglevodlar parchalanishining asosiy belgilari nimada?*
3. *Katta qorinda hosil bo'ladigan uchuvchi yog' kislotalarning formulalarini yozing.*
4. *Glukozadan glikogenni sintezlanish jarayonida qanday oraliq mahsulotlar hosil bo'ladi?*
5. *ATF va ADF larning glikoliz jarayonidagi o'rni qanday?*
6. *Uglevodlar almashinuvini boshqarilishida gormonlarning roli qanday?*

## Lipidlar va ularning almashinuvi. Yog'larning Sovunlanish sonini aniqlash

Lipid va lipoidlar tabiatda tirik organizmlar tarkibida uglevod va oqsillar bilan birgalikda keng tarqalgan organik birikmalar jumlasiga kiradi. Lipidlar qishloq xo'jalik hayvonlari umumiyoq irligining 15–20% ni tashkil etadi. Yaxshi boqilgan cho'chqalarda esa 30% ga qadar bo'lishi aniqlangan.

Yog'lar organizmda joylashgan o'rinalariga qarab: protoplazmatik va rezerv yoki zaxira yog'lar guruhiga bo'linadi.

Protoplazmatik yog'lar, asosan, hujayralarning tarkibiy qismiga kirib, ularning miqdori deyarli o'zgarmas, doimiydir.

Rezerv yoki zaxira yog'lar esa teri ostida, yog' depolarida (dumbalarda) va ichak organlar atrofida joylashgan bo'lib, ularning miqdori doimiy emas. Organizm och qolganida yoki biror kasallikka yo'liqqa nida bu yog'larning miqdori o'zgarib turadi.

Protoplazma tarkibidagi yog'lar ko'pincha sof holatda emas, balki oqsil moddalar bilan birikkan murakkab birikmalar holatida bo'ladi. Bularga lipoproteidlarni ko'rsatish mumkin.

Lipidlar quyidagi ikki guruhga bo'lib qaraladi: neytral yog'lar va lipoid (yog'simon) birikmalar. O'z navbatida lipoid birikmalar: fosfatidlar, sterin va steridlar, serobrazidlar, ganglozidlar va mumlar kabi kenja guruhlarga bo'lib o'rganiлади. Bu birikmalarning hammasi ham hayvon organizmida o'tadigan biokimyoviy jarayonlarda turlicha rol o'yndaydi.

Masalan, neytral yog'lar hayvon organizmida qurilish materiali sifatida xizmat qilib, organizmning hayotchanligi uchun sarf etiladigan energiyaning 25–30% i shu yog'larning oksidlanishi natijasida hosil bo'ladi, ya'ni bir gramm yog' oksidlanganda 9,3 kkal energiya hosil qiladi.


Yog'larning organizmda oksidlanishi natijasida hosil bo'ladigan suvning, ayniqsa, cho'lda yashovchi hayvonlarning suvga bo'lgan chtiyojini qondirishda ahamiyati kattadir.

Teri osti yog'lari esa hayvon organizmini issiq saqlashda temoizolyatorlik rolini o'yndaydi. Ichki organlar atrofini o'rabi


olgan yog'lar esa organizmni turli xil ta'sirlardan, urilishlardan asraydi. Oziqa tarkibidagi yog'da eruvchi vitaminlarni (A, D, E, K) yog'da erib, qonga shimaladigan holga kelishida ham yog'larning roli katta. Hayvon organizmining hayotchanligi uchun lipoidlar alohida ahamiyatga egadir. Masalan, fosfotidlar yog'larning oksidlanishini aktivlashtiradi, ko'payish organlari (urug'don, tu-xumdon, sariq tana) hamda miya, jigar, muskullar tarkibiga kirib, ularning faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sterid va sterinlar esa organizm faoliyati uchun zarur bo'lgan turli xil biologik faol (vitamin D<sub>2</sub>, D<sub>3</sub>, o't kislotalari, jinsiy va buyrak usti bezi gormonlari kabi) moddalarning sintezlanish jarayonlarida bevosita ishtirot etadi. Serobrazidlar esa miya, jigar va markaziy nerv sistema to'qimalarining tarkibiga kiradi.

Neytral yog'lar hayvon organizmining o'rta hisobda 10–15% ni tashkil etib, elementar tarkibi jihatidan uglerod, vodorod va kislordan tashkil topgan. Kimyoviy tuzilishi jihatidan neytral yog'-larni uch atomli spirt glitserinning yuqori molekulali to'yingan va to'yinmagan organik kislotalar bilan o'zaro birikib hosil qilgan murakkab efirlari aralashmasi deb qarash mumkin. Ular glitseridlar deb ataladi. Neytral yog'lar tarkibida uchraydigan asosiy yuqori molekulali yog' kislotalariga vakil qilib quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

To'yingan organik kislotalar:



To'yinmagan organik kislotalar:




Bu formulalardan ko'rinish turibdiki, linol kislota molekulasiida ikkita va linolen kislota molekulasiida uchta ikkitalik to'yinmagan bog'lar mavjud. Bu kislotalar odam va hayvon organizmida o'zlarining sintez qilinmaslik xususiyati bilan boshqa kislotalardan farq qiladi. Shuning uchun ham organizm shu kislotalarga boy bo'lgan yog'lar (zig'ir va kungaboqar yog'lari)ni oziqaviy mahsulotlar bilan o'zlashtirib turishi zarur. Shu kislotalarning yetishmovchiligi ma'lum bir darajada organizmdagi moddalar almashi-

nuvining buzilishiga olib kelishi aniqlangan. To'yingan karbon kislotalar (palmitin va steorin kislotalari) asosan, qattiq yog'lar, ya'ni hayvon yog'larining tarkibida uchrab, to'yinmagan karbon kislotalari esa (olein kislota) asosan, yumshoq yoki suyuq, ya'ni o'simlik yog'larning tarkibini tashkil etadi. Turli xil hayvon yog'larining erish va qotish haroratlari bir xil emas. Ularning suyuqlanish yoki qotish haroratlari tarkibidagi kislotalarinining turiga bog'liq.

Yog'lar tarkibiga kiruvchi yog' kislotalarining turiga qarab oddiy va aralash yog'larga bo'linadi. Agarda yog'larning molekular tarkibida har xil yog' kislotalari birikkan bo'lsa, ularni aralash yog'lar deb aytildi. Masalan, ikkita steorin va bitta palmetin kislota qoldig'idan tashkil topgan yog' molekulasi.

Yog'lar par yoki qaynoq suv ta'sirida qizdirilsa, ular gidrolizlanishi, ya'ni tarkibiy qismlarga parchalanishi mumkin. Bu vaqtda yog'lar glitserin va yog' kislotalariga parchalanadi. Buni gidrolizlanish reaksiyasi ham deb aytildi. Agarda ishqor qo'shib qizdirilsa, bu reaksiyani sovunlanish reaksiyasi deb aytildi, chunki reaksiyaning oxirgi asosiy mahsuloti sovundir. Karbon kislotalarining natriy va kaliyli tuzlari sovundir. Natriyli tuzlar qattiq sovun bo'lib, kaliyli tuzlar esa suyuq sovundir. Sovun hosil qilish reaksiyasi quyidagicha:



Umuman, yog‘larning sifatini va tozaligini aniqlashda ularning quyidagi fizik konstantalaridan juda keng foydalilaniladi.

**Sovunlanish soni** – 1 gr yog‘ tarkibidagi erkin yog‘ kislotalari va yog‘larning sovunlanishi uchun sarflangan 0,1N kaliy ishqori (KOH)ning mg miqdori bilan aniqlanadi.

**Kislotali soni** — 1 gr yog' tarkibidagi erkin yog' kislotalarini titrlash uchun sarflangan 0,1N kaliy ishqori (KOH) ning mg miqdoriga tengdir.

Yog'lar ochiq havoda, kuchli yorug'lik ta'siri ostida uzoq mud-datgacha qolsa, ular ma'lum darajada tarkibiy qismlarga parchalanadi. Har xil kislotalar hosil bo'lishi natijasida yog'lar taxirlanadi, ya'ni achiydi. Achigan, eskirgan yog'larning kislotali soni yangi yog'larga nisbatan ancha katta bo'lishi ma'lum.

Yog'larning yod soni esa yog'larning tarkibidagi to'yinmagan kislotalarning miqdorini aniqlashga asoslangan. Bu son 100 g yog' tarkibidagi to'yinmagan kislotalarga birikkan yodning gramm miqdori bilan aniqlanadi. Yod soni naqadar katta bo'lsa, yog' tarkibidagi to'yinmagan yog' kislotalarining miqdori ham shuncha ko'p hisoblanadi.

O'simlik moylarining yod soni (soya moyi yod soni – 130, nasha urug'i moyining yod soni 150) hayvon yog'larining yod soni (sariyog' yod soni – 30, odam yog'i yod soni 64) ga nisbatan ancha balanddir. Bu o'simlik moylarining to'yinmagan yog' kislotalariga boy ekanligidan dalolat beradi.

### ❖ Lipoidlar (murakkab yog'lar)

Hayvon organizmida uchraydigan murakkab tuzilishga ega bo'lgan eng asosiy yog'lar, ya'ni lipoidlarga quyidagilarni ko'rsatish mumkin: fosfatidlar, sterin va steridlar, serobrazidlar hamda mumlar.


Fosfatidlar o'zlarining elementar tarkibi jihatidan neytral yog'-larga yaqin bo'lib, tarkibida fosfor va azot elementlari bo'lishi bilan ulardan farq qiladi. Umuman, fosfatidlarni neytral yog'larining hosilalari deb hisoblash mumkin, chunki yog' tarkibidagi glitseringa birikib kelayotgan uchta yog' kislotalaridan biri fosfor kislota qoldig'iga almashinadi va u esa o'z navbatida xolin, koalamin, serin yoki boshqa azotli birikmalar bilan birikib, fosfatid molekulasini hosil qiladilar. Shuning uchun ham fosfatidlar molekulasiga birikib kelayotgan azotli organik birikmaga qarab bir necha turga bo'linadi: xolin fosfatidlar (letsitinlar), kolamin fosfatidlar (kefalinlar), serin fosfatidlar, atsetal fosfatidlar, inozit fosfatidlar, sfingofosfatidlar va h.k. Fosfatidlarning molekular tarkiblarini quyidagicha ifodalash mumkin:



|



|



O —azotli organik birikmalar

Bu formulada R<sub>1</sub> va R<sub>2</sub> lar uglevodorod radikallaridir.

Fosfatidlar molekulasidagi fosfat kislotasi qoldig'ining joylashgan o'rniqa qarab α- va β-holatlarda bo'ladilar. Fosfatidlarning molekulasiga birikib keladigan azotli organik birikmalarning tuzilishi quyidagicha:





Xolin



Serin

Xolin fosfatidning molekular tuzilishi quyidagicha yoziladi:




Xolin fosfatid yoki α-letsitin

Fosfatidlar tirik organizmning hayotchanligi uchun juda muhim biologik ahamiyatga ega bo'lib, ular deyarli barcha hujayra va to'qimalarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular miya, o'pka, jigar, buyrak, yurak va nerv to'qimalarida ko'p miqdorda uchraydi. Tuxum sarig'i (8–10% gacha) va sut ham fosfatidlarga boydir.

Fosfatidlar organizmda oqsil moddalarning biosintezi, protrombinning faollashuvi, yog'larning va yog'da eriydigan vitaminlarning qon va limfa suyuqliklaridagi harakat qilish jarayonlarini stimulashda faol ishtirok etadi.

Sfingofosfatidlar fosfatidlarga nisbatan ancha murakkab tuzilishga ega. Bular gidrolizlanganda, moy kislotasi, xolin, fosfat kislotasi va sfingozinga parchalanadi. Sfingozinning tuzilishi quyidagicha:



Bular tirik organizmada miya, jigar, buyrak, me'da osti bezi, taloq va qon tarkibida uchraydi.

**Sterin va steridlar.** Sterinlar siklik, ya'ni halqasimon tuzilishiga ega bo'lgan spirtlar bo'lib, ularning karbon kislotalari bilan o'zaro birikishidan hosil bo'lgan birikmalari esa steridlar, ya'ni murakkab efirlardir. Bularning asosida siklopentanpergidrofenantren halqasi yotadi.

Sterinlar tabiatda barcha o'simlik (fitosterinlar) va hayvon (zoosterinlar) to'qimalarning tarkibida hamda zamburug'larda (mikosterinlar) sof holatda va murakkab efirlar, ya'ni steridlar holatida uchraydi.

Mumlar ham kimyoviy tabiatini jihatidan murakkab efirlar hisoblanadi. Lekin kimyoviy tarkibi va tuzilishi jihatidan yog'lardan farq qiladi. Chunki mumlarning tarkibiga uch atomli spirit glitserin mutlaqo kirmaydi. Ular oddiy bir atomli yuqori molekulalari spiritlarning yuqori molekulalari karbon kislotalar bilan o'zaro birikib, hosil qilgan murakkab efirlaridir. Ular ko'pgina o'simlik va hayvon organizmlarining tarkibida uchraydi.

Mumlarga eng oddiy vakil qilib spermatsetni ko'rsatish mumkin. U sitil spirtining palmitin kislotasi bilan o'zaro birikib hosil qilgan murakkab efiridir.

Palmitin kislotasi yuqori molekulalı mirisil spirti bilan ham birikib, murakkab efirlar hosil qiladi. Tarkibi quyidagicha:



Palmitin kislota Sitil spiri Palmitin kislota Miritsil spiri

Bu murakkab efirlar asalari mumlarining tarkibida hamda hayvon organizmida teri, jun va patlarning ustini qoplab turuvchi oddiy yog'lar tarkibida ham uchraydi. Ko'pgina o'simliklarning bargini va poyalarini qoplab turuvchi moysimon moddalar ham umumlardan tashkil topgan.

Bulardan tibbiyot va veterinariyada turli xil surkov moylarni tayyorlashda, parfumeriyada pomadalar, sanoatda sham tayyorlashda juda keng foydalaniladi.

To'qimalarda yog'larning oksidlanishi ancha murakkab jarayon bo'lib, lipaza, degidrogenaza kabi fermentlar ishtirokida o'tadi. Yog'larning parchalanish jarayonini markaziy nerv sistemasi


gormonlar yordamida boshqarib boradi. Bulardan me'da osti bezi ishlab chiqaradigan insulin gormonlari, buyrak usti bezining adrenalin gormoni muhimdir.

### ❖ Glitserinning oksidlanishi

Yog'larning parchalanishi natijasida to'qimalarda hosil bo'lgan glitserinning oksidlanishi glitserokinaza fermentining ta'sirida ATP bilan bo'ladigan reaksiyadan boshlanadi. Bu vaqtda glitserin fosfat kislota birikmasi hosil bo'ladi va ADF ajralib chiqadi. Reaksiya quyidagi bosqichlarda o'tadi:




b) Hosil bo'lgan bu birikma glitserodegidraza fermentining ta'sirida oksidlanib, glitserin aldegidining 3-fosfatiga aylanadi.



Glitserin fosfat kislota      Glitserin aldegid 3-fosfat

c) Hosil bo'lgan bu birikma keyinchalik karbon kislotalar sikliga ulanib, anaerob sharoitda  $\text{CO}_2$ ,  $\text{H}_2\text{O}$  va energiyaga parchalanib ketadi.




## ❖ Yog' kislotalarining oksidlanishi

Oksidlanish jarayoniga, asosan, juft karbon atomli yog' kislotalar kiradi. Uzun zanjirli karbon kislotalariga nisbatan kalta zanjirli yog' kislotalarining oson parchalanishi ham ma'lumdir.

Yog' kislotalarining parchalanishi karboksil guruhi joylashgan tomonidan  $\alpha$  va  $\beta$  karbon atomlari orasidan juft karbon atomlari hosil qilib uziladi. Bu qonuniyatni 1904-yilda Knopp degan olim aniqlagan. Shuning uchun  $\beta$ -oksidlanish jarayoni uning nomi bilan yuritiladi.

Knopp reaksiyasining mexanizmini yaxshi o'zlashtirish uchun birorta juft karbon atomli yog' kislotasining, masalan, kapron kislotasining  $\alpha$ -oksidlanish reaksiyasini ko'rib chiqish mumkin.

To'qimalarda har qanday katta molekulali yog' kislotalari oksidlanish jarayoniga yo'liqqanda ATP ishtirokida koenzim A-SH molekulasini biriktirib olib, faol holatdagi yog' kislotalariga aylanib, keyin kimyoviy jarayon davom etadi. Buni quyidagi reaksiya asosida ko'rish mumkin. R=uglevodorod radikalidir.



Kapron kislotasining  $\alpha$  va  $\beta$  kapron atomlaridan flavin fermentining ishtirokida bir molekula vodorod ( $-H_2$ ) ajralib chiqib, to'yinmagan kapron kislotasi hosil bo'ladi. Bunga bir molekula suv ( $+H_2O$ ) birikishi natijasida  $\beta$ - oksikapron kislotasi hosil bo'ladi. Unga kodegidraza fermentining ta'sirida oksi guruh birikkan qismidan bir molekula vodorod ( $-H_2$ ) ajralib chiqib  $\beta$ - keto-kapron kislotasi hosil bo'ladi. Unga desmolaza fermentining ta'sirida bir molekula suv birikib, moy va sırka kislotalariga parchalanadi. Oksidlanish reaksiyasiga kirishgan kapron kislotasi ikkita karbon atomiga qisqarib, moy kislotasiga aylanadi hamda sırka kislotasi hosil bo'ladi.

Ma'lumki, to'qimalarda yog'larning parchalanishi natijasida to'yinmagan yog' kislotalari ham hosil bo'ladi. Bu kislotalar o'zlarining to'yinmagan bog'lari hisobiga vodorodni biriktirib olib, to'yingan yog' kislotalariga aylanganlaridan keyingina  $\alpha$ - oksidlanish reaksiyalariga kirishadi.

Yog'lar, uch atomli spirt gliserinning ( $CH_2OH-CHOH-CH_2OH$ ) (har xil yuqori molekulali yog' kislotalari bilan o'zaro birikib hosil qilgan murakkab efirlaridir. Ular gliseridlar ham deb ataladi.

Yog'larning tarkibiga ko'pincha to'yingan yuqori molekular kislotalardan palmitin ( $C_{15}H_{31}-COOH$ ) va stearin ( $C_{17}H_{35}-COOH$ ) kislotalari, to'yinmagan kislotalardan esa, olein ( $C_{17}H_{33}-COOH$ ), linol ( $C_{17}H_{31}-COOH$ ) va linolen ( $C_{17}H_{29}-COOH$ ) kislotalari kiradi.

Tarkibida uchta bir xil karbon kislotasini tutuvchi oddiy yog'lar (glitseridlar) bilan bir qatorda, molekulasiда har ikkala karbon kislotalarini tutuvchi murakkab glitseridlar ham uchraydi. Yog'lar, yuqori temperaturadagi suv bug'larining ta'sirida va yog'larni parchalovchi (lipaza) ferment ishtirokida glitserin va yuqori molekular organik kislotalarga parchalanadi. Ishqorlarning eritmasi ta'sirida sovun hosil bo'ladi. Bu reaksiyani yog'larning sovunlanish reaksiyasi deyiladi: Yog'larning kimyoviy xossalari quyidagi tajribalar yordamida o'rGANAMIZ.

### **1-tajriba. Yog'larning kislota sonini aniqlash.**

Tabiiy yog'lar tarkibida doimo ma'lum bir miqdorda erkin yog' kislotalari uchraydi. Agarda yog'lar ko'p vaqt davomida havoda yoki yorug'lik ostida qolsa, ularda erkin yog' kislotalarining miqdori ortadi. Yog'lar tarkibidagi erkin yog' kislotalarning miqdorini, ishqor eritmasi bilan titrlash orqali aniqlanadi.

**Kerakli asboblar:** 1. 100 ml li kolba. 2. Byuretka. 3. 1 va 10 ml li pipeptkalar.

**Reaktivlar:** 1. Kaliy ishqorining (KOH) 0,1N eritmasi. 2. Efir va spirt aralashmasi. (1:1). 3. Konsentrangan xlorid kislota. 4. Fenolftalein.

**Ishning bajarilishi:** kolbagaga 1 ml yog' olib, uni 10 ml spirt efir aralashmasida eritilib, ustiga bir necha tomchi fenolftalein

tomizib, KOHning 0,1N eritmasi bilan binafsha rang hosil bo‘lguncha titrlanadi. Kolbadaga 1 ml yog‘ni titrlash uchun ma’lum miqdorda ishqor eritmasi sarflanadi, bu yog‘ tarkibida erkin kislotalarning borligini bildiradi. Kolbadaga 1 ml yog‘ tarkibidagi erkin yog‘ kislotalarni titrlash uchun sarflangan kaliy ishqorining milligramm miqdoriga yog‘larning kislota soni deyiladi. Achigan, eskirgan yog‘larning kislota soni yangi yog‘nikiga nisbatan ancha yuqori bo‘ladi. Achigan yog‘ bilan ham shunday tajriba o’tkaziladi.

### **2-tajriba. Yog‘larning Sovunlanish sonini aniqlash**

**Kerakli asboblar:** 1. Kolbachalar. 2. Kimyoviy stakan. 3. Suv hammomi. 4. Pipetkalar. 5. Shisha xolodilnik. 6. Byuretka. 7. Analitik tarozi. 8. O‘Ichov silindri.

**Reaktivlar:** 1. 0,5 normal kaliy ishqorining spirtli eritmasi. 2. Xlorid kislotasining 0,5N eritmasi. 3. Fenolftalein. 4. Yog‘.

**Ishning bajarilishi:** yog‘ning Sovunlanish sonini aniqlash uchun ikkita kolba olib, biriga 1–2 gr yog‘ solib, ustiga kaliy ishqorining 0,5 normal spirtli eritmasidan 25 ml quyilib, kolbaning og‘ziga shisha xolodilnik o‘rnatalidi. Keyin (sovunlanish reaksiyasi to‘liq o‘tgunga qadar) 1 soat davomida qaynayotgan suv hammonida qizdiriladi. Kolbadagi aralashmaga 2–3 tomchi fenolftalein eritmasidan tomizilib byuretkadagi xlorid kislotaning 0,5 normal eritmasi bilan eritmaning gulobi rangi yo‘qolgunga qadar titrlanadi, ya’ni reaksiyaga kirishmagan kaliy ishqorining miqdori aniqlanadi.

Ikkinci kolbaga esa faqatgina NaOH ning 0,5 normal eritmasidan 25 ml olib, yog‘ solmasdan xuddi yuqoridagi singari tajriba o’tkaziladi. Bu kontrol tajriba hisoblanadi.

Sovunlanish soni quyidagi tenglama asosida hisoblanadi:

$$C_c = \frac{28,05 \cdot (a - b)}{C}.$$

Bu tenglamada:

$C_c$  – Sovunlanshi soni;

$a$  – kontrol kolbadagi aralashmani titrlash uchun sarflanganligi 0,5N xlorid kislota miqdori;

$b$  – birinchi kolbadagi aralashmani titrlash uchun sarflangan 0,5N xlorid kislota miqdori;

28,05 – 1 ml 0,5N kaliy ishqori eritmasi tarkibidagi KOH – ning mg miqdori;

C – olingan yog'ning miqdori.

**3-tajriba. Yog'larning yod sonini aniqlash.**

Bu tajriba yod soni yordamida yog'larning tarkibidagi to'yinmagan kislotalarning miqdorini aniqlashga asoslangandir.

**Kerakli asboblar:** 1. Kolba. 2. Pipetka. 3. Byuretka. 4. Suv hammomi.

**Reaktivlar:** 1. Yodning 0,2 normal spirtli eritmasi. 2. Tiosulfatning 0,1 normal eritmasi. 3. Kraxmalning 1% li eritmasi. 4. Yog'. 5. Spirt.

**Ishning bajarilishi:** ikkita kolba olib birinchisida 0,2–0,3 gr yog' 25–30 ml spirt obdan eritiladi va 0,2 gr yodning spirtli eritmasidan 25 ml qo'shiladi. Ustiga 200 ml suv quyilib yaxshilab aralashtiriladi. Aralashma 5 daqiqqa davomida tinch holatda qoldiriladi, eritma, avvalo, tiosulfatning 0,1N eritmasi bilan kuchsiz sarg'ish rang hosil bo'lguncha titrlanadi. Keyin aralashmaga kraxmal eritmasidan 1 ml qo'shib, eritmaning ko'k rangi yo'qolguncha qayta titrlanadi. Ikkinci kolbaga yodning 0,2N spirtli eritmasidan 25 ml olib, yog' solmasdan xuddi shunday tajriba o'tkaziladi. Oldingi va keyingi kolbadagi aralashmani titrlash uchun sarflangan tiosulfidning miqdoriga qarab, yod soni haqida fikr yuritiladi.

**4-tajriba. Lipaza fermenti ta'sirida yog'larning parchalanishi.**

*Klinik kimyoda, misol uchun ponkreatit kasalligida zardobdag'i lipaza miqdorini o'chash orqali tashxis qo'yiladi. Lipaza uzun zanjirli yog' kislota-triglitseridni gidrolizlaydi. Reaksiya natijasida mavjud bo'lgan triglitseridning har bir molidan ikki mol yog' kislota va bir mol b-monoglitserid erkin holda ajraladi. Reaksiya ma'lum vaqt davomida boradi va so'ngra erkin holda ajralgan yog' kislota fenolftalein indikatori yoki pH metr yordamida NaOH bilan titrlanadi. Keltirilgan vaqtida ajralgan yog' kislota miqdori lipaza faolligiga bog'liq bo'ladi.*

**Kerakli asboblar:** 1. 50 ml li kolbachalar. 2. Pipetkalar. 3. Byuretkalar.

**Reaktivlar:** 1. O't suyuqligining 5 marta suyultirilgan eritmasi. 2. Sut. 3. Distillangan suv. 4. Fenolftaleinning 1% li eritmasi.

5. Natriy ishqorining 1 va 0,1N eritmasi. 6. Meda osti bezining ekstrakti.

**Ishning bajarilishi:** uchta tekis tubli kolba olib, ularning har biriga 5 ml dan sut solinadi va ular nomerlanadi. Keyin birinchi kolbachaga 0,5 ml distillangan suv, ikkinchi va uchinchi kolbachalarga esa 0,5 ml dan 5 marta suyultirilgan o't suyuqligi eritmasidan quyladi. Keyin uchala kolbachaga ham 2–3 tomchidan fenolftaleinning 1%li eritmasidan tomizilib, sut tarkibidagi erkin yog' kislotalari (sutni ko'p suyultirib yubormaslik kerak) oldin natriy ishqorining 1N eritmasi bilan (bir necha tomchi), keyin 0,1N eritmasi bilan och pushti rang hosil bo'lguncha titrlanadi. Keyin kolbadagi aralashmalarini 10–15 daqiqa davomida muhit haroratiga teng bo'lguncha tinch qo'yiladi.

Keyin birinchi va ikkinchi kolbachalarga 1 ml dan meda osti bezi ekstraktidan qo'yiladi. Kolbadagi aralashmalar yaxshi chayqatilib (aralashtirib), yana 10–15 daqiqa uy haroratida qo'yiladi. Bu paytda aralashma tarkibidagi yog'larning gidrolitik parchalanishi natijasida qaytadan yog' kislotalari hosil bo'ladi, ularni natriy ishqorining 0,1N eritmasi bilan titrlanadi. Sarflangan ishqor eritmasining ml miqdori hisoblab boriladi.

#### **Mustaqil ta'lim uchun savol va mashqlar:**

1. *Yog'lar qanday klassifikatsiyalanadi?*
2. *Lipidlarning biologik roli va ularning kimyoviy tuzilishi?*
3. *Yog'larning fizik va kimyoviy xossalari?*
4. *Hazm yo'lida lipidlarga ta'sir etuvchi qanday fermentlar ishlab chiqariladi?*
5. *Yog'larning parchalanishida o't suyuqligining roli.*

#### ♦ Laboratoriya ishi № 4.12

##### **Aminokislotalar, oqsillar va ularning almashinushi.**

##### **Aminokislotalar, peptidlар va oqsillarga xos sifat reaksiyalari**

Oqsillar – tirik organizmlar tarkibida uchraydigan, ancha murakkab tuzilishga ega birikmalardir. Ular hujayralarda kolloid eritmalar holida tarqalgan yuqori molekulali azotli organik moddalardir. Ularning organizm to'qimalaridagi turi mingdan ortiq.

Oqsil moddalar organizmida o'tadigan turli xil fiziologik funksiyalarni bajarishda faol ishtirok etadi. Muskul to'qimalarining qisqarishi, ovqat hazm bo'lishi, o'sishi va rivojlanish kabi jarayonlar ham oqsil tabiatli birikmalar ishtirokida o'tadi. Masalan, organizmdagi moddalar almashinuvি jarayoni, biologik katalizatorlar, ya'ni fermentlar hamda biologik faol moddalar — gormonlar (insulin, lipokain, adrenalin) ishtirokida o'tadi. Hayvon organizmini har xil kasalliklarga berilishdan asraydi. Bunday oqsillar antitelalar deb ataladi. Ular hujayralarning tarkibiy qismiga kirib, organizmning tayanch to'qimasini (tog'ay, suyak) hosil qiladi, irlsiy belgilarni nasldan-nasnga ko'chirishda murakkab oqsil nukleoproteidlarning roli katta.

*Tirk organizmning hayotchanligi uchun zarur bo'lgan barcha fiziologik va biokimyoiy jarayonlar oqsilli moddalar bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham F. Engels «hayot» tushunchasini shunday ifodalagan edi: «Hayot — oqsil moddalarning yashash usulidir, bu yashash usuli esa o'z mohiyati bilan mazkur moddalarning kimyoyiy tarkibiy qismlarini doimo o'z-o'zini yangilab turishdan iborat. Biz hayotni uchratadigan hamma yerda — hayot biron-bir oqsil modda bilan bog'lik ekanligini ko'ramiz». F. Engels «Tabiat dialektikasi» asari, 1957-y.*

Barcha oqsillarning tarkibi uglerod, vodorod, kislород va azot elementlaridan tashkil topgan bo'lib, bular oqsillarning zarur tarkibiy elementlaridir. Organizmда bulardan tashqari oz miqdorda bo'lsa-da, oltingugurt va fosfor elementlari ham uchraydi.

Organizmда uchraydigan ayrim oqsilli moddalarning tarkibida yod, temir, mis, brom va marganes kabi mikroelementlar ham uchrashi aniqlangan.

Barcha oqsillar tarkibida uchraydigan zarur tarkibiy elementlarning o'rtacha foiz miqdori quyidagicha: uglerod 50,6–54,5% kislород 21,5–23,5%, vodorod 6,5–7,5%, azot 15–18%, oltingugurt 0,25–0,3% ni tashkil etadi.

Turli xil oqsillarning tarkibida azot elementining o'rtacha foiz miqdori doimo bir xil, ya'ni 16% ( $100:16=6,25$ ) bo'lganligi sababli, organizm organlari va to'qimalari tarkibidagi oqsillarning foiz miqdorini aniqlash uchun topilgan azotning umumiyl miqdorini

6,25 ga ko'paytiriladi. Oqsil tarkibidagi azotning foiz miqdori Keldal usuli bilan aniqlanadi. Odam va hayvon organlarining to'qimalari, o'simliklarnikiga nisbatan oqsillar miqdori jihatidan ancha farq qiladi.

Hayvon organizmlarida oqsilli moddalarning miqdori boshqa organik moddalar (uglevodlar, yog'lar) miqdoriga nisbatan ancha ko'p. Quritilgan holatdagi odam va hayvon tanasining 40–50% i oqsilli moddalardan iborat ekanligi ma'lum.

Oqsillar ayrim moddalar bilan kimyoviy reaksiyalarga kirishib, turli xil rangli reaksiyalarni berish xususiyatiga ega.

**1. Biuret reaksiyasi.** Bu reaksiya oqsillar tarkibidagi peptid ( $\text{CO}-\text{NH}-$ ) bog'lariga xos reaksiyalar. Ko'pgina biuret ( $\text{H}_2\text{N}-\text{CO}-\text{HN}-\text{CO}-\text{NH}_2-$ ), oksamid ( $\text{H}_2\text{N}-\text{CO}-\text{CO}-\text{NH}_2$ ), polipeptid yoki oqsillarning ishqoriy eritmalariga mis sulfat eritmasidan qo'shilsa, binafsha rangga bo'yalgan kompleks tuzlar hosil qiladi. Bu reaksiya eritmadagi modda tarkibida peptid bog'lari borligini ko'rsatadi. Bu tajriba ko'pincha mochevina bilan o'tkaziladi. Chunki mochevina qizdirilganda ammiak ajralib chiqib, biuret hosil bo'ladi.

**2. Ningidrin reaksiyasi.** Bu reaksiya oqsil tarkibidagi  $\alpha$ -aminokislotalardagi erkin aminoguruhining ningidrin bilan bo'ladigan reaksiyasiga asoslangan. Ningidrin reaksiyasi natijasida hosil bo'ladigan rangning intensivligi gidrolizat tarkibidagi aminokislotalarning miqdoriga yoki oqsil molekulasi dagi erkin aminoguruhlarning miqdoriga bog'liqdir.

**3. Ksantoprotein reaksiyasi.** Bu reaksiya oqsil molekulalari tarkibidagi fenil-alanin, triptofan va tirozin kabi siklik (aromatik) aminokislotalarni aniqlashga yordam beradigan reaksiyadir. Bunda oqsil molekulasi tarkibiga kiruvchi aromatik aminokislotalar nitrolanish reaksiyalariga kirishib, aralashmada sariq rangli oqsillarning nitrobirikmalari hosil bo'ladi.

**4. Adamkevich reaksiyasi.** Bu reaksiya triptofan aminokislitasining glioksil kislotasi bilan birikishiga asoslangan. Glioksal kislotasi doimo konsentrangan sirka kislotasining tarkibida uchraydi. Bu reaksiyada ikki molekula triptofan glioksal kislotasi bilan reaksiyaga kirishib, qizil-binafsha rangli birikma hosil qiladi.


**5. Milloon reaksiyasi.** Bu reaksiya oqsil molekulalari tarkibidagi tirozin aminokislatasining fenol yadrosiga xos reaksiyadir. Oqsil eritmalariga ikki va bir valentli simobning nitrat yoki nitrit tuzlari ta'sir ettirilganda oqsil oldin cho'kmaga tushib, keyin esa astasekin qizdirilganda cho'kma qizil rangga bo'yala boshlaydi. Bu oqsil molekulasida tirozin aminokislatasining bor ekanligidan dalolat beruvchi sifat reaksiyadir.

### Aminokislatalar va ularning tasnifi:

Tabiatda 100 dan ortiq aminokislatalar ma'lum bo'lib, shulardan tabiiy oqsil gidrolizatining tarkibida 20 ga yaqin turli xil kimyoviy tuzilishga ega bo'lgan  $\alpha$ -aminokislatalar uchraydi.

Aminokislatalar so'f holatda rangsiz kristall moddalar bo'lib, ularning suvdagi eritmalarini neytral, kuchsiz kislotali yoki ishqoriy reaksiyali bo'lishi mumkin. Chunki ularning molekulalarida ( $\text{NH}_2$ ) amin va (-COOH) karboksil funksional guruhlar mavjud. Aminokislota molekulasidagi amin va karboksil guruhlarining soniga qarab, suvli eritmalarida har xil muhit hosil qilishi mumkin. Masalan, monoaminomonokarbon kislatalar suvdagi eritmalarida neytral reaksiyaga ega, chunki bir  $-\text{NH}_2$  guruhiga bir  $-\text{COOH}$  gurubi to'g'ri keladi. Bunday aminokislota eritmalarini lakkus qog'oz rangini o'zgartirmaydi. Monoaminodikarbon kislatalar esa asosli muhitga ega. Aminokislatalarning birinchi vakili aminosirka kislotasidir. U glikokol yoki glitsin deb yuritilib, birinchi marotaba kley (jelatina)ning gidrolizatidan ajratib olingan. Tarkibi quyidagicha:  $\text{H}_2\text{N}-\text{CH}_2-\text{COOH}$


Keyingi aminokislatalar molekulasida assimetrik karbon atomini tutib, ular L-qatori aminokislatalar deb qaraladi. Ularning tuzilishi quyidagicha ifodalanadi:



Tabiiy oqsillarning tarkibiga kiruvchi barcha  $\alpha$ - L-qatorli aminokislatalarni  $\beta$ -L-alaninning hosilalari deb qarash mumkin. Uning  $\alpha$ -holatdagisi vodorod atomlarini har xil uglevodorod yoki

geterosiklik birikmalarning radikallariga almashigan sifatida qaraladi.

Ayrim organik birikmalarning tarkibida assimetrik uglerod atomlari bo'lgani singari barcha  $\alpha$ -aminokislotalarning tarkibida (glitsindan tashqari) ham assimetrik uglerod atomlari bor. Shuning uchun ham ularga optik faol birikmalar sifatida qaraladi. Masalan,  $\alpha$ -aminopropion kislota – alanining ikkita sterioizomeri tabiatda mavjuddir:



Tabiatda mavjud bo'lgan barcha aminokislolar molekulasi dagi uglevodorod zanjirlarining tuzilishiga qarab ikki katta guruhga: asiklik va alisiklik aminokislotalarga bo'lib o'rGANILADI.

### ❖ Oqsillarning kimyoviy tuzilishi va tasnifi

Hayvon organizmida uchraydigan barcha organik birikmalar ichida oqsillar o'zlarining murakkab struktura tuzilishga egaliklari bilan boshqalardan farq qiladi.

Oqsillarning kimyoviy tuzilishini o'rGANISH ULARNI TARKIBIY qismlarga parchalashdan boshlanadi. Bu jarayon ikki xil yo'nalishda o'tishi mumkin:

a) biologik katalizatorlar, ya'ni fermentlar ta'sirida me'yordagi harorat 37–40°C da parchalash, ya'ni gidrolizlash. Bu, asosan, tirik organizmlar tarkibida o'tadi.

b) oddiy katalizatorlik rolini bajaruvchi (masalan, 2,5% li sulfat yoki 30% li xlorid) kislota yoki ishqorlarning eritmalari ishtirokida yuqori 100–110°C haroratda 10–12 soatiab qizdirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu jarayon natijasida hosil bo'lgan qoramtil suyuqlik oqsillarga xos bo'lgan reaksiyalarni bermaydi. Chunki bunday sharoitda, masalan, oddiy oqsil molekulalari o'zlariga nisbatan ancha soddaroq tuzilishga ega bo'lgan quyidagi mahsulotlarga: pepton, polipeptid, oddiy peptid va oxiri oqsil

gidrolizning eng so'nggi mahsuloti aminokislotalarga qadar parchalanadi. Bu hosil bo'lgan oraliq mahsulotlar va aminokislota aralashmasi yuqorida ko'rsatilgan tegishli sifatli reaksiyalarni beradi. Har xil hayvon oqsillarining gidrolizatlarini o'rganish natijasida oddiy oqsillar tarkibiga faqatgina aminokislotalar kirishi aniqlangan. Hayvon qon zardobida uchraydigan har xil oqsillarning aminokislota tarkiblari ham bir-birlaridan sifat va miqdor jihatidan farq qiladi.

Oqsillarning tuzilishini o'rganishda rus olimi professor A.Ya. Danilevskiyning (1888-y.) ilmiy izlanishlari katta ahamiyatga egadir. U birinchi bo'lib oqsil moddalarning molekular tarkibini tashkil etuvchi aminokislotalar bir-birlari bilan peptid (CO-NH-) bog'lari yordamida o'zaro birikib, uzun zanjirlar hosil qilishi mumkin ekanligi haqida fikr yuritdi. Keyichalik bu fikrni E. Fisher yanada chuqurroq o'rganib chiqib, aminokislotalarning o'zaro birikishidagi jarayonlarni to'lig'icha tushuntirib berdi. Ya'ni, bir aminokislotaning karboksil (-COOH) guruhi bilan ikkinchi aminokislotaning amin (-NH<sub>2</sub>) guruhi hisobidan bir molekula suv ajralib chiqib, ular o'zaro birikadi. Ikkala aminokislota orasida hosil bo'lgan umumiy bog' peptid bog' deb aytildi.

Ikkita aminokislotaning peptid bog'lari yordamida o'zaro birikishidan hosil bo'lgan birikma dipeptid deb ataladi. Uchta aminokislotadan tashkil topgan birikma esa tripeptid, bir qancha aminokislotalarning birikishidan hosil bo'lgan mahsulot esa polipeptid deb aytildi. Bularning hammasining ham bir tomoni amin (-NH<sub>2</sub>), ikkinchi tomoni esa karboksil (-COOH) guruhi bilan tugallanadi:

Oqsil molekulasingin birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va to'rtlamchi strukturasi bor. Oqsil molekulasingin asosini tashkil etadigan polipeptid zanjirlarini oqsilning birlamchi strukturasi deb qaraladi.

Oqsil molekulasinga polipeptid zanjirlari to'g'ri holatda emas, balki egilgan, buralgan, ya'ni spiralsimon holatda bo'ladi. Oqsil molekulasingin spiralsimon holati va unda polipeptid zanjirlarining vodorod bog'lari yordamida tortilib turishi oqsilning ikkilamchi strukturasini tashkil etadi.

Oqsil molekulasida uchraydigan disulfid ko'prikhalar (bog'lar) oqsil molekulasining uchlamchi strukturasini tashkil etadi. Ular aynan bitta polipeptid zanjirining o'zida joylashgan sistein aminokislotalari orasida yoki oqsil molekulasidagi polipeptid zanjirlari orasida joylashishi mumkin. Oqsil molekulasining uchlamchi strukturasini tashkil etuvchi disulfid ( $-S-S-$ ) bog'lar vodorod bog'lariga nisbatan ancha mustahkam bog'lardir. Ularni faqatgina yuqori harorat (100–110°C) va kuchli kislota yoki ishqorlar ta'sirida uzish mumkin. Oqsil denaturatsiyaga uchraganda bu bog'lar uzilib, polipeptid zanjirlari o'z tuzilishini o'zgartiradi. Demak, oqsilning strukturasi ham o'zgaradi. Ayrim oqsillarning molekulalari mustaqil polipeptid zanjirlaridan tashkil topgan bo'ladi. Bu polipeptidlarning o'zi ham mustaqil holatdagi birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi struktura tuzilishga ega. Bunday holatlarda oqsilning to'rtlamchi strukturasi haqida fikr yuritiladi. Bunday oqsillarga molekulasida to'rtta polipeptid zanjiriga ega bo'lgan va ularni bog'lab turuvchi birorta ham disulfid ko'prikhalar bo'lmasligi gemoglobinni ko'rsatish mumkin.

Oqsil molekulalari o'zlarining shakliy ko'rinishlariga qarab fibriliyar (uzun ipsimon, tolasimon, ya'ni jun va muskul to'qimalari tarkibida uchraydigan) hamda globulyar (sharsimon, ya'ni qon zardobi tarkibida, sut kazeini va tuxum oqsili tarkibida uchraydigan) oqsillarga bo'linadi.

Barcha oqsillar o'zlarining tarkibiy tuzilishlariga qarab ikki katta guruhga: proteinlar – oddiy oqsillar va proteidlar – murakkab oqsillarga bo'lib o'rganiladi. Bunday bo'linish, asosan, o'zlarining gidrolizlanish mahsulotlariga qarab belgilangan. Chunki ayrim oqsillar gidrolizlanganda faqatgina aminokislotalarga qadar parchalanadi. Bunday oqsillar oddiy oqsillar, ya'ni proteinlar deb atalib, ularga: albumin, globulin, giston, protamin, prolamin kabilarni ko'rsatish mumkin.

Ayrim oksillar gidrolizlanganda esa sof oqsil, ya'ni aminokislotalardan tashqari oqsil bo'lmasligi birikmalarni (nuklein kislotalar, uglevodlar, fosfat kislota kabilarni) hosil qiladi. Shuning uchun bunday oqsillar murakkab tarkibiy qismiga ega bo'lgan oqsillar deb hisoblanib, proteidlar deb yuritiladi. Bular tarkibidagi nooqsil

qismalar tabiatiga qarab quyidagicha: nukleoproteidlar (tarkibiga nuklein kislotalar kiradi), xromoproteidlar (tarkibiga pigmentlar kiradi), fosfoproteidlar (tarkibiga fosfat kislota qoldig'i kiradi), glukoproteidlar (tarkibiga shakarlar kiradi), lipoproteidlar (tarkibiga yog'lar kiradi) deb o'qiladi.

### ❖ Oddiy oqsillar (proteinlar)ning tavsifi

Oddiy oqsillardan tabiatda keng tarqalganlari va barcha o'simlik, hayvon oqsillari tarkibida uchraydiganlari hamda yaxshi o'rganilganlari albumin va globulinlardir. Bular qon plazmasi, tuxum oqi va sut zardobi tarkibida uchraydigan oqsillarning asosiy qismini tashkil etadi. To'qimalardagi albumin va globulinlarning o'zaro bir-biriga nisbati doimo bir xil saqlanadi. Organizm ma'lum bir kasallikka yo'liqqanda ularning o'zaro nisbati o'zgarishi mumkin ekanligi aniqlangan.

Sof holdagi albumin suvda yaxshi eriydi, globulinlar esa suvda yaxshi erimaydi, ammo ular tuz, kislota va ishqorlarning suyultirilgan kuchsiz eritmalarida yaxshi eriydi. Albuminlar neytral, globulinlar esa kuchsiz kislotalidir.

Albumin va globulinlardan tayyorlangan ayrim preparatlar tibbiyot va veterinariyada turli xildagi kasalliklarni davolashda juda keng ishlataladi.

Oddiy oqsillarning ichida eng sodda tuzilishga ega bo'lganlari protamin va giston kabi oqsillardir. Ularning tarkibida diamino-kislotalar (ayniqsa, lizin aminokislotasi) ko'p bo'lib, ular ishqoriy tusga egadir. Suvda yaxshi eriydi. Baliqlarning spermasi va urug'i hamda hayvonlarning buqoq bezi protamin oqsiliga boy. Gistonlar esa eritrosit, leykositlar tarkibida ko'p bo'ladi va hujayra yadrolari tarkibiga kiradigan murakkab oqsillar (nukleoproteidlar) tarkibida uchrashi aniqlangan.

Hayvon organizmida oqsilsimon moddalar sifatida qaraladigan proteinoidlar deb ataluvchi oqsillar ham bo'lib, ular ham organizm hayotchanligi uchun muhim ahamiyatga egadir. Bularغا birlashtiruvchi va qo'shuvchi to'qimalar tarkibiga kiruvchi kollagen, pay va boylamlar tarkibida uchraydigan elastin; soch, shox, tirnoq va jun tarkibiga kiruvchi keratin; hashorat va o'rgimchaklarning ip

chiqaradigan bezlari tarkibida uchraydigan fibrin deb ataluvchi oqsillarni kiritish mumkin. O'simlik oqsillari jumlasiga prolamin kiradi. Bu oqsil suv va tuz eritmalarida erimay, 70–80 % li etil spirti eritmasida yaxshi erish xususiyatiga egadir.

**Proteinlar – eruvchanligiga qarab guruhlarga bo'linadi.** **Masalan, albuminlar va globulinlar.** Albuminlar suvda yaxshi eriydi,  $(NH_4)_2SO_4$  to'yingan eritmasida cho'kmaga tushadi, masalan, tuxum albumini, qon zardobida (zardob albumini), sut albumin misol bo'ladi. Molekular og'irligi uncha katta emas. Globulinlar – suvda erimaydi, tuzlarning o'rtacha konsentratsiyasida, masalan, 8–10% NaCl, MgSO<sub>4</sub> eritmalarida eriydi. Ularni cho'kmaga tushirish uchun suv yoki tuz qo'shib konentratsiyasi oshiriladi. Globulinlarning molekular ogirligi albuminlarnikidan katta. Globulinlar sutda (sut globulini), qon zardobida (zardob globulini) bo'ladi. Odatda, proteinlarga proteinoidlar deb ataluvchi oqsillar ham kiradi. Ular suv, tuz, ishqor, kislota eritmalarida erimaydi, gidrolizga chidamliligi bilan farq qiladi. Ular hayvon organizmida uchrab, muhum ahamiyatga ega. Teri, soch, tirnoq, shox tarkibiga kiruvchi keratin, ipak fibrini misol bo'ladi.

**Proteidlar – tarkibidagi oqsilsiz moddalar – prostetik guruhlarning xiliga qarab bir necha guruhga bo'linadi.** Xromoproteidlar – oqsil qismi va birorta bo'yoq qismidan iborat. **Masalan, gemoglobin – organizmda kislorod tashuvchi vazifani bajaradi.**

#### ♦ Fermentlar ta'sirida oddiy oqsillarning aminokislotalarga qadar parchalanishi va so'riliishi

Oziqa tarkibidagi oqsillar hayvon organizmida sof aminokislotalarga qadar parchalangandan keyingina ichak devorlari orqali qonga so'riliadi va hujayralarda o'sha organizmga xos bo'lgan yangi oqsillarning sintezlanish jarayonida ishtirop etadi. Oziqa oqsilining 95–97% i sof aminokislolar holida so'riliishi aniqlangan. So'lak tarkibida tegishli fermentlar bo'lmaganligi sababli og'iz bo'shilg'ida oqsillar gidrolizlanmaydi. Ularning gidrolizlanishi me'da va ingichka ichakda tegishli fermentlarning ishtiropida o'tadi. Bu jarayonning o'tishida me'da shirasi tarkibidagi erkin xlorid kislotasi

katta rol o'ynaydi. Birinchidan, oqsillarning bo'kishini ta'minlab, ularga fermentlarning ta'sir etishini osonlashtiradi. Ikkinchidan, me'da shilliq pardasi tomonidan ishlab chiqariladigan, faol holatda bo'lman pepsinogenning faol pepsinga o'tishini ta'minlaydi hamda fermentlarning faolligini oshiradi.

Pepsin fermenti kerantin, musin, giston kabi oqsillarni juda sekinlik bilan, ya'ni uzoq muddat ta'sir etib turgandan keyingina gidrolizlashi mumkin, lekin barcha boshqa turdag'i oqsil moddalarini, ayniqsa, albumin va globulinlarni osonlik bilan gidrolizlash xususiyatiga ega. Pepsin fermenti, asosan, tirozin va fenilalanin aminokislotalari orasida hosil bo'lgan peptid bog'larni osonlik bilan parchalaydi. Shuning uchun ham oqsil gidrolizining dastlabki bosqichida bir nechta aminokislotadan tashkil topgan peptidlar hosil bo'ladi. Oqsillarning hazm bo'lish jarayonida hosil bo'lgan shu peptidlar aralashmasi peptonlar ham deb yuritiladi. Peptonlar o'z navbatida oqsil molekulasiga nisbatan ancha soddaroq tuzilishga ega bo'lgan yuqori molekulali moddalar bo'llib, tarkibida erkin aminokislotalarni ham tutuvchi aralashmadir. Shuning uchun ham turli xil mahsulotlardan (go'sht, tuxum, baliq va h.k.) hosil bo'lgan peptonlar tarkibi jihatidan bir xil bo'lmaydi.

Me'dada oqsilli moddalar (peptonlar) aminokislotalarga qadar gidrolizlanmaganligi sababli ularning so'riliш jarayoni kuzatilmaydi. Me'dadan barcha aralashma o'n ikki barmoqli ichakka o'tadi. Unda oqsil aralashmasining aminokislotalarga qadar to'liq parchalanishiga barcha sharoit bor. Me'da va ichak shirasi tarkibidagi tripsin, ximotripsin, karboksi peptidaza, aminopeptidaza kabi fermentlar aralashma tarkibidagi polipeptid (pepton)larni to'liq aminokislotalarga qadar parchalanishini ta'min etadi. Yuqoridagi har bir ferment ma'lum bir peptid bog'larni parchalash xususiyatiga ega. Tripsin fermenti lizin va arginin aminokislotalari o'rtasidagi peptid bog'larni gidrolizlasa, ximotripsin esa leysin, metionin va aromatik aminokislotalar o'rtasidagi peptid bog'larni uzish xususiyatiga ega.

Karboksipeptidaza fermenti polipeptid zanjirining ochiq karboksil (-COOH) funksional guruhini tutuvchi tomonidagi aminokislotani uzib tashlasa, aminopeptidaza esa polipeptid

zanjirining ochiq amin (-NH<sub>2</sub>) guruhini tutuvchi tomonidagi aminokislotalarni navbatlab uzish xususiyatiga ega.

Tripsin va ximotripsin fermentlari me'da va ichak shirasi tarkibida faol emas, ya'ni tripsinogen va ximotripsinogen holatida uchrab, ular keyin faol holatga o'tadi. Tripsinogen ichak shirasi tarkibidagi enterokinaza fermenti ta'sirida faol tripsinga aylanadi. Ximotripsinogenning faol ximotripsinga aylanishi ancha murakkab bo'lib, to'liq aniqlanmagan.

Kavsh qaytaruvchi hayvonlarda oziqaning parchalanishi ularning katta qorinda sodda hayvonlar, bakteriyalar va mikroorganizmlarning bo'lishi bilan ajralib turadi. Ular kletchatka, kraxmal, oqsil hamda azotli oqsilsiz moddalarni parchalovchi fermentlar ajratadi. Shu fermentlar ta'sirida kavsh qaytaruvchi hayvonlarning katta qornida oqsillar aminokislotalarga qadar parchalanadi. Keyin aminokislolar dezaminlanish jarayonini o'tib, ammiak ajratib chiqaradi. Bir qism aminokislolar katta qorindagi mikroorganizmlar oqsilining sintezlanishi uchun sarflanib, qolgan qismi qonga so'rilib.



Katta qorinda ko'pgina aminokislolar, purin va pirimidin asoslari hamda organik va anorganik azotli tuzlar, ammiak (NH<sub>3</sub>) karbonat angidrid gazi va boshqa moddalarga qadar parchalanadi. Hosil bo'lgan ammiakning bir qismi mikrob oqsillarining sintezlanishiga sarflanib va qolgan qismi qonga so'rilib, jigarga boradi hamda mochevina sintezida ishtirok etadi.

Bir qismi esa qon orqali so'lak bezlariga borib, so'lak orqali ovqat hazm bo'lish yo'liga o'tadi. Kavsh qaytaruvchi hayvonlarning ehtiyoji uchun sarflanadigan oqsil moddalarning 25–30% i mikroorganizmlar oqsili hisobiga ta'minlanadi. Bu oqsillar to'la qimmatli oqsillar bo'lib, tarkibida barcha kerakli aminokislotalarni tutadi.

Oqsil sintezi va to'qimalar uchun ishlatilmagan aminokislolar organizmda to'planib qolmaydi. Ular turli xil fermentativ o'zgarishlarga uchraydi. Ularning kimyoviy tarkibi va tuzilishi har xil bo'lganligi tufayli ularning almashinuv yo'llari ham bir-biridan farq qiladi. Lekin dezaminlanish va dekarboksillanish jarayonlari barcha aminokislotalarga xosdir.

**Aminokislotalarning dezaminlanishi.** Dezaminlanish – oqsil sintezida ishtirok etmay qolgan aminokislotalarning amin guruhlari yo'qotilishidir. Bu jarayon bir necha xil (qaytarilish, oksidlanish, gidrolitik va h.k.) holatlarda o'tadi, lekin barchasi ham oxirgi mahsulot sifatida ammiak ajratib chiqaradi. Hayvon organizmida ko'pincha oksidlanishga aloqador dezaminlanish jarayoni uchraydi. Bu, asosan, degidrogenaza fermenti (koferment NAD) ishtirokida o'tadi.

Bu jarayonlarda doimo  $\text{NH}_2$  guruhidan ammiak hosil bo'lishi, azotsiz qismdan esa yo to'yingan yoki to'yinmagan yog' kislotasi yoki ketokislota va nihoyat, oqsil kislota hosil bo'lishi kuzatilgan. Masalan:



Aminokislotalarning dezaminlanish mahsulotlari modda almashinuv jarayonlarida ishtirok etadi.

**Qayta aminlanish jarayoni.** Qayta aminlanish, ya'ni trans-aminlanish aminokislolar bilan ketokislota, ya'ni karboksil funksiyasidir. Bu reaksiya ammiak ajralib chiqmay turib, birinchi birikma aminokislota tarkibidagi amin guruh vodorod qoldig'i bilan birlgilikda ikkinchi birikmadagi karbonil guruhning kislorodi bilan almashinadi. Natijada yangi tarkibga ega bo'lган aminokislota va keton birikma hosil bo'ladi.

Reaksiyaga kirishayotgan birinchi birikma (aminokislotani) donor va ikkinchi (ketobirikmani) akseptor deb ham yuritiladi. Akseptor sifatida ko'pincha ketokislolar ishtirok etadi. Bu jarayonni birinchi bo'lib 1937-yilda A.U. Brunshteyn va M.G. Krisman kashf etganlar. Ular qayta aminlanish jarayonida ammiak


ajralib chiqmasligini va bu reaksiyada keto hamda aminodikarbon kislotalarning roli katta ekanligini ko'rsatib bergenlar.

**Aminokislotalarning dekarboksillanishi.** Dekarboksillanish aminokislotalarning karboksil guruhini yo'qotib, tegishli amin birikmalarga aylanish jarayonidir. Bu jarayonni birinchi bo'lib 1876-yilda M.V. Nenskiy degan olim kuzatgan. U aromatik aminokislota fenilanining dekarboksilsizlanish mahsuloti bo'lgan feniletilaminni jelatindan ajratib olishga muyassar bo'lgan:



### COOH

Bu jarayonlarda ishtirok etadigan fermentlarni dekarboksilazalar deb aytildi. Bularning kofermenti fosfopiridoksaldir. U vitamin B<sub>6</sub> ning fosforlangan shaklidir. Hayvon organizmida turli xil aminokislotalarning dekarboksillanishi natijasida turli xil amin birikmalar (gistidindan – gistamin, tirozindan – tiramin, triptofandan – triptamin va h.k.) hosil bo'ladi. Bu amin birikmalar organizmda juda past (kichik) konsentratsiyada hosil bo'ladi. Shunga qaramasdan, ular qon tomirlariga va qon bosimiga kuchli fiziologik ta'sir ko'rsatish xususiyatiga egadirlar, ya'ni biologik faol moddalardir. Bu birikmalarning organizmda katta konsentratsiyada hosil bo'lishi va to'planishi xavfli va zararlidir. Shuning uchun bu birikmalar tegishli fermentlar (aminooksidaza) ta'sirida oksidlanib, aldegidlarga va ammiakga aylantirib yuboriladi:



Bu jarayon natijasida hosil bo'lgan aldegidlar qayta oksidlanib, yog' kislotalariga aylanib ketadi va tegishli sintezlarda ishtirok etadi. Ma'lum bir qismi qayta oksidlanish jarayonlariga yo'liqib, H<sub>2</sub>O va CO<sub>2</sub> ga parchalanib ketadi. Hosil bo'lgan ammiak doimo qonga so'rilib tursa-da, qonda uning miqdori 1 mg % dan oshmaydi. Ammiak organizm uchun zaharli birikmadir. Shuning uchun ham uning ko'p miqdorda to'planib turishiga organizmning o'zi yo'l qo'ymaydi. Ammiakning ko'pgina qismi bir qancha maxsus reaksiyalar tufayli yo'q qilib yuboriladi.

Ammiakni zararsizlantirishning yana bir yo'li mochevina sintezi bilan bog'liq. Umuman, mochevina aminokislotalar, ya'ni oqsilli

moddalar parchalanishining so‘nggi mahsulotidir. Siydiq tarkibidagi azotli moddalarning 90% i mochevina va 6% ammiak ulushiga to‘g‘ri keladi.

Tirik organizmda mochevina hosil bo‘lishida asosiy rolni jigar o‘ynaydi. Mochevina sintezi haqidagi birinchi nazariya M.V. Nenskiy tomonidan yaratilgan. Uning xizmati shundaki, u mochevina karbonat angidrid va aminokislotalar dezaminlanganda hosil bo‘ladigan ammiakdan sintezlanishini isbotlab bergen.

Organizmda mochevina sintezi – bu ammiakni zararsizlantiruvchi eng muhim jarayonlardan biridir. Shu sintez natijasida jigarda zaharli xossaga ega bo‘lgan ammiakdan qutilib, bezarar modda mochevina hosil qilib, qon orqali buyrakka yetkazilib, siydiq bilan chiqarib yuboriladi. Barcha qishloq xo‘jalik hayvonlari uchun oqsil moddalar va azotli asos nuklein kislotalari modda almashtinuvining so‘nggi mahsuloti mochevina, qushlar uchun *esa siydiq kislotasidir*.

#### ❖ Aminokislotalar va oqsillar

Oqsil va aminokislotalarning sifat va miqdorini aniqlashda ularda sodir bo‘ladigan rangli reaksiyalardan keng foydalilanildi. Bu reaksiyalar ikki guruhgaga bo‘linib o‘rganiladi.


1. Oqsil tarkibidagi har xil kimyoviy bog‘lar borligidan yuzaga chiqadigan rangli reaksiyalar.

2. Aminokislotalarning funksional gruppalari bilan yuzaga chiqadigan rangli reaksiyalar.

#### *1-tajriba. Biuret reaksiyasi.*

Oqsil eritmasi ishqoriy muhitda mis sulfat ionlari bilan pushtibinafsha yoki ko‘k-binafsha rang beradi. Rangning hosil bo‘lishi, oqsil molekulasidagi peptid bog‘larining mis ionlari bilan hosil qiladigan kompleksiga bog‘liq.

Biuret reaksiyasini oqsilning to‘la parchalanmasligi natijasida hosil bo‘ladigan pepton va polipeptidlar ham beradi. Bunday rangli reaksiyani karbamid (machevina)ni qizdirgan paytda hosil bo‘ladigan biuret ham beradi. Reaksiya quyidagi tenglamaga inuvofiq boradi:



Biuret reaksiyasi paytida hosil bo‘ladigan kompleksning rangi peptid zanjirining uzunligiga qarab har xil bo‘lishi mumkin. Masalan, to‘rtta aminokislota qoldig‘idan iborat polipeptid bera-digan kompleks qizil, tripeptid-binafsha rang va nihoyat, dipeptid ko‘k rang beradi.

Biuret reaksiyasini o'z molekulasida —CS—NH— yoki —CO—NH— guruhi bo'lgan birikmalar va shuningdek, aminokislotalardan gistidin, amidlardan asparagin ham beradi. Biuret reaksiyasining rangi eritmadi mis ionlari miqdoriga qarab o'zgaradi, ya'ni mis sulfat eritmasi ko'proq qo'shilsa ko'k rang, kamroq qo'shilsa pushti rang hosil bo'ladi.

**Kerakli asboblar.** 1. Probirkalar. 2. Pipetkalar. 3. Shtativ.  
4. Elektr plitka yoki gaz gorelka.

**Reaktivlar:** 1. Oqsil eritmasi. 2. Karbamid kristallari. 3. 10% li natriy hidroksid eritmasi. 4. 1% li mis sulfat eritmasi.

**Ishning bajarilishi:** ishni bajarish uchun yaxshi yuvilib quritilgan probirkaga karbamid kukunidan ozroq solib, elektr yoki gaz plitkada qizdiriladi. Qizdirish natijasida karbamid suyuq holatga o'tadi. Agar qizdirishni davom ettirsak, u yana qotadi. Karbamidning qattiq holatga o'tishi bilan qizdirish to'xtatiladi. Karbamidning qizdirilish paytida biuret hosil bo'ladi, ammiak esa havoga chiqib ketadi. Ammiakning chiqishini uning hididan bilish mumkin.


Probirka sovigach, unga 1 ml natriy gidroksid eritmasi solib chayqatiladi va 1–2 tomchi mis sulfat eritmasidan tomizilib aralashtiriladi. Natijada probirkadagi eritma pushti rangga o'tadi. Mis sulfatni qo'shishda ehtiyyot bo'lish kerak. Agar undan ko'proq qo'shilsa, eritma ko'k-havo rangga o'tib ketishi mumkin.

Bu ishni o'simlik oqsili bilan ham olib borish mumkin. Buning uchun probirkaga o'simlik oqsilidan solib, uning ustiga 1 ml natriy gidroksid eritmasi tomizib chayqatiladi. So'ngra 1–2 tomchi mis sulfat qo'shib, eritma asta-sekin aralashtiriladi. Probirkada binafsha rang hosil bo'ladi.


Olingan natijalar asosida zaruriy xulosa chiqariladi.

### 2-tajriba. Ningidrin reaksiyasi.

Oqsillar,  $\alpha$ -aminokislotalar va politeptidlardan ningidrin bilan o'zaro reaksiyaga kirishib, zangori yoki binafsha rangli birikmalar hosil qiladi. Aminokislotalarning ningidrin bilan o'zaro ta'sir reaksiyasi quyidagi tenglamaga muvofiq sodir bo'ladi:



Qaytarilgan ningidrin va ammiak yana bir molekula ningidrin bilan o'zaro birikib, zangori-binafsha rangli birikma hosil qiladi:



**Kerakli asboblar:** 1. Probirkalar; 2. Pipetkalar. 3. Shtativ. 4. Elektr plitka yoki gaz gorelka.

**Reaktivlar:** 1. Oqsil eritmasi. 2. 0,1% li glitsin eritmasi. 3. 0,2% li ningidrin eritmasi.

**Ishning bajarilishi:** probirkaga 1–2 ml glitsin eritmasi olinib, uning ustiga 5–6 tomchi ningidrin reaktivididan tomiziladi va sekin-asta qizdiriladi. Qizdirish natijasida binafsha rang hosil bo'ladi. U keyinchalik zangori rangga o'tishi mumkin.

Shunday reaksiyani oqsil eritmasi bilan ham o'tkaziladi. Buning uchun probirkaga 1–2 ml oqsil eritmasidan olib, uning ustiga 5–6 tomchi ningidrin reaktivididan qo'shib qizdiriladi, natijada binafsha rang hosil bo'ladi. Zangori-binafsha rangning hosil bo'lishi  $\alpha$ -aminokislotalarning borligini ko'rsatadi. Olingan natija daftarga yozib boriladi.


### **3-tajriba. Ksantoprotein reaksiyasi.**

**Kerakli asboblar:** 1. Pipetkalar. 2. Shtativ. 3. Elektr plitka yoki gaz gorelka. 4. Probirkalar.

**Reaktivlar:** 1. Oqsil eritmasi. 2. 0,1% li fenol eritmasi. 3. Konsentrangan nitrat kislota. 4. 20% li natriy gidroksid yoki ammiak eritmasi. 5. 1% li jelatin.

Oqsil eritmasini konsentrangan nitrat kislota bilan qo'shib qizdirilsa, sariq rang hosil bo'ladi. Shu sariq rang ustiga ozroq ammiak yoki natriy gidroksid eritmasidan qo'shsak, probirkada zarg'aldoq rang oqsil bo'ladi. «Ksantos» yunoncha so'z bo'lib, «sariq» degan ma'noni bildiradi. Shuning uchun bu reaksiyaga ksantoprotein nomi berilgan. Kuchli nitrat kislotaning teriga, tirnoqqa, junga va boshqa xildagi oqsil tutuvchi moddalarga tushgan paytida ham sariq rang hosil bo'ladi.

Oqsil eritmasi (tarkibida tirozin, fenilalanin yoki triptofan aminokislotalari bo'lsa) konsentrangan nitrat kislota bilan qizdirilganda sariq rang hosil bo'ladi:



**Ishning bajarilishi:** 3 ta yuvilgan toza probirkalarda aralashmalar ustiga ammiak yoki natriy gidroksid qo'shsak, birinchi va ikkinchi probirkalardagi sariq rang, zarg'aldoq ko'rinishga o'tadi. Uchinchi probirkada esa bu holat kuzatilmaydi. Bu esa jelatin tarkibida yuqorida bayon etilgan amanokislotalarning yo'qligini ko'rsatadi.

Probirkalardagi aralashmalar ustiga ammiak yoki natriy gidroksid qo'shsak, birinchi va ikkinchi probirkalardagi sariq rang, zarg'aldoq ko'rinishga o'tadi. Uchinchi probirkada esa bu holat kuzatilmaydi. Bu esa jelatin tarkibida yuqorida bayon etilgan amanokislotalarning yo'qligini ko'rsatadi.

#### **4-tajriba. Adamkevich reaksiyasi.**

Reaksiya triptofan aminokislatasining glioksal kislotasi bilan birikishiga asoslangandir. Glioksal kislotasi doimo konsentrangan sirka kislotasining tarkibida uchraydi. Bu reaksiyada ikki molekula triptofan glioksal kislotasi bilan reaksiyaga kirishib qizil-binafsha rangli birikmani hosil qiladi.

**Kerakli asboblar:** 1. Shtativ (probirkalari bilan).

**Reaktivlar:** 1. Tuxum oqsilining suyultirilgan eritmasi. 2. Konsentrangan sirka va sulfat kislotasi.

**Ishning bajarilishi:** Probirkaga bir necha tomchi oqsil critmasidan tomizilib, ustiga konsentrangan sirka kislotasidan 1 ml quyiladi va probirkani yonboshlatib uning devori orqali sekinlik bilan 1 ml konsentrangan sulfat kislotasi quyiladi. Suyuqliklar aralashib ketmasligi kerak. Ikki suyuqlik chegarasida qizil binafsha halqa hosil bo‘ladi.

#### **5-tajriba. Oltingugurt tutuvchi aminokislatalarga xos Fol reaksiyasi.**

**Kerakli asboblar:** 1. Shtativ (probirkalari bilan). 2. Spirit lampasi.

**Reaktivlar:** 1. Qo‘rg‘oshin asetatning 0,5% li eritmasi. 2. Natriy ishqorining 20% li eritmasi. 3. Tuxum oqsilining suyultirilgan critmasi.

**Ishning bajarilishi:** probirkaga qo‘rg‘oshin asetatning 0,5% li critmasidan olib ustiga natriy ishqorining 20% li eritmadasidan tomchilab, hosil bo‘lgan qo‘rg‘oshin gidroksid erib ketgunga qadar quyiladi va ustiga 4–5 tomchi oqsil eritmadasidan tomizib, aralashma qizdiriladi. Natijada eritmaning qoramtilrangga o‘tishi kuzatiladi.

#### ♦ Laboratoriya ishi № 4.13

##### **Oqsillarni cho‘ktirish reaksiyalari**

Oqsil eritmalarining tuzlar ta’sirida cho‘kmaga tushishiga oqsillarning tuzlanishi deyiladi. Bunda cho‘ktirilgan oqsillarning tabiiy holati o‘zgarmaydi, ya’ni oqsil molekulalari gidrat pardalaridan xoli bo‘ladi. Hosil qilingan cho‘kmalar tegishli erituvchi ta’sirida

qaytadan eritma holatiga kelishi mumkin. Oqsillarning makro-molekulalari tuzlanish jarayonida chuqur o'zgarishlarga (denaturatsiyaga) uchramaydi.

Qaytar cho'kma hosil qilish reaksiyalari ko'pincha oqsillarning suvdagi eritmalariga ishqoriy metallarning tuzlarini ta'sir ettirish natijasida amalgा oshiriladi. Bunday tuzlarga quyidagilar:  $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ ,  $\text{NH}_4\text{Cl}$ ,  $\text{Na}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{NaCl}$ ,  $\text{KC1}$  misol bo'ladi. Bu tuzlar ionlarining oqsilning kolloid zarrachalariga ta'sir etish mexanizmi quyidagicha: ya'ni tuzlarning oqsillar mitsellasingning zaryadiga qarama-qarshi zaryadli ionlar oqsilning kolloid bo'lakchasi yuzasiga adsorbsiyalanadi (shimiladi) va mitsellaning zaryadini neytrallaydi, natijada oqsil kolloid bo'lakchalarining zaryadi kamayadi – elektroneytral holatga o'tadi, bir-birini itarish kuchi kamayadi.

Bundan tashqari, ishqoriy metallarning tuzlari eritmadi suvni ko'p miqdorda o'ziga bog'lab oladi, natijada kolloid zarrachalar degidratlanib (suvsizlanish) holati yuz beradi va oqsilning kolloid bo'lakchalari bir-biri bilan birikib, oqsil cho'kmaga tushadi.

Bu metodni tuzlar ta'sirida cho'ktirish deb qaraladi. Oqsillarni bunday cho'ktirish qaytar jarayon deb qaraladi, quyuq oqsillarning bu cho'kmalariga suv quyilganda u erib, qaytadan kolloid eritma holatiga o'tadi. Bu jarayonga peptizatsiya deyiladi.

Ammoniy sulfatning konsentrangan eritmalarini deyarli hamma oqsillarni cho'ktirish xususiyatiga ega. Masalan, oqsil eritmalarini ammoniy sulfat tuzi bilan chala to'yinganda, avvalo, globulinlar cho'kmaga tushadi. To'liq to'yinganda esa albuminlar cho'kmaga tushadi.

Natriy, kaliy xlorid tuzlari va magniy sulfat tuzlari bilan oqsil eritmasini to'liq to'yintirgandan keyin globulinlarni cho'kmaga tushiradi. Kuchli kislotali muhitda bu tuzlar albuminlarni ham cho'kmaga tushiradi.

#### ❖ Oqsillarning denaturatsiyalanish reaksiyalari

##### **I-tajriba. Og'ir metall ionlari ta'sirida oqsillarni cho'ktirish.**

Og'ir metall tuzlarining ionlari (mis, qo'rg'oshin, kumush, simob va h.k.) ta'sirida oqsillar kolloid eritmasi qaytmas koagulyatsiya holatiga, ya'ni gel holatiga o'tadi. Bu ionlар oqsil moleku-

lalari bilan mustahkam kompleks birkalar hosil qiladi. Bundan tashqari ular ta'sirida oqsillarning koloid bo'lakchalarining zaryadi kamayadi, hatto, oqsillarning ikkinchi va uchinchi strukturalari ham chuqur o'zgarishga uchraydi.

Og'ir metallar tuzlarning ta'sirida cho'kmaga tushgan oqsil cho'kmalari, boshlang'ich eritmalar, ya'ni suv va tuzlarning kuchsiz eritmalarida ham eriydi.

Oqsillarning og'ir metallar tuzlarning ionlarini biriktirib cho'kmaga tushgan xossasidan tibbiyot va veterinariyada mis, simob, qo'rg'oshin tuzlari bilan zaharlanganda zaharsizlantirish uchun keng qo'llaniladi.

**Kerakli asboblar:** 1. Shtatav (probirkalari bilan). 2. Shisha tayoqchalar.

**Reaktivlar:** 1. Natriy xlorning to'yigan eritmasi 2. Kumush nitratning 3% li eritmasi 3. Mis sulfat tuzining 0,5% li eritmasi 4. Qo'rg'oshin atsetat tuzining 0,5% li eritmasi. 5. Simob (II) xlоридning (sulema)  $HgCl_2$ , 0,5% li eritmasi. 6. Tuxumning oq qismidan tayyorlangan, 20 barobar hajmda suyultirilgan va bir necha qavat dokadan filtrlangan oqsil eritmasi.

**Ishning bajarilishi:** to'rtta probirkaga 1–2 ml dan oqsil eritmasidan quyladi. Birinchi probirkaga qo'rgoshin atsetat tuzining 5% li eritmasidan, ikkinchi probirkaga mis sulfat tuzining 0,5% li eritmasidan, uchinchi probirkaga kumush nitrat tuzining 3% li eritmasidan va to'rtinchi probirkaga esa simob (II) xlоридning 0,5% li eritmasidan (xushyor bo'ling, zahar!) solinadi. To'rttala probirkada ham oqsillar cho'kmaga tushadi. Qo'rg'oshin atsetat va mis sulfat tuzining eritmalarini solingan probirkalarga yana shu eritmadan biroz qo'shilganda cho'kmaga tushgan oqsillarining erib ketganligi kuzatiladi.

Simob tuzi solingan probirkaga natriy xlоридning to'yigan eritmasidan 7–8 tomchi tomizilganda, cho'kmaga tushgan oqsilning erib ketishi kuzatiladi.

**2-tajriba. Mineral kislotalar ta'sirida oqsillarni cho'ktirish.**

Konsentrangan mineral kislotalar (ortofosfat kislotasidan tashqari) oqsil eritmalarida qayta erimaydigan cho'kmalar hosil qiladi. Bu reaksiya qaytmas reaksiya hisoblanadi. Oqsillarning

kolloid bo'lakchalari degidratatsiyalanadi va ularning zariyadlari neytrallanadi, natijada kompleks birikmalar – kislotalar bilan tuzlar hosil bo'ladi. Mineral kislotalar (nitrat kislotasidan tashqari) cho'kmaga tushgan oqsillarni eritib yuborish xususiyatiga ega.

**Kerakli asboblar:** 1. Shtativ (probirkalari bilan).

**Reaktivlar:** konsentrangan xlorid, sulfat va nitrat kislotalari. 2. Oqsil eritmasi.

**Ishning bajarilishi:** uchta probirka olib, har biriga ehtiyyotlik bilan 1 ml dan birinchiiga xlorid kislotasi, ikkinchiiga sulfat va uchinchiiga nitrat kislotasidan quyiladi. Uchala probirkadagi kislotalar ustiga ham sekinlik bilan 1 ml dan oqsil eritmasidan quyiladi. Probirkadagi ikkala suyuqlikning chegarasida, halqalar holatida oqsilning oq cho'kmalari hosil bo'ladi.

Har bir probirkani sekinlik bilan chayqatiladi. Bu vaqtda xlorid va sulfat kislotalari solingan birinchi va ikkinichi probirkalardagi oqsil cho'kmalari erib ketadi. Nitrat kislotasi solingan uchinchi probirka chayqatilganda ham cho'kma erib ketmaydi.

#### ♦ Laboratoriya ishi № 4.14

#### **Qon zardobi tarkibidagi umumiyoq oqsil miqdorini biuret reaksiyasi asosida aniqlash**

*Oqsil miqdorini aniqlash zarur klinik o'lcov hisoblanib, diagnostikada jigarning ishdan chiqish sababini aniqlashda qo'llaniladi. Keldal usuli o'zining yuqori aniqligiga qaramasadan, jarayon judayam sekin va murakkabdir. Lekin Keldal jarayoni uzoq vaqtlardan buyon qo'llanilib kelinadigan usul hisoblanadi. Shuningdek, Biuret va Lori usullari ham mavjuddir. Biuret usulida mis (II) ionlari hamda binafsha kompleksi saqlaychi reaktiv Cu<sup>2+</sup> ionlari va peptid bog'lar o'rtaida taqsimlangan. Biuret usuli avtomatlashтирilган tarzda o'tadi. Lori jarayonida oqsil namunasini ishqoriy misli eritma bilan ko'rib chiqiladi, u fenolli reaktiv bilan olib boriladi. Uning rangi ko'k molibdenga fosforvolframli kislota va fosformolibdenli kislotalarning qisqarishi tusayli rivojlanadi. Spektrofotometriyada Biuret hamda Lori usul-larini miqdoriy analiz uchun qo'llaniladi.*

Hayvon organizmida qonga tinmay turli-tuman moddalarning o'tishi va undan ajralib turishiga qaramay, qonning kimyoviy tarkibi normada bo'ladi, ya'ni ancha o'zgarmas sanaladi.

Qon plazmasining eng muhim tarkibiy qismi oqsillardir. Qon plazmasida normada 6,5–8,5% atrofida oqsil bo'ladi. Bu miqdor qon plazmasi tarkibidagi suvning miqdoriga qarab (konsentratsiyasi past yoki yuqoriroq bo'lib) o'zgarishi mumkin. Qondagi o'zgarishni patologik holatlarda kuzatish mumkin. Umuman, qon plazmasi tarkibidagi oqsil va oqsilli fraksiyalarni aniqlash klinik jihatdan juda ham muhimdir. Oqsillarning miqdor jihatdan o'zgarishi oraganizmda ma'lum bir kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Qon plazmasi, sut zardobi, tuxum oqining asosiy oqsillari jumlasiga albuminlar, globulinlarni kiritish mumkin. Qon plazmasi tarkibidagi albumin va globulinlar nisbati 1,5–2,3 atrofida o'zgarib turadi. Ayrim yuqumli kasalliklarda qon plazmasidagi globulinlar miqdori ko'payib ketadi. Bunda organizm infeksiyaga javoban qonda antitelalarini to'playdi. Antitelalar, asosan, globulinlardan tashkil topgan. Umuman, globulinlar qon plazmasining biologik jihatdan muhim oqsillari jumlasiga kiritiladi.

Bu tajriba oqslillarning ishqoriy muhitda mis sulfat tuzi bilan binafsha rangli birikmalar hosil qilishiga asoslangandir.

**Kerakli asboblar:** 1. FEK-56M (fotoelektrokolorimetrik) apparati. 2. Shtativ (probirkalari bilan). 3. Pipetkalar va o'lchov kolbasi.


**Reaktivlar:** 1. Albuminning 10% li eritmasi. 2. Biuret reaktivi. 3. Biuret reaktivining ishchi eritmasi. 4. Natriy xloridning 0,9% li eritmasi. Tegishli reaktivlarni tayyorlash o'quv qo'llanma ilovasida berilgan.

**Ishning bajarilishi:** probirkaga 0,1 ml qon zardobidan quyib ustiga 5 ml biuret reaktividan solib yaxshilab chayqatiladi. 30 daqiqadan keyin aralashmaning optik zichligi FEK-56M apparatida 540–560 to'lqin uzunligi va ko'k yorug'lik filtrida solishtirish eritmasiga nisbatan o'lchab ko'rildi.

Solishtirish eritmasini tayyorlash uchun 5,0 ml ishchi biuret eritmasi, osh tuzining 0,9% li eritmasidan 0,1 ml quyulib, xuddi yuqoridagi jarayon qaytariladi. Hisoblash kalibrlangan grafik asosida olib borladi.

Albuminning 10% li eritmasidan quyidagi jadvalda ko'rsak gilgandek ishchi standart eritmalar tayyorlanadi.

| Nº T/N | Albuminning 10% li eritmasi (ml) | 0,9% li osh tuzi eritmasi (ml) | Albumin konsentrasiyasi g % hisobida |
|--------|----------------------------------|--------------------------------|--------------------------------------|
| 1      | 0,4                              |                                | 4                                    |
| 2      | 0,6                              | 0,6                            | 6                                    |
| 3      | 0,8                              | 0,4                            | 8                                    |
| 4      | 1,0                              | 0,2                            | 10                                   |



Har bir suyultirilgan eritmadan 0,1 ml olinib, ustiga 5,0 ml ishchi biuret reaktividan quyilib, 30–60 daqiqa orasida FEK-56M apparatida solishtirish eritmasiga nisbatan optik zichlik o'lchanadi. Olingan ma'lumotlar asosida kalibrlangan grafik tuziladi. Bunda absissa o'qiga albumin konsentratsiyasi ordinata o'qiga ega FEK-56M da o'lchab optik zichlik ( $D$ ) qiymatlari joylashtiriladi  $D_x$  qiymatiga to'g'ri keluvchi  $C_x$  topib olinadi.  $C_x$  ning qiymati qon tarkibidagi oqsil miqdorini ko'rsatadi. Qon tarkibidagi oqsil miqdori 10% va undan ko'p bo'lsa, zardob 0,9% NaCl eritmasi bilan suyultiriladi. Suyultirish darajasini inobatga olgan holda qon tarkibidagi oqsilning foiz ulushi hisoblanadi.

#### ***Mustaqil ta'lim uchun savol va mashqlar:***

1. Oqsil molekulasini gidrolizlash uchun qanday uslublar ishlataladi?
2. Oqsil molekulasi gidrolizlanganda qanday bog'lar uziladi?
3. Aminokislotalarning sifat reaksiyalari qanday boradi?
4. Aminokislotalarning formaldegid bilan reaksiyasi nima maqsadda ishlataladi?

5. Aminokislotalarni qog'oz xromatografiyasi yordamida aniqlashning asosiy yo'lini tushuntiring.
6. Glitsin, alanin, asparagin hamda metionin kabi aminokislotalar o'rjasida hosil bo'ladigan peptid bog'larini yozing.

#### ♦ Laboratoriya ishi № 4.15

#### Nukleoproteidlar va ularning almashinuvi

Murakkab oqsillar o'zlarining molekulalariga oqsil moddalaridan tashqari, oqsil bo'limgan qandaydir boshqa moddalarning birikib kelishi bilan ajralib turadi. Ularning oqsil emas qismi prostetik guruuh deb ataladi. Shu birikib keluvchi prostetik guruhlarning holatiga qarab, ularga turli xil nom berilgan.

Tarkibiga prostetik guruuh sifatida nuklein kislotalarini biriktirib keluvchi oqsillar nukleoproteidlar, turli xil kislotasini biriktirib keladiganlari fosfoproteidlar, yog' va (yog'simon, moddalarni biriktirib keluvchilar lipoproteidlar deb aytildi. Bu oqsillarning barchasi ham biologik jihatdan muhim ahamiyatga ega, lekin bular ichida nukleoproteidlar hamda xromoproteidlar yanada e'tiborga loyiqliqdir.

Nukleoproteinlar (lotincha nucleus – yadro degan so'zdan olingan) hujayra yadrosi va protoplazmasining asosiy qismini tashkil etib, tirik organizmda juda muhim vazifalarni bajarishda (hujayralarning bo'linishi, irsiy belgilarning nasldan-naslga o'tishida, oqsillar biosintezida) faol ishtirok etadi. Nukleoproteinlarni birinchi bo'lib 1869-yilda Misher hujayra yadrosi tarkibidagi oqsillardan ajratib olgan. Hujayra yadrosining asosiy massasi shu oqsillardan tashkil topgan. Shuning uchun ham nukleoproteinlarni yadro moddasiga boy bo'lgan to'qimalardan, bez to'qimalaridan, buqoq bezidan va taloqdan, spermatazoidlardan, qushlarning yadroli eritrositlaridan, achitqi hujayralaridan ajratib olsa bo'ladi.

Tamaki shirasi tarkibidan juda sodda tuzilishga ega bo'lgan viruslarni birinchi bo'lib 1935-yilda Stenli ajratib olib, uning tarkibidagi nukleoprotein va nuklein kislotalarining miqdorini hamda o'simlik organizmlariga yuborish yo'li bilan biologik xususiyatini o'rgangan.

Nukleoproteinlar, asosan, ishqor tabiatli oqsillardan nuklein kislotalari bilan bir-biriga birikkan gistonlar va protaminlardan tashkil topgan. Tarkibiga protamin yoki giston emas, balki globulinlar tipidagi sodda oqsillar kiradigan nukleoproteinlar ham bor.

Virus nukleoproteinlari shu turga kiradi. Nukleoproteinlar tegishli gidrolizlovchi biokatalizatorlar ta'sirida gidrolizlanganda oddiy oqsil ajralib chiqadi va nukleoproteining oqsilmas guruhi-nuklein kislota qoladi.

Shunday qilib, nukleoprotein sodda oqsil va nuklein kislotadan tashkil topgan birikmadir. Nukleoproteinlarning tarkibiga kiradigan oqsillar, asosan, giston va protaminlardan iborat bo'lib, ular ishqoriy muhitli oqsillar bo'lganligi sababli nuklein kislotalari bilan tuzsimon birikmalar hosil qiladi. Lekin nukleoproteinlarning oqsilli qismlari faqatgina giston va protaminlardan iborat bo'lmasdan, ayrim hollarda tarkiblari, asosan, diaminomonokarbon kislotalardan tashkil topgan oqsil ekanligi haqida ma'lumotlar bor.


**Nuklein kislotalari.** *Dastlabki davrlarda Polinukleotidlar DNK va RNK qanday hosil bo'lganligi to'g'risida ko'plab ilmiy farazlar mavjud. Garchi ular orasida strukturaviy farqlar bo'lsa-da, ularning hosil bo'lishida umumiylilik mavjud. Ikki asosiy gipotezaga ko'ra, dastlab RNK hosil bo'gan degan qarashlar mavjud, RNK strukturasining o'zgarishi DNKnинг hosil bo'lishga sababchi bo'lgan. RNK ibtidoiy dunyoning biringchi hosil bo'lgan biomolekulasi deb qaraladi. Haqiqatan ham bu jarayonni 1971-yilda transkriptaza fermenti yordamida murakkab bosqichli reaksiyalar asosida RNKnинг hosil bo'lishi aniqlandi. Bunda transkriptaza fermenti yordamida DNK molekulasi, so'ng esa RNK molekulasi hosil bo'ladi. Aslida biokimyoiy jarayonlarda DNK molekulasi riduplikatsiyalanib ikki hissa ko'payishi va DNK molekulasidagi nukleotidlar asosida RNK molekulasi hosil bo'lishini (replikatsiya) ko'ramiz.*

*Nuklein kislolar yangi biologik modda sifatida 1868-yili shveytsariyalik biolog olim Fridrix Misher tomonidan kashf etilgan. U yiringlash jarayonini sababchisi bo'lgan qon elementi – leykotsitlar yadrosidan ajratib olingan fosforga boy birikmaga*

*nuklein nomini beradi. Keyinchalik kislota xossasiga ega bo'lgan bu modda nuklein kislota deb ataldi. 1891-yilda nemis olimi Kossel nuklein kislotasini gidrolizlab, uning 3 xil komponentdan: purin yoki pirimidinlar qatoriga kiruvchi geterotsiklik azot asoslari, uglevod va fosfat kislotasidan tashkil topganligini, shuningdek, kislotalarning 2 turi mavjudligini aniqladi. Ular tarkibida uglevod komponenti – pentozaning riboza yoki dezoksiroboza bo'lishiga qarab ribonuklein kislota (RNK) va dezoksi-ribonuklein kislota (DNK) nomini oldi.*

Nuklein kislotalar molekulasidagi pentozaning turiga qarab ikki guruhga bo'linadi: ribonuklein kislotalar (RNK) va dezoksi-ribonuklein kislotalar (DNK). DNK va RNK molekulalari gidrolizlanganda quyidagi moddalar hosil bo'ladi. Purin asoslaridan adenin va guanin. Pirimidin asoslarining bosh moddasi primidin bo'lib, nuklein kislotalarining molekulalarida pirimidinning hosilalaridan uratsil, sitozin va timin (metil uratsil) uchraydi.

Molekulalarining tuzilishi quyidagicha:



Nuklein kislotalarining molekulalarida uglevodlardan D-riboza va D-dezoksiriboza bor. Nuklein kislotalarining tarkibida noorganik kislotalardan fosfor kislotosi uchraydi.

### ❖ Nuklein kislotalarining tuzilishi

Nuklein kislotalar — polinukleotidlardir. Ularni yuzlab va minglab alohida mononukleotidlarni o‘z ichiga oluvchi yuqori molekulali polimer birikmalar deb hisoblash mumkin. Ularning tuzilishini o‘rganishda Devidson, Uotson, J.Chergaf, Levin, Krik va A.N. Belozerskiy kabi biokimyo olimlarining xizmatlari kattadir.

Hayvon organizmida nuklein kislotalarining ikki turi mayjud ekanligi aniqlangan. Biri molekulasida dezoksiriboza shakarli moddasini tutuvchi dezoksiribonuklein kislotosi, ya’ni DNK, ikkinchisi molekulasida riboza shakarli moddasini tutuvchi ribonuklein kislotosi, ya’ni RNKdir. Bular tarkibi jihatidan biri ikkinchisidan molekulasiga kiradigan pentozalari hamda azotli asoslarining turlari bilan farq qiladi. DNK tarkibiga fosfat kislota, dezoksiriboza va azot asosiari adenin, guanin, sitozin va timin kiradi. RNK tarkibiga esa fosfat kislota, riboza va azot asoslaridan: adenin, guanin, sitozin va uratsil kiradi. Bularning o‘zaro farqi DNKda dezoksiriboza va RNKda riboza bo‘lishida hamda boshqa azotli asoslar bilan birgalikda DNKda timin va RNKda uratsil bo‘lishidadir.

*DNK molekulasi Uatson va Krik aniqlaganidek, qo’sh spiralli bo‘lib, bu spirallar o‘zaro vodorod bog‘lar orqali tutashadi. Spirallar orasidagi masofa 3.4 Å bo‘lib, antiparallel yo‘nalishga ega. Spirallar 180° ga burilganda u yaqqol ko‘rinadi. Ikkala spirallar orasida noidentifikal ikkita kengroq yirik va tor kichik kanallar bo‘lib, fiziologik jarayonlarda bu kanallarning ahamiyati katta chunki kanallar orasida suv va aktiv natriy kationi harakatlanadi. Suvning ahamiyati u molekulada vodorod bog‘larning mustahkamligini ta’minlab beradi. Natriy kationi esa Luyus kislotalari sifatida harakatlanishi mumkin.*

Ribonuklein kislotalari o‘zlarining fizik-kimyoviy xossalari va hujayrada bajaradigan biologik roli jihatidan bir-biridan farq qiladigan uch turga bo‘linadi.



## **20-rasm. Kanallar. DNK molekulasidagi yirik (ko'k) va kichik (yashil) kanalar**

1. Informatsion RNK (i-RNK) – bular umumiy RNKnинг kichik bir qismini (7–8% ni) tashkil etadi. i-RNK oqsillar biosintezida juda muhim rol o‘ynaydi. Ular yadroda sintezlanib, DNK molekulasidagi informatsiyani sitoplazmaga, oqsilning sintezlanadigan yeriga, ribosomaga olib o‘tishda xizmat qiladi. Oqsil sintezida onalik rolini o‘ynaydi. Shuning uchun ham ularning nukleotid tarkibi DNKnинг nukleotid tarkibiga yaqin bo‘ladi. Ko‘pincha u DNKsimon RNK, mesendjer RNK (m – RNK) deb ham yuritiladi.

2. Tashuvchi RNK (t-RNK) – bu jami RNKnинг 15–20% ni tashkil etadi. U sitoplazmadagi aminokislotalarni oqsillar sintezlanadigan yerga tashish va o‘zaro bog‘lash vazifasini bajaradi. Har bir t-RNK o‘ziga xos bo‘lib, bir turdagи aminokislotani tashish vazifasini bajaradi. Hozirgi vaqtда faol holatdagi aminokislotalarni, oqsilning hujayradagi sintezlanadigan yeriga tashish vazifasini o‘taydigan 60 dan ortiq har xil t-RNK borligi aniqlangan. Bular hujayra shirasi tarkibida erigan holda uchrab, ayrim hollarda eruvchi RNK ham deb aytildi.

3. Ribosomal RNK (r-RNK) hujayralardagi asosan oqsil sintezini ta’minlovchi ribosomalar tarkibida bo‘ladi hamda u oqsillar bilan mustahkam bog‘langan. r-RNK hujayradagi barcha RNK larning 75–80% ini tashkil etadi. Ular molekular og‘irliliklari har xil ( $0,5 \times 10^6$  va  $1,0\text{--}1,5 \times 10^6$ ) bo‘lgan ikki guruh molekulalaridan tashkil topgan. r-RNK molekulalari 1500–2000 yoki 2000–4000 mononukleotid qoldiqlaridan tashkil topgan polinukleotiddir.

RNKLar tarkibiga kiruvchi mononukleotidlarning soni ham bir-biridan farq qiladi.

i-RNK ko‘p miqdorda (6000 tagacha) mononukleotid qoldiqlarini tutadi, t-RNKda 100 taga qadar, r-RNK da esa 4000 taga qadar mononukleotid qoldiqlari bo‘lishi mumkin.

## **1-tajriba. Achitqidan nukleoproteinlarni ajratib olish.**

Achitqilar riboza tipidagi nukleoproteinlarga boydir. Nukleoproteinlar ishqoriy muhitda achitqining parchalangan (maydalangan) hujayralaridan ajratib olinadi.

**Kerakli asboblar:** 1. 50–100 ml li stakan yoki kolba. 2. 100 ml li silindr, 3. 10 ml li pipetka. 4. Chinni hovoncha. 5. Daqiqasiga 2500–3000 q tezlanishda aylanadigan sentrifuga. 6. Shisha tayoqcha.

**Reaktivlar:** 1. Natriy ishqorining 0,4% li eritmasi. 2. Sirka kislotasining 5% li eritmasi. 3. Achitqi (drojj). 4. Dietil efir. 5. Qum.

**Ishning bajarilishi:** chinni hovonchaga 5 g achitqi solib, ustiga 10 tomchi efir va bir tomchi suv quyiladi. Ustiga ozroq qum solib, yaxshilab eziladi (maydalanadi). Aralashma ustiga 30 ml natriy ishqorining eritmasidan quyib, ezish davom ettiriladi. Hovonchadagi aralashmani sentrifuganing uchta probirkasiga quyiladi. Hajmi 10 ml dan bo'lishi kerak. Aralashmani 5–10 daqiqa davomida 2500 q tezlanishda sentrifugada aylantiriladi. Keyin uchala probirkadagi aralashmaning tiniq qismi bir stakanga quyiladi va shisha tayoqcha yordamida to'xtovsiz aralashtirib turiladi. Nukleoproteinlar to'liq cho'kmaga tushgunga qadar sirka kislotasining 5% li eritmasidan (12 ml) quyiladi. Cho'kmaga tushgan nukleoproteinlarni eritmagan sentrafuga qilish yo'li bilan ajratib olinadi va undan 2-tajribada foydalaniladi.

## **2-tajriba. Nukleoproteinlarning gidrolizi.**

Bu reaksiyani 1 soat davomida nukleoproteinga 5% li sulfat kislotasining eritmasini qo'shib qaynatish natijasida amalgam oshirish mumkin. Natijada nukleoproteinlar oqsillarga va nuklein kislotalariga parchalanadi. Nuklein kislotalari esa mononukleotidlarga, ular o'z navbatida purin va pirimidin asoslariga, sitozin, uratsil, adenin, guanin, pentozalarga va fosfat kislotasiga parchalanadi.

Bu muhitda oqsillar ham ma'lum miqdorda polipeptid va aminokislotalarga qadar gidrolizlanadi. Shu gidrolizatda birin-ketin oqsillarni, purin asoslarini, pentozalarni va fosfat kislotasini sifat reaksiyalari yordamida aniqlash mumkin.

**Kerakli asboblar:** 1. Shtativ (probirkalari bilan). 2. Libix sovutgichi. 3. Voronka. 4. Filtr qog'ozi 5. 100 ml li kimyoviy stakan.

**Reaktivlar:** 1. Sulfat kislotaning 5% li eritmasi. 2. Nukleoproteinlarning cho'kmasi.

**Ishning bajarilishi:** achitqidan ajratib olingan nukleoproteinlarning cho'kmasini gidrolizlash uchun kolbaga solinadi va ustiga sulfat kislotasining 5% li eritmasidan 15 ml quyiladi. Kolbaning og'zi tiqin bilan qaytar sovitgichi yaxshilab o'rnatib mahkamlanadi. Asta-sekinlik bilan bir soat davomida qaynatiladi. Keyin gidrolizat sovitilib filtrlanadi. Filtrat tarkibidagi moddalar aniqlanadi.

**a) Gidrolizatda oddiy oqsillarni aniqlash.**

Aralashama tarkibidagi oqsil moddalarni aniqlash uchun Biuret reaksiyasi va Traube aminokislotalar uchun esa Millon reaksiyalari o'tkaziladi.

**Kerakli asboblar:** 1. Shtativ (probirkalari bilan).

**Reaktivlar:** 1. Natriy ishqorining 10% li eritmasi. 2. Mis sulfatning 1% li eritmasi. 3. Mixler reaktivi.

**Ishning bajarilishi:** probirkaga 5 ml gidrolizatdan olib, natriy ishqorining 10% li eritmasi bilan neytrallanadi (lakmus qog'oz yordamida ko'rildi) va yana ustiga natriy ishqori eritmasidan 0,5 ml va 2–3 tomchi mis sulfat tuzining eritmasidan tomiziladi. Probirkadagi aralashma yaxshilab chayqatiladi va biuret reaksiyasi kuzatiladi (eritma binafsha rangga bo'yaladi).

**b) Gidrolizatda pentozalarni aniqlash.**

Buning uchun birorta aldopentozalarning oksidlanish reaksiyadan foydalaniladi. Eng qulayi feling suyuqligi ta'siridagi reaksiyadir.

**Kerakli asboblar:** 1. Shtativ va probirkalar. 2. Spirit lampasi yoki gaz gorelkasi.

**Reaktivlar:** 1. Natriy ishqorining 10% li eritmasi. 2. Feling reaktivi.

**Ishning bajarilishi:** probirkaga gidrolizatdan 0,5–1 ml solib ishqor bilan lakmus qog'oz bo'yicha neytrallanadi. Probirkadagi neytrallangan aralashma ustiga teng miqdorda feling suyuqligidan quyilib, yaxshilab chayqatiladi va alanga ustida qizdiriladi. Bu vaqtda aralashmada mis (I) oksidining qizil qo'ng'ir rangli cho'kmasi hosil bo'lishi kuzatiladi.

### c) Gidrolizatda purin asoslarini aniqlash.

Bu reaksiya purin asoslarining kumushli tuzini hosil qilishga asoslangan.

**Kerakli asboblar:** 1. Shtativ (probirkalari bilan). 2. Lakmus qog'ozzi.

**Reaktivlar:** 1. Kumush nitratning ammiakli eritmasi. 2. Konsentrlangan ammiak.

**Ishning bajarilishi:** probirkaga 2 ml nukleoproteinning gizrolizatidan olib, yana (lakmus qog'oz yordamida) ishqoriy muhit hosil bo'lgunga qadar 5–6 tomchi konsentrlangan ammiak eritmasidan quyiladi. Keyin aralashma ustiga kumush nitratning ammiakli eritmasidan 0,5 ml qo'shiladi. Biroz vaqtadan so'ng purin asoslarining kumushli tuzlari asta-sekin paxtasimon cho'kma holatida probirkadagi aralashma ostiga cho'ka boshlaydi.

## ◆ Laboratoriya ishi № 4.16

### Qon biokimyosi

Qon – bu hayvon organizmidagi juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan biologik suyuqliklardan biridir. Uni suyuq to'qima deb ham yuritiladi. U organizmda arteriya, vena va kapillyarlarda doimo aylanib yurib, turli organ va anatomiq to'qimalarni bir-birlari bilan bog'lab turadi. Shu bilan birgalikda, organizmda o'zlashtiriladigan turli xil moddalar qonga o'tib, u bilan organ va to'qimalarga yetkazib beriladi hamda modda almashinushi natijasida organizmdan chiqarilishi kerak bo'lgan moddalar ham hujayra va to'qimalardan qonga tushadi va tarqaladi. Bu jarayonlar qon kapillyarlari orqali amalga oshirilib, o'pka, jigar, buyrak, ichak kabi organlarda, ayniqsa, shiddatli o'tadi.

Qonning organizmdagi ahamiyati, ya'ni bajaradigan vazifasiga qarab uning ko'p fiziologik xususiyatlarga ega ekanligini quydigicha ifodalash mumkin.

1. Tashish, ya'ni yetkazib berish – qonning bu fiziologik xususiyati shundaki, u organizm uchun zarur bo'lgan turli moddalar (gormon, vitamin, ferment, glukoza, aminokislotalar, yog'lar)ni

barcha hujayra va to'qimalarga yetkazib beradi hamda ularda hosil bo'lgan chiqindi moddalarni (karbonat angidrid va boshqa keraksiz birikmalarni) tegishli chiqaruv organlariga yetkazib beradi.

2. Nafas olishni ta'minlash – bu qonning eng muhim vazifalaridan biridir. Qonning eritrotsitlari o'pkada kislorodni biriktirib olib barcha hujayralarga yetkazib beradi va ularda hosil bo'lgan karbonat angidridni o'pkaga olib keladi.

3. Himoya vazifasini o'tash – bu qon tarkibida immunitetlik xususiyatini hosil qiluvchi globulin oqsillarining, ya'ni antitelalarning borligidir. Ular organizmni ko'pgina zararli infeksiya va kasalliklardan himoya qiladi. Qondagi leykositlar esa o'z navbatida qonga so'rilgan zararli moddalarni biriktirib olib, ularning ta'sirini yo'qotadi, zararsizlantiradi.

4. Idora qilish, boshqarish vazifasini o'tash – bunda organizmda moddalar almashinushi jarayoni natijasida hosil bo'ladigan biologik faol moddalarning hamda ichki sekretsiya bezlari tomonidan ajratiladigan gormonlarning qonga o'tib, qon orqali tegishli organlarga tarqalib, ularda o'tadigan fiziologik va biokimyoviy jarayonlarni bajarishi ko'zda tutiladi. Bundan tashqari, qon organizmda ichki muhitni (vodorod ionlarining konsentrasiyasini) va osmotik bosimni idora qiladi.

Qon hayvon organizmida yana boshqa bir qancha funksiyalarni bajaradiki, organizm shular asosida hayot quradi.

Qonning umumiy hajmi hayvon organizmida tana vazniga nisbatan uncha ko'p emas, o'rtacha 8–8,5% ni tashkil etadi. Bu birlik hayvon yoshi bilan ham farq qiladi. Yosh mollarda nisbatan ko'proqdir. Turli xil hayvonlar qonining solishtirma og'irligi ham oz miqdorda bo'lsa-da bir-biridan farq qiladi. O'rtacha 1,039–1,061 orasida bo'ladi.

Hayvonlar qonining osmotik bosimi o'rtacha 7–8 atmosfera atrosida bo'lib, u, asosan, qon tarkibidagi natriy xlorid, bikarbonat va fosfat tuzlarining konsentrasiyasiga bog'liq. Bulardan tashqari, qon tarkibida yuqori molekular birikmalar (oqsil) va boshqa organik birikmalar (lipidlar, uglevodlar, yog' kislotalari) uchraydiki, bu organik birikmalarning qonda hosil qilgan bosimi nihoyatda kichik 0,2–0,3 ga teng bo'lib, bu osmotik bosim deb yuritiladi.

Bu bosim ham o‘z navbatida organizmda suv almashishini boshqarishda, limfa, siydiq va boshqa suyuqliklarning hosil bo‘lishida nihoyatda katta ahamiyatga egadir. Hayvon organizmda qon osmotik bosimining doimiyligi, asosan, buyrak, teri, o‘pka va shu kabi boshqa organlarning faoliyati bilan boshqariladi.

Organizmdagi qonga turli xil moddalar so‘rilib va undan chiqib ketishiga qaramasdan, uning kimyoviy tarkibi sog‘lom hayvonlarda doimiydir. Ayrim patologik holatlardagina ozroq o‘zgarishlar ro‘y beradi. Shuning uchun ham tibbiyat va veterinariyada ayrim kasalliklarni aniqlashda qonning kimyoviy tarkibi o‘zgarishiga katta e’tibor beriladi. Qon hayvon salomatligiga hech qanday ziyon yetkazmay turib, qayta-qayta olib tekshirish mumkin bo‘lgan to‘qimadir.

Umuman, qon o‘z tarkibida har xil shaklli elementlarni – eritrotsit, leykotsit va trombotsitlarni tutuvchi maxsus suyuqlikdir. Qondagi shu shaklli elementlar cho‘ktirib olinsa, tiniq sarg‘ish suyuqlik-plazma qoladi. Uning 90–93% i suv bo‘lib, 7–10% i boshqa quyuq moddalardan iborat. Bunday moddalarga oqsil, uglevodlar, aminokislotalar, mochevina, yog‘ tanachalari, ferment, gormon, vitamin, pigmentlar, sut kislotasi va mineral birikmalar kiradi.

Qonga ichak devorlari orqali to‘xtovsiz holatda turli xil oziqaviy moddalar so‘rilib va undan tegishli moddalar almashinuvining qoldiq moddalari chiqarilib turilganligi sababli qon plazmasining kimyoviy tarkibi hayvon organizmining fiziologik holatiga hamda moddalar almashinuvining tezligiga bog‘liq. Qon ivib qolgandan keyin barcha quyqalardan ajratilsa, och sarg‘ish rangli suyuqlik qoladi. Buni qon zardobi deb ataladi. Qon zardobi va plazmaga sarg‘ish rangning berilib turishi ularning tarkibida oz miqdorda bo‘lsa-da, uchraydigan o‘t pigmenti bilirubin va karatinoidlarga bog‘liq.

Plazma – bu shaklli elementlari ajratib olingan qon, qon zardobi esa bulardan tashqari rangli moddalardan – fibrin va fibrinogenlardan tozalangan qondir.

**1-tajriba. Qonning umumiy kislotali sig‘imini aniqlash (Navedova metodi bo‘yicha).**

Bu usul bilan qonning umumiy kislotali sig‘imini aniqlashda, oqsil molekulalarining zaryadsizlanishi natijasida koagulyatsiya yuzaga kelishi, aralashmaning loyqalanishi e’tiborga olinadi.

**Kerakli asboblar:** 1. Shtativ (probirkalari bilan). 2. Pipetkalar, mikrobyuretkalar. 4. Voronka 5. Filtr qog‘ozi 6. 25 ml li o‘lchov kolbalari. 7. Kolbachalar. 8. FEK-56M apparati 9. Suv hammomi.

**Reaktivlar:** xlorid kislotaning 1N va 0,01N li eritmalari. 2. Natriy ishqorining 0,1 va 10% li eritmalari. 3. Qon va qon zardobi. 4. Distillangan suv. 5. Trixlor sirka kislotasining 20% li eritmasi. 6. 1 ml da 0,01 mg fosfor tutuvchi kaliy fosfatning standart eritmasi. 7. Fenolftaleinning spirtli eritmasi. 8. Ammoniy molibdatning eritmasi. 9. Oqsilini cho‘ktirib filtrlab ajratib olingan qon zardobi. 10. Askorbin kislotasining eritmasi.

**Ishning bajarilishi:** kolbachaga 10 ml xlorid kislotasining 0,01N li eritmasidan solinib ustiga 0,2 ml qon quyilib aralashtiriladi va sekinlik bilan mikrobyuretka yordamida natriy ishqorining 0,1N li eritmasi bilan aralashma loyqalashib bulutsimon cho‘kma hosil bo‘lgunga qadar titrlanadi.

Aralashmani titrlash uchun sarflangan ishqor miqdorini 1,0 birlikdan ajratib tashlab, qolgan farqni koeffitsiyent 20 ga va 100 ga ko‘paytirish yo‘li bilan qonning ishqoriy kattaligi (mg %), ya’ni qonning umumiy kislotali sig‘imi aniqlanadi.

Masalan, yuqoridagi aralashmani titrlash uchun 0,67 ml ishqor sarflanadi. Qonning umumiy kislotalik sig‘imi quyidagicha hisoblanadi:

$$1,0 - 0,67 = 0,33$$

$$0,33 \times 20 \times 100 = 660 \text{ mg \%}.$$

Koeffitsiyent 20 quyidagicha hisoblab topiladi, ya’ni 0,1N li natriy ishqorining 0,01 millilitri 0,04 mg natriy ishqorini o‘zida tutadi. 0,2 ml qon esa 100 ml qonning 1/500 qismini tashkil etadi. 0,04 ni 500 ga ko‘paytirish yo‘li bilan koeffitsiyent 20 topiladi.

**2-tajriba. Qon zardobi tarkibidagi anorganik fosforni aniqlash.**

Tajriba shunga asoslanganki, ammoniy molibdat ( $\text{NH}_4\text{MoO}_4$ ) birikmasi kislotali muhitda fosfat kislotasini biriktirib kompleks birikma ammoniy fosfat hosil qiladi, u qaytarilgandan keyin ko‘k rangli birikmaga aylanadi. Uning shu xususiyatidan fosforni

miqdoriy aniqlashda foydalaniladi. Chunki rangning intensivligi qon zardobi tarkibidagi fosfor miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Umuman, fosfor organizmdagi makroelementlardan biri bo'lib, organizmda mineral va organik birikmalar holatida uchraydi. Turli xil hayvonlarda qon zardobi tarkibidagi anorganik fosforning miqdori har xil bo'lib, qoramollar, qo'ylar qoni zardobi tarkibida 5–7 mg % atrofida bo'lishi aniqlangan. Organizmda kalsiy va fosforning o'zaro nisbiy miqdori 2:1 holatda bo'lishligi ham ma'lum. Bu miqdor va nisbatlarning o'zgarishi o'z navbatida hayvon organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham organizm suyuqliklari yoki to'qimalari tarkibidagi kalsiy va fosfor miqdorini aniqlash diagnostika nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga egadir.

**Kerakli asbob va reaktivlar:** Yuqoridaq 1-tajribada berilgan.

**Ishning bajarilishi:** quruq probirkaga 3 ml qon zardobi olinib, ustiga 9 ml distillangan suv va 3 ml trixlor sirka kislotasining 20% li eritmasidan quyiladi. Probirkadagi aralashma yaxshilab chay-qatilib, 5 daqiqadan keyin oldindan suv bilan ho'llangan filtr qog'ozi yordamida filtrlanadi. Anorganik fosfatni aniqlash uchun ajratib olingan filtrat juda tiniq bo'lishi kerak.


Filtratdan 5 ml o'lchov (25 ml) kolbachasiga solinadi (1 ml qon zardobiga tengdir). Ikkinci o'lchov kolbasiga 1 ml kaliy fosfatning standart eritmasidan solinadi (1 ml tarkibida 0,01 mg fosfor bor).

Ikkala kolbaga ham bir vaqtning o'zida 1 ml dan ammoniy molibdat eritmasidan va 0,5 ml askorbin kislotasidan quyilib, keyin o'lchov kolbalaridagi aralashmalarning hajmi distillangan suv bilan tegishli belgiga qadar to'ldiriladi va 10–15 daqiqacha qorong'i yerda tinch qoldiriladi. Shundan keyin fotoelektrokolorimetrik asbobida qizil yorug'lik filtri yordamida eritmalar optik zichliklari suvg'a solishtirib o'lchanadi:

$$X = \frac{A \cdot 0,04 \cdot 100}{B \cdot 1} \text{ (mg %)}.$$

Bunda  $A$  – aniqlanayotgan eritma uchun o'lchang'an optik zichlik;


$B$  – standart eritma uchun o‘lchangان optic zichlik;  
 0,04 – 1 ml standart eritma tarkibidagi fosforining massasi, mg;  
 1 – qon zardobi hajmi, ml;  
 100 – foizga aylantiruvchi ko‘paytma.



#### ♦ Laboratoriya ishi № 4.17

#### Qon zardobi tarkibidagi kalsiyni miqdoriy aniqlash

Bu usul qon zardobi tarkibidagi kalsiy ionlarini kompleks birikma yordamida titrlashga asoslangandir. Kompleks birikma sifatida etilendiaminotetrasersetatning natriyli tuzidan (NaEDTA, trilon B) foydalaniladi. Etilendiamintetrasirkha kislota yoki shuningdek, (etilendinitriilo) tetrasirkha kislota yoki bo‘lmasam EDTA deb qisqartilib ataluvchi kislota keng qo‘llaniluvchi kompleksonometrik titrlangan eritma hisoblanadi. EDTAning struktur formulasi quyidagicha:



EDTA ning struktur formulasi

Indikator sifatida mureksid, ya'ni ammoniy purpuratidan foydalaniładi. Mureksid indikatori muhit reaksiyasi pH=10–13 atrofida bo'lganda aralashmadagi kalsiy ionlari bilan pushti rang beradi. Kalsiy ionlari to'liq titrlanib bo'lgandan keyin esa ko'kimtirbinafsha rang berish xususiyatiga ega.

- Kerakli asboblar:** 1. Kimyoviy stakanlar va kolbachalar  
2. Pipetkalar. 3. Byuretkalar.

**Reaktivlar:** 1. Trilon B ning 0,005N eritmasi 2. Natriy ishqorining 1,8N eritmasi. 3. Mureksidning suvli eritmasi 4. Kalsiy karbonatning standart eritmasi.

**Ishning bajarilishi:** ikkita kolba olib, birinchisiga 9,4 ml distillangan suv quyilib, ustiga 0,4 ml natriy ishqorining 1,8N eritmasidan va aniq 5 tomchi indikator (mureksid eritmasi) tomiziladi. Eritma binafsha rangga bo'yaladi. Shu kolba nazorat hisoblanadi.

Ikkinci kolbaga 9,0 ml suv, 0,4 ml 1,8N natriy ishqori eritmasi, 0,4 ml qon zardobi va 5 tomchi indikator tomizib aralashtiriladi. Eritma och pushti rangga bo'yaladi.

Shu stakan ni nazorat stakan yoniga qo'yib, trilon B ning (NaEDTA) 0,05N eritmasi bilan nazorat stakandagi eritmasining rangidek bo'lguncha asta-sekin tomchilatib titrlanadi:

$$X_{Ca} = \frac{\Pi \cdot T \cdot 100\%}{0,4 \text{ ml} \cdot 1000} \text{ mg \%}.$$

Bu formulada;

$\Pi$  – aralashmani titrlash uchun sarflangan trilon B ning hajmi ml;

$T$  – kalsiy miqdori, ya'ni 1ml NaEDTA eritmasining titri;

100 – foizga aylantirish uchun koeffitsiyent;

1000 – mkgni mg ga aylantirish koeffisiyenti.

Formuladagi o'zgarmas qiymatlar hisoblansa, titrlash uchun sarflangan trilon B hajmini 25 ga ko'paytirib, qon zardobi tarkibidagi kalsiy miqdori quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$X_{Ca} = \Pi \cdot 25\%.$$

## Buyrak va siyidik biokimyosi

Buyrak—qo'sh organ bo'lib, organizmdagi eng muhim ichki ajratib chiqaruvchi a'zolardan biridir. Uning asosiy vazifasi organizmdan moddalar almashinuvi qoldiqlarini tashqariga chiqarish hamda qonning kimyoviy tarkibi doimiyligini ta'minlashdan iborat. Qoldiq metabolitlarning chiqarib yuborilishida ichak, teri va o'pkaning ham alohida xizmati bor, lekin hal qiluvchi rolni buyrak o'ynaydi. Shuning uchun ham buyraklari olib tashlangan har qanday hayvon organizmi tezda halokatga uchraydi. Buyrak orqali organizmdan ajratib chiqariladigan suyuqlik, ya'ni siyidik organizmdagi boshqa tegishli organlar orqali ajratib chiqariladigan suyuqliklardan o'zining miqdori va tarkibining ancha murakkab ekanligi bilan farq qiladi. Faqat buyrakning faoliyati bilangina qon tarkibidagi moddalar almashinuvining qoldiq moddalari chiqarib yuborilib, qon plazmasi tarkibining doimiyligi ta'minlanadi.

Normal odam organizmida buyrakning o'rtacha og'irligi 300 gr ga yaqin, hayvon organizmida esa ularning turiga bog'liqidir. Har bir buyrak millionga yaqin mayda funksional qismlar — nefronlardan tashkil topgan bo'lib, ular qon kapillyarları va tomirlari bilan nihoyatda kuchli ta'minlangan. Buyrak faoliyatining uchdan bir qismi qon tomirlar orqali qonni haydashga sarflanadi. Qon tomirlari orqali bir kecha-kunduzda o'rtacha 600–700 l ga qadar qon oqib o'tishi aniqlangan. Buyrak orqali umumiy oqib o'tayotgan qonning 10% i buyrakda o'tadigan moddalar almashinuviga xizmat qilib, oziqaviy mahsulotlar bilan ta'minlash vazifasini o'tasa, qolgan 90% i buyrakning ajratish vazifasiga xizmat qiladi.

Hayvon organizmi o'zlashtiradigan kislородning umumiy hajming 10–12% ga yaqini buyrak tomonidan o'zlashtiriladi. Bu buyrakdagi oziqaviy moddalar oksidlanish jarayoniga juda kuchli yo'liqishidan dalolat beradi. Umuman, buyrakda o'tadigan modda almashinuvi jarayoni siyidik hosil bo'lish va ajralish jarayoni bilan bog'liqidir. Siyidik hosil bo'lishida buyraklar osmos va osmotik bosim bilan bog'liq bo'lgan ancha murakkab ishni bajaradi. Chunki uning tarkibida qon plazmasidagiga nisbatan ancha baland kon-

sentratsiyaga ega bo'lgan (natriy xlorid kabi) moddalar mavjud. Lekin qon plazmasi tarkibida mavjud bo'lgan ayrim (oqsil, glukoza kabi) moddalar aksincha normal sharoitda siyidik tarkibida deyarli bo'lmaydi.

Organizmda buyraklarning nefronlarida siyidik hosil bo'lish mexanizmi ancha murakkab jarayon bo'lib, buyrakni oddiy bir filtrlash vazifasini o'tovchi moslama deb hisoblash xatodir. Chunki buyrak qon tomirlari bilan ko'p va zinch ta'minlangan bo'lib, uni kerakli barcha oziqaviy mahsulotlar va kislorod bilan ta'minlash hamda modda almashinuvi jarayonining keraksiz qoldiq moddalarini chiqarib, qon tarkibining doimiyligini ta'minlash vazifasini ham o'taydi. Ular to'xtovsiz ishlab turganligi sababli ham moddalar almashinuvi jarayonida ancha shiddatli o'tadi. Buni uning (siyidikning) tarkibida osmotik faol moddalarining konsentratsiyasi nihoyatda baland ekanligidan ko'rish mumkin. Bu jihatdan ularning qondagi konsentratsiyasidan ham ancha balanddir. Masalan, mochevinaning siyidikdagi konsentratsiyasi, qondagiga nisbatan 100 baravar ortiqdir.

Siyidik hosil bo'lish mexanizmini ikki fazaga bo'lib qaraladi. Birinchi fazasi filtratsiya fazasi deb hisoblanib, bunda tarkibida oqsillari bo'limgan qonning suyuq qismi qon kapillyarlarining devorlari orqali filtrlanib o'tishi tushuniladi. Shu filtratni birlamchi siyidik deb qaraladi. Unda faqatgina suv, plazmada erigan boshqa moddalar va juda oz miqdorda molekular og'irliklari juda kichik bo'lgan albuminlar o'tishi mumkin. Organizmda hosil bo'ladigan birlamchi siyidik, ya'ni ultrafiltratning miqdori nihoyatda ko'p. Organizmdagi umumiy biologik suyuqliklardan uch baravar ko'pdir. U bir kecha-kunduzda normal hayvon organizmdan 1800–2000 l ga qadar ajralishi aniqlangan. Chunki 90–100 litr birlamchi siyidikdan 1 litr haqiqiy siyidik hosil bo'ladi.

Ikkinci fazasi reabsorbsiya deb atalib, qayta so'rilib demakdir. Bunda hosil bo'lgan birlamchi siyidik buyrakning tegishli kanal-chalari bo'ylab oqib borib, qayta so'rilib hodisasisiga yo'liqadi, natijada uning tarkibidagi ko'pchilik moddalar, suvning deyarli 99% i va unda erigan ba'zi moddalar: qand, tuzlar, aminokislotalar va h.k. qaytadan qonga so'rilib ketib, ikkilamchi yoki (oxirgi siyidik

hosil bo'ladi, yig'uvchi naychalar (jomlar, kosachalar) orqali qovuqqa tushadi, uning tarkibida buyrak kanalchalarida deyarli so'rilmaydigan mochevina, urat kislota, kreatinin va h.k. uchraydi. Bu yerda ularning konsentratsiyasi qon plazmasi va birlamchi siyidik tarkibidagiga nisbatan ancha balanddir.

Buyrak kanalchalarini Shumlyanskiy-Baumen kanalchalarini ham deb yuritiladi. Buning boisi shundaki, bu kanalchalarini 1852-yilda rus olimi A.V. Shumlyanskiy kashf etgan va uning fikrini o'z izlanishlarida Baumen to'ldirgan. Siyidikning hosil bo'lishida buyrakning po'st qavatini tashkil etgan nefronlar Shumlyanskiy-Baumen kapsulalari hamda Malpigi tanachalari (qon tomirlari bilan zinch ta'minlangan kapsuladagi tugunlar) nihoyatda katta rol o'ynaydi. Diurez (siyidik ajralib chiqishi) va anuriya (siyidik ajralishining to'xtab qolishi) holatlari ko'p jihatdan endokrin bezlari (gipofiz, buyrak usti bezi kabilari) tomonidan ajralib chiqib, qonga quyiladigan, gormonal faollikka ega bo'lgan moddalarga ham bog'likdir. Bularning barchasining ishi markaziy asab sistemasining nazorati ostida turadi.

Siyidik hayvon organizmidagi biologik suyuqliklar ichida kimyoviy tarkibi jihatidan eng murakkablaridan biri deb qarash mumkin. Uning muhim tarkibiy qismlari birma-bir sanab chiqilganda, siyidik bilan birga 150 dan ortiq turli xil moddalar ajralib chiqishi aniqlangan. Hayvon siydigining 95–96% i suv bo'lib, 4–5% i quruq moddadan iboratdir. Quruq moddasining asosiy qismi organik va anorganik moddalardan tashkil topgan.

Siyidikning kimyoviy tarkibi ko'p jihatdan qonning kimyoviy tarkibi bilan bog'liq, chunki siyidik tarkibidagi asosiy moddalar qondan o'tadi. Shuning uchun patologik holatda, hayvon organizmi biror kasallikka yo'liqanda, ayniqsa, jigar, yurak, ichki sekresiya bezlari, hazm organlarining faoliyati buzilganida, qonning tarkibi tezda o'zgarib qoladi. Bu o'z navbatida siyidikning kimyoviy tarkibiga ham tez ta'sir ko'rsatadi. Moddalar almashinuvining buzilishi ham siyidik kimyoviy tarkibining o'zgarishiga ayrim moddalar konsentratsiyasining ortib ketishiga olib kelishi mumkin. Sog'lom organizm siyidigi tarkibida miqdori nihoyatda oz yoki uchrashi mumkin bo'limgan moddalar paydo bo'ladi. Shuning uchun ham

bemorlarning birinchi navbatda qoni va siydigining tarkibiy qismlari tekshirib ko‘rilib, ularning normal va patologik holatlaridagi farqi nimadan iborat ekanligi aniqlanib, keyin davolash uchun fikr yuritiladi.

❖ **Siydik va uning kimyoviy tarkibiy qismlarini aniqlash**

**Kerakli asboblar:** 1. Shtativ (probirkalari bilan). 2. Voronka

3. Kimyoviy stakan. 4. Shisha tayoqcha. 5. Filtr va laksmus qog‘ozi.

**Reaktivlar:** 1. Sirka kislotasining 1% li eritmasi. 2. Nitrat kislotasining 50% li eritmasi. 3. Natriy ishqorining 10% li eritmasi. 4. Yodning kaliy yoddagi eritmasi. 5. Konsentrangan xlorid kislota. 6. Kaliy permanganatning 2% li eritmasi. 7. Mis sulfat tuzining 1% li eritmasi. 8. Pikrin kislotasining to‘yingan eritmasi. 9. Xloroform. 10. Siydiq.

**1-tajriba. Siydiq tarkibidagi oqsilga xos reaksiyalar.**

Normal hayvonlarning siydiqi tarkibida oqsil juda oz miqdorda bo‘lib, asosan, qon zardobi tarkibida uchraydigan albumin va globulinlardan iboratdir. Lekin buyrak shamollashi, yurak ish faoliyatining buzilishi kabi patologik jarayonlarda siydiq tarkibida oqsilning miqdori ancha ortadi. Buni ayrim oddiy oqsillarga xos reaksiyalar yordamida ham aniqlash mumkin. Tarkibida qon tutuvchi siydiqlar ham oqsillarga xos reaksiyani beradi. Normal holatda siydiq tarkibidagi oqsilning miqdori ko‘pincha 1% dan oshmaydi, lekin patologik jarayonlarda 4–5% ga qadar ortishi kuzatilgan.

**a) Siydiq oqsilini qaynatish yo‘li bilan aniqlash.**

**Ishning bajarilishi:** probirkaga 4–5 ml siydiq quyilib, laksmus qog‘ozi yordamida uning muhitini aniqlanadi. Agarda siydiq kislota muhitli bo‘lsa, uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qaynatiladi. Agarda siydiq ishqoriy muhitli bo‘lsa, unga 1% li sirka kislotasining eritmasidan kislotali muhit hosil bo‘lguncha qo‘shib yaxshilab aralashtirilib, so‘ngra qaynaguncha qizdiriladi. Agarda siydiq tarkibida oqsil bo‘lsa, uning miqdoriga qarab aralashmaning sizdirilgan qismida oq bulutsimon cho‘kmalar paydo bo‘la boshlaydi. Bu oqsilning koagulyatsiyaga uchrashi natijasida hosil bo‘ladi.

**b) Siydiq oqsilini nitrat kislota ta’sirida aniqlash.**

**Ishning bajarilishi:** probirkaga 2–3 ml nitrat kislotaning 50% li eritmasidan olib, ustiga juda sekinlik bilan probirkaning devori

orqali filtrlangan siyidik quyiladi. Ular bir-biriga aralashib ketmasdan chegara hosil qilishi kerak. Agarda siyidik tarkibida oqsil moddalar bo'lsa, ikkala suyuqlik, chegarasida oq rangli oqsilning bulutsimon cho'kmasi yoki halqasi hosil bo'ladi. Siyidik normal holatda bo'lsa, (oqsil juda oz bo'lsa) ikkala suyuqlik chegarasida nitrat kislotaning siyidik pigmentlariga ta'sir etishi hatijasida qizil halqa hosil bo'ladi.

## **2-tajriba. Siyidik tarkibidagi uglevodni Trommer reaksiyasini yordamida aniqlash.**

**Ishning bajarilishi:** probirkaga 2–3 ml siyidik olib, ustiga NaOH ning 10% li eritmasidan 1 ml solinadi. Keyin aralashmaga sekinlik bilan, chayqatilganda yo'qolib ketmaydigan mis (II) gidroksidning ko'kimtir loyqasi hosil bo'lguncha tomchilab mis sulfat tuzining suyultirilgan eritmasidan tomiziladi. Keyin aralashmani yuqori qismidan boshlab qaynaguncha qizdiriladi. Aralashma qaynashi bilan qizdirish to'xtatiladi va 1–2 daqiqadan keyin aralashmada Cu<sub>2</sub>O ning sarg'ish qizil rangli cho'kmasi hosil bo'lganligi kuzatiladi.

## **3-tajriba. Keton tanachalariga xos bo'lgan Lebin reaksiyasini.**

Siyidik tarkibida uchraydigan keton tanachalariga, aseton va uning har xil birikmalari, atsetosirka kislota va oksimoy kislotalari kiradi. Aseton-Atsetosirka kislota α-oksimoy kislota – bu birikmalar qandli diabet va shu kabi kasalliklar bilan kasallangan hayvon oraganizmida yog' kislotalariga to'liq oksidlanmasligi natijasida hosil bo'ladi va siyidikka o'tadi. Keton tanachalari faqatgina yog' tarkibiga kiruvchi kislotalardan hosil bo'libgina qolmay, aminokislotalarning dezaminlanish jarayonidan hosil bo'lgan birikmalardan ham hosil bo'ladi. Bu kasallikni asidoz ham deb yuritiladi.

**Ishning bajarilishi:** probirkaga 2–3 ml siyidik quyib, ustiga natriy ishqorining 10% li eritmasidan bir necha tomchi tomiziladi. Keyin probirkadagi aralashmaga yodning kaliy yoddagi eritmasidan tomchilatib qo'shilganda o'tkir hidli sarg'ish cho'kma hosil bo'la boshlaydi. Bu aralashma yodoformning hosil bo'lganligini ko'rsatadi.

## **4-tajriba. Siyidikdagi indikanga xos reaksiya.**

Hayvon organizmida yo'g'on ichakda, bakteriologik jarayonlar natijasida triptofan aminokislotasining parchalanishi natijasida indol

hosil bo'ladi. Indol qonga so'rilib jigarda oksidlanadi va indoksil hosil bo'ladi. So'ng'ra sulfat yoki glukuron kislotalari bilan birikishi natijasida zaharsiz siydk indikani hosil bo'ladi va qondan siydkka o'tadi.

**Ishning bajarilishi:** probirkaga 2–3 ml siydk olib, ustiga deyarli shuncha miqdorda konsentrangan HCl eritmasidan, 2–3 tomchi kaliy permanganatning 2% li eritmasidan va 2 ml xloroform solinadi. Probirkaning og'zi tiqin bilan mahkamlanib, yaxshilab chayqatiladi. Siydk tarkibida indikan bo'lsa, xloroformli qavat ko'k rangga bo'yaladi. Rangning intensivligi indikan miqdoriga to'g'ri proporsional bog'liq bo'ladi.

#### **5-tajriba. Siydk tarkibidagi kreatininni aniqlash.**

Kreatinin siydk tarkibiga kirib, ko'pincha yosh organizm siydig'i tarkibida uchraydi. Katta yoshli organizm siydigidan keratinin ko'p ajralmaydi. Ularda kreatinin, asosan, muskul to'qmalarida keratin fosfat kislotasining defosforlanishi natijasida hosil bo'ladi. Kreatinuriya jarayoni to'qimalarining juda intensiv holatda parchalanishi natijasida yuzaga keladi.

**Ishning bajarilishi:** probirkaga 2–3 ml siydk solib, ustiga natriy ishqorining 10% li eritmasidan 5–6 tomchi, keyin aralashmaga 3–4 tomchi pikrin kislotasi eritmasidan tomizilib yaxshilab aralashtiriladi. Bu vaqtda probirkadagi aralashmada ishqoriy muhitda kreatinin, pikrin kislotasi bilan sarg'ish yashil rangli pikrat kreatinin birikmasini hosil qiladi.

#### **6-tajriba. Siydk tarkibidagi glukozani O-toluidin reaktiviy yordamida miqdoriy aniqlash.**

Sog'lom odam va hayvon siydig'i tarkibida glukozaning miqdori juda oz bo'lib, uning miqdori 0,002% dan oshmaydi. Lekin potologik holatlarda unung miqdori ortib ketishi mumkin.

**Kerakli asboblar:** 1. Shtativ (probirkalari bilan). 2. Pipetkalar. 3. Sentrifuga. 4. Suv hammomi 5. Menzurka. 6. FEK-56M apparati.

**Reaktivlar:** 1. Trixlor sirka kislotaning 3% li eritmasi. 2. O-toluidin rektivi. 3. Siydk.

**Ishning bajarilishi:** oldin siydkda glukoza borligini aniqlovchi sifat reaksiyasi (Trommer reaksiyasi) o'tkazilib, glukoza borligi haqida fikr hosil qilinadi, keyin uni miqdoriy jihatdan aniqlanadi.

Buning uchun siydiq 5 yoki 10 marta suyultiriladi va undan probirkaga 0,1 ml olib ustiga 4,5 ml o-Toluodin reaktividan quyiladi. Keyin xuddi yuqorida 4,8 laboratoriya ishi 6-tajribada ko'rsatilgandek jarayonlardan foydalanib, glukozaning miqdori aniqlanadi.

Formulaga qo'yib hisolanganda, siydiqning necha marta suyultirilganligi e'tiborga olinadi.

**7-tajriba. Siydiqning anorganik tarkibiy qismlari – xloridlar, sulfatlar, fosfatlar hamda kalsiy va magniyni aniqlash.**

**Kerakli asboblar:** 1. Shtativ (probirkalari bilan). 2. Pipetkalar. 3. Voronka. 4. Filtr qog'ozi. 5. Gaz gorelkasi.

**Reaktivlar:** 1. Kumush nitrat tuzining 2% li eritmasi. 2. Konsentrlangan nitrat kislota. 3. Sirka kislotaning 10% li eritmasi. 4. Bariy xloridning 5% li eritmasi. 5. Xlorid kislotaning 10% li eritmasi. 6. Oksalat kislotaning ammoniyli tuzi eritmasi. 7. Ammianing 10% li eritmasi. 8. Molebdenli reaktiv. 9. Siydiq.


#### *Ishning bajarilishi:*

**a) Xloridlarni aniqlash.** Probirkaga 3 ml siydiq olinib, ustiga 5 tomchi konsentrlangan nitrat kislotadan tomizilib, yaxshilab aralashdiriladi. Keyin ustiga 6–7 tomchi kumush nitrat tuzining 2,5% li eritmasidan tomiziladi. Bu vaqtida aralashma loyqalanib, kumush xloridning oq rangli bulutsimon cho'kmasi hosil bo'ladi. U quyidagi reaksiya asosida boradi:




**b) Erkin va bog'langan sulfatlarni aniqlash.**

Probirkaga 5 ml siydiq olinib, ustiga 2–3 tomchi sirka kislotaning 10% li eritmasidan tomiziladi. Aralashma yaxshilab chay-qatiladi, ustiga 5 ml bariy xloridning 5% li eritmasidan quyiladi. Bu vaqtida aralashmadagi erkin sulfatlar bariy tuzi bilan reaksiyaga kirishib, bariy sulfat cho'kmasi hosil bo'ladi:



Aralashmadagi cho'kma filtrlanib ajratib olinib, filtratga 3 ml xlorid kislotaning 10% li eritmasidan quyiladi va 15 daqiqa davomida qaynatiladi. Aralashma sovutilganda sulfat kislota efrining gidrolizlanishi natijasida bariy sulfatning cho'kmalari hosil bo'lganligi kuzatiladi:



### c) Fosfatlarni aniqlash.

Probirkaga 2 ml molibdenli reaktivdan quyilib, qaynaguncha qizdiriladi va ustiga 5–7 tomchi siydiq tomiziladi. Bu vaqtda fosfatli molibdatning ammoniyli tuzi sarg‘ish rangli kristall holatida cho‘kmaga tushadi.

### d) Kalsiy va magniy kationlarini aniqlash.

Probirkaga 5 ml siydiq olinib, ustiga 5 tomchi sırka kislotasining 10% li eritmasidan va 5 tomchi oksalat kislotasining ammoniyli tuzi eritmasidan tomizilib, yaxshilab chayqatiladi. Bu vaqtda oksalat kislotasining kalsiyli tuzi oq cho‘kma holatida cho‘kadi. Cho‘kma filtrlanib olinib, filtrga ammiakning 10% li suvdagi eritmasidan kuchli ishqoriy muhit hosil bo‘lguncha quyiladi. Ma’lum bir vaqtadan keyin probirka devorlarida oq rangli ammoniy – magniy fosfatning qo’shaloq tuzlari cho‘kmasi hosil bo‘ladi.

### *Mustaqil ta’lim uchun savol va mashqlar:*

1. Siydiqning fizik-kimyoziy xossalalarini o‘rganishning ahamiyati nimada?
2. Siydiq tarkibida xloridlar, fosfilar va sulfatlarning hosil bo‘lishini tushuntiring.
3. Fenosulfatlar, krezo-sulfatlar, indoksilsulfatlarning kimyoziy tuzilish formulalarini yozing.
4. Gippur kislotasining hosil bo‘lish reaksiyasi tenglamasini yozing.
5. Organizimda hosil bo‘ladigan ammiakning zararsizlantirish yo‘li qanday?
6. Siydiq tarkibidagi azotli birikmalarini izohlab bering.
7. Purin asoslarining siydiq kislotasiga qadar oksidlanish sxemasini yozib bering.
8. Siydiq tarkibida oqsil va glukoza hosil bo‘lish sabablarini ta’riflab bering.
9. Qaysi modda almashinuvining buzilishi natijasida siydiqda glukoza hosil bo‘ladi.
10. Siydiq tarkibida uchraydigan «keton tanachalari»ni ta’riflab, formulalarini yozib bering.
11. Siydiqda «keton tanachalari» ning hosil bo‘lishini sababi nimada?
12. Siydiq tarkibidagi shakarli moddalarni aniqlashda qanday usullardan foydalaniladi?

## **Kimyo fani bo'yicha talabalar mustaqil ta'limi uchun mavzular variantlari**

Qishloq xo'jalik institutlarida ta'lim berilayotgan yo'nalishlar talabalari uchun mo'ljallangan o'quv rejaga muvofiq, fanga ajratilgan soatlarning o'rtacha 35–40 foizi talabalarning mustaqil ta'limiga ajratilgan. Ma'ruza, amaliy-tajribaviy darslarda mavzular bo'yicha nazariy va amaliy ma'lumotlarni berish, mukammal tuzilgan reja asosida talabalar mustaqil ta'limi jarayonini tashkil etish, talaba olgan bilimni baholash, bo'lajak mutaxassis bilimi saviyasining yuqori bo'lishini ta'minlovchi omillardir. Talabalar mustaqil ta'limi keng qamrovli bo'lishi uchun noorganik, analiktik, organik, fizikaviy hamda kolloid kimyo fanlaridan qishloq xo'jaligining turli sohalariga aloqadorligni ifodalovchi savollar tanlanadi. Ushbu savollar kimyoviy fanlarni mustaqil o'r ganish uchun talabani mantiqiy yo'naltiradi, olingan kimyoviy bilimlar bilan tuproqda, o'simliklarda va hayvon organizmi to'qimlarida sodir bo'ladigan jarayonlar mohiyatini to'liqroq tushuntirishda va nihoyat, talabani, darslik, o'quv qo'llanma, ilmiy adabiyotlar bilan ishlash qobiliyatini shakllantirishda foydali bo'ladi.

Talabalar mustaqil ta'limi jarayonini samarali tashkil etish maqsadida kimyo fanidan «Na'munaviy dastur» asosida savollar to'plami tanlanadi (bu savollar talabaning yo'nalishi xususiyatiga mos qilib o'zgartirilishi mumkin), har bir talabaga ma'lum sondagi savollardan iborat topshiriq berish maqsadida 100 ta variant (o'qituvchi savollar raqamlarini ko'rsatib talaba uchun alohida variantda topshiriq berishi ham mumkin)dan iborat jadval tuzildi.

Talabalar og'zaki javob berish yoki yozma nazorat ishi tayyorlash yo'li bilan kimyo fanidan olgan bilimlariga mos keluvchi reyting ballarini oladilar.

Ushbu usulda mustaqil ta'limni tashkil etib, talabalarning kimyoviy bilimlarni egallash sari intilishiari ijobiy tomonga ortganligiga o'z pedagogik faoliyatimizda ishonch hosil qildik.

|          | <b>0</b>                       | <b>1</b>                       | <b>2</b>                         | <b>3</b>                       | <b>4</b>                       | <b>5</b>                       | <b>6</b>                       | <b>7</b>                       | <b>8</b>                        | <b>9</b>                        |
|----------|--------------------------------|--------------------------------|----------------------------------|--------------------------------|--------------------------------|--------------------------------|--------------------------------|--------------------------------|---------------------------------|---------------------------------|
| <b>0</b> | 1,31,51,<br>61,81,<br>111,121  | 2,32,42,<br>62,82,<br>112,122, | 3,33,43,<br>63,83,<br>103,123    | 4,34,44,<br>64,84,<br>104,124  | 5,35,45,<br>65,85,<br>105,125  | 6,36,46,<br>66,86,<br>106,126  | 7,37,47,<br>67,87,<br>107,127  | 8,38,48,<br>68,88,<br>108,128  | 9,39,49,<br>69,89,<br>109,129   | 10,40,50,<br>70,90,<br>110,130  |
| <b>1</b> | 11,41,51,<br>71,91,<br>111,131 | 12,42,52,<br>72,92,<br>12,132  | 13,43,53,<br>3,73,93,<br>113,133 | 14,44,54,<br>74,94,<br>114,134 | 15,45,55,<br>75,95105,<br>135  | 16,46,56,<br>76,96,106,<br>136 | 17,47,57,<br>77,87,<br>97,137  | 18,48,58,<br>78,88,98,<br>113  | 19,49,59,<br>62,82,102,<br>114  | 20,50,60,<br>63,83,<br>103,115  |
| <b>2</b> | 21,41,51,<br>62,92,<br>102,116 | 22,42,52,<br>63,93,<br>103,117 | 23,43,53,<br>64,94,<br>104,118   | 24,44,54,<br>65,95,<br>105,119 | 25,45,55,<br>66,96,<br>106,120 | 26,46,56,<br>67,97,<br>107,121 | 27,47,57,<br>68,98,<br>108,122 | 28,48,58,<br>69,99,<br>109,123 | 29,49,59,<br>70,100,<br>110,124 | 30,50,60,<br>71,101,<br>111,125 |
| <b>3</b> | 31,41,51,<br>62,72,<br>82,113  | 32,42,52,<br>63,73,<br>83,114  | 33,43,53,<br>64,74,<br>84,115    | 34,44,54,<br>65,75,<br>85,116  | 35,45,55,<br>66,76,<br>86,117  | 36,46,56,<br>67,77,87,<br>118  | 37,47,57,<br>68,78,88,<br>119  | 38,49,58,<br>69,79,89,<br>120  | 39,48,59,<br>70,80,90,<br>121   | 40,51,61,<br>71,81,91,<br>122   |
| <b>4</b> | 40,20,40,<br>82,92,<br>102,123 | 41,21,41,<br>83,93,<br>103,124 | 42,22,42,<br>84,94,<br>104,125   | 43,23,43,<br>85,95,<br>105,126 | 44,24,44,<br>86,96,<br>106,127 | 45,25,45,<br>87,97,<br>107,128 | 46,26,46,<br>88,98,<br>108,129 | 47,27,47,<br>89,99,<br>109,130 | 48,28,48,<br>90,100,<br>110,131 | 49,29,49,<br>91,101,<br>111     |
| <b>5</b> | 3,18,33,<br>62,77,<br>92,133   | 4,19,34,<br>63,78,93,<br>134   | 5,20,35,<br>64,79,<br>94,135     | 6,21,36,<br>65,80,95,<br>136   | 7,22,37,<br>66,81,96,<br>137   | 8,23,38,<br>67,82,97,<br>113   | 9,24,39,<br>68,83,98,<br>114   | 10,25,40,<br>69,84,99,<br>115  | 11,26,41,<br>70,85,<br>100,116  | 12,27,42,<br>71,86,<br>101,117  |
| <b>6</b> | 13,28,43,<br>72,86,<br>102,118 | 14,29,44,<br>73,87,<br>103,119 | 15,30,45,<br>74,88,<br>104,120   | 16,36,48,<br>75,89,<br>105,121 | 17,31,46,<br>76,90,<br>106,122 | 18,32,47,<br>77,91,<br>107,123 | 19,33,48,<br>78,92,<br>108,124 | 20,34,49,<br>79,93,<br>109,125 | 21,35,50,<br>80,94,<br>110,126  | 22,37,52,<br>81,95,<br>111,127  |
| <b>7</b> | 23,38,53,<br>82,96,<br>112,128 | 1,18,35,<br>62,79,<br>96,129   | 2,19,36,<br>63,80,<br>97,130     | 3,20,37,<br>64,81,<br>98,131   | 4,21,38,<br>65,83,<br>99,132   | 5,22,39,<br>66,83,<br>100,133  | 6,23,40,<br>67,84,<br>101,134  | 7,24,41,<br>68,85,<br>102,135  | 8,25,42,<br>69,86,<br>103,136   | 9,26,43,<br>70,87,<br>104,137   |
| <b>8</b> | 10,27,44,<br>71,88,<br>105,113 | 11,28,45,<br>72,89,<br>106,114 | 12,29,46,<br>73,90,<br>107,115   | 13,30,47,<br>74,91,<br>108,116 | 14,31,48,<br>75,92,<br>109,117 | 15,32,49,<br>76,93,<br>110,118 | 16,33,50,<br>77,94,<br>111,119 | 17,34,51,<br>78,95,<br>112,120 | 18,35,52,<br>79,96,<br>106,121  | 19,36,53,<br>80,90,<br>102,122  |
| <b>9</b> | 2,21,40,<br>63,82,<br>101,123  | 3,22,41,<br>64,83,<br>102,124  | 4,23,42,<br>65,84,<br>103,125    | 5,24,43,<br>66,85,<br>104,126  | 6,25,44,<br>67,86,<br>105,127  | 7,26,45,<br>68,87,<br>106,128  | 8,27,46,<br>69,88,<br>107,129  | 9,28,47,<br>70,89,<br>108,130  | 10,29,48,<br>71,90,<br>109,131  | 11,30,49,<br>72,91,<br>110,132  |

### **Mustaqil ta'lim uchun savollar:**

1. O'zbekiston Respublikasining asosiy tabiiy boyliklari va ularni qayta ishlash kimyoviy korxonalarini.
2. Qishloq xo'saligida ishlab chiqarilayotgan dehqonchilik mahsulotlari miqdorini oshirishda foydalaniladigan kimyoviy o'g'iliar va pestitsidlar.
3. Chorva mollarini parvarishlash jarayonida kimyoviy moddalardan dori-darmon va oziqaga qo'shimchalar sifatida foydalanish.
4. Dehqonchilik mahsulotlarining sifatining buzilishida qanday kimyoviy preparatlarning qo'llanilishi sabab bo'lishi va uni tuzatish yo'llari.
5. Tuproq, suv va havoning ifloslanishini baholashda kimyoviy usullardan foydalanish.
6. Nishonli atomlar va ulardan kimyoviy preparatlarning biologik faolligini o'rGANISHDA foydalanish.
7. Ishqoriy, ishqoriy-yer metallari, xalkogenidlar va gallogenlarning davriy sistemada joylashgan o'rni, ularning vodorodli hamda kislorodli birikmalarini.
8. Ionli hamda kovalent bog'lanishli moddalarning o'ziga xos xususiyatlarini misollar yordamida tushuntiring.
9. Vodorod bog'lanish, uning yuzaga kelishi; oqsilda ikkilamchi strukturaning yuzaga kelishida vodorod bog'lanishning roli.
10. Donor-aktseptor bog'lanish. Kordinatsion birikmalarda uning yuzaga kelishini misollar bilan tushuntiring.
11. Kompleks tuzlar. Kompleks hosil qiluvchi markaziy ion, ligand, kordinatsion son. Kompleks tuzlardan amaliyatda foydalanish.
12. NaOH, KOH, Ca(OH)<sub>2</sub>, Ba(OH)<sub>2</sub>, NH<sub>4</sub>OH gidroksidlarning eng muhim tuzlaridan amaliyatda foydalanish.
13. HCl, H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, HNO<sub>3</sub>, H<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>, HClO<sub>3</sub>, HMnO<sub>4</sub>, H<sub>2</sub>Cr<sub>2</sub>O<sub>7</sub> kislotalarning eng muhim tuzlaridan amaliyatda foydalanish.
14. Kalsiy gidroksid bilan fosfat kislotadan hosil bo'ladigan nordon, aluminiy gidroksid bilan sulfat kislotadan hosil bo'ladigan asosli tuzlarning formulalarini yozing.
15. Ekzotermik va endotermik reaksiyalarning o'simliklarda sodir bo'ladigan fotosintez, tirik organizmlarda amalga oshadigan moddalar almashinuvini jarayonidagi ahamiyati.
16. Kimyoviy reaksiyalarning tezligiga moddaning tabiatini, konsentratsiya, bosim va temperaturaning ta'siri. Reaksiya tezligining o'zaro ta'sirlashuvchi moddalarning maydalanganligiga bog'liqligi.

17. Katalitik reaksiyalarning turlari, ularning sanoatda qo'llanilishi, biologik jarayonlardagi ahamiyati.

18. Qattiq, suyuq, gazsimon moddalarning suvda eruvchanligiga temperaturaning ta'siri?

19. Foizli, molyar, normal, konsentratsiyali eritmalar qanday tayyorlanadi.

20. Eritmaning titri nimani anglatadi? 1:2 yoki 1:10 suyiltirilgan eritmalar qanday tayyorlanadi?

21. Elektrolitmas eritmalar. Osmotik bosim, uni hisoblash uchun Vant-Goff formulasi.

22. Gipotonik, gipertonik va izotonik eritmalar. Ularning o'simlik va hayvon hayoti faoliyatidagi roli.

23. Eritmaning qaynash temperaturasini toza erituvchinikidan yuqori bo'lishi sababini izohlang. Ebulioskopik usulda erigan moddaning molyar massasini aniqlash.

24. Eritmaning muzlash temperaturasini toza erituvchinikidan past bo'lishi sababini izohlang. Krioskopik usulda erigan moddaning molyar massasini aniqlash.

25. Turli o'simliklarning sovuqlikka chidamliligi turlicha bo'lishi sababini izohlang. Antifriz eritmalaridan amaliyotda foydalanish.

26. Kuchli va kuchsiz kislota hamda gidroksidlarga misollar keltiring. Suvda eruvchan va erimaydigan tuz qanaqa elektrolitlar turkumiga kiradi.

27. Vodorod ko'rsatgich nima? pH va pOH qanday hisoblanadi. Eritma muhitini baholashda pH-shkaladan foydalanish.

28. 0,01mol/l NaOH va 0,005 mol/l  $H_2SO_4$  eritmalarida  $\alpha=100\%$  bo'lganda pHning qiymatlari nechaga teng bo'ladi?

29. Bufer eritmalar haqida tushuncha, ularning turlari. Bufer sig'im nima? Qonning pH qiymati doimiy bo'lishi sababini izohlang.

30.  $CH_3COOH$  va  $CH_3COONa$ ,  $NH_4OH$  va  $NH_4Cl$  tarkibli bufer eritmalarining ta'sir etish mexanizmini izohlang. Tuproqda bunday ta'sir qanday yuzaga keladi?

31.  $Ca(H_2PO_4)_2$ ,  $NH_4H_2PO_4$ ,  $NH_4NO_3$  tuzlarining eritmalarida eritma muhitini qanaqa qiymatga teng?

32.  $NaNO_3$ ,  $KNO_3$ ,  $Ca(NO_3)_2$ ,  $CO(NH_2)_2$  birikmalarining suvli eritmalarida pH qanday qiymatga teng bo'ladi?

33. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalaring molekulalararo, ichkimolekular, disproporsiyalanish, sinproporsiyalanish turlariga misollar yodamida izoh bering.

34. Elementlarning davriy sistemasidagi joylashgan o'rnidan foydalanib, kuchli oksidlovchi va qaytaruvchilarni ko'rsating. Nima uchun  $HNO_3$  oksidlovchi,  $NH_3$  qaytaruvchi xossaliga ega?

35. *NaCl* va *CuSO<sub>4</sub>* tuzlarining suvli eritmalarini elektroliz qilinganda katod va anodda qanday moddalar ajraladi?
36. Vodorodning gidridli birikmalaridan xalq xo'jaligidagi foydalanish. Vodorodning kelajak yoqilg'isi ekanligini izohlang.
37. Ftor, xlor, brom va yod birikmalarining biologik xususiyatlari.
38. Xlorning kislородли бирикмаларидан: xlorli ohak, natriy, kaliy, magniy va kalsiy xloratlar va ularning xalq xo'jaligidagi ahamiyati.
39. Suv va havo tarkibidagi kislород miqdorining ekologik me'yirlari. Qanday omillar ta'sirida ularning o'zgarishi kuzatilmoqda. Ozon va vodorod peroksiidi hamda natriy peroksididan foydalaniladigan sohalar.
40. Oltingugurning mamlakatimizda ishlab chiqarilishi. Oltingugurt va uning birikmalaridan xalq xo'jaligidagi foydalanish.
41. Vodorod sulfid, uning tabiatda uchrashi. Havo tarkibida ruxsat etilgan konsentratsiyasi. Vodorod sulfidga sifat reaksiysi. Sulfidlarning ishlatalishi.
42. Sulfit angidrid va sulfit kislota tuzlarining ishlatalishi. Sulfitsiya usulida qishloq xo'jalik mahsulotlarini saglash.
43. Kuporoslar nima? Ulardan xalq xo'jaligidagi foydalanish sohalari.
44. Ammiak, uning olinishi, sanoatda va qishloq xo'jaligidagi foydalanish. Ammoniyli tuzlarning o'g'it sifatida ishlatalishi.
45. Chili, Hind, Norvegiya selitralari. Qora porox tarkibiga kiruvchi azotli birikma, tabiatda azotning aylanishi.
46. Tirik organizmda va o'simliklarda fosfor birikmalarining biologik roli nimadan iborat? Fosfidlardan pestisid sifatida foydalanish.
47. Ortofosfat kislota, o'rta va nordon tuzlarning suvda erituvchanligiga solishtirma tasnif bering.
48. Oddiy va qo'sh superfosfatlar, presipitat, ammosof, diammosoflarning olinish jarayonlarini ifodalovchi kimyoviy tenglamalarni yozing.
49. Fosfor, mishyak va surmaning pestisidlar sifatida qo'llaniladigan birikmalar.
50. Karbonat angidrid, uning havo tarkibidagi me'yori, yer sharida iqlim o'zgarishining unga bog'liqligi. Kalsinirlangan va ichimlik sodalarining Qo'ng'irotda ishlab chiqarilishi jarayoni asosida yotadigan kimyoviy tenglamalar.
51. Karbidlarning qo'llanilish sohalari. Sianid va tiosianid kislotalar tuzlarining amaliyotda ishlatalishi.
52. Kremniyning vodorodli va kislородли бирикмалари. Tuproq minerallari tarkibiga kiruvchi kremniyli tabiiy birikmalar.
53. Bor – mikroelement sifatida. Buradan mikroog'it sifatida foydalanish. Borat kislotaning antiseptiklik xususiyati.
54. Natriyning muhim birikmali, ularning ishlatalishi. Tirik organizmda osh tuzining biologik roli nimadan iborat?

55. Kaliyning muhim birikmalari, ularning ishlatalishi. Kaliy ionining biologik roli nimadan iborat? Kaliyli o'g'itlar.

56. Mis ionining mikroelement sifatidagi vazifasi. Mis kuporosidan qishloq xo'jaligida foydalanish.

57. Magniy ionining biologik roli. Xlorofill. Magniy birikmalarining qishloq xo'jaligida ishlatalishi.

58. Organizm faoliyatida kalsiy ionining roli. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan kalsiyli birikmalar.

59. Ruxning muhim birikmalari. Rux ionining biologik roli va rux birikmalaridan mikroelement sifatida foydalanish.

60. Simob birikmalaridan zaharli preparat va dorivor modda sifatida foydalanish. Simob metalini zararsizlantirish.

61. Aluminiy tuzlaridan xalq xo'jaligida foydalanish. Achchiq toshlarning tarkibi, ularning veterinariyada qo'llanilishi.

62. Organik birikmalarning o'ziga xos xususiyatlari va xilma-xillik sabablari. Qishloq xo'jaligida organik birikmalardan foydalanish.

63. Organik reaksiyalarning turlari. Organik moddalarning reaksiyon qobiliyati. Radikal, elektrofil, nukleofil mexanizmlari reaksiyalari.

64. Organik moddalarni tozalashda qayta kristallash, sublimatlash, haydash va ekstraksiyalash usullaridan foydalanish.

65. Organik moddalar tarkibidagi uglerod, vodorod, azot, oltingugurt va galogenlarni sifat jihatdan aniqlashda qanaqa kimyoviy reaksiyalardan foydalilanildi.

66. O'zbekiston Respublikasining qaysi hududlarida tabiiy gaz va nefst zahiralarini joylashgan konlar mavjud va ularning xomashyolari mamlakatimizdagi qaysi kimyoviy korxonalarda qayta ishlanadi?

67. Quyidagi galogenid birikmalarning aralashmasiga natriy metali ta'sirida hosil bo'ladigan uglevodorodlarni ratsional va IYUPAK nomenklaturalari bo'yicha nomlang:

- a) Metil yodid va uchlamchi butil yodid;
- b) etil yodid va 2 yod propan;
- c) Propil xlorid va 2 xlor butan.

68. Tabiiy gaz va nefsti qayta ishlash yo'li bilan olinadigan yoqilg'ilar, ularning tarkibiga kiruvchi uglevodorodlar.

69. Etilen, propilen, akrilonitril, vinilatsetat, stirol, 1,3-butadiyenlarning polimerlanish mahsulotlarining xalq xo'jaligida ishlatalishi.

70. Etil xloriddan og'reiq qoldiruvchi, dixlor etandan erituvchi yoki zoosid, etilenglikoldan antifriz eritmasi hamda tola olishda foydalilanildi. Bu moddalarni etilenden qanday kimyoviy reaksiyalar yordamida olish mumkin?

71. Qanday kimyoviy reaksiyalar yordamida: a) to'yingan va to'yinmagan uglevodorodlarni; b) Alkenlar va alkinlarni bir-biridan farqlash mumkin?

72. Benzoldan olinadigan xlorli birikmalar geksaxlorsiklogeksan, geksaxlorbenzol kontaktli insektisid, xlorbenzol DDT pestisidini va dorivor moddalarni sintez qilishda qo'llaniladi. Geksaxlorsiklogeksan, geksaxlorbenzol va xlorbenzol qanday olinadi?

73. Metil xlorid, etil xlorid, xloroform, yodaform, dixlordiftormetan, tribrometanol-2 kabi galoidli birikmalarning veterinariyada va texnikada qo'llanilishi.

74. Etil spirti qanaqa usullarda olinadi? Oziq-ovqat sanoatida, veterinariyada ishlatiladigan hamda texnik va gidroliz etil spirtlari sanoatda qanday olinadi?

75. Metil spirti (yog'och spirti, karbinol) qanday usullarda olinadi? Nima uchun u zaharli? Qanday sohalarda ishlatiladi?

76. Glitserin, uning xossalari, veterinariyada, parfyumeriyada, portlovchi moddalar ishlab chiqarishda foydalanishi. Uni propilendan va yog'dan olish usullari.

77. Fenol sanoatda qanday olinadi? Undan veterinariyada antiseptik modda sifatida foydalanish. Fenolformaldegid plastmassalari.

78. Fenolning nitrolanishi. Nitrofen va 2,4,6-trinitrofenol (Pikrin kislota) dan qishloq xo'jaligida foydalanish.

79. Oddiy efirlar deb qanday birikmalarga aytildi? Ularning qo'llanilish sohalari. Dimetil, dietil efirlarining olinishi. Natriy etilatga metilxlorid ta'sir ettirilganda qanday mahsulot hosil bo'ladi?

80. Aldegid so'zi lotincha «alkogo degidrogenatus» (degidrogenlangan spirt) ma'noga ega. Chumoli aldegidning olinishi. Formalindan dezinfeksiyalovchi eritma sifatida foydalanish. Fenolformaldegid plastmassalari.

81. Sirka aldegid, uning sanoatda Kucherev reaksiyasiga muvofiq olinishi. Sirka aldegid asosida olinadigan moddalar. Vino takribidagi sirka aldegidning paraldegidga aylanishi.

82. Atseton, uning sanoatda olinishi. Kumol sintez reaksiyasi mahsulotlari. Atsetondan universal erituvchi sifatida foydalanish.

83. To'yingan, to'yinmagan va aromatik karbon kislotalarga misollar keltiring. Bir, ikki, uch asosli kislctalarning muhim vakillari.

84. Chumoli kislota, uning tabiatda uchrashi, olinish usullari. Undan tibbiyotda, silos tayyorlashda, teri oshlashda foydalanish. Formiat tuzlarining to'qimachilik sanoatida ishlatilishi.

85. Sirka kislota, uning olinish usullari. Ovqat hazm bo'lish jarayonida sirka kislotaning ishtirok etishi. Konservalash jarayonida undan konservant sifatida foydalanish. Asetaili tuzlarning qo'llanilishi.

86. *Yog'lar tarkibida uchraydigan moy, palmitin, stearin, araxidin kislotalar. Moylar tarkibida uchraydigan olein, linol va linolen kislotalar. Akril va metakril kislotalarning metil efirlaridan pleksiglas olish.*

87. *Aromatik karbon kislotalar. Benzoat kislotaning olinishi, xossalari, ishlatalishi. Ftal kislota.*

88. *Murakkab efirlar. Mumlar, ularning tarkibi, o'simliklarda himoyachi sifatidagi vazifasi. Qo'y juni mumi, asalari mumi.*

89. *Yog'lar va moylar, ularning tarkibi. Palmito stearin araxidin gliserid yog'i, olein linol linolein gliserid moyi formulalarini yozing.*

90. *Sut kislota, uning biokimyoviy va kimyoviy usullarda olinishi. Olma, vino va limon kislotalar. Oksikislotalarning ishlatalishi. Sifatsiz vinoda cho'kindilar hosil bo'lishi qanday izohlanadi.*

91. *Uglevodlar, ularning sinflari. Monosaxaridlar, disaxaridlar va polisaxaridlarning tabiatda tarqalganligi.*

92. *Riboza, 2-dezoksiriboza, ularning RNK va DNK tarkibida uchrashini nuklien kislotaning fragmentining tuzilishi yordamida tushuntiring.*

93. *Glukoza va fruktoza tuzilishining kimyoviy reaksiyalar yordamida isbotlanishi, ularning tabiiy manbalari. Inson organizmida monosaxaridlar energiya manbayi ekanligi.*

94. *Fotosintez reaksiyasi va uglevodlarning organizmda parchalanishi (metabolizm) bir-biriga qarama-qarshi jarayonlar ekanligi va ularni muvosiq-lashtirishning ahamiyati.*

95. *Maltoza, saxaroza, laktosa va sellobioza disaxaridlarning vakillari ekanligi, ular tarkibiga kiruvchi monosaxaridlar. Disaxaridlarning tabiiy manbalari.*

96. *Kraxmal, uning tuzilishi, o'simlik mahsulotlarida zaxira oziqa sifatida to'planishi. Kraxmaldan oziq-ovqat mahsuloti hamda sanoat xomashyosi sifatida foydalanish. Glikogenning organizmda zaxira oziqa ekanligi.*

97. *Selluloza yoki klechatka, uning tabiiy manbalari, tuzilishi. Selluloza asosida olinadigan atsetatlari va viskoza sun'iy tolalari hamda kolloksilin va piroksilin olinishi va ularning ishlatalishi.*

98. *Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi aminlar. Aminlarni oqsillarni chirishidan hosil bo'lishi. 1,6-diaminogeeksandan naylon tolasi olishda foydalanilish.*

99. *Aminokislotalar. Monoaminomonokarbon, diaminomonokarbon, monoaminodikarbon kislotalarning muhim vakillari.*

100. *Tarkibida fenol, indol, gidroksil, amid guruqlarini hamda oltingugurt ni saqlovchi aminokislotalar. Almashinmaydigan aminokislotalar.*

101.  $\alpha$ ,  $\beta$  va  $\gamma$ -aminokislotalar. *Aminokislotalarning va oqsillarning sifat tahlilida ningidrin, qo'rg'oshin (II) asetat, konsentrangan nitrat kislota kabilarning qo'llanilishi.*

102. Aminokislotalardan alanil-glitsin peptidining hosil bo'lishini tushuntiriring. Oqsillarning birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va to'rtlamchi tuzilishi.

103. Oqsillarning o'simlik va hayvon organizmi uchun zaruriy moddalar ekanligi. Oqsillarning organizmdagi struktura materiali, katalitik, harakat, transport funksiyasi.

104. Oqsillarning himoya, gormonal, irsiyatni o'tkazish hamda energetik funksiyalari. Sanoctda oqsil moddalarini qayta ishlash.

105. Geterosiklik azot saqllovchi birikmalar. Pirrol, uning xlorofill, gemoglobin,  $B_{12}$  vitamini tarkibida uchrashi.

106. Besh a'zoli kondensirlangan geterosiklik birikmalarning triptofan ( $\beta$ -indolil alanin) geteroauskin (indolil sirka kislota) tarkibida uchrashi. Indol hosilalarining biologik ahamiyati.

107. Olti a'zoli bir geteroatomli geterosiklik birikmalar. Piridin. Nikotin kislota va uning amidi (vitamin PP).

108. Olti a'zoli bir halqali geterotsiklik birikmalar. Pirimidin (1,3 diazin) hosilalari uratsil, timin va sitozin ularning nuklein kislotalarning tuzilishini shakllantirishdagi roli.

109. Bisiklik geterosiklik birikmalar. Purin va uning hosilalari. Adenin va guanin, ularning RNK va DNK tarkibida uchrashi.

110. Fosfat kislota, riboza (2-dezoksi riboza) va geterosiklik asoslar (uratsil, timin, sitozin, adenin, guanin) ishtirokida RNK (DNK) zanjirining birlamchi tuzilishning hosil bo'lishi.

111. Alkaloidlar, ularning tabiatda uchrashi, tarkibiga kiruvchi geteroasosga ko'ra tafsiflanishi. Nikotin, Atropin, Kofein, Morfin, Geroin tarkibiga kiruvchi geterosiklik birikmalar.

112. Yalpiz tarkibida uchraydigan mentolning tuzilishi. Karotin, vitamin A, E, D tarkibiga kiruvchi organik moddalar, ularning tabiiy manbalari.

113. Moddaning gazsimon, suyuq, qattiq va plazma holatlari. Gazlar aralashmasi uchun Dalton qonuni. Tuproqning havo rejimi.

114. Moddaning kirstall va amorf holatlari. Montmorillonit, kaolinit va gidrosludali mineralli tuproqlarning fizik-kimyoviy xususiyatlari.

115. Moddaning suyuq holati. Yer sharida haroratning mo'tadillashishida suvning roli. O'simlik ildizi orgali suyuqlikning ko'tarilishida sirt taranglik va qovushqoqlikning ahamiyati.

116. Termodinamika qonunlarining biologik jarayonlarga tadbigi. Ekin navlarini iqlim ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda tanlashning ahamiyati.

117. Eritmalarining osmotik bosimi. Gipotonik, gipertonik va izotonik eritmalar. O'simliklarning o'sish jarayonida osmotik bosimning roli.

118. Erituvchi va eritma ustidagi bug‘ bosimning temperaturaga bog‘liq holaida o‘zgarishi va uning muzlash temperaturasiga ta’siri. Daraxilar tanasida ularning qishgi mavsumga tayyorlanishi jarayonida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar.
119. Erigan modda molyar massasini krioskopik usulda aniqlash.
120. Eritma osmotik bosimini krioskopik usulda aniqlash.
121. Eritmalarning solishtirma va ekvivalent elektr o‘tkazuvchanligi. Ulardan foydalanib, tuproqning sho‘rlanishi yoki namlik darajasini, donning namligini aniqlash.
122. Kislota va ishqorlarni konduktometrik titrlash. Undan foydalanib eritmalaragi tuz, kislota asoslar konsentratsiyasini aniqlash.
123. Kimyoviy reaksiya tezligining moddalar tabiatiga, konsentratsiyasiga (gazlar uchun bosimga), temperaturaga bog‘liqligi. Urug‘ning unib chiqish jarayoniga tuprog zarrachalarining dispersligening ta’siri.
124. Kataliz. Fermentlar katalizator sifatida fermentlarning tanlab ta’sir etish xususiyati. Fermentativ katalizdan sanoatda foydalanish.
125. Vodorod ko‘rsatgich. pH-shkala. Eritmalarning pH ini aniqlash usullari. O‘simliklarni oziqlantirish jarayonida tuproqning pH qiymatining nazorat qilinishi sababi.
126. Bufer eritmalar, ularning amaliyotda ko‘proq qo‘llaniladigan turlari. Tuproqning bufer xususiyati, uning o‘simliklarni rivojlanish jarayonidagi ahamiyati.
127. Fotosintez, planetamizda sodir bo‘ladigan asosiy reaksiyalardan biri ekanligi. Xlorofillning sensibilizator ekanligi. Ultrabinafsha va infraqizil spektroskopiya usullaridan tuproq va biologik obyektlarda uchraydigan moddalararning sifatiy va miqdoriy tahlilida foydalanish.
128. Kolloid eritmalarini kolloid zarracha o‘chamiga, agregat holatiga, dispers faza va dispersion muhit molekulalari orasidagi bog‘lanish kuchiga ko‘ra klassifikatsiyalanishi.
129. Kolloid eritmalarini dispersion maydalash, kondensatsiya va peptizatsiya usullarida olish.
130. Kolloid eritmalarini dializ, elektrodializ va ultrafiltrlash usullarida tozalash. Kolloid eritmalarini tozalash usullaridan amaliyotda foydalanish.
131. Kolloid eritmalarining optik xususiyatlari. Faradey-Tindal effekti asosida ultramikroskopning yaratilganligi.
132. Kolloid sistemalar mitsellasining tuzilishi. Kolloid eritmalarining bargarorlik sabablari.
133. Kolloid eritmalarining elektrokinetik xossalari. Elektroforez va elektroosmosdan amaliyotda foydalanish.
134. Ion almashinish adsorbsiyasi, uning tuproqda sodir bo‘ladigan jarayonlar uchun ahamiyati.

135. Svet kashf etgan adsorbsion xromatografiya usulidan amaliyotda foydalanish.

136. Kolloid eritmalarining barqarorligini o'zgartirish usullari (koagulyasiya). Gellar va iviqlar.

137. Tuproq kolloidlari haqida tushuncha. Kremniyli birikmalar ishtirokida hosil bo'ladigan kolloid zarrachaning tuzilishi.

## 2-iloqa

### Sifat analizida qo'llaniladigan muhim reaktivlar eritmasini tayyorlash

#### Kislotalarning eritmalarisi:

1.  $H_2SO_4$  ning 2N eritmasi: 945 ml distillangan suv solib (chayqatib turgan holda), unga tomchilatib konsentrangan ( $d = 1,84 \text{ gr/sm}^3$ )  $H_2SO_4$  dan 55 ml qo'shiladi.

2.  $HCl$  ning 2N eritmasi: 836 ml distillangan suvgaga konsentrangan ( $d = 1,19 \text{ gr/sm}^3$ )  $HCl$  dan 167 ml qo'shiladi.

3.  $HNO_3$  ning 6N eritmasi: 385 ml konsentrangan ( $d = 1,42 \text{ gr/sm}^3$ ) nitrat kislota hajmi 1 l bo'lguncha suyultiriladi.

4.  $CH_3COOH$  ning 2N eritmasi: 116 ml konsentrangan sirka kislota bilan 884 ml distillangan suv o'zaro aralashtiriladi.

5.  $H_2C_4H_4O_6$  ning 2N eritmasi: 150 gr kislota distillangan suvda eritiladi va eritmaning hajmi 1 litrga yetkaziladi.

#### Gidroksidlarning eritmalarisi:

1.  $NaOH$  ning 2N eritmasi: 80 gr  $NaOH$  suvda eritilada va eritmaning hajmi 1 litrga yetkaziladi.

2.  $KOH$  ning 2N eritmasi: 112 gr  $KOH$  suvda eritiladi va eritma hajmi 1 litrga yetkaziladi.

3.  $NH_4OH$  ning 2N eritmasi: Ammoniy gidroksidning konsentrangan ( $d = 0,9 \text{ gr/sm}^3$ ) eritmasidan 133 ml olib, u 687 ml distillangan suv bilan aralashtiriladi.

4.  $Ba(OH)_2$  ning 0,4N eritmasi: Bariy gidroksidning 1 l to'yingan eritmasida 72 gr  $Ba(OH)_2$  bo'ladi.

5.  $Ca(OH)_2$  ning 0,05N eritmasi (yoki ohakli suv); kalsiy gidroksidning 1N to'yingan eritmasida 1,3 gr  $CaO$  bo'ladi.

#### Maxsus reaktivlarning eritmalarisi:

1. Alizarin — qizil  $C_14H_8O_2(OH)_2SO_3Na$  (1,2-dioksantraxinon 3-sulfokislotanining natriy tuzi) eritmasi: 96% li etanoldagagi to'yingan eritmasidan foydalaniladi.

2. Alyuminon —  $(NH_4)_2C_{19}H_{11}O_2(COO)_3$  ning 0,1% li eritmasi: 1 gr alyuminon 1 l distillangan suvda eritiladi.

3.  $(NH_4)_2S$  – ammoniy polisulfid eritmasi: Ammoniy sulfidning 6N 1 l eritmasiga 20 gr kukunsimon oltingugurt qo'shib chayqatiladi, bir kun qoldirib, erimay qolgan oltingugurt filtrlab ajratiladi.

4.  $(NH_4)_2S$  – ammoniy sulfid eritmasi: Ammoniy gidroksidning konsentrangan eritmasidan 200 ml olinadi va u vodorod sulfid gazi bilan to'yintiriladi, so'ngra uning ustiga yana o'sha konsentrangan ammoniy gidroksid eritmasidan 200 ml qo'shiladi va hajmi 1 l bo'lguncha distillangan suv bilan suyultiriladi.

5. Ammoniy tetrarodanomerkuriat (II)  $(NH_4)_2[Hg(SCN)_4]$  eritmasi: Sig'imi 100 ml bo'lgan o'chov kolbasiga 8 gr sulema va 9 gr ammoniy rodanid solib, ular distillangan suvda eritiladi, eritmaga suv qo'shib hajmi kolbaning belgisiga qadar yetkaziladi.

6. Natriy arsenat  $Na_3AsO_4 \cdot 12H_2O$  ning 1N eritmasi: Natriy arsenatdan 141 gr o'chab olib, suvda eritiladi, hosil bo'lgan eritmaning hajmi 1 litrga yetguncha suyultiriladi.

7. Natriy arsenit  $NaAsO_2$  ning 0,1N eritmasi: natriy arsenitdan 13 gr olib, suvda eritiladi, eritma 1 litrgacha suyultiriladi.

8. Antipirin  $C_8H_5C_3HON_2(CH_3)_2$  ning 5% li eritmasi: 5 gr antipirin 95 ml distillangan suvda eritiladi.

9. Benzidin  $C_{12}H_8(NH_2)_2$  eritmasi: Uning 30% li sirka kislotadagi to'yingan eritmasi tayyorlanadi.

10. Bromli suv: Bromning suvdagi to'yingan eritmasi.

11. Vismut nitrat  $Bi(NO_3)_3 \cdot H_2O$  eritmasi: 40,5 gr vismut nitrat tuzi 500 ml 1N nitrat kislotada eritiladi, suv bilan 1 litrgacha suyultiriladi.

12. Gips ( $CaSO_4$ ) li suv: Gips ( $CaSO_4$ )ning suv  $H_2O$  dagi to'yingan eritmasi (1 l shunday eritmada 2,6 gr  $CaSO_4$  bo'ladi).

13. Dimetilglioksim( $CH_3CNOH$ )<sub>2</sub> ning 1%li eritmasi: Igr dimetilglioksim 100 ml 95% li etanolda eritiladi.

14. Ditizon (difenil tiokarbazon)  $C_6H_5N_2CS(NH)_2C_6H_5$  eritmasi: 0,01 gr ditizon 100 ml  $CC_{14}$  yoki  $CHCl_3$ da eritiladi. Eritma qora shisha idishda saqlanadi. Reaktivning saqlanish muddati 3–4 kun.

15. Difenilamin ( $C_6H_5)_2NH$  eritmasi: 1 gramm difenilamin 100 ml konsentrangan sulfat kislotada ( $d = 1,84$  gr/sm<sup>3</sup>) eritiladi.

16. Yodli suv ( $I_2 + K_2$ ): 25 ml suvda 1,3 gr yod va 3 gr KI eritiladi, eritmaning hajmi 1 litrga yetkaziladi.

17. Kaliy geksagidroksoantimonat(V)  $K_2Sb(OH)_6$  eritmasi: Reaktivdan 22 gr olib 1 l suvda qizdirib turgan holda eritiladi, aralashma 3–5 daqiqa davomida qaynatiladi, tuzning hammasi to'lig erigandan so'ng eritmaga 35 ml 6N KOH eritmasi qo'shiladi, aralashma biroz suyuqlashadi, so'ng filtrlanadi.

18. Kaliy geksasianoferrat (III)  $K[Fe(CN)_6]$  ning 1N eritmasi: 110 gr tuz suvda eritiladi va eritma 1 l gacha suyultiriladi.

19. Kaliy geksasianoferrat (II)  $K_2[Fe(CN)_6]$  ning 1N eritmasi: 105,6 gr tuz suvda eritiladi va eritma 1 l gacha suyultiriladi.

20. Kupferon  $C_6N_2N(NO)ONH_4$  eritmasi: Reaktividan 5 gr olib 100 ml suvda eritiladi.

21. Magnezial aralashma ( $MgC_{12} + N H_4Cl + NH_4OH$ ): 100 gr  $MgC_{12}$  6 $H_2O$  va 100 gr  $NH_4Cl$  tuzlari suvda eritiladi, ustiga 50 ml konsentrangan  $NH_4OH$  qo'shib, eritmaning hajmi suv bilan 1 litrga yetkaziladi.

22. Molibden suyuqligi ( $NH_4_2MoO_4 + HNO_3$ ): 150 gr ammoniy molibdat 1 litr suvda eritiladi. Bu eritmaga 1 l konsentrangan nitrat kislota ( $d = 1,4 \text{ gr/sm}^3$ ) qo'shiladi va aralashma 48 soat qoldiriladi, zarur bo'lgan taqdirda cho'kma ustidagi eritma boshqa idishga quyiladi va ishlatiladi: eritma qopasi shisha idishda saqlanadi.

23. Natriy vanadat  $NaVO_3$  eritmasi: 100 gr ammoniy vanadat 200 ml 2N  $NaOH$  eritmasi bilan aralashtirilib qaynatiladi, xona temperaturasiga qadar sovitiladi va suv qo'shib 1 litrgacha suyultiriladi.

24. Natriy volframat  $Na_2WO_4 \cdot 2H_2O$  eritmasi: 50 gr volframat kislota bilan 200 ml 2N o'yuvchi natriy aralashmasi qaynaguncha qizdiriladi, kislota to'liq erib bo'lgandan so'ng eritma sovitiladi va hajmi 1,5 l bo'lguncha suyultiriladi.

25. Natriy gidrofosfat  $Na_2HPO_4 \cdot 12H_2O$  eritmasi: 120 gr tuz suvda eritiladi, eritma 1 litr gacha suyultiriladi.

26. Natriy geksanitrokobaltat (III)  $Na[Co(NO_3)_6]$  eritmasi: 21 gr  $NaNO_2$  (k.t.) va 29 gr  $Co(NO_3)_3 \cdot 6H_2O$  aralashmasi 50 ml suvda eritiladi, 1 ml 80% li sirka kislota qo'shib eritmaning muhitini kislotali sharoitga keltiriladi, so'ngra 24 soat qoldiriladi, filtrlanadi va 100 ml hajmga qadar suyultiriladi, eritmani qora shisha idishda saqlash kerak (yaxshisi, eritmani uzoq saqlamagan ma'qul).

27. Natriy sulfid ( $Na_2S \cdot 9H_2O + NaOH$ ) eritmasi: sig'imi 1 l bo'lgan o'chov kolbasiga 480 gr natriy sulfid va 40 gr  $NaOH$  solinadi va ustiga distillangan suv quyib eritiladi, eritmaning hajmi 1 litrgacha yetkaziladi.

28. Naftilamin  $C_{10}H_8NH_2$  eritmasi: reaktividan 0,3 gr olib 20 ml suvdan eritiladi, rangsiz eritmaga 150 ml 2N sirka kislota eritmasidan qo'shiladi.

29.  $\alpha$ -Nitrozo- $\beta$ -naftol  $C_{10}H_8(NO)OH$  eritmasi: 18 gr reaktiv il 50% li sirka kislotada eritiladi, eritma biroz qoldiriladi, cho'kma ustidagi eritma boshqa idishga quyib olinadi.

30. 8-oksixinolin  $C_8H_6NOH$  eritmasi: 8- oksixinolindan 2,5 gr o'chab olinadi va 100 ml 6% li sirka kislotada eritiladi.

31. 8-oksixinolin va kaliy yodid ( $C_8H_6NOH + KI$ ) eritmasi (u  $Bi^{3+}$  kationiga reaktiv): 4 ml 1-2N xlorid kislotada 2 gr 8-oksixinolin eritiladi,

eritmaga 80 ml suv va 4 gr *KI* qo'shib aralashmaning umumiy hajmi 100 ml ga yetkaziladi.

32. *Qalay (II) xlorid*  $SnCl_2 \cdot 2H_2O$  eritmasi: tuzdan 95 gr o'chab olinadi, 500 ml konsentrlangan xlorid kislotada eritiladi, eritmaning rangi tiniqlashguncha goldiriladi, so'ngra eritma 1 litrgacha suyultiriladi va germetik berkiladigan idishda saqlanadi.

33. *Vodorod peroksid*  $H_2O_2$  ning 3% li eritmasi: 30% li vodorod peroksiddan 10 ml o'chab olinadi va 100 ml ga qadar suyultiriladi.

34. *Pikrin kislota*  $C_6H_3O_7N_3$  eritmasi: 1,5 gr pikrin kislota 100 ml suvda eritiladi.

35. *Nessler reaktivi*  $NaJHgI_4 + NaOH$  eritmasi: 115 gr  $HgI_2$  va 80 gr kaliy yodid tuzlari suvda eritiladi, eritmaning hajmi 500 ml ga yetkaziladi, uning ustiga o'yuvchi natriyning 6N eritmasidan 500 ml qo'shiladi, cho'kma ustidagi eritma boshqa idishga quyib olinadi va qorong'i joyda saqlanadi.

36. *Faurgolta reaktivi* ( $AgNO_3 + KNO_3 + NH_4OH$ ) eritmasi: 1,7 gr kumush nitrat va 25,2 gr kaliy nitrat tuzlari 1 litr 0,25 molyar ammoniy gidroksidda eritiladi.

37. *Surma (III) xloridning IN li eritmasi:* 114 gr tuz suvda eritiladi, hosil bo'lgan loyqa yo'qolguncha tomchilatib xlorid kislota qo'shiladi, eritmaning hajmi 1 l ga yetguncha suyultiriladi.

38. *Fluoreszin*  $C_{20}H_{12}O_5$  eritmasi: 0,25 gr fluoreszin 100 ml 80% li etanolda eritiladi.

39. *Fosformolibdat kislota*  $H_2P(Mo_3O_7)_2 \cdot H_2O$  ning 5% li eritmasi: kislotadan 5 gr o'chab olinadi va u 25 ml suvda eritiladi.

40. *Xlorli suv: xlor gazining suvdagi to'yingan eritmasi.*

### *Amaliy mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan ba'zi reaktivlarni tayyorlash usullari*

1. *Xromli aralashma tayyorlash.* Kimyoiy laboratoriyalarda tajribalarni o'tkazish uchun foydalaniladigan idishlarni ko'pincha xromli aralashma yordamida yuvilib keyin toza suvda chayiladi. Aralashmani tayyorlash uchun 10 gr kaliy bixromat tuzi 100 ml distillangan suvda eritiladi. Keyin shu aralashma ustiga 20 ml konsentrlangan sulfat kislota solinib yaxshilab aralashtiriladi.

2. *Qon zardobini ajratib olish.* Qon zardobini ko'proq miqdorda ajratib olish uchun oldin hayvon organizmidan qon olish kerak bo'ladi. Buning uchun hayvonning vena qon tomiri maxsus qon olish uchun tayyorlangan ignalar yordamida punksiya qilinadi. Ignadan otlib chiqadigan qonning oqimi idishning devoriga tutiladi (ortiqcha tebranishlar bo'lmasligi kerak). Qon solingan idish oldin 20 daqiqacha 37–38°C li termostatga joylashtiriladi, keyin esa salqin yerga

*ko'chiriladi. Zardob yaxshi ajralishi uchun 0,5–1 soatdan keyin shisha tayqcha yoki ingichka po'lat sim yordamida qon quyqasini idish devoridan sekinlik bilan ajratiladi. Ma'lum bir vaqt dan keyin ajralib chiqqan qon zardobini ingichka pipetka yordamida so'rib olinadi yoki sekinlik bilan idishni chayqatmasdan yonboshlatib oqizib olinadi.*

**3. Albuminning kalibrovkali eritmasini tayyorlash.** Oldin albuminning 10% li eritmasi tayyorlanadi. Buning uchun 1 gr albumin 10 ml distillangan suvda eritiladi.

**4. Biuret reaktivini tayyorlash.** 9 gr vino kislotasining kaliy natriyli tuzini 200 ml li o'chov kolbasiga solib, 80 ml 0,2N natriy ishqorining eritmasida eritiladi. Ustiga 3 gr mis sulfat va 1 gr kaliy yod solinadi. O'chov kolbasidagi aralashma yaxshilab chayqatilib, hajmi natriy ishqorining 0,2N eritmasi bilan tegishli belgiga qadar keltiriladi. Reaktiv qoramtil shisha idishda saqlanadi.

**5. Biuret reaktivining ishqorli eritmasini tayyorlash.** 200 ml biuret reaktivini 800 ml kaliy yodning 0,5% li eritmasida eritiladi.

**6. Natriy ishqorining 1,8N eritmasini tayyorlash.** 72 gr natriy ishqori ozroq distillangan suvda eritiladi. Keyin uning hajmi 100 ml ga yetkaziladi.

**8. Natriy karbonat eritmasining 0,5% li eritmasini tayyorlash.** 500 mg natriy karbonat tuzi distillangan suvda eritilib, hajmi 100 ml ga yetkaziladi.

**9. Kaliy yoditning 0,5% li ishqoriy eritmasini tayyorlash.** 4 gr kaliy yodning 800 ml natriy ishqorining 0,2N eritmasida eritiladi. Hosil bo'lgan eritma qoramtil idishga ikki hafta saqlanadi.

**10. Kaliy yodidning 0,5% li eritmasi tayyorlash.** 5 gr kaliy yodid 1 litrli o'chov kolbasiga solinib, ozroq qaynoq distillangan suvda eritilib, keyin hajmi tegishli belgiga qadar yetkaziladi.

**11. Asosiy fosfat eritmani tayyorlash.** 33,5 gr natriy ishqori 400 ml distillangan suvda eritiladi, ustiga 226,8 gr bir almashingan fosfat kislotasining kalyli tuzidan solinib, yaxshilab chayqatiladi. Tuz to'liq erib bo'lgandan keyin distillangan suv bilan eritmaning hajmi 500 ml ga yetkaziladi.

**12. Ishchi fosfat eritmasini tayyorlash.** 4 ta 100 ml li o'chov kolbalari olinib birinchisiga 92,4 ml, ikkinchisiga 74,9 ml, uchinchisiga 58,8 ml va to'rtinchisiga 48,7 ml asosiy fosfat eritmasidan solinib, ularning hajmi distillangan suv bilan kolbaning tegishli belgisiga qadar yetkaziladi. Ma'lum bir muddat turishi uchun 1 tomchi xloroform tomiziladi.

**13. Sirka reaktivini tayyorlash.** 1 qism muzli sirka kislota, 5 qism sirka angidrid va 1 qism konsentrangan sulfat kislota aralashmasi tayyorlanadi. Aralashma qizib ketmasligi uchun doimo muzli suvda sovutib chayqatib turiladi. Sulfat kislotani oxirida qo'shish tavsiya etiladi. Aralashma (reakтив) rangsiz sarg'ish bo'lib, uzoq muddatgacha muzlatkichda saqlanishi mumkin.

**14. Asetilxolining 0,1% li asetat buferidagi eritmasini tayyorlash.** Oldin  $pH=4,5$  bo'lgan asetat buferi eritmasiga asetilxolining 1% li eritmasi tayyorlanadi. Asetat buferining tarkibi quyidagicha, 5 ml sirka kislotasining 0,1N li eritmasiga 5 ml sirka kislotasini natriyli tuzi eritmasidan quyladi. Asetilxolinnig asosiy eritmasidan ishchi eritma tayyorlanadi. Buning uchun asetilxolining asosiy eritmasidan 1 qism, fosfat buferidan 9 qism olib aralashtiriladi.

**15. Gidroksilamin eritmasini tayyorlash.** Oldin asosiy eritma tayyorlanadi. 27,8 gr tuz 200 ml suvda eritiladi. Gidroksilaminning ishchi eritmasini tayyorlash uchun 1 qism asosiy eritma va 2 qism NaOHning 3,5 M eritmasidan olib aralashtiriladi.

**16. Ammiakning 0,024N eritmasini tayyorlash.** Bu 25% li ammiak eritmasidan tayyorlanadi. 1 litrli o'chov kolbasiga 1,6 ml 25% ammiak eritmasi olinib, uning hajmi distillangan suv bilan 1 litrga yetkaziladi.

**17. Trilon B reaktivining titrini belgilash.** 0,005N trilon B eritmasining 1 ml tarkibida 0,1 mg Ca tutuvchi 0,1 ml CaCO<sub>3</sub>, tuzining standart eritmasiga ekvivalentdir. Probirkaga CaCO<sub>3</sub>, tuzining standart eritmasidan 0,1 ml olib, uning ustiga 9,3 ml distillangan suv, 0,4 ml NaOH ning 1,8 N eritmasidan solinadi va 2 tomchi mureksid indikatoridan tomiziladi. Aralashmaning pushti rangi binafsha rangga o'igunga qadar trilon B eritmasi bilan titrlanadi. 0,1 ml CaCO<sub>3</sub>, tuzining standart eritmasini titrash uchun sarflangan trilon B ning 0,005N eritmasini ml miqdoriga bo'lingandan chiqqan son trilon B ning titriga tengdir.

**18. Uch xlor sirka kislotasining 3% li eritmasini tayyorlash.** 100 ml li o'chov kolbasiga 3 gr uch xlor sirka kislotasidan o'chab olinib, ozroq distillangan suvda to'liq eritiladi. Keyin eritmaning hajmi distillangan suv bilan tegishli belgiga qadar suyultiriladi.

**19. Agar-agar parchasini tayyorlash.** 10% li agar-agar parchasini tayyorlash uchun 20 g agar-agarni kimyoviy stakanga solib, uning ustiga 80 ml distillangan suv quyib, elektr plitkada yoki gaz gorelkasida qizdiriladi. Qizdirish davomida stakandagi agar-agar aralashmasi shisha tayoqcha bilan aralashtirib turiladi. Hosil bo'lgan quyuq atala ustiga 2% li kraxmal eritmasidan solib aralashtiriladi, so'ngra uni Petri kosachasiga ko'chiriladi. Agar-agar Petri kosachasida bir tekisda qotgandan keyin, uning ustiga uzunasiga kesilgan unayotgan urug' bo'laktari yopishtirib qo'yiladi.

**20. Azobenzol eritmasini tayyorlash.** 14,5 mg azobenzolni 100 ml spirtda eritiladi. Bu eritma 2,35 mkg/ml karotinka to'g'ri keladi.

**21. Amilaza shirasini olish.** Unayotgan bug'doy, arpa, suli urug'idan (maysasidan) 8–10 gr olib, chinni hovonchada yanchiladi. So'ngra hovonchani issiq distillangan suv bilan yuvib, 50 ml li o'chov kolbasiga o'tkaziladi va

yarim soat tinch qoldiriladi. Shundan keyin filtrlanadi. Filtrat amilaza ferment sifatida ishlatiladi. Ferment shirasini tajriba boshlanishidan oldin tayyorlash kerak.

**22. Anilinning spirtli eritmasi.** Anilin spirtda 1:6 nisbatda eritiladi. Tayyorlangan eritma maxsus qora rangdagi idishlarda yoki ustı qora qog'oz bilan o'rالgan shisha idishlarda saqlanadi.

**23. Asetat buferini tayyorlash.** 1N sirka kislota ( $\text{CH}_3\text{COOH}$ ) bilan 1N natriy asetat ( $\text{CH}_3\text{COONa}$ ) eritmaları 1:1 nisbatda aralashtiriladi. Shu nisbatda tayyorlangan aralashmadagi  $pH=4,7$  ga teng bo'ladi.

**24. Ganus eritmasi.** 13 gr yod kristali 100 ml sirka kislotada eritiladi. So'ngra uning ustiga 8,2 gr brom qo'shib, hajmi sirka kislota bilan 1 l ga keltiriladi. Tayyorlangan eritma maxsus rangli idishda saqlanadi.

**25. Gubl eritmasi.** Bu eritma ikki qismidan iborat bo'ladi: 1) 30 gr simob (II) xlorid (sulema ehtiyyot bo'ling!), 500 ml 96% li etil spirtda eritiladi, 2) 25 gr yod kristali 500 ml 96% li spirtda eritiladi. Tayyorlangan eritmalar ayrim-ayrim holda shisha idishlarda saqlanadi. Tajriba boshlashdan ikki kun oldin, eritmalar 1:1 nisbaida olinib, ularning ustiga solishtirma massasi 1,19 bo'lgan xlorid kislotadan 25 ml qo'shiladi.

**26. Diazoreaktiv.** 0,9 gr sulfanil kislotani 9 ml konsentrangan xlorid kislotada eritiladi. Agar sulfanil kislota yaxshi erimasa, unga 2–3 tomchi distillangan suv qo'shib qizdiriladi. So'ngra aralashmaning 100 ml hajmi o'chov kolbasiga solinadi va distillangan suv bilan o'chov chizig'igacha yetkaziladi. Tayyorlangan eritma qora rangli shisha idishlarda yoki qora qog'oz bilan o'rالgan shisha idishda, sovitgichda saqlanadi. Tajriba boshlashdan oldin bu tayyorlangan eritmadan 1,5 ml olib, ilgaridan muzga (sovitgichga) qo'yilgan 50 ml li o'chov kolbasiga solinadi. So'ngra uning ustiga 1,5 ml yangi tayyorlangan 5% li natriy nitrat eritmaside qo'shib, 5 daqqa muzga qo'yib sovutiladi. Kolbadagi aralashma yaxshilab chayqatiladi va uning ustiga 5% li natriy nitrat eritmaside yana 6 ml qo'shib, hajmi distillangan suv bilan 50 ml ga yetkaziladi. Tayyorlangan eritmadan bir sutka davomida foydalanish mumkin. Reaktiv sovitgichda saqlanadi.

**27. Dixlorfenolindofenolning 0,001N li eritmasi.** Bu reaktivni tayyorlashda Serensen tomonidan tavsija etilgan bufer eritmaside foydalaniladi. 9,078 gr  $\text{KH}_2\text{PO}_4$  va 11,867 gr  $\text{Na}_2\text{HPO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  tuzlaridan olib, ularni ayrim-ayrim holda 1 l distillangan suvda eritiladi. Tayyorlangan eritmalar ham alohida-alohida shisha idishlarda saqlanadi. So'ngra, 2,6-dixlorfenolindofenoldan 0,25 gr olib, 700 ml distillangan suvda 1 l li o'chov kolbasida eritiladi. Uning ustiga, tayyorlangan

$\text{KH}_2\text{PO}_4$  va  $\text{Na}_2\text{HPO}_4$  eritmalaridan  $\frac{\text{KH}_2\text{PO}_4}{\text{Na}_2\text{HPO}_4} = \frac{2}{3}$  nisbatda olib aralashtiriladi

(bu aralashmaning pH=6,9–7,0 atrofida bo'jadi) va o'ichov kolbasining chizig'igacha aralashma qo'shiladi. Eritma bir kundan keyin filtrlanadi. Filtrlash oldidan eritma yaxshilab aralashtiriladi. Shu usulda tayyorlangan 2,6-dixlorfenolindofenol eritmasi, to'yingan oksalat kislota ammoniyli tuzi ishtirokida Mor tuzining eritmasi bilan titrlash orqali, uning aniq titri topiladi. Titrlash uchun olingan har 10 ml 2,6-dixlorfenolindofenol eritmasiga 5 ml oksalat kislotaning ammoniyli tuzidan qo'shiladi.

**28. Ishqor eritmasi.** 5,76% li natriy karbonat va 4% li natriy gidroksid eritmalarini alohida-alohida tayyorlanadi. Ish boshlashdan oldin bu eritmalar 1:1 nisbatda aralashtiriladi.

**29. Yod eritmasi.** 20 gr kaliy yodid 100 ml distillangan suvda eritiladi. So'ngra 1 gr yod kristali tarozida tortib olinadi va tayyorlangan K<sub>2</sub> eritmasida eritiladi. Shu usulda tayyorlangan yodning konsentrangan eritmasidan ma'lum miqdorda olib, distillangan suv bilan 1:5 nisbatda suyultirilgach, tajribalarda ishlataladi. Yod eritmasi (kraxmalni aniqlash uchun). 7,5 gr yod kristali 7,5 gr kaliy yodid bilan chinni hovonchada 5–10 ml distillangan suv ishtirokida yanchiladi. So'ngra aralashma 250 ml hajmdagi o'ichov kolbasiga o'tkaziladi. Chinni hovoncha 3–4 marta distillangan suv bilan yuvilib, kolbaga solinadi, aralashma hajmi esa distillangan suv bilan 250 ml ga keltiriladi va eritma filtrlanadi.

**30. Kumush nitratning ammiakdagi eritmasi.** 5 gr kumush nitrat tuzidan olib, uni 50 ml distillangan suvda eritiladi. Agar eritma ustiga konsentrangan ammiakdan bir necha tomchi tomizilsa, cho'kma tushadi. Cho'kma ustiga ammiak tomizishni davom ettirsak, u qayta eriydi. So'ngra, eritma hajmi distillangan suv bilan 100 ml ga keltiriladi.

**31. Millon reaktivi.** 40 gr simob 57 ml konsentrangan nitrat kislotada, avval xona haroratida, keyin esa suv hammomida qizdirish bilan eritiladi. Eritma ikki barobar hajmdagi distillangan suv bilan suyultirilib, ma'lum vaqt tinch goldiriladi. Hosil bo'lgan cho'kmali suyuqlikning ustki qismi cho'kmadan ajratib olinadi.

**32. Mor tuzining 0,01N eritmasi.** 3,92 gr mor tuzi FeSO<sub>4</sub>(NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> · 6H<sub>2</sub>O olib, uni 1 l hajmdagi 0,02N sulfat kislotada eritiladi.

**33. MS-reaktivi.** 0,1 gr karbamid (mochevina)ni (9 ml) 96% li etil spirtida eritib, uning ustiga 1 ml xlorid kislotaning 1N eritmasidan qo'shiladi.

**34. Natriy gidroksidning spirtdagi 0,25N eritmasi.** 5N natriy gidroksid eritmasidan 25 ml olib, 350 ml 96% li etil spirtga aralashtiriladi va uning hajmi distillangan suv bilan 500 ml ga keltirilib, so'ngra eritma filtrlanadi.

**35. Natriy xloridning spirtdagi eritmasi.** 20% li natriy xlorid eritmasidan 50 ml olib, 350 ml 96% li etil spirt bilan aralashtiriladi. So'ngra, uning hajmi distillangan suv bilai 1 l ga yetkaziladi.

**36.  $\alpha$ -naftolning 0,2 li eritmasi.** 0,4 gr  $\alpha$ -naftol olib, uni 50 ml etil spirida eritiladi. Tajriba qitish oldidan undan 5 ml olib, 20 ml distillangan suv bilan suyultiriladi.

**37. Nilaider reaktivi.** 2 gr vismut gidroksinitrat —  $BiOH(NO_3)_2$  va 4 gr segnet tuzidan olib, 100 ml hajmdagi natriy gidroksidning 10% li eritmasida qizdirish yo'li bilan eritilib, kevin filtrlanadi.

**38. Oqsil eritmasi.** 1–2 ta tuxum oqsili olib, 1 l distillangan suvda eritiladi

**39. Oqsilning tuzli eritmasi.** Oqsillarni dializ qilishda va ularni cho'ktirishda oqsilning osh tuzidagi eritmasi ishlataladi. Buning uchun 3 ta tuxum oqsili 700 ml distillangan suvda eritilib, uning ustiga 300 ml natriy xloridning to'yigan eritmasi solinadi. Eritma filtrlanadi.

**40. Orsinli reaktiv.** 1 gr orsin, 500 ml 30% li xlorid kislotada eritilib, uning ustiga 10% li temir (III) xlorid eritmasidan 4–5 ml solinadi. Tayyorlangan eritma og'zi berkitilgan qora rangli shisha idishlarda saqlanadi.

**41. OTS reaktiv.** 0,4 gr salisil kislota 96% li etil spirtning 10 ml da eritilib, uning ustiga 0,5 ml orto-toluidin qo'shiladi.

**42. Rodanbromid reaktiv.** Kolbaga kaly rodanid (KCNS) yoki ammoniy rodanid ( $NH_4CNS$ ) ning 0,1N eritmasidan 10 ml olib, uning ustiga 1 gr KVg kristalidan va 17% li xlorid kislotadan 1 ml solinadi. So'ngra aralashma ustiga 2 ml brom quyiladi.

**43. Selivanov reaktiv.** 0,05 gr rezorsin olib, 20% li xlorid kislotaning 10 ml da eritiladi.

**44. So'lak eritmasi.** Suyultirilgan so'lak eritmasi tayyorlash uchun eng avval, og'iz bo'shlig'i distillangan suv bilan yaxshilab chayib tashlanadi. Og'iz bo'shlig'i ovqat qoldiqlaridan tozalangach, og'izga distillangan suv olib, 1–2 daqiqa tutib turiladi. Keyin esa stakanga solinadi. So'ngra uning hajmi distillangan suv bilan 10 ml ga keltiriladi. So'lak aralashmasi filtrlanadi. Filtrat, amilaza fermenti manbayi sifatiда ishlataladi.

**45. Temir (III) sulfat eritmasi.** Temir (III) sulfat  $Fe_2(SO_4)_3$  dan 50 gr olib, 200 gr (108,7 ml) konsentrangan sulfat kislotada eritiladi. So'ngra uning hajmi distillangan suv bilan 1 l ga yetkaziladi.

**46. Temir (III) sulfatning ammoniyli tuzi eritmasi.** Bu eritmani tayyorlash uchun  $FeNH_4(SO_4)_2 \cdot 12H_2O$  dan 100 g olib, 200 gr konsentrangan sulfat kislotada eritiladi va uning hajmi distillangan suv bilan 1 l ga yetkaziladi.

**47. Tirozin eritmasi.** Tirozindan 0,05 gr olib, 0,1% li soda eritmasining 50 ml da eritiladi. Eritma suv hammomida qizdirilsa, erish tezlashadi.

**48. Feling suyuqligi.** Bu ikki qism eritmadan iborat bo'ladi: a) 200 gr segnet tuzi 500 ml distillangan suvda eritilib, so'ngra uning ustiga 150 gr natriy gidroksid qo'shib, eritma hajmi distillangan suv bilan 1 l ga yetkaziladi; b) 40 gr mis sulfat

tuzi 1 l distillangan suvda eritiladi. Tajribani boshlashdan oldin «a» va «b» eritmalardan teng hajmda olib, aralashtiriladi. Shu tartibda tayyorlangan eritma Feling suyuqligi vazifasini bajaradi.

**49. Folin reaktiv.** 20 gr natriy valfromat ( $Na_2WO_4 \cdot 2H_2O$ ) va 5 gr natriy molibdat olib, 160 ml distillangan suvda eritiladi va 300–500 ml hajmdagi kolbaga solinadi. Aralashmaga 80% li fosfor kislotadan 10 ml va solishtirma massasi 1,19 gr/sm<sup>3</sup> bo‘lgan xlorid kislotadan 20 ml qo‘shib, kolba og‘zi sovutgich o‘rnatalgan tiqin bilan berkitiladi va eritma 10 soat davomida qaynatiladi. Mo‘ljaldagi vaqt tugashi bilan kolbaga 30 gr litiy sulfat tuzidan, 10 ml distillangan suv va 1–2 tomchi brodo suvidan solinadi. Aralashmadagi ortiqcha brom haydaladi. Buning uchun kolba og‘ziga sovutgich qo‘ymasdan aralashma 15 daqiqa qaynatiladi. So‘ngra eritmaning hajmi distillangan suv bilan 200 ml ga yetkazilib filtrlanadi. Eritma tiniq sariq rangda bo‘ladi. Shu usulda tayyorlangan eritma maxsus qora shisha idishlarda yoki ustı qora qog‘oz bilan o‘ralgan idishlarda saqlanadi. Ishlatish oldidan eritma distillangan suv bilan 1:1 nisbatda aralashtiriladi.

**50. Fruktofuranozidaza shirasi.** 50 gr xamirturush olib, chinni hovonchada yaxshilab yanchiladi va 1–2 soat davomida 200–250 ml distillangan suvda bo‘ktirilib, keyin filtrlanadi. Filtrlash jarayoni juda ham sekin ketadi. Shu sababli filtrlashni kechasiga qoldirish ham mumkin. Filtrat ferment sifatida ishlatiladi.

## Indikatorlar eritmalarini tayyorlash

| Indikatorning nomi                | Rang o'zgarishi kuzatiladigan pH intervali | Rangi  | Tayorlash usullari   |
|-----------------------------------|--|--|--|
| Metiloranining 0,1% li eritmasi   | 3,1-4,4                                    | Pushti   | Qizg'ish-sariq<br>0,1 gr indikator 100 ml suvda eritiladi.   |
| Metil-qizilning 0,1% li eritmasi  | 4,4-6,2                                    | Qizil  | Sariq<br>0,1 gr indikator 100 ml etanolda eritiladi.   |
| Lakmusning 0,5% li eritmasi       | 5,0-8,0                                    | Qizil  | Ko'k<br>0,5 gr indikator 100 ml suvda eritiladi.   |
| Fenolfialeinning 0,1% li eritmasi | 8,0-10,0                                   | Rangsiz  | Qizil<br>0,1 gr indikator 100 ml etanolda eritiladi.   |
| Fenol-qizilning 0,1% li eritmasi  | 6,8-8,0                                    | Sariq  | Qizil<br>0,1 gr indikator 100 ml 25% li etanolda eritiladi.  |
| Timolffaleinning 0,5% li eritmasi | 9,3-10,5                                   | Rangsiz  | Ko'k<br>0,5 gr indikator 100 ml etanolda eritiladi.  |
| Universal indikator               | 2,0-10,0                                   | pH ning qiymatiga bog'liq ravishda bir necha tusda bo'ladi | Indikatorlarning spiritdag'i 0,1% li eritmalaridan quyidagi miqdorlarda aralashitiriladi: 15 ml dimetylaminoazobenzol; 20 ml brom timol 'ko'ki; 5 ml metil-qizil; 20 ml fenoflaein; 20 ml timolftalein.    |
| Kraxmal kleysteri                 | -  | -  | Enuychar kraxmaldan 2 g o'lchab olib, 5 ml suv bilan aralashitiriladi, hosil bo'lgan loyqa 0,5 litr quy-noq suwga quyiladi, aralashma 2-3 daqiqa qaynatiladi, so'ngra sovgiach 5 tomchi toluol qo'shiladi. |

## Eng muhim bufer eritmalarini tayyorlash

| Bufer aralashmaning |  | pH  | Unl tayyorlash usuli  |
|---------------------|--|-----|---|
| Nomi                | tarkibi  |     |   |
| Ammoniyli           | $\text{NH}_4\text{OH} + \text{NH}_4\text{Cl}$      | 9,3 | Ammoniy gidroksid va ammoniy xloridning 0,1 M eritmasidan teng hajmda olib aralashtiriladi. |
| Sirka-asetatli      | $\text{CH}_3\text{COOH} + \text{CH}_3\text{COONa}$ | 4,7 | Sirka kislota – natriy asetatning 0,1 M eritmasidan teng hajmda olib aralashtiriladi.       |
| Formiatli           | $\text{HCOOH} + \text{HCOONa}$                     | 3,7 | 2,8 g natriy formiat 100 ml 98% li chumoli kislotada eritiladi.                             |

Suvdag'i 0,1N eritmada ba'zi bir kislota, asos va tuzlarning dissotsiasiyanish darajasi ( $18^{\circ}\text{C}$  da)

| Elektrolit    |  | Dissotsiasiya darajasi |
|---------------|--|------------------------|
| Nomi          | Formulasi                                  |                        |
| 1. Kislotalar |  |                        |
| Nitrat        | $\text{HNO}_3$                             | 92                     |
| Xlorid        | HCl  | 91                     |
| Bromid        | HBr  | 90                     |
| Yodid         | HI   | 90                     |
| Sulfat        | $\text{H}_2\text{SO}_4$                    | 58                     |
| Oksalat       | $\text{H}_4\text{C}_2\text{O}_4$           | 31                     |
| Fosfat        | $\text{H}_3\text{PO}_4$                    | 26                     |
| Sulfit        | $\text{H}_2\text{SO}_3$                    | 20                     |
| Ftorid        | HF   | 15                     |
| Vino          | $\text{H}_2\text{C}_4\text{H}_4\text{O}_3$ | 13                     |
| Sirka         | $\text{CH}_3\text{COOH}$                   | 1,3                    |
| Karbonat      | $\text{H}_2\text{CO}_3$                    | 0,17                   |
| Sulfid        | $\text{H}_2\text{S}$                       | 0,07                   |
| Borat         | $\text{H}_3\text{BO}_3$                    | 0,01                   |

## Ba'zi kuchsiz elektrolitlarning dissotsiasiya konstantasi

| Elektrolit nomi   | Dissosiasiya konstantasi   | 25°C da K ning qiymatları  |
|-------------------|--|--|
| Suv               | $K = \frac{[H^+] \cdot [OH^-]}{[H_2O]}$  | $1,8 \cdot 10^{-10}$   |
| Ammoniy gidroksid | $K = \frac{[NH_4^+] \cdot [OH^-]}{[NH_4OH]}$   | $1,79 \cdot 10^{-5}$   |
| Nitrit kislota    | $K = \frac{[H^+] \cdot [NO_2^-]}{[HNO_2]}$   | $4,0 \cdot 10^{-4}$  |
| Sulfit kislota    | $K_1 = \frac{[H^+] \cdot [HSO_3^-]}{[H_2SO_3]} \quad K_2 = \frac{[H^+] \cdot [SO_3^{2-}]}{[HSO_3^-]}$  | $1,3 \cdot 10^{-2}$<br>$5 \cdot 10^{-6}$                             |
| Sulfid kislota    | $K_1 = \frac{[H^+] \cdot [HS^-]}{[H_2S]} \quad K_2 = \frac{[H^+] \cdot [S^{2-}]}{[HS^-]}$  | $5,7 \cdot 10^{-8}$<br>$1,2 \cdot 10^{-15}$                          |
| Sianid kislota    | $K = \frac{[H^+] \cdot [CN^-]}{[HCN]}$   | $7,2 \cdot 10^{-10}$   |
| Karbonat kislota  | $K_1 = \frac{[H^+] \cdot [HCO_3^-]}{[H_2CO_3]} \quad K_2 = \frac{[H^+] \cdot [CO_3^{2-}]}{[HCO_3^-]}$  | $4 \cdot 31 \cdot 10^{-7}$<br>$5,61 \cdot 10^{-11}$                  |
| Fosfat kislota    | $K_1 = \frac{[H^+] \cdot [H_2PO_4^-]}{[H_3PO_4]} \quad K_2 = \frac{[H^+] \cdot [HPO_4^{2-}]}{[H^2PO_4^-]}$<br>$K_3 = \frac{[H^+] \cdot [PO_4^{3-}]}{[HPO_4^{2-}]}$ | $7,51 \cdot 10^{-3}$<br>$6,23 \cdot 10^{-8}$<br>$2,2 \cdot 10^{-13}$ |
| Vino kislota      | $K_1 = \frac{[H^+] \cdot [HC_4H_4O_6^-]}{[H_2C_4H_4O_6]} \quad K_2 = \frac{[H^+] \cdot [C_4H_4O_6^{2-}]}{[HC_4H_4O_6^-]}$  | $1,04 \cdot 10^{-3}$<br>$4,55 \cdot 10^{-5}$                         |
| Chumoli kislota   | $K = \frac{[H^+] \cdot [HCOO^-]}{[HCOOH]}$   | $1,77 \cdot 10^{-4}$   |
| Sirka kislota     | $K = \frac{[H^+] \cdot [CH_3COO^-]}{[CH_3COOH]}$   | $1,86 \cdot 10^{-5}$   |
| Oksalat kislota   | $K_1 = \frac{[H^+] \cdot [HC_2O_4^-]}{[H_2C_2O_4]} \quad K_2 = \frac{[H^+] \cdot [C_2O_4^{2-}]}{[HC_2O_4^-]}$  | $5,9 \cdot 10^{-2}$  |

**Qattiq moddalarning turli temperaturalarda suvda eruvchanligi  
(suvsiz moddaning 100 gr suvda grammalar hisobidagi eruvchanligi berilgan)**

| T/ n | Tuzlarning formulasi        | 0°                  | 10°                 | 20°                 | 30°                 | 40°   | 50°                  | 60°   | 70°   | 80°   | 90°   | 100°                |
|------|-----------------------------|---------------------|---------------------|---------------------|---------------------|-------|----------------------|-------|-------|-------|-------|---------------------|
| 1    | 2                           | 3                   | 4                   | 5                   | 6                   | 7     | 8                    | 9     | 10    | 11    | 12    | 13                  |
| 1    | $Al(NO_3)_3 \cdot 9H_2O$    | —                   | 73                  | —                   | 89                  | —     | 120                  | 108   | —     | —     | —     | —                   |
| 2    | $Al_2(SO_4)_3 \cdot 18H_2O$ | 31,2                | 33,5                | 36,3                | 40,4                | 45,6  | 52,2                 | 58    | 66,2  | 73    | 86,8  | 89                  |
| 3    | $AlCl_3 \cdot 6H_2O$        | 44,9                | —                   | 45,6                | —                   | 46,3  | —                    | 47,0  | —     | 47,7  | —     | 49                  |
| 4    | $NH_4NO_3$                  | 118                 | —                   | 192                 | 241,8               | 297   | 314                  | 421   | 499   | 580   | 740   | 835                 |
| 5    | $(NH_4)_2SO_4$              | 70,4                | 72,7                | 75,4                | 78,1                | 81,2  | 84,3                 | 87,4  | 90,5  | 94,1  | —     | 102                 |
| 6    | $NH_4Cl$                    | 29,7                | 33,5                | 37,4                | 41,4                | 46    | 50,4                 | 55,3  | 60,2  | 65,6  | 71,3  | 77,3                |
| 7    | $Ba(NO_3)_2$                | 4,95                | 7,0                 | 9,03                | 11,6                | 14,4  | 17,1                 | 20,3  | 23,6  | 27,2  | 30,6  | 34,2                |
| 8    | $Ba(OH)_2 \cdot 8H_2O$      | 1,67                | 2,48                | 3,89                | 5,59                | 8,22  | 13,12                | 20,94 | 35,6  | 101,6 | —     | —                   |
| 9    | $BaCO_4$                    | $1,7 \cdot 10^{-1}$ | $2 \cdot 10^{-1}$   | $2,3 \cdot 10^{-1}$ | —                   | —     | $3,36 \cdot 10^{-1}$ | —     | —     | —     | —     | $3,9 \cdot 10^{-1}$ |
| 10   | $BaCO_3$                    | —                   | $1,6 \cdot 10^{-1}$ | $2,2 \cdot 10^{-1}$ | $2,4 \cdot 10^{-1}$ | —     | —                    | —     | —     | —     | —     | —                   |
| 11   | $BaCl_2 \cdot 2H_2O$        | 31,6                | 33,3                | 35,7                | 38,2                | 40,8  | 43,6                 | 46,4  | 49,4  | 52,5  | —     | 58,7                |
| 12   | $Fe(NO_3)_3 \cdot 6H_2O$    | 78,3                | —                   | 83,03               | —                   | —     | —                    | 166,6 | —     | —     | —     | —                   |
| 13   | $FeSO_4 \cdot 7H_2O$        | 15,65               | 20,5                | 26,6                | 33,0                | 40,3  | 48,6                 | —     | —     | —     | —     | —                   |
| 14   | $FeSO_4 \cdot H_2O$         | —                   | —                   | —                   | —                   | —     | —                    | —     | 50,9  | 53,6  | 57,3  | 61,6                |
| 15   | $FeCl_2 \cdot 4H_2O$        | —                   | —                   | 62,6                | —                   | 68,6  | —                    | 78,3  | —     | —     | —     | —                   |
| 16   | $FeCl_3 \cdot 6H_2O$        | 74,5                | 81,8                | 91,9                | 106,6               | —     | —                    | —     | —     | —     | —     | —                   |
| 17   | $FeCl_3 \cdot 2H_2O$        | —                   | —                   | —                   | —                   | —     | 315                  | —     | —     | —     | —     | —                   |
| 18   | $I_2$                       | 0,01                | 0,02                | 0,028               | 0,038               | 0,052 | 0,071                | 0,10  | —     | 0,22  | —     | 0,45                |
| 19   | $KNO_3$                     | 278,8               | —                   | 298,4               | —                   | 334,8 | —                    | —     | —     | —     | —     | 412,9               |
| 20   | $KOH \cdot 2H_2O$           | 95,3                | 103                 | 111,4               | 126                 | —     | —                    | —     | —     | —     | —     | —                   |
| 21   | $KMnO_4$                    | 2,88                | 4,4                 | 6,4                 | 9,0                 | 12,56 | 16,89                | 22,2  | —     | —     | —     | —                   |
| 22   | $K_2SO_4$                   | 7,33                | 9,2                 | 11,15               | 12,91               | 14,79 | 16,5                 | 18,2  | 19,75 | 21,29 | 22,4  | 24,1                |
| 23   | $K_2CO_3 \cdot 1,5H_2O$     | 107,3               | 109                 | 111,5               | 114                 | 117   | 121,3                | 127   | 133,5 | 140   | 147,5 | 156                 |
| 24   | $KCl$                       | 27,2                | 31                  | 34                  | 37                  | 40    | 42,6                 | 45,5  | 48,1  | 51,1  | 54,0  | 56,7                |
| 25   | $KClO_3$                    | 3,3                 | 5,0                 | 7,3                 | 10,5                | 14,5  | 19,3                 | 25,9  | 32,5  | 39,7  | 47,7  | 56,2                |
| 26   | $K_2Cr_2O_7$                | 59,0                | —                   | 63,0                | —                   | 67,0  | —                    | 70,9  | —     | 75,1  | —     | 79,2                |
| 27   | $K_2CrO_4$                  | 4,68                | 7,75                | 12,3                | 18,2                | 29,2  | 37,0                 | 45,6  | 61,5  | 73,0  | —     | 103                 |
| 28   | $KI$                        | 127,8               | 136                 | 144,5               | 152                 | 161,0 | 168                  | 176,2 | 184   | 191,5 | 200   | 208                 |

|    |                           |       |                   |       |        |       |       |       |       |       |       |                         |
|----|---------------------------|-------|-------------------|-------|--------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------------------------|
| 29 | $Ca(NO_3)_2 \cdot 4H_2O$  | 101   | 115,3             | 127   | 152,6  | 196   | -     | -     | -     | -     | -     | -                       |
| 30 | $Ca(OH)_2$                | 0,185 | 0,176             | 0,165 | 0,153  | 0,141 | 0,128 | 0,116 | 0,106 | 0,094 | 0,085 | 0,077                   |
| 31 | $CaSO_4 \cdot 2H_2O$      | 0,176 | 0,192             | 0,203 | 0,210  | 0,212 | -     | 0,200 | -     | -     | -     | 0,067                   |
| 32 | $CaCO_3$                  | -     | $1 \cdot 10^{-3}$ | -     | -      | -     | -     | -     | -     | -     | -     | -                       |
| 33 | $Ca(HCO_3)_2$             | -     | 0,02              | -     | 0,0035 | -     |       |       |       |       |       | Issiq suvdaparchalanadi |
| 34 | $CaHPO_4 \cdot 2H_2O$     | -     | -                 | -     | -      | 0,038 | -     | 0,105 | -     | -     | -     | -                       |
| 35 | $CaCl_2 \cdot 6H_2O$      | 59,5  | 65,0              | 74,5  | --     | -     | -     | -     | -     | -     | -     | -                       |
| 36 | $CaCl_2 \cdot 2H_2O$      | -     | -                 | -     | 102    | -     | -     | -     | -     | -     | -     | -                       |
| 37 | $Mg(NO_3)_2 \cdot 6H_2O$  | 62,4  | -                 | 70,1  | 74,8   | 78,9  | 84,5  | 91,2  | -     | 106,2 | 138,1 | -                       |
| 38 | $MgSO_4 \cdot 7H_2O$      | -     | 30,5              | 33,7  | 38,9   | 44,5  | -     | -     | -     | -     | -     | -                       |
| 39 | $MgCO_3 \cdot 3H_2O$      | -     | -                 | 0,151 | -      | -     | -     | -     |       |       |       | Issiq suvdaparchalanadi |
| 40 | $(MgOH)_2CO_3$            | -     | -                 | 0,04  | -      | -     | -     | -     | 0,011 |       |       | Issiq suvdaparchalanadi |
| 41 | $MgCl_2 \cdot 6H_2O$      | 52,8  | 53,5              | 54,25 | 55,3   | 57,5  | 58,7  | 60,7  | -     | 65,87 | -     | 72,7                    |
| 42 | $Cu(NO_3)_2 \cdot 6H_2O$  | 81,8  | 100,0             | 125,3 | 156,3  | 163,1 | -     | -     | -     | -     | -     | -                       |
| 43 | $Cu(NO_3)_2 \cdot 3H_2O$  | -     | -                 | -     | -      | 29,0  | 171,8 | 181,8 | 194,1 | 207,8 | 222   | 247,6                   |
| 44 | $CuSO_4 \cdot 5H_2O$      | 14,8  | 17,4              | 20,9  | 25,0   | -     | 33,3  | 39,1  | 47,1  | 55,0  | -     | 73,6                    |
| 45 | $Cu(ClO_4)_2 \cdot 2H_2O$ | 70,6  | -                 | 72,7  | 77,3   | -     | 88    | -     | -     | -     | -     | -                       |
| 46 | $NaNO_3$                  | 73,3  | 80                | 88,0  | 96     | 104,9 | 114   | 124,7 | -     | 148,0 | -     | 176                     |
| 47 | $NaOH \cdot 4H_2O$        | 43,2  | -                 | -     | -      | -     | -     | -     | -     | -     | -     | -                       |
| 48 | $NaOH \cdot 3,5H_2O$      | -     | 51,0              | -     | -      | -     | -     | -     | -     | -     | -     | -                       |
| 49 | $NaOH \cdot H_2O$         | -     | -                 | 107   | 115    | 126   | 145   | 178   | -     | -     | -     | -                       |
| 50 | $NaOH$                    | -     | -                 | --    | -      | -     | -     | -     | 299   | 313,7 | -     | 341                     |
| 51 | $Na_2S_2O_3 \cdot 5H_2O$  | 52,5  | 61,0              | 70,0  | 84,7   | 102,6 | 169,7 | 206,7 | -     | 248,8 | 254,2 | 266                     |
| 52 | $Na_2SO_4 \cdot 10H_2O$   | 5,0   | 9,0               | 19,4  | 40,8   | -     | -     | -     | -     | -     | -     | -                       |
| 53 | $Na_2SO_4 \cdot 7H_2O$    | 19,5  | 30                | 44    | -      | -     | -     | -     | -     | -     | -     | -                       |
| 54 | $Na_2SO_4$                | -     | -                 | -     | 50,4   | 48,8  | 46,7  | 45,3  | 44,1  | 43,7  | 42,9  | 42,5                    |
| 55 | $Na_2CO_3 \cdot 10H_2O$   | 6,86  | 11,98             | 21,58 | 39,7   | -     | -     | -     | -     | -     | -     | -                       |
| 56 | $Na_2CO_3 \cdot H_2O$     | -     | -                 | -     | -      | 48,9  | 47,4  | 46,2  | 45,2  | 44,5  | 44,5  | 44,5                    |
| 57 | $Na_2CO_3$                | 6,89  | 8,20              | 9,57  | 11,09  | 12,7  | 14,45 | 16,4  | -     | 19,7  | -     | 23,6                    |
| 58 | $CH_3COONa \cdot 3H_2O$   | 36,3  | 40,8              | 46,5  | 54,5   | 65,5  | 83,0  | 139,0 | -     | -     | -     | -                       |
| 59 | $CH_3COONa$               |       |                   |       |        | 126   | 129,5 | 134   | 139,5 | 146,0 | 153,0 | 161,0                   |
|    |                           |       |                   |       |        |       |       |       |       |       |       | 170,0                   |

**Ayrim tuzlarning 0,1 M eritmalaridagi gidrolizlanish darajasi  
va pH ning qiymati (temperatura 18–25°C)**

| <b>Gidrolizlanuvchi<br/>tuz formulasi</b>       | <b>Gidroliz paytida hosil<br/>bo‘ladigan elektrolit</b> |   | <b>Gidroliz<br/>darajasi, %</b> | <b>Eritmaning<br/>pH qiymati</b> |
|---|---|---|---------------------------------|----------------------------------|
|   | <b>Formulasi</b>  | <b>Dissosialanish<br/>Konstantasi</b>         |                                 |                                  |
| CH <sub>3</sub> COONa                           | CH <sub>3</sub> COOH                                    | 1,8·10 <sup>-5</sup>                          | 0,007                           | 8,8                              |
| NH <sub>4</sub> Cl                              | NH <sub>4</sub> OH                                      | 1,8·10 <sup>-5</sup>                          | 0,007                           | 5,2                              |
| KCN   | HCN   | 7·10 <sup>-10</sup>                           | 1,2                             | 11,1                             |
| NH <sub>4</sub> CN                              | HCN va<br>NH <sub>4</sub> OH                            | 7·10 <sup>-10</sup> va 1,8·10 <sup>-5</sup>   | 46,8                            | 9,2                              |
| Na <sub>2</sub> SO <sub>3</sub>                 | HSO <sub>3</sub> <sup>-</sup>                           | 5·10 <sup>-6</sup>                            | 0,014                           | 9,2                              |
| NaHSO <sub>3</sub>                              | H <sub>2</sub> SO <sub>3</sub>                          | 1,3·10 <sup>-2</sup>                          | 0,0003                          | 3,6                              |
| Na <sub>2</sub> CO <sub>3</sub>                 | HCO <sub>3</sub> <sup>-</sup>                           | 5,6·10 <sup>-11</sup>                         | 4,2                             | 11,6                             |
| NaHCO <sub>3</sub>                              | H <sub>2</sub> CO <sub>3</sub>                          | 4,3·10 <sup>-7</sup>                          | 0,05                            | 8,3                              |
| (NH <sub>4</sub> ) <sub>2</sub> CO <sub>3</sub> | HCO <sub>3</sub> <sup>-</sup> va<br>NH <sub>4</sub> OH  | 5,6·10 <sup>-11</sup> va 1,8·10 <sup>-5</sup> | 86,0                            | 9,13                             |
| CH <sub>3</sub> COONH <sub>4</sub>              | CH <sub>3</sub> COOH<br>va NH <sub>4</sub> OH           | 1,8·10 <sup>-5</sup> va 1,8·10 <sup>-5</sup>  | 0,6                             | 7,0                              |
| Na <sub>3</sub> PO <sub>4</sub>                 | HPO <sub>4</sub> <sup>2-</sup>                          | 2,2·10 <sup>-13</sup>                         | 48,4                            | 12,8                             |
| Na <sub>2</sub> HPO <sub>4</sub>                | H <sub>2</sub> PO <sub>4</sub> <sup>-</sup>             | 6,2·10 <sup>-8</sup>                          | 0,13                            | 9,9                              |
| NaH <sub>2</sub> PO <sub>4</sub>                | H <sub>3</sub> PO <sub>4</sub>                          | 7,5·10 <sup>-3</sup>                          | 0,004                           | 4,6                              |
| Na <sub>2</sub> S                               | HS <sup>-</sup>   | 1,2·10 <sup>-15</sup>                         | 98,0                            | 13,0                             |
| NaHS  | H <sub>2</sub> S  | 5,7·10 <sup>-8</sup>                          | 0,13                            | 11,0                             |
| (NH <sub>4</sub> ) <sub>2</sub> S               | HS <sup>-</sup> va<br>NH <sub>4</sub> OH                | 1,2·10 <sup>-15</sup> va 1,8·10 <sup>-5</sup> | 100,0                           | 9,25                             |
| NH <sub>4</sub> HS                              | H <sub>2</sub> S va<br>NH <sub>4</sub> OH               | 5,7·10 <sup>-8</sup> va 1,8·10 <sup>-5</sup>  | 9,9                             | 8,3                              |
| NaClO   | HClO  | 3·10 <sup>-8</sup>                            | 0,18                            | 10,3                             |

D.I.Mendeleyevning kimyoviy elementlar davriy sistemasi

## KISLOTA, ASOS VA TUZLARNING SUVDÄ ERUVCHANLIGI

|            |  | Sıdä                             |  |  |  |  |  |  |   |  |  |  |  |  |  |
|------------|--|----------------------------------|--|--|--|--|--|--|---|--|--|--|--|--|--|
|            |  | CH <sub>3</sub> COO <sup>-</sup> |  |  |  |  |  |  | HCO <sub>3</sub> <sup>-</sup>               |  |  |  |  |  |  |
|            |  | CO <sub>3</sub> <sup>2-</sup>    |  |  |  |  |  |  | H <sub>2</sub> PO <sub>4</sub> <sup>-</sup> |  |  |  |  |  |  |
|            |  | HPO <sub>4</sub> <sup>2-</sup>   |  |  |  |  |  |  | PO <sub>4</sub> <sup>3-</sup>               |  |  |  |  |  |  |
|            |  | NO <sub>3</sub> <sup>-</sup>     |  |  |  |  |  |  | HSO <sub>4</sub> <sup>-</sup>               |  |  |  |  |  |  |
|            |  | SO <sub>4</sub> <sup>2-</sup>    |  |  |  |  |  |  | HSO <sub>4</sub> <sup>-</sup>               |  |  |  |  |  |  |
|            |  | SO <sub>3</sub> <sup>2-</sup>    |  |  |  |  |  |  | HSO <sub>3</sub> <sup>-</sup>               |  |  |  |  |  |  |
|            |  | HS                               |  |  |  |  |  |  | HS  |  |  |  |  |  |  |
|            |  | S <sup>2-</sup>                  |  |  |  |  |  |  | S <sup>2-</sup>                             |  |  |  |  |  |  |
|            |  | Br <sup>-</sup>                  |  |  |  |  |  |  | Br <sup>-</sup>                             |  |  |  |  |  |  |
|            |  | Cl <sup>-</sup>                  |  |  |  |  |  |  | Cl <sup>-</sup>                             |  |  |  |  |  |  |
|            |  | OH <sup>-</sup>                  |  |  |  |  |  |  | OH <sup>-</sup>                             |  |  |  |  |  |  |
| Katalitler |  | H <sup>+</sup>                   |  |  |  |  |  |  | H <sup>+</sup>                              |  |  |  |  |  |  |
| Anorolar   |  | Li <sup>+</sup>                  |  |  |  |  |  |  | Li <sup>+</sup>                             |  |  |  |  |  |  |
|            |  | K <sup>+</sup>                   |  |  |  |  |  |  | K <sup>+</sup>                              |  |  |  |  |  |  |
|            |  | Na <sup>+</sup>                  |  |  |  |  |  |  | Na <sup>+</sup>                             |  |  |  |  |  |  |
|            |  | NH <sub>4</sub> <sup>+</sup>     |  |  |  |  |  |  | NH <sub>4</sub> <sup>+</sup>                |  |  |  |  |  |  |
|            |  | Ba <sup>2+</sup>                 |  |  |  |  |  |  | Ba <sup>2+</sup>                            |  |  |  |  |  |  |
|            |  | Ca <sup>2+</sup>                 |  |  |  |  |  |  | Ca <sup>2+</sup>                            |  |  |  |  |  |  |
|            |  | Mg <sup>2+</sup>                 |  |  |  |  |  |  | Mg <sup>2+</sup>                            |  |  |  |  |  |  |
|            |  | Sr <sup>2+</sup>                 |  |  |  |  |  |  | Sr <sup>2+</sup>                            |  |  |  |  |  |  |
|            |  | Al <sup>3+</sup>                 |  |  |  |  |  |  | Al <sup>3+</sup>                            |  |  |  |  |  |  |
|            |  | Cr <sup>3+</sup>                 |  |  |  |  |  |  | Cr <sup>3+</sup>                            |  |  |  |  |  |  |
|            |  | Fe <sup>2+</sup>                 |  |  |  |  |  |  | Fe <sup>2+</sup>                            |  |  |  |  |  |  |
|            |  | Fe <sup>3+</sup>                 |  |  |  |  |  |  | Fe <sup>3+</sup>                            |  |  |  |  |  |  |
|            |  | Ni <sup>2+</sup>                 |  |  |  |  |  |  | Ni <sup>2+</sup>                            |  |  |  |  |  |  |
|            |  | Co <sup>2+</sup>                 |  |  |  |  |  |  | Co <sup>2+</sup>                            |  |  |  |  |  |  |
|            |  | Mn <sup>2+</sup>                 |  |  |  |  |  |  | Mn <sup>2+</sup>                            |  |  |  |  |  |  |
|            |  | Zn <sup>2+</sup>                 |  |  |  |  |  |  | Zn <sup>2+</sup>                            |  |  |  |  |  |  |
|            |  | Ag <sup>+</sup>                  |  |  |  |  |  |  | Ag <sup>+</sup>                             |  |  |  |  |  |  |
|            |  | Hg <sup>2+</sup>                 |  |  |  |  |  |  | Hg <sup>2+</sup>                            |  |  |  |  |  |  |
|            |  | Pb <sup>2+</sup>                 |  |  |  |  |  |  | Pb <sup>2+</sup>                            |  |  |  |  |  |  |
|            |  | Sn <sup>2+</sup>                 |  |  |  |  |  |  | Sn <sup>2+</sup>                            |  |  |  |  |  |  |
|            |  | Cu <sup>2+</sup>                 |  |  |  |  |  |  | Cu <sup>2+</sup>                            |  |  |  |  |  |  |

«E» – eriydi (100 gr suvda 1 gr modda), «H» – erimaydi (100 gr suvda), «?» – suvli eritmada parchalanadi, «Q<sub>0</sub>» – oz eriydi (100 gr suvda 0,1 gr dan 1 gr gacha), «<sup>2</sup>» – birknalarning mayjudligi haqidagi aniq ma'lumotlar yoki q

→ qaytaruvchilik xossasining kamayib borishi →

→ elektromanfiylikning ortib borishi →

Metallarning elektrokimyoiy kuchlanishlar qatori:  
Li, K, Ba, Ca, Na, Mg, Al, Mn, Zn, Cr, Fe, Co, Ni,  
Sn, Pb, H, Cu, Hg, Ag, Pt, Au

Metallmaslarning elektromanfiylik qatori:  
Si, As, H, P, Se, I, C, S, Br, Cl, N, O, F

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Karimov I.A.* — O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — T.: «O'zbekiston» NMIU, 1997.
2. *Saidnosirova Z.* Anorganik kimyo. — T.: «O'qituvchi», 1984.
3. *Xasanov M.M., Sattiqulov A.S.* Organik kimyo. — T.: «O'zbekiston» NMIU, 1997.
4. *Glinka N.L.* Umumiy ximiya. — T.: «O'qituvchi», 1986.
5. *Ziyayev R., G'iyosov Q.* Anorganik kimyodan amaliy-laboratoriya mashg'ulotlar. Tosh. DAU. 2003.
6. *Abdusamatov A., Ziyayev R., Obidov U., Uralov A.* Organik kimyodan amaliy mashg'ulolar. «O'zbekiston» NMIU, — T.: 1996.
7. *Abdusamatov A. va b.* Fizik va kolloid kimyo. — T.: «O'qituvchi», 1992.
8. *Knyazev D.A., Smaragdin S.N.* Neorganicheskaya ximiya. — M.: 1990.
9. *Parpiev N.A., Raximov X.R., Muftaxov A.G.* Anorganik kimyoning nazariy asoslari. — T.: 2000.
10. *Irgasheva G.A., Sirliboev T.S.* Anorganik kimyodan laboratoriya va mustaqil ish mashg'ulotlari. — T.: 2001.
11. *Rustamov X.R.* Umumiy ximiya. — T.: «O'qituvchi», 1996.
12. *Maqsudov N.X.* Umumiy ximiya. — T.: «O'qituvchi», 1977.
13. *Nazarov Sh.N., Aminov Z.A.* Analitik ximiya. — T.: «O'qituvchi», 1989.
14. *Tog'ayev Q.T., Tog'ayeva F.F., Mamadiyarova X., Aminov Z.* Analitik va fizik-kolloid ximiyadan laboratoriya amaliy mashg'ulotlar. Samarqand, 1997.
15. *Pirmuhammedov I.* Organik ximiya. «Meditina», — T.: 1989.
16. *Pavlov B.A., Terentev L.P.* Organik ximiya kursi. «O'qituvchi», — T.: 1979.
17. *Tatarenko A.N., Primuhammedov I. M.* Organik ximiyadan praktikum. «Meditina», — T.: 1984.
18. *Shoymardonov R. va b.* Organik ximiyadan praktikum, «O'qituvchi», — T.: 1982.
19. *Ibrohimov Yu.I.* Umumiy va anorganik ximiyadan praktikum. — T.: «O'qituvchi», 1985.

20. *To'xtashev X., Ismoilov A.* Anorganik ximiyadan laboratoriya ishlari, – T.: «O'qituvchi», 1984.
21. *Rahimov H.R.* Anorganik kimyo. – T.: «O'qituvchi», 1994.
22. *Xomchenko G.P., Tsutovich I.K.* Неорганическая химия. – M.: ВШ, 1987.
23. *N.A. Tyukavkina, Baukov Yu.I.* Bioorganik kimyo. – M.: «Meditina», 1985.
24. *Nazarov Sh.* Fizika va kolloid kimyo. – T.: «O'qituvchi», 1994.
25. *Boldirev A.I.* Физическая и коллоидная химия. – M.: В.ИИ, 1984.
26. *Qosimov A. va b.* Bioximiya. – T.: O'qituvchi, 1988.
27. *Qosimov A.Q., Qo'chgorov Q.Q., Muborakova D.X.* Bioximiyadan amaliy mashg'ulotlar. – T.: «O'qituvchi», 1987.
28. *Xasanov M.M.* Hayvonlar biokimyosi. – T.: «Mehnat», 1992.
29. *Sultonov R.F., Xolmuhamedova N.M.* Biokimyodan amaliy mashg'ulotlar. – T.: «Abu Ali ibn Sino». 1995.
30. *Hasanov M.* Hayvonlar bioximiyasi hamda fizik va kolloid ximiya asoslaridan amaliy mashg'ulotlar. «Mehnat», 1992.

#### **Xorijiy adabiyotlar:**

1. James Holler F., Stanley R. Crouch. «Fundamentals of Analytical chemistry 9E» 2013.
2. David Van Vranken and Gregory Weiss. «Introduction to Bioorganic Chemistry and Chemical Biology». 2013.

|             |   |
|-------------|---|
| Kirish..... | 3 |
|-------------|---|

## I. ANALITIK KIMYODAN LABORATORIYA ISHLARI

|  |    |
|--|----|
| ◆ Laboratotiya ishi № 1.1  |    |
| Kimyo laboratoriyalarda ishlash xavfsizligi qoidalari bilan tanishish.....                                       | 4  |
| ◆ Laboratoriya ishi № 1.2  |    |
| Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalar.....   | 10 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 1.3  |    |
| Eritmalar va ular konsentratsiyasini ifodalash usullari.....   | 16 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 1.4  |    |
| Analitik kimyo predmeti va analitik reaksiyalar.....   | 22 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 1.5  |    |
| Kationlarning analitik guruhlarga bo'linishi.  |    |
| I guruh kationlarining sifat reaksiyaları.....   | 27 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 1.6  |    |
| Kationlarning II analitik guruhiga umumiy xarakteristika<br>va ularning sifat reaksiyaları.....                  | 33 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 1.7  |    |
| Kationlarning III analitik guruhi va ularning sifat reaksiyaları.....  | 37 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 1.8  |    |
| IV guruh kationlari va ularning sifat reaksiyaları.....  | 45 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 1.9  |    |
| V guruh kationlari va ularning sifat reaksiyaları.....   | 51 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 1.10   |    |
| Anionlar klassifikatsiyasi.....  | 56 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 1.11   |    |
| II analitik guruh anionlari $\text{Cl}^-$ , $\text{Br}^-$ , $\text{I}^-$ , $\text{S}^{2-}$ ga umumiy tasnif..... | 64 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 1.12   |    |
| III analitik guruh anionlari $\text{NO}_3^-$ , $\text{CH}_3\text{COO}^-$ , $\text{NO}_2^-$ ga umumiy tasnif..... | 70 |
| ◆ Laboratoriya ishi 1.13   |    |
| Miqdoriy tahlil usullari va vazifasi.....  | 76 |

## II. FIZIKAVIY VA KOLLOID KIMYODAN LABORATORIYA ISHLARI

|  |     |
|--|-----|
| ◆ Laboratoriya ishi № 2.1                            |     |
| Diffuziya va osmos hodisasi.....                     | 99  |
| ◆ Laboratoriya ishi № 2.2                            |     |
| Tuzlarning erish issiqligini aniqlash.....           | 102 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 2.3                            |     |
| Vodorod ionlarining konsentratsiyasini aniqlash..... | 105 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 2.4                            |     |
| Bufer sistemalar.....                                | 112 |

|   |     |
|---|-----|
| ◆ Laboratoriya ishi № 2.5   |     |
| Kimyoviy reaksiya tezligiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish.....   | 118 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 2.6   |     |
| Adsorbsiya.....   | 122 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 2.7   |     |
| Kolloid eritmalarining olinishi, mitsellaning tuzilishi.....          | 128 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 2.8   |     |
| Kolloid sistemalarining elektr xususiyatlari.....                     | 131 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 2.9   |     |
| Kolloid eritmalarining xossalari, koagulyasiyasi va himoyalanishi.... | 133 |
| ◆ Laboratoriya № 2.10   |     |
| Gellar va iviqlarda sodir bo'ladigan kimyoviy reaksiyalar.....        | 137 |

### **III. BIOORGANIK KIMYODAN LABORATORIYA ISHLARI**

|  |     |
|--|-----|
| ◆ Laboratotiya ishi № 3.1                            |     |
| Bir asosli karbon kislotalar.....                    | 139 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 3.2                            |     |
| Murakkab efirlar. Yog'lar.....                       | 141 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 3.3                            |     |
| Oksikislotalarning xossalari.....                    | 142 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 3.4                            |     |
| Monosaxaridlarning xossalari.....                    | 144 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 3.5                            |     |
| Di- va polisaxaridlar xossalari.....                 | 148 |
| ◆ Laboratoriya № 3.6                                 |     |
| Azot saqlovchi organik birikmalar. Aminlar.....      | 152 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 3.7                            |     |
| Kislota amidlari.....                                | 153 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 3.8                            |     |
| Aminokislotalar va oqsillarga xos reaksiyalar.....   | 155 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 3.9                            |     |
| Ikki asosli karbon kislotalar.....                   | 158 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 3.10                           |     |
| Aromatik karbon kislotalar.....                      | 160 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 3.11                           |     |
| Terpenlar.....                                       | 162 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 3.12                           |     |
| Optik faollik va uni o'lchashga doir tajribalar..... | 164 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 3.13                           |     |
| Geterosiklik birikmalar.....                         | 167 |

### **IV. BIOLOGIK KIMYODAN LABORATORIYA ISHLARI**

|  |     |
|--|-----|
| ◆ Laboratoriya ishi № 4.1                              |     |
| Ayrim yog'da eruvchi vitaminlarga xos reaksiyalar..... | 170 |

|   |     |
|---|-----|
| ◆ Laboratoriya ishi № 4.2   |     |
| Ayrim suvda eruvchi vitaminlarga xos reaksiyalar.....                                     | 176 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 4.3   |     |
| Fermentlarning xossalari. Fermentlarning o‘ziga xosligi.....                              | 180 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 4.4   |     |
| Fermentlar faoliyatiga harorat, muhit, pH ning ta’siri.....                               | 183 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 4.5   |     |
| Fermentlarning aktivatorlari va paralizatorlari.....                                      | 185 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 4.6   |     |
| Gormonlar.....  | 187 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 4.7   |     |
| Insulin gormoniga xos sifat reaksiyalari.....   | 191 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 4.8   |     |
| Uglevodlar va ularning almashinuvi.   |     |
| Monosaxaridlarga xos sifat reaksiyalari.....  | 193 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 4.9   |     |
| Uglevodlar va ularning almashinuvi.   |     |
| Disaxaridlar va ularga xos sifatiy reaksiyalari.....                                      | 200 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 4.10  |     |
| Uglevodlar va ularning almashinuvi.   |     |
| Polisaxaridlalar va ularga xos tajribalar.....  | 206 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 4.11  |     |
| Lipidlar va ularning almashinuvi.   |     |
| Yog‘larning soyunlanish sonini aniqlash.....  | 211 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 4.12  |     |
| Aminokislotalar, oqsillar va ularning almashinuvi.  |     |
| Aminokislotalar, peptidlar va oqsillarga xos sifat reaksiyalari.....                      | 222 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 4.13  |     |
| Oqsillarni cho‘ktirish reaksiyalari.....  | 239 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 4.14  |     |
| Qon zardobi tarkibidagi umumiy oqsil miqdorini biuret<br>reaksiyasi asosida aniqlash..... | 242 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 4.15  |     |
| Nukleoproteidlar va ularning almashinuvi.....   | 245 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 4.16  |     |
| Qon biokimyosi.....   | 252 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 4.17  |     |
| Qon zardobi tarkibidagi kalsiyni miqdoriy aniqlash.....                                   | 257 |
| ◆ Laboratoriya ishi № 4.18  |     |
| Buyrak va siyidik biokimyosi.....   | 259 |
| Kimyo fani bo‘yicha talabalar mustaqil ta’limi uchun<br>mavzular variantlari.....         | 267 |
| Sifat analizida qo‘llaniladigan muhim reaktivlar eritmasini tayyorlash.....               | 277 |
| Foydalaniłgan adabiyotlar.....  | 295 |

**Zayir AMINOV,  
Saodat Anarkulovna MUSAYEVA,  
Xolida MAMADIYAROVA,  
Guzal Rustamovna XODJAYAROVA**

## **Analitik, fizkolloid va biologik kimyodan laboratoriya mashg‘ulotlari**

*O‘quv qo‘llanma*

***Muharrir Dildora Abduraimova  
Badiiy muharrir Maftuna Vaxxobova  
Texnik muharrir Yelena Tolochko  
Musahhih Dildora Abduraimova  
Sahifalovchi Gulchehra Azizova***

Litsenziya raqami AI № 163. 09.11.2009. Bosishga 2018-yil 15-sentyabrda  
ruxsat etildi. Bichimi 60×84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Ofset qog‘ozи. Tayms TAD garniturasi.  
Shartli bosma tabog‘i 17,44. Nashr tabog‘i 16,64. Shartnoma № 93—2018.  
Adadi 300 nusxada. Buyurtma № 44.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho‘lpon nomidagi  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi tezkor matbaa bo‘limida chop etildi. 100011,  
Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.  
Telefon: (371) 244-10-45. Faks: (371) 244-58-55.



*Cho'Ipon nomidagi  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi*

ISBN 978-9943-5379-6-5

9 789943 537965